

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
A.Navoiy nomidagi Samarqand Davlat Universiteti**

**«Tasdiqlayman»
O`quv ishlari bo'yicha prorektor
_____prof. N.E.Eshqobilov
«____»_____2012 y.**

IJTIMOIIY-IQTISODIYOT FAKULTETI

**«IJTIMOIIY ISH» KAFEDRASI
«UMUMIY SOTSIOLOGOYA » FANIDAN**

MA'RUZA MATNI

4 kurs kunduzgi bo`lim

Ishchi dastur «Ijtimoiy ish» kafedrası yig`ilishining «____» avgust 2012 yil
№«____» majlis qarori bilan tasdiqlangan.

Tuzuvchi:

ass. M. Tangirova

Kafedra mudiri:

dots. L.Jo'raev

Ijtimoiy-iqtisodiyot fakulteti Uslubiy Kengashining 2012 yil «____» avgustdagi
№«____» qarori bilan tasdiqlandi.

Uslubiy kengash raisi:

dots. L.N.Jurayev

Ijtimoiy-iqtisodiyot fakulteti Ilmiy Kengashining 2012 yil «____» avgustdagi
№«____» majlis qarori bilan tasdiqlandi.

Fakul'tet dekani:

prof. B.To'raev

Samarqand-2012

1 MAVZU: IJTIMOIYLASHUV JARAYONLARINING NAMOYON BO'LIH SHAKLLARI

Reja

- 1. Ijtimoiylashmagan bolalar haqida tushuncha.**
- 2. Ijtimoiy reaksiyalarning shakllanishi.**
- 3. Ijtimoiylashuv jarayonida deprivasiya**

Evolyusion taraqqiyotning quyi bosqichida turadigan maxluqotlar, aytaylik qumursqalarning ko'p turlari, dunyoga kelishi bilanoq o'z g'amlarini o'zlari yeya boshlaydilar va «katta»larning yordamiga juda kam ehtiyoj sezadilar. Quyi maxluqlarda avlodlar yo'q, chunki turning «yosh» vakillari xulq-atvori kattalarniki bilan deyarli bir xil. Biroq biz evolyusion taraqqiyotning yuqorisi tomon ko'tarilganimiz sari bunday holni kamroq uchrata boshlaymiz: oliy hayvonlar xulq-atvorning tegishli usullariga o'rganishlari kerak. Sutemizuvchilarning bolalari dunyoga kelganda mutlaqo o'jiz bo'lib, «katta»larning yordamiga muhtoj bo'ladi. Insonlarning chaqaloqlari esa ular orasida ham eng o'jizi. Bola, agar loaqal dastlabki to'rt-besh yid davomida yordam olmas ekan, u yashay olmaydi.

Ijtimoiylashuv shunday jarayonki, unda o'jiz chakaloq o'zi tug'ilgan madaniyatning mohiyatini tushunadigan, o'zini-o'zi anglay oladigan aqlli mavjudotga aylanib boradi. Ijtimoiylashuv bola o'zi muloqotga kirishayottan narsalar ta'sirini passiv qabul qiladigan «madaniy prgrammashtirish»ning ko'rinishlaridan biri emas. Hayotining dastlabki daqiqalaridan boshlab chakaloq zarurat va ehtiyojlar seza boshlaydiki, ular u haqda g'amxo'rlik qilishi lozim bo'lgan kattalar xulq-atvoriga ta'sir o'tkazadi.

Ijtimoiylashuv turli avlodlarni bir-biri bilan bog'laydi. Chaqalokning tug'ilishi uning tarbiyasi uchun mas'ul bo'lganlar hayogini o'zgartiradi va ular yangi tajribaga ega bo'ladi. Ota-onalarning majburiyatlari, odatda ularni umrning qolgan qismida bolalar bilan bog'lab qo'yadi. Keksalar nabira tug'ilgandan keyin ham ota-onaligicha qoladilar va bu aloqalar turli avlodlarni bir-biri bilan bog'laydi. Madaniy rivojlanish chaqaloqlik va ilk bolalik davrida keyingi davrlarga qaraganda intensivroq davom etsa ham, o'qish-o'rganish va moslashish insonning butun hayotida davom etadi.

Keyingi boblarda biz oldingi bobda ko'tarilgan «tabiat»-ga qarshi mavzusini davom etgiramiz. Avval biz individning tug'ilishdan to ilk bolalikkacha davrda rivojlanishi asosiy bosqichlaridagi o'zgarishlarni alohida ajratib tahlil qilamiz. Turli mualliflar bolaning nima uchun va qanday rivojlanishini turlicha izohlaydilar va biz ularning yondashuvlarini ko'rib chiqamiz va qiyoslaymiz. Keyin esa individ hayotining turli bosqichlarida uning ijtimoiylashuviga ta'sir o'tkazuvchi guruh va kontekstlarni tahlil qilamiz.

Xarlou kuzatishlarining natijalariga solishtirish mumkinligi haqida guvohlik bermokda, biroq bolalar deprivasiyasining uzoq oqibatlarini kuzatish qiyin (chunki bu borada eksperiment o'tkazish to'g'risida gap ham bo'lishi mumkin emas). Chaqaloqlarni o'rganish bola uchun ilk barqaror mehribonlikning muhimligini ko'rsatmoqsa. Lekin u aynan onasi bilan bo'lishi shart emas, shuning uchun «onalar deprivasiyasi» atamasi unchalik to'g'ri emas. Muhimi — chaqalokdikda va ilk bolalik chog'ida hyech bo'lmasa bir kishi bilan barqaror, hissiy yaqin

munosabatlar o'rnatish. Bunday munosabatlar yo'qligi kanday salbiy natijalarga olib kelishi ancha yaxshi tavsiflangan. Masalan, tadqiqotlar ko'rsatishicha, shifoxonaga yotqizilayotgan bolalarning olti oylikdan to'rt yoshgacha bo'lganlari emosional jihatdan boshqalardan ko'proq qiynalar ekan. Undan kattaroq bolalar bunchalik qattiq va buncha uzoq qiynalmas ekan. Bolalarning bu reaksiyasi faqat ular yot muhitga tushib qolgani uchun emas, chunki ularning onalari yoki yaqin odamlari shifoxonada davolanganda bunaqa oqibatlar kuzatilmagan edi.

Deprivasiyaning uzoq muddatli oqibatlari

Deprivasiyaning keyingi oqibatlari to'g'risida aniq bir narsa deyish qiyin, lekin ilk bolalikda barqaror mehrning bo'lmagani xulq-atvorda iz qoldirish ehtimolini ko'proq tug'diradi. «Aveyronlik yovvoyi» va Jeni bilan bo'lgan kabi voqyealar xayotda juda kam uchraydi. Shuning uchun xam Xarlou o'tkazgan tajribalardagi kabi o'zgarish va og'ishlar to'g'risida aniq bir narsa deyish qiyin. Shunga qaramay, chaqaloqlikda barqaror mehrga qonmagan bolalar tilni egallash va intellektual rivojlanishda orqada qolishi, kattaroq bo'lganda esa boshqalar bilan yaqin va uzoq muddatli emosional aloqalar o'rnatishi qiyinlashib qolar ekan. Olti-sakkiz yoshdan keyin bunday kamchiliklarni tuzatish ancha qiyinlashadi.

Bolaning ijtimoiylashuvi

Boulbining «chaqaloqlik va ilk bolalikda jismoniy salomatlik uchun vitaminlar va oqsillar qanchalik muhim bo'lsa, aqdiy salomatlik uchun ona mehri shunchalik zarur», degan xulosasini kisman qayta ko'rib chiqishga to'g'ri keldi, hal qiluvchi rolni ona bilan muloqot, yoki mexrning yo'kdigi o'ynamas ekan. Eng muhimi — har qanday mehribon odam bilan muloqot natijasida vujudga keladigan xavfsizlik tuyg'usi ekan. Shunday qilib, biz insonning ijtimoiy rivojiga ilk bolalikdagi boshqa odamlar bilan uzoq muddatli aloqalar hal qiluvchi ta'sir o'tkazadi, deb xulosa chiqarishimiz mumkin. Garchi ijtimoiylashuv turli madaniyatlarda turlicha vujudga kelsa ham, ko'pchilik odamlarning turli xil madaniyatlarda ijtimoiylashuvida asosiy jihatlar shundan iborat.

2 Mavzu: IJTIMOIYLASHUV VA MADANIY SIKL.

- 1. Bolalar rivoji haqidagi asosiy nazariyalar**
- 2. Kognitik taraqqiyot bosqichlari.**
- 3. Ijtimoiylashuv agentlari.**
- 4. Ijtimoiylashuv va individual erk.**

Boulbi tadqiqotida bola rivojining faqat ba'zi jihatlariga, xususan, bolaning u haqsa g'amxo'rlik qilayotganlar bilan hissiy aloqalarining muhimligiga urg'u beriladi. Bola shakllanishining boshqa jihatlarini, ayniqsa, bola o'zini shaxs sifatida idrok qilishining shakllanishi, individ boshqalardan alohida mohiyat ekani haqidagi bilimning shakllanishini qanday tushunish lozim, degan savol tug'ilishi tabiiy. hayotining dastlabki oylarida chaqaloq atrofida odamlarni farqlay olmaydi va o'zini anglamaydi. Taxminan ikki yoshgacha, ba'zan esa undan kechroq ham bola «men» («I»), «menga» («Me») va «sen» tushunchalarini ishlatmaydilar. Keyinchalik ular asta-sekin boshqalar o'ziga xos belgilarga, ularniki bilan bir xil bo'lmagan ong va ehtiyojlarga ega ekanini tushuna boradilar.

O'z-o'zini anglashning kelib chiqish masalasi favqulodda munozarali bo'lib, u bir-biriga mutlaqo zid bo'lgan nazariy istiqbollarni nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Bu hol muayyan darajada bola rivoji haqidagi turli nazariyalarda ijtimoiylashuvning turli jihatlarini ta'kidlanishi bilan izohlanadi. Buyuk psixolog va psixoanaliz asoschisi Zigmund Freyd bola rivojining emosional jihatlarini, birinchi navbatda, bola o'z istaklarini qanday nazorat qilishini o'rgandi. Amerikalik faylasuf va sosiolog Jorj Gerbert Mid asosiy e'tiborni bolalar «men» va «menga» tushunchalaridan foydalanishni qanday o'rganishlariga qaratdi. Bolalar xulq-atvorining tadqiqotchisi shveysariyalik Jan Piaje bolalar rivojining turli jihatlarini o'rgandi, lekin uning eng mashhur asarlari kognitiv rivojlanish, ya'ni bola o'zi va o'z atrofida to'g'ri-sida o'ylashga qanday o'rganishi to'g'risida edi.

Freyd va psixoanaliz

1856—1939 yillar orasida yashagan venalik vrach Zigmund Freyd psixologiyaning rivojiga juda kuchli ta'sir o'tkazdi, U XX asrning eng yirik mutafakkirlaridan biri edi. Uning g'oyalari san'at, adabiyot, falsafa, ijtimoiy va gumanitar fanlarning rivojiga ham ta'sir o'tkazdi. U inson xulq-atvorining akademik tadqiqotchisigina bo'lib qolmay, nevrozlarni davolash amaliyoti bilan hdm shug'ullanar edi. Psixoanaliz deb ataladigan u kashf etgan terapiya usulining mohiyati bemorning o'z hayoti, ayniqsa, eng ilk davrlar haqida erkin so'zlab berishida Freyd, bizning xulq-atvorimizni ongsizlik boshqarishi, katta odam xulq-atvori ko'p jihatdan uning bolaligida paydo bo'lgan istaklar ta'sirida shakllanadi, degan xulosaga keladi. Ilk bolalikdagi tajribaning ko'p qismi ongli murakkab harakatlarga tadrijiy yo'lni bosib o'tadi. Buni Mid boshqalar rolini qabul qilish, ya'ni boshqalarga o'xshashga o'rganish, deb atadi. Xuddi mana shu bosqichda bolalarda o'z shaxsi to'g'risida rivojlangan tuyg'u paydo bo'ladi. Ular o'zlarini alohida subyekt, «Me» sifatida, boshqalar ko'zi bilan ko'rib anglay boshlaydilar.

Mid fikriga ko'ra, o'zimizni anglashimiz «Me»ni «I»dan ajrata boshlaganimizda shakllanadi «I» — bu hali ijtimoiy-lashmagan bola, u faqat istak va mayllardan iborat xolos. Mid tushunishicha, «Me» —, ijtimoiylashgan shaxs. Individ, o'zini boshqalar qanday ko'rsa, shunday ko'ra boshlagan vaqgdan boshlab uning o'z-o'zini anglashini rivojlantira boshlaydi. Freyd ham, Mid ham bola oilaning bevosita kontekstidan chetda mustakil harakat qila oladigan mavjudotga taxminan besh yoshlardan aylana boshlaydi, deyishadi. Freyd nazarida bu — «Edip kompleksi»ning debochasi, Mid nazarida esa rivojlangan o'zini anglash qobiliyatining namoyen bo'lishidir.

Bola rivojining keyingi bosqichi, Mid fikricha, taxminan sakkiz-to'qqiz yoshdan boshlanadi. Mana shu yoshda bolalar tartibsiz «ermak»lardan ko'ra tashkil etilgan o'yinlarda qatnashishni afzal ko'radilar. Mana shu davrdagina ular ijtimoiy hayotda amal qilinadigan qadriyatlar va axloqni o'zlashtira boshlaydilar. Tashkiliy o'yinlarni o'rganish uchun, o'yin qoidalarini, adolat goyasi va teng ishtirok qoidalarini tushunish kerak. Mana shu bosqichda bola, Mid, umumlashtirilgan o'zga, deb atagan, bolaning rivojlanishi kechayotgan madaniyatda qabul qilingan umumiy qadriyatlar va ustanovkalarini anglashga o'rga-nadi. Axloqni anglashni Mid Freydgga qaraganda kechroq davrga mansub, deydi, lekin ularning shu masaladagi qarashlarida ochiq o'xshashliklar mavjud.

Mid qarashlari Freydnikiga qaraganda kamroq ziddiyatli. Unda kishini hayratga soladigan g'oyalar uncha ko'p emas ular shaxsning ongsiz asosi haqidagi nazariyaga bog'liq emas. O'zini anglash haqidagi Mid nazariyasi ijtimoiylashuv jarayonini tushunishga katta ta'sir o'tkazdi. Biroq uning qarashlari yaxlit holda nashr etilmagan bo'lib, ular bola rivojining umumiy talqini sifatida emas, qiziq farazlar sifatida ko'proq foydalidir.

Piaje: kognitiv tarakkiyot

Jan Piaje asarlarining ta'siri Freydnikidan biroz kamroq edi 189b yidda Shveysariyada tug'ilgan Piaje hayotining va «Me» — individning ijtimoiy MENi tizimidagi kichik tizimlar. «Me» mazkur individga xos bulgan «boshqalar» ustanovkalarining, ya'ni guruh faoliyati inter-nallashgan tuzilmasining yig'indisi. «I», aksincha individning ijtimoiy timsollarga uziga xos reaksiyasini aks etgirib, oldindan aytib bulmaydigan, o'z-uzidan kelib chiqadigan xulqning mustaqil xarakterini bildiradi Uning katta qismida Jenevadagi bolalar taraqqiyoti institutiga rahbarlik qildi. U faqat bolalar rivoji emas, ta'lim, tarix, falsafa va mantiq bo'yicha ko'p kitob va ilmiy tadqiqotlar yaratdi va faoliyatini 1980 yilda vafot etgunga qadar davom ettirdi.

Freyd chaqaloqlik va bolalikka juda katta ahamiyat berishiga qaramay, o'zi hyech qachon bolalarni bevosita o'rganmagan. Uning nazariyasi psixoterapevtik amaliyotda kattalarni kuzatish asosida maydonga kelgan. Mid ham bolalarni hyech o'rganmagan va o'z goyalarini falsafiy tahlil asosida rivojlantirdi. Ularga qarama-qarshi Piaje butun umri davomida chaqaloqlar, bolalar va o'smirlar hayotini bevosita kuzatdi. Uning asarlari ko'p ishlarni tahlil qilish asosida emas, individlarni batafsil kuzatish asosiga qurilgan. Shunga qaramay, u o'zining kashfiyotlarini barcha madaniyatlardagi bolalarni o'rganishga tadbii qilish mumkinligini bayon qilgan edi.

Kognitiv taraqqiyot bosqichlari

Boladagi dunyoning ma'nosini faol izlash qobiliyatini Piaje alohida ta'kidlagan edi. Bolalar axborotni, o'zlari eshitayotgan, sezayotgan narsalarini faol saralab talqin qiladilar. Bolalarni quzatar ekan, o'zining nazariyasi asosida o'tkazgan ko'plab tajribalar asosida Piaje odam kognitiv taraqqiyot, ya'ni, o'zi va atrofdagilar haqida o'ylashning bir necha bos-qichini bosib o'tishi haqidagi xulosaga keldi. Har bir bosqichda yangi malakalar o'zlashtiriladi, ular esa, o'z navbatida, oldingi boskichning muvaffaqiyatli yakunlanishiga bog'liq bo'ladi. Birinchi — sensomotor bosqich, tug'ilishdan ikki yoshgacha davom etadi.

Taxminan to'rt oygacha chaqaloq o'zini atrofdagi-lardan ajrata olmaydilar. Masalan, u karovatchasining devorlari o'zi silkiyottani uchun silkinayotganini tushunmaydi. U predmetlar va odamlarni ham ajrata olmaydi, o'zi ko'rayotgan makondan tashqarida ham narsalar borligini u mutlaqo bilmaydi. Biz yuqorida ko'rib chiqqan tadqiqotlar guvohlik berishicha, bolalar asta-sekin predmetlar va odamlarni bir-biridan farqlay boshlaydilar, o'zlari tomonidan idrok qilish yoki qilinmasligidan qat'iy nazar, ular mavjud bo'laverishini tushuna boshlaydilar. Piaje bu bosqichni sensomotor bosqich, deb ataydi, chunki, bu davrda bolalar predmetlarni ushlab ko'rib, ular bilan manipulyasiya qilib, atrofni jismonan tegib ko'rib o'rganadilar. Bu bosqichdagi asosiy yutuq shundaki, bola atrofdagi predmetlar bir-biridan farq qilishini tushuna boshlaydi.

Keyingi, operasionallikkacha, deb atalgan bosqich Piaje eng ko'p tadqiqotlarini bag'ishlagan bosqichdir. Bu bosqich ikki yoshdan yetti yoshgacha davom etadi va unda bolalar tilni o'rganadilar, so'z yordamida obyekt va obrazlarni timsoliy tarzda tasavvur qila boshlaydilar

I Freyd, Mid va Piaje pozisiyalari o'rtasida jiddiy tafovutlar mavjud; shunga qaramay, mazkur nazariyalarning bar-chasini xisobga olib yangi nazariya tuzish ham mumkin.

Uchala muallif ham, hayotining birinchi oylarida chaqaloq atrofidagi predmetlarning tabiatini tushunmaydi va yaxlit butunlik ekanini anglamaydi, degan fikr bildiradi. Ikki yoshgacha, rivojlangan til ko'nikmalari shakllanguncha bolaning o'rganishi ongsiz tarzda yuz beradi, chunki uning o'zini anglashi hali shakllanmagan. Freyd, dastlabki davrda shakllanadigan va, xususean ota va onaga munosabat bilan bog'liq bo'lgan mayllarni boshqarish usullari shaxs rivojining eng so'shti davrlarida ham o'z ahamiyatini yo'qotmaydi, deganda haq bo'lgan ko'rinadi.

Bolaning o'zini anglashi Mid g'oyalariga ko'ra «1» va «Me» ni farqlashdan boshlanishi ehtimoldan xoli emas. Biroq, Piaje qayd etganidek, «Men» tuyg'usi rivojlangan bolalarda egoistik tafakkur hali saqlanib turadi. Bola avtonomligi rivoji Mid va Piaje o'ylaganlaridan ko'ra ko'proq emosional knyinchiliklar bilan bog'liq bo'lib, bu yerda Freydning g'oyalari o'rinlidir. Ilk mayllarni tiyish qobiliyati keyinroq kognitiv rivojlanish bosqichlaridan muvaffaqiyatli o'tishga ta'sir ko'rsatishi ehtimoldan holi emas.

Bu nazariyalar birgalikda olinganda bizni o'zining «men»-ini anglaydigan va boshqalar bilan o'zaro ta'sirga kirisha oladigan ijtimoiy mavjudotga aylantiradigan jarayondagi ko'p narsalarni tushunishimizga yordam beradi.

Ijtimoiylashuv agentlari

Ijtimoiylashuv agentlari deganda, ijtimoiylashuv jarayoni yuz beradigan ijtimoiy kontekstlar va guruhlarini tushunamiz. Barcha madaniyatlarda oila bola uchun asosiy ijtimoiylashtiruvchi agent hisoblanadi. Keyinroq esa, ijtimoiylashuvning yana ko'plab agentlari paydo bo'ladi.

Oila

Oilaviy tizimlarining turlari bir-biridan jiddiy farq qilgani uchun, bola kirishishi ehtimol bo'lgan muloqot barcha madaniyatlar uchun bir xil emas.

Chaqaloq xayotining ilk bosqichida deyarli hamma joyda eng muhim shaxs ona hisoblanadi biroq, yuqorida aytilganiday, ona va bola munosabatlarining tabiati ular o'rtasidagi muloqotning muntazamligi va shakli bilan belgilanadi. Bu esa o'z navbatida oila institutlari va ularning jamiyatdagi boshqa guruhlar bilan aloqalariga bog'lik bo'ladi.

Hozirgi jamiyatlarda ilk ijtimoiylashuv oilaning kichik miqyosida yuz beradi. Britaniyalik ko'pchilik bolalar o'z bolaligini oila doirasida, otasi, onasi va ehtimol, yana bir-ikki bola davrasida o'tkazganlar. Va aksincha, boshqa ko'pchilik madaniyatlarda amaki, amma, buvi va bobolar bir oila-ning a'zolari hisoblanadilar, bir uyda yashaydilar va hatto juda kichik chaqaloqlarning ham tarbiyachilari bo'ladilar. Britaniya jamiyatida ham oilaviy muhit tabiatida ko'p tafovutlar mavjud. Ba'zi chaqaloqlar ota yoki onadan bittasi tomonidan tarbiyalansa, boshqalari to'g'risida ikkita ona va ikkita ota («ajrashgan» va yangi «topishgan» ota-onalar) g'amho'rlik qilishadi. Oilali ayollarning ko'pchiligi oiladan tashqarida haq to'lanadigan ish bilan mashg'ul, shu bilan birga, bola tug'ilgandan keyin ayollar ishga nisbatan tez qaytadilar. Shunday ko'rinishlarga qaramay, oila, odatda, chaqaloqliqdan to o'smirlilik davrigacha va keyinroq ham avlodlar vorisligini ta'minlashda ijtimoiylashuvning eng muhim agentligicha qolaveradi.

Turli jamiyatlarda oila boshqa ijtimoiy institutlarga nisbatan turli o'rin egallaydi. An'anaviy jamiyatlarning ko'pchiligida oila tug'ilgan individning butun umri davomidagi ijtimoiy mavqeyi to'raligicha belgilaydi. Hozirgi g'arb jamiyatlarida ijtimoiy mavqye' tug'ilishda belgilanmaydi. Shunga qaramay, qanday hududda yashashi, oilaning muayyan sinfga mansubligi bola ijtimoiylashuvi xarakterini ancha qat'iy belgilab beradi. Bolalar ota-onalari yoki atroflaridagi odamlarning o'zini tutish modellarini o'zlashtiradilar.

Katta jamiyatlarning turli sektorlarida tarbiya va intizomga turlicha talablar qo'yiladi, ko'pincha, qarama-qarshi qadriyat va umidlar mavjud bo'ladi. Qoratanlilar oilasida, shahardagi quyi tabaqalar yashaydigan hududda tarbiyalanayotgan bola bilan shaharning qadrlil hududida, gurkirayotgan oq tanlilar oilasida tug'ilgan bolani solishtirib ko'rsa, turli tipdagi oila madaniyatlarining ta'siri o'rtasidagi tafovutni sezish mumkin. O'tkazilgan ko'pgina sosiologik tadqiqotlar bu tafovutlarni batafsilroq ko'rish imkonini beradi.

Oiladagi ijtimoiylashuv holatlari bola uchun o'ta noqulay bo'lishi ham mumkin. Masalan, bolalarning bir qismi ota-ona, kattaroq bolalar yoki chet odamlarning zo'rli yoki seksual iddaolariga duch kelishadi va bunday tajriba ularning qolgan umrlariga og'ir ta'sir o'tkazadi.

Ota-onalarining dunyoqarashini mutlaqo tankidiy idrok kilmaydigan bolalarning ko'plab topilishi albatta, dargumon. Bu ayniqsa, chuqur o'zgarishlarni boshdan kechirayotgan bizning ziddiyatli dunyomiz uchun xos. Bundan tashqari, ijtimoiylashuvning turli-tuman agentlari mavjudligi bolalar, o'smirlar va ota-onalar avlodi dunyoqarashidagi ko'pgina tafovutlarga olib keladi.

Tengdoshlar bilan munosabatlar

Ijtimoiylashuvning yana bir agenti tengdoshlar guruhi, ya'ni taxminan bir xil yoshdagi bolalarning do'stona kompaniyasi. Ba'zi madaniyatlarda, ayniqsa kichiqroq an'anaviy jamiyatlarda tengdoshlar guruhlari yosh turkumlariga qarab

shakllanadi. Har bir avlod o'z huquq va majburiyatlariga ega, bular yosh ulg'aygan sari ham o'zgarib boradi (yoshga qarab turkumlanish, odatda o'g'il bolalarga taalluqli). Individlarning bir yosh turkumidan ikkinchisiga o'tishi odatda o'ziga xos rasm-rusumlar bilan nishonlanadi. Taxminan bir xil yoshdagi tengdoshlar do'stlik munosabatlarini odatda butun umr davomida saqlab qoladilar. Yeshga qarab ranglar quyidagicha beltilanadi: bolalar, kichik jangchilar, katga jangchilar, kichik oqsoqol-lar va oliy oqsoqollar. Mana shu ranglar bo'yicha siljish individual tartibda emas, guruhlar bo'yicha amalga oshiriladi.

Individning ijtimoiylashuvida oilaning ahamiyati o'z-o'zidan ravshan, chunki yosh bolaning dunyoqarashi dastlab deyarli faqat oila doirasida shakllanadi. Tengdoshlar guruhining ahamiyati unchalik muhim emas, ayniqsa g'arb jamiyati vakillari uchun. Shunga qaramay, yoshga qarab turkumlanishning aniq tashqi belgilari bo'lmasa ham, to'rt-besh yoshdan kattaroq bolalar odatda ko'p vaqtlarini shu yoshdagi do'stlari orasida o'tkazadi. Ayollarning ko'pchilik qismi ishlayotgan va ularning bolalari bu vaqtda bolalar markazlarida bo'ladigan hozirgi vaziyatda tengdoshlarning munosabatlari avvalgidan ko'ra muhimroq ahamiyat kasb etadi. Mid va Piajeler ham tengdoshlar munosabatlarining muhimligini ta'kidlashadi. Piaje tengdoshlar o'rtasidagi bolaning ota-onalar bilan munosabatiga qaraganda munosabatlar «demokratikroq» ekaniga urg'u beradi. «Tengdosh» so'zi «teng» ma'nosini anglatib, bolalar o'rtasida vujudga kelgan do'stlik munosabatlari mo'tadil egalitaristik xususiyatga ega. Shijoatli yoki jismonan kuchliroq bola hukmronlik qilishga intilishi mumkin, biroq tengdoshlarning munosabatlari oila uchun xos bo'lgan tobelikka emas, o'zaro kelishuvga asoslangani uchun ko'p narsa bergan bola ko'proq oladi. Piaje shuni ham ta'kidlaydi: hokimiyatga ega bo'lgan ota-onalar (turli darajada) bolalarga xulq-atvor me'yorlarini majburan o'gkazishlari mumkin. Tengdoshlar guruhlarida esa buning aksicha bola xulq-atvor qoidalarini o'zgartirish va tekshirib ko'rish imko-nini beradigan o'zaro ta'sirning boshqacha sharoitlarini uchratadi.

Tengdoshlar bilan munosabatlar ko'pincha insonning butun umri davomida o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Bu ayniqsa individlar bitta norasmiy guruhga a'zo bo'ladigan yoki butun umrga aynan bir xil do'stlar guruhiga ega bo'ladigan kichik aholi yashash punktlari uchun xos. Bunday bo'lmagan taqdirda ham tengdoshlar bilan munosabatlar bolalik va o'smirlik davrlaridan keyin ham sezilarli ta'sir o'tkazadi. Ish joylarida yoki boshqa vaziyatlarda bir xil yoshdagi odamlarning norasmiy guruhlari individ odatlari va pozisiyasining shakllanishida juda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Maktab

Maktab ta'limi — rasmiy jarayon, chunki o'rganiladigan predmetlarining majmui maxsus qayd etib qo'yiladi. Biroq maktablar ijtimoiylashuv agentlari sifatida biroz boshqacharoq yo'nalishda ham ta'sir o'tkazadilar. Uquv predmetlarining rasmiy majmuidan tashqari yana, ba'zi sosiologlar, xufya dastur, deb ataydigan ta'limning o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydigan narsa ham mavjud («Ta'lim, muloqot va ommaviy axborot vositalari» haqidagi 13-bobga qarang). Bolalar sinfda tinch shug'ullanishlari, darsda o'zini yaxshi tutishlari, maktab intizomiga rioya qilishlari shart. Ular o'qituvchilarning talablarini qabul

qilish va ularga javob reaksiyasi kilishga majbur. Bularning barchasi maktabni tugatgandan keyin ish tanlash bilan bog'liq bo'ladi. Tengdoshlar guruhlar ko'pincha maktabda shakllanadi va sinflarga bolalarning yoshiga qarab bo'lish bu guruhlarining ta'sirini kuchaytiradi.

Maktab tufayli bolalar o'zlari mansub bo'ltan ijtimoiy muhitdagi cheklovlarni bartaraf kilishlari mumkin, deb hisoblanadi. Ta'lim barcha uchun ochiq bo'libgina qolmay, majburiy ham ekanligi kambag'al va imtiyozlarga ega bo'lmagan tabaqalarning bolalari muvaffaqiyatli o'qishda ijtimoiy-iqtisodiy zinadan yuqoriroq ko'tarilish imkoniga ega bo'ladilar. Hozirgi jamiyatlarda ommaviy ta'lim imkoniyat kengligi ideali bi-lan chambarchas bog'liq bo'lib, unga ko'ra, odamlar o'z iste'dod va qobiliyatlariga mos ravishda ijtimoiy mavqyega ega bo'ladilar. Biroq amalda ta'lim ko'pincha tengsizlikni bartaraf qilishga emas, balki uni chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Kambag'al oilalardan chiqqan bolalar o'zlarining o'qishdagi muvaffaqiyatlarini ota-onalari rag'batlantirishiga har doim umid qila olmaydilar, ayniqsa ota-onalar o'qishga befarq yoki mutlaqo qarshi bo'lsa. Kambag'al hududlarda joylashgan maktablar boy hududdagilarga nisbatan texnik jihatdan yomonroq jihozlangan va kamroq o'qituvchilarga ega bo'ladi. Bolalarda maktabga nisbatan xush ko'rmaslik tuyg'usi paydo bo'lishi ham mumkin, chunki ularning nazarida maktab na hozir va na kelajakda hayotga aloqasi bo'lmagan vazifalarni qo'yadi.

Ommaviy axborot vositalari

Davriy nashrlarning gullab-yashnashi g'arbda XVIII asr oxiridan boshlanadi. Biroq u paytlarda gazeta va jurnallar tor doiradagi o'quvchilarga mo'ljallanar edi. Yuz yildan keyingina ular millionlab odamlarning dunyoqarash va fikrlarini belgilab, kundalik hayotning bir qismiga aylandi. Ommaviy axborot vositalarini bosma nashr sifatida tarqatish tez orada elektron muloqot vositalari bilan to'ldirildi. Britaniyalik bolalar bir yil davomida teleekran oldida maktabda o'tkazilgan yuz kunga teng vaqt o'tkazadilar. Kattalar ham bunga taxminan shuncha vaqt sarflaydilar. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, voqyealar gazeta va televideniya turlicha yoritilsa, televizion versiyaga gazetaga nisbatan ikki baravar ko'proq odam ishonar ekan.

Muayyan tipdagi teledasturlarning bolalar va kattalarning ijtimoiy ustanovkalariga qanday ta'sir o'tkazishini tahlil qilishga juda ko'p tadqiqotlar bag'ishlandi, biroq uzil-kesil javoblar olinmadi. Masalan, ekranda zo'ravonlikning ko'rsatilishi bolalar hulqida qay darajada agressivlik keltirib chiqarishi haqida bir xil fikr yo'q. Biroq ommaviy axborot vositalari odamlarning ustanovkalari va dunyoqarashiga juda chuqur ta'sir o'tkazishi hyech kimda shubha tug'dirmaydi. Ular shunchalik ko'p axborot yetkazib beradiki, ularni hyech qanday boshqa usul bilan olish mumkin emas. Gazetalar, kitoblar, radio, televideniye, filmlar, musiqiy yozuvlar va suratli jurnallar bizga o'zimiz hyech qanday tasavvurga ega bo'lmagan narsalar haqida ma'lumot berishadi.

Bizning davrimizda jamiyatlarning, shu jumladan, an'anaviy madaniyatlarning juda oz qismi ommaviy axborot vositalarining ta'sir doirasidan chetda qoddi. Elektron muloqot vositalari mutlaqo savodsiz odamlar uchun ham

tushunarli; uchin-chi dunyoning hatto eng chekka mintaqalarida ham radiosini yoki televizori bor odamlar kam emas.

Ijtimoiylashuvning boshqa agentlari

Ijtimoiylashuv agentlari eslatib o'tilganlardan tashqari individlar umrining qandaydir qismini o'tkazadigan guruh va ijtimoiy kontekstlar qancha ko'p bo'lsa, ular ham shunchalik ko'pdir. Barcha madaniyatlarda ham ish ijtimoiylashuv jarayonlari o'tadigan eng muhim muhit hisoblanadi, faqat sanoatlashgan jamiyatlarning o'zidagina juda ko'p odamlar «ishga qatnaydilar» — ya'ni har kuni uydan muayyan masofada joylashgan ish joyida bir necha soat band bo'ladilar. An'anaviy jamiyatlarda ko'pchilik o'zlari yashaydigan joy yaqinida yerga ishlov beradilar yoki uylaridagi ustaxonada ishlaydilar. Bunday jamiyatlarda «ish boshqa faoliyat turlaridan g'arbdagi ishchi kuchining ko'pchilik qismiga xos bo'lganidek, keskin ajralib turmaydi». Sanoat mamlakatlarida «ishga qatnash»ning boshlanishi an'anaviy jamiyatlardagi mehnat faoliyatining boshlanishiga qaraganda inson hayotidagi ancha katta o'zgarishlarning boshlanganligini bildiradi. Ish sharoitlari yangicha talablar qo'yar ekan, odamni o'z dunyoqarashi va xulq-atvorini keskin o'zgartirishga majbur qiladi.

Hozirgi jamiyatlarda mahalliy jamoa ijtimoiylashuv ja-rayoniga ijtimoiy tuzilishnint boshqa tiplariga qaraganda ancha kam ta'sir o'tkazsa ham, uni birato'la hisobdan chiqarib yuborish mumkin emas. Hatto yirik shaharlarda ham turar joyda yashovchilarning rivojlangan guruh va tashkilotlari (ko'ngillilar jamiyati, klublar, cherkovlar mavjud bo'lib, ular o'z faoliyatida ishtirok etadigan odamlarning fikr va harakatlariga juda katta ta'sir o'tkazadi.

Qayta ijtimoiylashuv

Ba'zi vaziyatlarda katta yoshli odamlar qayta ijtimoiylashuvni, ya'ni avval qabul qilingan qadriyatlar va xulq-atvor modellarining to'la yemirilishi va oldingilardan tubdan farq qiluvchi qadriyatlarni o'zlashgirishni boshdan kechiradilar. Ana shunday vaziyatlardan biri — karser tashkilotlarida bo'lish: ruhiy bemorlar klinikasida, qamoqxonada, kazarmalarda va odamlar qat'iy tartib va talablar ta'siriga tushib qoladigan tashqi dunyodan ajratilgan har qanday joylarda bo'lish. Qattiq zo'riqish sharoitida dunyoqarashni o'zgartirish juda dramatik bo'lishi mumkin. Shunday taranglik vaziyatlarini o'rganish oddiy sharoitlarda yuz beradigan ijtimoiylashuv jarayonini chuqur anglash imkoniyatini yaratadi.

Konsentrasiya lageridagi xulq-atvor

Psixolog Bruno Bettelgeym nasistlar tomonidan 1930-yillarning oxiri va 1940-yillarda Germaniyaning konsentraciya lagerlariga qamalgan odamlarning qayta ijtimoiylashuvini bayon qilib bergan. Uning hikoyasi qisman o'zi eng yomon shuhrat topgan Daxau va Buchenvald lagerlarida boshdan kechirgan hodisalarga asoslanadi. Lagerdagi hayot sharoiti juda dahshatli bo'lib, mahkumlar qiynoqlarga, to'xtovsiz haqoratlarga g'irfor qilinar, oziq-ovqat va hayot uchun zarur bo'lgan boshqa narsalarning keskin yetishmasligidan azoblanar edilar. Amaliyotdagi psixoterapevt sifatida Bettelgeym o'zgarib borayotgan sharoitlarga moslashayotgan odamlarning dunyoqarash va xulq-atvori qanday qilib tubdan o'zgarayotganligini ko'rishga odatlanib qolgan edi. Biroq lager hayotidagi dahshatli zo'ravonliklar tufayli mahkumlardagi o'zgarishlar ancha radikal va tez yuz berar edi.

«Lagerlarda, — deb yozadi Bettelgeym — men faqat xulq-atvordagi emas, balki shaxsiyatda ham juda tez yuz bergan o'zgarishlarni kuzatdim; o'zgarishlar psixoanalitik muolaja deyiladigan jarayonga nisbatan ishonib bo'lmaydigan darajada tez va radikal edi».

Bettelgeym tasvirlashicha, barcha mahkumlar o'z shaxsiyatida muayyan tartibda yuz bergan o'zgarishlarni boshdan kechirganlar. Qdmoqsagi dastlabki davr odamlarni oila va do'stlar davrasidan ayovsiz sug'urib olganlari va lagerga qamashdan oldin bo'lgan. Uning fikricha, bunday tasavvurlar aysbergning cho'qqisi, xolos. Biz o'lim bilan bog'laydigan narsalarning ko'p qismi ong ostida yashiringan, agar biz rozilik bilan o'lishni xohlasak, ularni yorug'likka olib chiqish kerak. Odamlar ongsiz tarzda, o'limni o'zlarini jazolash uchun kelgan yovuz narsadan boshqacharoq holda tasavvur qila olmaydilar. Agar ular, bunday tushunish irrasional ekanini anglay olishsa, masalan, bedavo xastalik qilingan gunoxdar uchun berilgan jazo emasligini bilishsa, jarayon og'riqsizroq kechadi.

Bolalar, ota-onalar va qariyalar birgalikda turmush kechiruvchi an'anaviy madaniyatlarda o'lim va avlodlar vorisligi o'rtasidagi aloqadorlik aniqroq anglanadi. Individlar o'zlarini oilaning va ularning qisqa muddatli shaxsiy mavjudligidan qat'iy nazar, cheksiz davom etadigan jamiyatning bir parchasi, deb his qiladilar. Bunday sharoitlarda tez o'zgarayotgan sanoat dunyo yvding ijtimoiy sharoitlariga qaraganda o'limga kamroq vahima bilan karash mumkin.

Ijtimoiylashuv va individual erk

Biz tug'ilib o'sgan muhitdagi madaniy ustanovkalar bizning xulq-atvorimizga shunchalik katta ta'sir o'tkazadiki, biz individuallik va iroda erkiga ega emasmiz, degan tasavvur paydo bo'lishi mumkin. Bizning jamiyat tomonidan oldindan tayyorlab ko'yilgan qoliplarga majburan tikishayotganday tuyuladi. Ba'zi sosiologlar ijtimoiylashuv, hatto umuman sosiologiya to'g'risida xuddi mana shunday, deb yozishgan edi, biroq bunday qarash mutlaqo noto'g'ri. Albatta, tug'ilishdan to o'lingacha bizning boshqalar bilan o'zaro ta'sirga kirishishimiz bizning shaxsiyatimiz, xayotiy qadriyatlarimiz va xulq-atvorimizni belgilaydi. Biroq ijtimoiylashuv o'sha induviduallik va erkning ham manbaidir. Ijtimoiylashuv jarayonida har bir shaxs o'zini anglash, mustakil fikrlash va harakat qilishga layoqat orttiradi.

Bu tezisni til o'rganish haqidagi misol bilan ifodalash mumkin. Tilni hyech kim kashf qilmaydi, yoshlikdan til o'rganish bizni maxsus til qoidalari bilan kishanlab qo'yadi. Ayni paytda tilni egallash bizning o'zimizni anglashymiz va ijodimizdagi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Til bo'lmasa odamlar o'zini anglaydigan mavjudot bo'lolmasdi. Tilni bilish inson hayoti timsoliy boyliklarini, indivydual sifatlarni sakdash va mavjudlyk shartlarini amalda egallash uchun ham zarur.

Mavzuning qisqacha mazmuni

Ijtimoiylashuv — bu chaqaloqning boshqa odamlar bilan muloqotga kirishish orqali o'zini anglaydigan, o'zi tug'ilgan madaniyatni tushunadigan aqlli mavjudotga aylanish jarayoni.

1. Zigmund Freyd o'z asarlarida bayon qilgan nazariyaga ko'ra, bola agar atrof-muhitning talablari va ong ostidagi qudratli mayllarni muvozanatda ushlab

tura olsagina, mustaqil mavjudotga aylanadi. Bizning o'zimizni anglashga bo'lgan qobiliyatimiz ongsizlik xurujlarini bosish yo'li bilan rivojlanadi.

2. J.G.Mid fikriga ko'ra, bola boshqalar uning o'ziga nisbatan o'zlarini qanday tutayotganliklarini ko'rib, o'zini alohida mavjudot sifatida anglay boshlaydi. Keyinroq, o'yinlarda qatnashib, o'yin qoidalarini o'rganib, bola, «umumlashtirilgan o'zga» — umumiy qadriyatlar va madaniy me'yorlarni tushuna boshlaydi.

4. Jan Piaje bolaning dunyoni ongli idrok etish qobiliyatining rivojlanishida bir nechta asosiy bosqichlarni ajratib ko'rsatadi. Har bir bosqich yangi bilish qobiliyatlarini o'zlashtirish bilan tavsiflanadi va oldingi bosqichning muvaffaqiyatliligiga bog'liq bo'ladi. Piaje fikriga ko'ra, kognitiv rivojlanishning bu bosqichlari ijtimoiylashuvning umumiy xususiyatlari hisoblanadi.

5. Ijtimoiylashuv agentlari — bu eng muhim ijtimoiylashuv jarayonlari yuz beradigan tuzilmaviy guruhlardir. Barcha madaniyatlarda bola ijtimoiylashuvining asosiy agenti oila hisoblanadi. Bundan tashqari, tengdoshlar guruhlari, maktab, ommaviy axborot vositalari ham ijtimoiylashuv agentlaridir.

6. Rasmiy maktab ta'limi ijtimoiylashuv jarayonida oila va tengdoshlar guruhlari o'tkazadigan ta'sirni kuchsizlantiradi. Ta'lim berish — ko'nikma va qadriyatlarga ongli ravishda o'rgatishdir. Bundan tashqari maktab «xufya dastur» yordamida ustanovka va me'yorlarni shakllantirib, sezilmaydigan yo'l bilan ham tarbiyalaydi.

7. Ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi ijtimoiylashuvning ehtimoliy agentlari miqdorini ko'paytirdi. Ommaviy bosma nashrlarning tarqatilishi, keyinroq, elektron muloqot vositalari bilan to'ldirildi. Televideniye har kuni barcha yoshdagi odamlar bilan muloqotga kirishar ekan, ayniqsa katta ta'sir kuchiga ega bo'la bordi.

8. Ba'zi vaziyatlarda individlar yoki guruhlar qayta ijtimoiylashuv jarayonini boshdan kechiradilar. Qayta ijtimoiylashuv — shaxsning tahdid yoki stress vaziyatida qadriyatlarni o'zgartirishi bilan bog'liq jarayondir.

9. Ijtimoiylashuv — butun umr bo'yi davom etadigan uzluksiz jarayon. Uning har bir bosqichida o'tish davrlari bo'lib, ularda bosib o'tish va tangliklarni bartaraf qilish jarayonlarini o'tash kerak. O'lim ham shunga taalluqli bo'lib, shaxs mavjudligining tugaganligini bildiradi.

3 Mavzu. KONFORMLIK VA DEVIANT XULQ-ATVOR SOSIOLOGIYASI.

Reja:

1. Me'yorlar va sanksiyalar haqida tushuncha.

2. Qonunlar, jinoyatlar va jazolarning deviant xulq-atvorda ifodalanishi.

3. Stigmatizasiya nazariyasi.

4. Deviasiya va ijtimoiy ta'sir.

Bu misol bizning e'tiborimizni konformlik va og'ish muammosining muhim jihatlaridan biriga qaratadi. Barcha ijtimoiy me'yorlar nokonformlikdan himoya qiladigan sanksiyalar bilan birga mavjud bo'yaadi. Sanksiya boshqalar tomonidan individ yoki guruh xulqiga bildirilgan reaksiya bo'lib, uning maqsadi — mazkur ijtimoiy me'yorning bajarilishini kafolatlash. Sanksiyalar pozitiv (konformlik uchun rag'batlantirish) yoki negativ (nokonform xulq uchun jazo) bo'lishi mumkin. Sanksiyalar formal yoki noformal bo'ladi. Formal sanksiya normalarga rioya kilishni kafolatlaydigan tashkilot yoki guruh bo'lgan joyda mavjud bo'ladi. Noformal sanksiyalar — nokonformlikka nisbatan kamroq uyushgan va ko'pincha o'z-o'zidan kelib chiqadigan reaksiya.

Rasmiy sanksiyalar tiplarining ko'pchiligi hozirgi jamiyatda sud va qamoqxonalar misolidagi jazo tizimlari bilan bog'liq. Polisiya ham jinoyatchilarni sudga tortish, ehtimol keyin qamokxonaga qamash bilan bog'liq tashkilotdir. Yo'l qoidalarini buzishning ko'pchiligi jarima yoki haydovchilik huquqidan maxrum qilish yo'li bilan jazolanadi, va bu jazolar haydovchilarning yo'l qoidalarini buzish va ayni paytda polisiyachining ko'ziga ko'rinmaslikka harakat qilishlari uchun kifoya kiladi. Formal negativ sanksiyalarga jarimalar, qamoqxonaga qamash va qatl etish kiradi. Pozitiv formal sanksiyalar esa unchalik ko'p emas. Haydovchidshg avtomobilni namunali haydashini rag'batlantirish maqsadida «a'lo haydovchilik uchun» yoki bilayun haydovchi kabi unvonlar mukofot sifatida beriladi. Formal pozitiv sanksiyalar ijtimoiy hayotning boshqa sohalarida ham uchraydi: jangdagi jasurligi uchun medal bilan mukofotlash, akademik sohada gayutuklari uchun beriladigan daraja va diplomlar, sport musobaqasidagi ishtiroki uchun mukofotlar va boshqalar.

Pozitiv va negativ noformal sanksiyalar ijtimoiy hayotda barcha yeohalarning ajralmas kismi hisoblanadi. Pozitiv noformal sanksiyalar maqgov, ma'qullash mazmunidagi jilmayish, yelkaga urib qo'yish kabi shakllarda ifodalanishi mumkin. Negativ noformal sanksiyalar esa odatda haqorat ohangi, so'kish yoki hayfsan, individni namoyishkorona nazarga ilmaslik ko'rinishlarida ifodalanadi. Formal sanksiyalar ancha samarali bo'lsa ham, noformal sanksiyalar konformlik va me'yorlarni saqlashda fundamental ahamiyatga ega. Do'stlar, oila, hamkasabalarning yaxshi munosabatini saqpab qolish ehtiyoji, kulgi bo'lish, uyalib qolish, rad etilishdan qochish odamlarning xulqini ko'pincha formal mukofotlar yoki jazolashdan ko'ra ko'proq belgilab beradi.

Qonunlar, jinoyatlar va jazolar

Qonunlar — bu hokimiyat tomoyushdn fukarolar amal qilishi uchun belgilab qo'yiladigan tamoyil shaklidagi me'yorlar; Konformlik namoyish yetmaydigan odamlarga qarshi qo'llanadigan formal sanksiyalar ham mavjud. Qonun bor joyda jinoyat ham topiladi, chunki jinoyatchi qonunni buzuvchi har qanday xulq deb ta'riflash mumkin. So'ngi ikki-uch asr davomida kriminal xulq-atvorning tabiati, turli jinoyatlarning jiddiylilik darajasi va davlat hokimiyati tomonidan kriminal

xatgi-harakatlarni bartaraf qilish usullari jiddiy o'zgardi. «Sosiologiya: muammo va istiqbollar» nomli birinchi bobda aytib o'tilganiday, buning sabablarini jamoa tamoyiliga asoslangan an'anaviy jamiyatning ko'pchilik an'anaviy tizimga qaraganda anonim (noma'lum, xufyona) sharoitda yashaydigan sanoat ijtimoiy tizimlarida almashtirilishidan topish mumkin.

Sanoat davrigacha bo'lgan jinoyatlar

Sanoatlashtirishgacha Yevropada eng beshafqat jazoga sabab bo'ladigan va eng jidsiy jinoyat hisoblanadigan xatti-harakatlar, bular — diniy jinoyatlar yoki hukmdor va zodagonlarning mulkiga qarshi jinoyatlar ekan. Bugungi kunda bunday harakatlar yo umuman jinoyat deb hisoblanmaydi, yoki bo'lmasa qonunni salgina buzish deb hisoblanadi. Shakkoklik (xristianlikdan farq qiluvchi diniy doktrinalarni targ'ib qilish), mal'unlik (cherkov mulkini o'g'irlash yoki unta zarar keltirish) yoki hatto ma'budni haqoratlash (ma'bud ismini masxaralab tilga olish, diniy materiyalar haqida salbiy fikrlar aytish) uzoq vaqtgacha Bvropa mamlakatlarida o'lim jazosi bilan jazolanar edi. Qirol yoki zodagonlarning yerida ovchilik qilish yoki baliq tutish, daraxt kesish yoki shox-shabba to'plash, meva yig'ish ham og'ir jinoyatlar hisoblanardi (garchi ularga nisbatan har doim ham o'lim jazosi qo'llanmasa ham).

Oddiy fuqaro ikkinchi bir fuqaroni o'ldirishi yuqorida bayon qilingan jinoyatlar kabi jiddiy hisoblanmas edi. Jinoyatchi ko'pincha jabrlanganning qarindoshlariga ma'lum miqdorda pul to'lab, gunohini yuvishi mumkin edi. Ba'zan esa qurbon bo'lganning oilasi ishni o'zi adolatli hal qilish uchun aybdorni o'ldirar edi. Mana shunday usul bilan jazolash, ya'ni qonli qasos yuzaga keltiradigan muammo shunda ediki, birinchi qotilning oilasi ikkinchi qotilga nisbatan xuddi shu tarzda reaksiya qilishi va shu tariqa qatl qilishlarning uzun zanjiri paydo bo'lar edi. Janubiy Italiyaning ba'zi tumanlarida qonli qasos amaliyoti XX asrgacha davom etdi. U Qo'shma Shtatlardagi raqobatlashayotgan «kriminal oilalar o'rtasida adolatli sudlovni» amalga oshirish maqsadida bugungacha qo'llaniladi.

Baho

Klovard — Elin va Koen tadqiqotlarida konformlik va og'ish o'rtasidagi aloqa ta'kidlanadi: jamiyatdagi ko'pchilik tomonidan qabul qilingan ma'nodagi muvaffaqiyatga erishish imkoniyati yo'qligi jinoiy guruhlariga kirgan va kirmaganlarni tabaqalashtiruvchi asosiy omil hisoblanadi. Shunga qaramasdan, kambag'al tabaqalarning vakillari ham o'ziga to'qroq muhit vakillari darajasida «muvaffakiyat»ga ehgiyoj sezadilar, degan fikr yetarli asosga ega emas. Aksincha ularning ko'pchiligi o'z intilishlarini amaldagi voqyelik bilan bog'laydi. Intilish va imkoniyatlar o'rtasidagi nomutanosiblik faqatgina aholining imtiyozga ega bo'lmagan qatlamlari uchun xos, deb o'ylash ham xato bo'ladi. Kriminal faoliyatga o'tkazilayotgan bosim, ehgimol Merton taklif qilgan og'ishlarning boshqa tiplariga ham bosim o'tkazish, intilish va imkoniyatlar o'rtasidagi tafovut juda katta bo'lganda yuz beradi. Mana shunday tafovut to'g'risida, masalan, «oq yoqali»larning jinoyatlarsh kamomadlar, qalloblik va soliq to'lashdan bosh tortish haqida gapirish mumkin.

Stigmatizasiya nazariyasi

Jinoyatlar qanday sodir etilishini tushunishda yordam beradigan eng muhim yondoshuvlardan biri - stigmatizasiya (ya'ni yorliq yopishtirish, tamg'a bosish) nazariyasidir, garchi bu atama yagona yondoshuvning emas, o'zaro bog'langan g'oyalar guruhini anglatga ham. Stigmatizasiya nazariyasi tarafdorlari og'ishni individ yoki guruh tavsiflarining majmui, deb emas, og'ayotgan xulkli odamlar va og'ishsiz xulkli odamlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayoni, deb talkin qilishadi. Bu nuqqai nazarga ko'ra, og'ishning mohiyatini tushunish uchun avvalo, ba'zi odamlarga nima uchun og'ayotganlar yorlig'ini yopishtirishlarini tushunish kerak. Qonun kuchi va tartibot vakillari yoki o'zining axlokiy ustanovkalarini boshqalarga o'tkaza oladigan odamlar yorliqning asosiy manbai hisoblanadilar. Yorliqlar og'ishning toifasini aniqlash uchun qo'llaniladi va shu tarzda jamiyatdagi hokimiyat tuzilmasini ifodalaydi. Bu og'ishlarni aniqlashda foydalaniladigan qoidalar va sharoitlar kambag'allar uchun boylar tomonidan, ayollar uchun erkaklar tomonidan, kichiklar uchun kattalar tomonidan, mayda etnik birliklar uchun etnik ko'pchilik tomonidan belgilanadi. Masalan, ko'pgina bolalar birovlarining bog'iga tushishadi, deraza oynalarini sindiri-shadi, meva o'g'irlashadi va darslarda qatnashmay yurishadi. Boy hududlarda bunday qilmishlarga otachjalar, o'qituvchilar va polisiya tomonidan unchalik jiddiy bo'lmagan sho'xlik sifatida qaraladi. Qashshoq hududlarda ular ilk yoshlarda jinoiy mayllarning namoyen bo'lishi sifatida baholanadi.

Bolaga jinoyatchi yorlig'i yopishtirilishi bilan, u tamg'a bosilgan hisoblanadi; o'qituvchilar va kelajakdagi ish beruvchilar unga ishonib bo'lmaydigan odam sifatida qaraydilar. Individ yana kriminal harakat sodir etadi va ortodoksal ijtimoiy me'yorlar bilan o'rtadagi tafovutni yana ham ko'paytiradi. Huquqni buzishning dastlabki holatini Envin Lemert birlamchi og'ish, deb ataydi. Ikkilamchi og'ish esa individ o'ziga osilgan tamg'ani qabul kilib, o'zini jinoyatchi sifatida idrok eta boshlaganda yuz beradi.

Shanba oqshomida do'stlari bilan shahardan tashqarida bo'lib, do'kon vitrinasiyning oynasini sindirib qo'ygan bola xulqini ko'rib chiqaylik. Bu xarakat yoshlar uchun kechirimli bo'lgan to'polonchilikning tasodifiy natijasi, deb baholanishi ehtimoli ko'proq. Agar u «respektabelli» oiladan bo'lsa, voqyeaning shunday yakunlanishiga to'la ishonsa bo'ladi. Vitrina oynasi tufayli yuz bergan hodisa, agar yosh yigitcha «tuzuk» ko'rinishga ega bo'lsa, o'sha paytda biroz ehtiyotsizlik qilgan, deb baholanishi mumkin. Biroq polisiya va sudning reaksiyasi keskinroq, aytaylik, shartli hukm chiqarish va vasiylik kengashiga yuborish to'g'risida bo'lsa, bu hodisa ikkilamchi og'ish jarayoniga qo'ygan birinchi kadam bo'lishi mumkin. «Jinoyatchi bo'lishga o'rganish» jarayoni og'ayotgan xulqni tuzatish asosiy vazifasi bo'lgan tashkilotlar - koloniyalar, qamokxonalar tomonidan chukurlashtirib yuboriladi.

Stigmatizasiya nazariyasining muhimligi shundaki, nazariya birorta ham xatti-harakat aslida jinoiy emas, degan farazdan kelib chiqadi. Kriminallikni aniqlash va talqin qilish hokimiyatta ega bo'lgan odamlar tomonidan qonunlarni shakllantirish va ularni polisiya, sud va axloq tuzatish muassasalari talqin qilishi yo'li bilan belgilanadi. Yorliqlar nazariyasining tanqidchilari aytishicha, barcha

madaniyatlar tomonidan man qilingan qotillik, zo'rlash, qaroqchilik kabi harakatlar bor. Bunday nuqtai nazar aslida unchalik to'g'ri emas: hattoki bizning o'z madaniyatimiz doirasida ham qotillik har doim jinoyat, deb baholanavermaydi. Harbiy davrda dushmani o'ldirish ijobiy baholanadi va yaqin vaqtlargacha Britaniya qonunlari bo'yicha ayolning o'z eri tomonidan zo'rlanishi zo'rlik hisoblanmas edi.

Stigmatizasiya nazariyasini boshqa uch yo'nalish bo'yicha ishonchliroq tarzda talqin qilish mumkin. Birinchidan, bu nazariya doirasida yorliqlar yoshdshtirishga urg'u beriladi, og'ma

Bemorlarni ihotalashdan voz kechish

G'arb mamlakatlarida oxirgi 25 yilda majburiy davolash muassasalari mijozlarining ahvoli ancha o'zgardi. Ko'pchilik ruhiy bemorlar va psixofiziologik kamchiliklarga ega bo'lgan odamlar shifoxonalardan chiqarib yuborildi va erkinlikni cheklash uy sharoitidagi kuzatishlar bilan almashtirildi. Bu islohotlar insonparvarlik g'oyalari va iktisod qilishga muayyan intilish tufayli amalga oshirildi, chunki davlatning vasiylik muassasalariga qiladigan xarajatlari anchagina katta.

Dekarserasiya odamlarning ruhiy salomatligiga jiddiy ta'sir o'tkazdi. Liberal kayfiyatdagi ko'pchilik islohotchilar uzoq muddatga gospitalash bilan psixiatriya klinikalari mijozlarining salomatliklariga ta'sir o'tkazmadikmikan, deb xavotir biddirayotgan edilar. Gap shundaki, tashqi olamdan ihotalab uzoq muddat saqlangan odamlar vaqt o'tishi bilan mahbuslik vaziyatiga ijtimoiylashib, shifoxonadan tashqarida yashash qobiliyatini yo'qota boshlaydilar. 1950—1960 yillarda islohotchilarning «shifoxona devorlari bilan hisob-kitob qilish» haqidagi chaqiriqlaridan tashqari, yana ikki yangilik ruhiy bemorlarga bo'lgan munosabatga ta'sir o'tkazdi. Ulardan biri Britaniyada amalga oshirildi. Bu ruhiy muolajanyuy' bir usuli bo'lib, unda individning guruh va jamiyatlar bilan muloqotda kirishish ehtiyojiga alohida ahamiyat beriladi. Ikkinchi va extimol muhimroq yangilik — ruhiy kasallarni va keksa-yosh uchun xos bo'lgan akliy o'zgarishlarni davolashda tub o'zgarishlar yasagan dori-darmonlar bo'ddi. 1955—1974 yillar oralig'ida Britaniyadagi psixiatriya klinikalarida davolanayotganlar soni 30%ga kisqardi, shifoxonadan chiqarilganlarning ko'pchilik qismi katta yoshli odamlar edi. Kaliforniyada-gi davlat klinikalari va munisipial klinikalarida 1975, 1977 yillar oralig'idagi ikki yil davomida qariyalarning soni deyarli 95%ga kamaydi.

«Dekarserasiya» — ko'p mikdordagi odamlarning tashki dunyoga qaytarilishi oqibatlari ruhiy bemorlarning o'zlari uchuy qanday bo'ldi? — degan savol tug'iladi. Ma'lum bo'lishicha, bemorlarning kugganligi oldingiga qaraganda og'irroq ahvolga tushib qolgan. Klinikalardan chiqqandan keyiy ular shunday vaziyatga tushib qolishdiki, atrofdagilar ular haqida g'amxo'rlik qilisha olmasdi yoki qilishni xoxdashmasdi. Psixiatriya klinikalari xarajatlaridan iktisod qilib qolgan hukumat xizmatlari esa kommunal xizmatni yaratish bo'yicha yirik mablag'lar sarf qilishga tayyor emasligi ma'lum bo'lib qoldi. Bundan tashqari, kommunal klinikalar jiddiy va barqaror ruhiy xastaliklarga ro'baro' kelgan odamlarga kanday hajmda yordam ko'rsatishlari xam aniq emas edi. Psixiatriya klinikalaridan chiqqanlarning ko'pchiligi ko'mak yo'kdigi sababli vayronalarga

joylashishdi. Bu yerda ular qashshoqlik va boshqalardan ajralgan holda — xuddi shifoxonalardagiday erksiz, buning ustiga muhofazaning yo'kdigi sharoitida yashay roshladilar.

Maykl Diar va Jennifer Uolsh klinikalarning ko'ggchilik sobiq mijozlari yashayotgan sharoitni «umidsizlik manzarasi», deb atadilar. Biroq, bunday odamlarning hammasi ham shifoxonaga qaytishni xohdar edi, deyish noto'g'ri bo'ladi. Diar va Uolsh jamoatchilikning g'amxo'rlik hakidagi va'dalari amalga oshiriladigan «g'amxo'rlik manzaralari»ni yaratishga chaqirdi-lar. Bu esa tegishli xizmat va qo'nalg'alar yaratishni, vasiylik muassasalaridan chiqarilganlar uchun ish togshsh imkoniyati yaratishni talab qilardi. Mana shunday kontekstda biz ruhiy xastalikdan azob chekayotgan odamlarga haqiqiy ijtimoi g'amxo'rlik ko'rsatilayotgani to'g'risida gapirishimiz mumkin.

Devasiya va ijtimoiy ta'sir

Og'ishlarni faqat negativ asosda olib qarash noto'g'ri bo'lar edi. Odamlarning turli qadriyatlari va manfaatlarini hisobga oladigan har qanday jamiyat xatti-harakatlari ko'pchilik amal qiladigan me'yorlarga mos kelmaydigan ozchilik uchun ham o'rin topishi kerak. Siyosat, fan, san'at yoki inson faoliyatining boshqa sohalarida yangi g'oyalarni rivojlantirayotgan odamlar ortodoksal tamoyillarga amal qiladigan odamlar tomonidan dushmanlik bilan qabul qilinadilar. Amerika inkilobi tomonidan olg'a surilgan shaxs erki va imkoniyatlar tengligi hakidagi siyosiy ideallar hozir butun dunyoda e'tirof etilgan bo'lsa ham, o'sha paytda ko'p odamlar tomonidan noxush kutib olingan edilar. Hukmron me'yorlardan chetga chiqish marddik va kdt'iyatni talab qiladi. Ko'pincha u keyinchalik barcha uchun foydali bo'ladigan o'zgarishlarga juda muxim asos bo'ladi.

Jamiyat nokonformistik xulqqa ega bo'lgan odamlarga keng erkinlik uchun imkoniyatlar yaratib berar ekan, «xavfli og'ishlar» shuning uchun to'lanadigan xaq bo'lishi kerakmi? Masalan, jinoyatchilikning yuqori darajaga chiqipsh jamiyatning o'z fuqarolariga yaratgan individual erkinliklar evaziga to'laydigan bahosimi? Ba'zilar, xulq-atvorning qat'iy qoidalari bo'lmagan jamiyatda zo'rlik bo'lishi muqarrar, deyuvchi odamlar shu taxlit fikr yuritishadi. Biroq bu fikr sinchikla o'rganilsa, uning mantiqan izchil emasligiga ishonch hosil qilish mumkin. Ba'zi jamiyatlarda individual erkinliklarning keng majmuasi mavjud, og'ayotgan xulqqa esa bag'rikenglik bilan munosabatda bo'lishadi (masalan, Gollandiyada) va ayni paytda bu yerlarda jinoyatchilik darajasi past. Ikkinchi tomondan esa, e'tiborni nar hayvonlarning atvoriga qaratadi. Ularnyng ta'kidlashicha, hayvonlarning xulq-atvorini o'rganish shuni isbotlaydiki, urg'ochilarga qaraganda narlar tajovuzkorroq, lekin shu bilan birga, ularning turini hisobga olgan holda ko'rish mumkinki, bu vaziyatda ham katta farq bo'lishi mumkin. Masalan, tajovuzkorlikning farqi gibbonlarda jinsiga qarab yorqin ko'zga tashlanmaydi, babuinlarda esa bu farq sezilarlidir. Bundan tashqari jonivorlarning aksariyat urgochilari ay-rim hollarda, xususan, agar ularning bolalariga xavf tug'ilgan bo'lsa tajovuzkorroq bo'ladi.

Inson bilan bog'liq faktlar

Jismoniy rivojlanishning kam uchraydigan tug'ma nuqsonlarini tadqiqot qilish bizga jinsiy farqqa tegishli eng yorqin faktlarni beradi. Ushbu nuqsonlar orasida feminizasiyaning testikulyar sindromi va androgenital sindromni ajratishimiz mumkin. Birinchi holatda odam normal xromosomalar to'plami, urug' bezlari va gormon almashuvi bilan dunyoga keladi. Agar uni qaysi jinsga taallukliligini aniqlash uchun tahlil qilinsa (masalan, Olimpiya o'yinlari ayol ishtirokchilari o'tadigan tekshiruv), shu narsa ayen bo'ladiki, tekshirilayotgan odam erkak bo'lib chiqadi. Ammo embrional rivojlanish davrida uning genital to'qimalari testosteron bilan reaksiyaga tushmagani tufayli, ular ayollar jinsiy a'zolarini vujudga keltiradi. Bunday bolalarni ko'pincha qiz bolalardek qabul qilishadi va shunga moslab ularni tarbiyalashadi, chunki ularning rivojlanishida birinchi hayz ko'rgunga qadar hych qanday g'ayritabiiy hol sezilmaydi. Androgenital sindrom buning aksini ko'rsatadi. Bu bolalarning ba'zilar ham erkak, ham ayol jinsiy a'zolariga ega; jarrohlik aralashuvi natijasida ularga ayol a'zolari shakli berilishi mumkin. Biroq, ko'pgina bunday bolalar o'g'il bola sifatida tarbiyalanadi, ulardagi nonnormallik esa nisbatan keyingi bosqichda qo'zga tashlanadi.

Bu misollardan ma'lum bo'lishicha, jismoniy rivojlanishning nonfmalligi tadqiqotlar, biologik belgilarga qarama-qarshi ravishda o'g'il bolalar va qizlarning yurish-turishidagi farqlarni chuqurlashtirish uchun ijtimoiylapgishning muhimligini tan olish zaruratiga olib keladi. Erkak xromosomalariga ega, ammo tushlganidan "qiz bola" deb hisoblangan bolalarda, odatda, ayollarga xos shaxs xususiyatlari, odat va ko'nikmalar rivojlanadi. Boshka tomondan, tug'ilganidan o'g'il bola sifatida muomala qilinadigan qiz bolalarda erkaklarga xos shaxs xususiyatlari paydo bo'ladi. Bu holatni tavsiflash uchun o'xshash egizaklar bilan bog'liq taniqli misol to'g'ri ke-ladi. O'xshash egizaklar bitta tuxumdan rivojlanadi va butunlay bir xil genetik to'plamga ega. Egizak aka-ukalarning biri sunnat kilinganda jiddiy jarohatlandi va uning jinsini o'zgartirishga qaror qilindi. Keyinchalik bu bola qiz bola sifatida tarbiyalandi. Olti yoshgacha- bolalar ustidan olib borilgan quzatishlar g'arb madaniyatida erkak va ayol jinsiga xos jihatlarni ko'rsatdi. Qiz bola qizlar bilan o'ynashni yaxshi ko'rar, onasiga qarashar va katta bo'lganda "turmushga chiqish"ni istardi. O'g'il bola esa boshqa o'g'il bolalarga qo'shilar, avtomobillar o'ynashni yaxshi ko'rar, katta bo'lganda o't o'chiruvchi yoki polisiyachi bo'lishni istar edi.

Bu misol ba'zida jinsiy farqlarga qaraganda ijtimoiy ta'limning ustunligini tasdiqlovchi asosiy dalil sifatida keltiriladi. Biroq, bo'yi yetib qolgan qizdan televizion qo'rsatuv paytida so'ralganda, u o'z jinsini aniqlashda katta qiyinchiliklar sezayotgani ma'lum bo'ldi. U o'zini balki "haqiqatdan ham" o'g'il boladek his qilardi. (Bu vaqtga kelib qiz o'z kelib chiqishi haqida ba'zi ma'lumotlarni bilardi. Albatta, bu uning o'zi haqidagi tasavvuri o'zgarishiga olib kelgandi.)

O'tkazilgan tadqiqot biologik sabablar erkak va ayollarning yurish-turishidagi farqlarga ta'sir ko'rsatmasligini anglatmaydi. Lekin ular mavjud bo'lsa-da, ularning psixologik tabiati yetarli darajada o'rganilmagan. Ko'pgina olimlar dunyoga mashhur genetik olim Richard Yevontinning xulosalariga qo'shilsa kerak:

Odam o'zini kimga o'xshatishi — erkak yoki ayolgami — uning xarakteridagi aksariyat xususiyatlar, g'oya va istaklar kabi, birinchi navbatda, u bolalikda qaysi jinsga mansub topilganiga bog'liq. Voqyealarning odatdagi rivojlanishida unga "belgilangan" jins xromosoma, gormon va morfologiyadagi odatdagi biologik farqlarga muvofiq keladi. Shunday qilib, biologik farqlar ijtimoiy farqlanishning sabablaridan ko'ra, ko'proq signaliga aylanadi.

4 mavzu: UMUMIY SOSIOLOGIYA DA GENDER MUAMMOSI.

Reja:

- 1. Ijtimoiylashuv jarayonlarida gender masalalari.**
- 2. Gender o'xshashlik bo'yicha nazariyalar.**
- 3. Mehnatdagi tengsizlik va uning oldini olish chora tadbirlari.**
- 4. Ayollar harakatining o'ziga xos tarzda namoyon bo'lishi.**

Ilmda gender belgisi bo'yicha farqlar kay tarzda rivojlanishiga bag'ishlangan qator tadqiqotlar o'tkazildi. Gender kamsitishning aksariyat shakllari yuqorida aytib o'tilgan tug'uruqxonadagi gaplardan qo'ra nozikroq, ammo shunday bo'lsada, ular juda rivojlangan va keng tarqalgan.

Ona va bola o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, o'g'il va qiz bilan ota-onalar, hych qanday farq qilishmayotganligiga ishonch hosil qilgan bo'lsalar ham, turlicha muomala qilishadi. Kattalardan bolani tavsiflashni so'rashganda, javoblar ularning fikricha bola qaysi jinsga mansubligiga qarab farqlanardi. Bir tajriba davomida beshta yosh ona ustidan kuzatuv olib borildi.

Erkaklar xukmronligi

Erkaklar va ayollarning turli jamiyatlardagi vazifasi farqlansa-da, hozirgacha ayollar ustunlik qiladigan jamiyat uchramagan. Barcha joyda ayollarning birinchi gadsagi vazifasi bola tarbiyasi va uy-ro'zg'or ishlari hisoblangan, siyosiy va harbiy faoliyat esa erkaklar ixtiyorida qolgan. Dunyoda erked* lar bolalar tarbiyasi uchun to'liq javobgar bo'lgan joy yo'q. Ayni paytda, mol boqish, hayvon ovlash va dehqonchilik ayollar zimmasiga yuklangan jamiyat ham yo'q. Sanoati rivojlangan davlatlarda mehnat taqsimoti bunchalik yaqqol namoyon bo'lmasa-da, hukmron doiralarda baribir erkaklar ustun.

Erkaklar ustunligi odatda «patriarxat» atamasi bilan izoh-lanadi. Biroq patriarxat nima sababdan umumiy bo'shashish kerak? Bu savolga turlicha javob berish mumkin, eng oddiysi quyidagicha: ayollar farzandni dunyoga keltiradi va boqadi, ayni paytda bolalar ko'p e'tibor talab qiladi. Demak, onalik ayol uchun asosiy vazifa bo'lib qoladi. Chodorou dastavval shunga e'tibor qaratadi. Onaning bolasiga tabiiy yaqinligi shunga olib keladiki, u keyinchalik ham bolasiga g'amxo'rlik qilishda davom etadi. Ayollarning bu vazifasi barcha madaniyatlarga

xos: shuning uchun ayollar uchun uy ishi asosiydir. Fransuz yozuvchisi Simona de Bovuar aytganidek, ayollar ijtimoiy hayotda ishtirok etmay qo'ygani uchun ikkinchi darajali jinsga aylanib qolganlar. Erkaklarning ayollardan ustunligi jismoniy kuchi yoki akli tufayli emas. Ayollar homiladorlikning oldini olishda faqat o'z jinsi xususiyatlarigagina tayanishi mumkin edi. Ko'p farzand ko'rish va uy-ro'zg'or ishlarining ko'pligi ularni erkaklarga qaram kilib qo'yardi.

Xotin-kizlar va ish joyi: tarixiy sharh

Sanoatgacha bo'lgan jamiyatning aksariyat qatlamlari uchun (zamonamizdagi «uchinchi dunyo» mamlakatlari uchun) ishlab chiqarish faoliyati va uy ro'zg'or ishi ajratilgan emas edi. Ishlab chiqarish uyda yoki uy yaqinida olib borilar edi. O'rta asrlar Yevropasida oilaning barcha a'zolari birga dehqonchilik qilar yoki hunarmandchilik bilan shug'ullanar edi. Shaharlarda ustaxonalar uy ichida joylashgan bo'lib, barcha ishlab chiqarish bilan mashg'ul bo'lar edi. Masalan, gazmol to'qipshi olsak, bolalardan tortib, kattalargacha bu jarayonda ishtirok etar edi. Ayollar va bolalar non pishirish va tikuvchilik, etiqdo'zlikda erkaklar bilan baravar ishlar edi. Ishlab chiqarishdagi o'rni tufayli ayollar uyda katga obro'ga ega edi, vaholanki siyosat yoki urushga ular yaqinlashtirilmas edi. Hunarmandlar va fermerlarning buxgalterlik hisob-kitoblarini ko'pincha xotinlar yuritardi, erining o'limidan so'ng uning ishini xotini davom ettirardi.

Sanoat rivojlanib, sharoit o'zgargach, vaziyat ham o'zgardi. Endi asosiy ishni mashinalar bajarar, ularni vazifalari aniq belgilangan odamlar boshqarar edi. Ishchilar bilan shartnoma tuzilar, endi oila a'zolari ishga jalb qilinmas edi. Biroq Buyuk Britaniya va boshqa Yevropa mamlakatlarida oila-ni butunisicha ishga yollash davom etgan.

Bunday chegaralash tartibi yo'q bo'lgach, uy bilan ishning farqi yaqqol namoyon bo'ldi. Ayollar uydagi mulk deb qaraladigan bo'ddi. Jamiyatning turli qatlamlarida ayol kishining joyi — uyda degan qarashga turlicha munosabat mavjud edi. Boy ayollar xizmatkor va enaga yollar, kambag'allar esa qiynalar edi. Ular ham uyda ishlar, ham ishlab, ham eriga qarashishi kerak edi.

XIX asrning ikkinchi yarmigacha ayollar ijtimoiy mehnatga keng jalb etilmagan edi. 1910 yilgacha Buyuk Britaniyada ish-laydigan ayollarnysh uchdan biri yoki xizmatkor yoki enaga edi. Asosan, turmushga chiqmagan qizlar ishlar edi; ularning oyli-gi ota-onasiga jo'natilar edi. Erga tekkach ular ishdan bo'shar edi. O'shandan buyon ishchilar orasida ayollar soni doimiy ravishda ortib bordi. Birinchi jahon urushida ishchi kuchining yetishmasligi bunga muhim omil bo'ldi. Urush paytida ayollar erkaklar bajaradigan ko'p ishlarni qilishgan. Urushdan qaytgach, erkaklar yana o'z o'rinlarini egallashdi, biroq ortga yo'l yo'q edi. Bugungi kunda Yevropa mamlakatlarining aksariyatida, jumladan, Buyuk Britaniyada 16 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan ayollarning 50%i ish haqi to'lanadigan doimiy ish joyiga ega. Ayniqsa, oilali ayollar orasida bandlik keng tarqalgan. Buyuk Britaniyada bolasi 3 yoshgacha bo'lgan ayollarning 40%i uydan tashqarida mehnat qiladi. Ayni paytda haq to'lanadigan mehnat bilan band bo'lgan erkaklarga nisbatan bunday ayollar kamdir. 25 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan erkaklarning 80 %i haq to'lanadigan ishga ega. Ayollar bandligining ko'payishi

erkaklarni siqib chiqarish evaziga emas, umumiy ish joyining ko'payishi tufayli sodir bo'lgan.

Mehnatdagi tengsizlik

Hozirgi paytda ishchi-ayollar aksariyat hollarda kam ish haqi to'lanadigan og'ir mehnatni bajaradi. Bunday holat bandlik tizimidagi o'zgarishlar bilan bir qatorda, shuningdek, xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rniga eskicha yondashuv ta'siri natijasida vujudga kelgan. Idora xizmatining moxiyati va nufuzida o'zgarishlar bo'lgani bunga yaxshi misoldir. 1850 yilda Buyuk Britaniyada klerklarning 99%i erkaklar edi. Xizmatchi bo'lish degani, odatda, mas'uliyatli.davozimni egallash, hisob-kitob ishlarini bilish va kerak bo'lsa, boshqaruvchi vazifasi-ni zimмага olishni nazarda tutar edi.

Fransiyadagi dastlabki feminizm

Ayollar huquqini himoya qiluvchi dastlabki faol guruhlar 1789 yilgi fransuz inqilobidan keyin paydo bo'lgan edi. XVIII asrning 90-yillarida tenglik va ozodlik g'oyalari ta'sirida qator shaharlarda bir necha ayollar klublari tashkil etiladi. Ularda ayollar to'planib, ta'lim, mehnat, jamiyat ish-larini boshqarishda ishtirok etishga da'vat qiluvchi siyosiy dasturlar ishlab chiqishgan. Shunday klublardan birining rah-bari Mari Juz «Ayollar huquqlari deklarasiyasi» deb nomlangan chaqiriq yaratgan. Bu hujjat inkilobning asosiy konstitusiyaviy hujjati bo'lgan «Inson va fuqaro huquqlari deklarasiyasi»ga asoslangan edi. Chaqiriqning muallifi ta'kidlashicha, erkinlik va teng fuqarolik huquqi faqat erkaklarga tegishli bo'lib, jamiyatning yarmi ana shunday ustuvorliklardan mahrum bo'lgan sharoitda haqiqiy tenglikka erishib bo'lmaydi. Inqilob rahbarlari bu chaqiriqqa qo'shilmadi va Mari Juz qatl etildi. Ayollar klublari hukumat dekretiga ko'ra tarqatib yuborildi. Shundan so'ng feministik guruhlar g'arb mamlakatlarida bot-bot tashkil topgan va qayta tashkil etilgan, ko'pincha noxush qarashlarga duchor bo'lib, hukumat tomonidan tazyiqqa uchragan. Biroq-Mari Juz feministik harakat uchun jon fido qilgan yolg'iz ayoligicha qoldi.

Qo'shma Shtatlarda ayollar xuquqi uchun kurash

XIX asrda feminizm ko'proq Qo'shma Shtatlarda rivoj topdi. Boshqa mamlakatlardagi xotin-qizlar harakatlari yetakchilari amerikalik ayollarning o'z huquqi uchun kurashini o'ziga namuna, deb bilgan. 1830—1850 yillarda amerikalik feministlar qullikka qarshi kurashuvchi guruhlar faoliyatida ishtirok etgan. Bu boradagi hujjatlarga ko'plab ayollar imzo chekkan. Ayni paytda rasmiy siyosiy huquqlarga ega bo'lmay turib, ayol-lar siyosiy ta'sir ko'rsata olmas edi. 1840 yilda Londonda o'tkazilgan qullikka qarshi kurash masalasiga bag'ishlangan, umumjahon konferensiyasida bironta ayol ishtirok etmagan. Bu fakt ayollarni jinslar tengsizligi muammosiga murojaat etishiga sabab bo'ldi. 1848 yilda AQSh xotin-qizlar harakati yetak-chilari uchrashib, amerikaliklarning «Mustaqillik deklarasiyasi»ga o'xshash «hissiyotlar deklarasiyasini qabul qilishdi. «Bizningcha, shu narsa tabiiyki, barcha ayollar va erkaklar teng huquqli qilib yaralgan». Ushbu hujjatda ayollargambo'lgan adolatsiz munosabat misollari keltirilgan, Biroq bu davr ayollarning ijtimoiy va siyosiy ahvolidan sezilarli o'zgarishlarga olib kelmadi. Qullik barham topgach, Kongress fakat ozod etilgan qul-erkaklargagina saylov huquqini berdi.

AQShda xotin-qizlar harakatining dastlabki davrida qora tanli amerikaliklar muhim rol o'ynadi, vaholanki oq tanli amerikalik ayollar ularga qarshi chiqar edi. Sojuner Tras qora tanli ayol bo'lib, u ham qullikka hamda ayoYalkrt ovoz berip dan mahrum etishga qarshi kurashgan edi. U o'ggan asrning 50-yillarida Indiana shtatida ehtiros bilan nutq so'zlayotgani-da, oq tanli ayollardan biri unga shunday deb baqirdi: «Sening ayel ekaningga ishonmayman!» Bunga javoban S.Trans ko'kraklarini yalongochlab ko'rsatdi. 1852 yili Akron shahrida (Ogayo shtati) nutq so'zlayotgan paytida unga baqiriq-chaqiriqlar bilan xalaqit berishga urinishgan. U barcha qarshiliklarni yengib, ayollar harakatiga o'z hissasini qo'sha oldi. Biroq boshqa qora tanli ayollar oq tanli ayollar bilan birga kurashishga urinib, hafsalasi pir bo'lganlar. Shundan beri feministlar orasida qora tanli ayollar kam uchraydigan bo'ldi.

Yevropada xotin-kizlar qarakatining rivojlanishi

Yevropada xotin-kizlar harakatining paydo bo'lishidagi muhim voqyealardan biri — 1866 yilda 1500 nafar ayol tomonidan imzolangan petisiyaning Angliya parlamentiga topshirilishi bo'ldi. O'sha paytda saylov huquqi isloh qilinayotgan edi va ayollar xotin-qizlarga to'liq saylov huquqining berilishini talab qilishdi. Petisiya e'tiborsiz qoldiriddi. Oradan bir yil o'tgach, ayollar «Xotin-qizlarning saylov huquqlari uchun kurashuvchi Milliy jamiyat»ni tashkil etdilar. Bu guruh ayollari sufragistkalar, deb nom qozondi. XX asrga kelib, Angliyada feministlar harakati ta'sir kuchiga ko'ra AQShdagi shunday harakatga tenglashib qoldi. Ikki mamlakatda ham ko'pincha namoyishlar o'tkazilar edi. 1908 yilning iyunida Londonda ommaviy miting bo'lib o'tdi va unda yarim milliongy yakin odam ishtirok etdi. Bu davrda feministlar harakati Yevropaning asosiy mamlakatlarida, shuningdek Avstraliya va Yangi Zelandiyada rivoj topdi.

Sufragistlarning atoqli namoyandasi Emmelin Pankxerst AQSh bo'ylab bir necha bor targ'ibot safarlarida bo'ldi. Bu kurashga qo'shilgan ikkita amerikalik ayol — Elis Peyn va Xarriyet Stanton Blatch 1910 yillarda qator namoyishlar uyushtirishda qatnashdilar.

1920 yildan so'ng Buyuk Britaniya va boshqa mamlakatlarda xotin-qizlar harakati kasodga uchradi. Biroq bu paytda g'arbning qator davlatlarida (masalan, 1928 yili Buyuk Britaniyada) teng saylov huquqiga erishildi. Xotin-qizlar boshqa jamoatchilik harakatlarida ishtirok etishga intilgan (masalan, ularning ko'pchiligi antifashistik harakatga qo'shilgan) edilar. Ayni paytda harakat rivojida sustlik namoyon bo'ddi. Teng Yevropasidagi kabi feodal tizimlarda tabaqalar mahalliy feodal jamoalar bilan bog'liq edi — o'yining har birida o'z stratifikasiya tizimi shakllangan. Ko'proq markazlashtan davlatlarda, masalan, Xitoy yoki Yaponiyada tabaqalar butun davlat miqyosida shakllanar edi. Ba'zan tabakalar diniy qarashlarga asoslanib farqlanar edi, lekin bu farqlar induizm kastalar tizimichalik qatiy emas edi.

5 mavzu: UMUMIY SOSIOLOGIYADA STRATIFIKASIYA NAZARIYASINING NAMOYON BO'LIH SHAKLLARI.

Reja:

- 1. Ijtimoiy stratifikasiya tizimlari.**
- 2. Zamonaviy jamiyatlarda stratifikasiya nazariyasi.**
- 3. Sinfiy tuzilmadagi o'zgarishlar.**
- 4. Gender va stratifikasion tasnif**

Sinfiy tizimlar quldorlik va kasta tizimlaridan ko'p jihatlardan farq qiladi. Ularning to'rt asosiy xususiyatini ko'rib chiqamiz.

1. Boshqa stratalardan farqli o'laroq, sinflar qonun yoki urf-odatlar bilan belgilangan tug'ma xislatlarga aloqador emas. Sinfiy tizimlar, boshqa stratifikasiya tizimlariga qaraganda, ancha elastikdir, sinflar o'rtasida hech qachon aniq belgilangan chegara bo'lmaydi. Turli sinflarda insonlar o'rtasig; dagi nikohlarga hech qanday rasmiy to'siqlar yo'q.

2. Sinfga mansublik shaxs tomonidan qozoniladi, boshqa stratifikasiya tizimlaridagi kabi meros bo'lib qolmaydi. Ijtimoiy harakatchanlik — sinfiy tuzilma ichida yuqori va pastga siljish bu yerda boshqa tizimlardan ancha avvalroq pay-do bo'lgan (masalan, kastalar tizimida shaxsning bir kastadan boshqasiga o'tishi umuman mumkin emas).

3. Boshqa stratifikasiya tizimlarida noiqtisodiy omillar yetakchi rol o'ynasa (masalan, hind kastalar tizimida — din), sinflar insonlarning iqtisodiy ahvolidagi farqlar, moddiy resurslarni boshqarish va ularga ega bo'lishi bilan bog'liq.

4. Boshqa stratifikasiya tizimlarida tengsizlik birinchi o'rinda insonlar shaxsiy munosabatlarida huquq va majburiyat larning farqliligidan namoyon bo'ladi, sinflar tizimi esa, aksincha katta miqyosdagi shaxssiz munosabatlarda, masalan, sinfiy bo'linishning eng muhim omillaridan biri — har qanday kategoriya vakillariga tegishli bo'lgan va o'z navbatida) umumiy iqtisodiy ahvolga bog'liq bo'lgan mehnat qilish va haq to'lash sharoitlaridir.

Sinflarning moddiy boyliklarga ega bo'lishi va buning natijasida hayot tarzi jihatidan bir-biriga yaqin insonlarning yirik guruxi, deb ta'riflash mumkin. Sinfiy farqlanish birinchi o'rinda insonlarning moddiy farovonligi va maslagiga bog'liq. Hozirgi zamon g'arb jamiyatida quyidagi sinflar mavjud: yuqori sinf (boy, tadbirkorlar, sanoatchilar va ishlab chiqarish vositalarini bevosita nazorat qiluvchi yuqori tabaqa rahbarlari), o'rta sinf (ko'pchilik xizmatchilar va mutaxassislar) va ishchi sinfi (jismoniy mehnat bilan band odamlar). Ba'zi industrial davlatlarda, masalan, Fransiya va Yaponiyada, to'rtinchi sinf — an'anaviy qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanuvchi dehqonlar yaqinlash muhim rol o'ynab kelgan. Uchinchi dunyo mamlakatlarida dehqonlar hozir ham eng ko'p sonli sinfni tashkil etadilar.

Endi zamonaviy jamiyatlarda yuzaga kelgan holatga alohida e'tibor berib, stratifikasiya haqidagi eng muhim sosiologik nazariyalarni ko'rib chiqamiz.

Zamonaviy jamiyatlarda stratifikasiya nazariyasi

Eng mashhur nazariy yondashuvlar Maks Veber (1864—1920) tomonidan ishlab chiqilgan. Ularning g'oyalari keyin ishlab chiqilgan deyarli barcha

stratifika-siya nazariyalariga asos bo'ldi. Ulardan tashqari, biz Erik Olin Rayt va Frenk Parxinning yangi nazariyalarini ko'rib chiqamiz. Maks va Veber goyalari umuman sosiologiya va uning alohida sohalari rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. Ular ijodining turli jihatlariga biz keyinroq murojaat qilamiz.

Maks Germaniyada tug'ilgan, lekin hayotining asosii qis-mini Buyuk Britaniyada o'tkazgan. Uning goyalari doimo ziddi-yatli bo'lgan. Ko'pchilik mualliflar, shu jumladan Maks Veber ham, uning siyosiy qarashlarini inkor qila turib, ko'pincha, ularga asoslangan.

Maksning ko'p asarlari stratifikasiya mavzusi bilan va birinchi o'rinda, ijtimoiy sinf tushunchasi bilan bog'liq, biroq, qizig'i shundaki, u bu tushunchaning sistematik tahlilini bermagan. Maks to o'limigacha ishlagan qo'lyozmasi (keyinchalik uning asosiy asari — «Kapital» ning bir qismi sifatida chop etilgan) «Sinfni nima tashkil qiladi?» degan savolga to'xtagan. Shunday qilib, Maksning sinf tushunchasi uning butun ilmiy merosi ichidan yig'ib olinishi kerak. Uning sinflar mavzusiga ko'plab murojaatlari ba'zan bir-biriga zid kelib qolishi tufayli, olimlar doimo Maks bu gal nimani nazarda tutayetgedshigi haqida bahs yuritadilar. Shunga qara-may, uning konseshshyasidagi asosiy jihatlar aniq va rav-shan.

Sinf tabiati

Maks uchun sinf — bu o'z hayotlarini ta'minlash uchun foydalanadigan ishlab chiqarish vositalariga bir xil munosabatda bo'lgan odamlar guruhidir. Zamonaviy sanoat paydo bo'lguncha asosiy ishlab chiqarish vositalari — dehqonchilik va chorlari, ilmiy darajalar, unvonlar, dillomlar va professional tayyorgarlik ularga mehnat bozorida bunday dishyumlarga ega bo'lmaganlar oldida katta ustunlik beradi. Xuddi shu tarzda, ishchilar orasida ham tajribali va malakalilarga boshqalarga nisbatan ko'proq ish haqi to'lanadi.

Ikkinchidan, Veber sinfdan tashqari stratifikasiyaning yana ikki muhim jihatini ajratadi. Biriga u status (mavqye) deb, ikkinchisiga — partiya deb nom berdi. Amalda Veber o'rta asrlardagi tabaqalarni tahlil qilish natijasida olgan mavqye guruhi tushunchasini moslashtirdi (nemis tilida har ikki tushuncha ham bir so'z yordamida ifodalanadi).

Status

Status tushunchasi turli ijtimoiy guruhlarning jamiyatda turli darajada obro'ga ega bo'lishi bilan bog'liq. Muayyan mavqyeni boshqalardan ajratib turadigan xususiyatlari sinfiy bo'linishga bog'liq bo'lmagan holda o'zgarib turishi mumkin: ijtimoiy obro' ham ijobiy, ham salbiy bo'lishi mumkin. Ijobiy imtiyozlarga ega mavqye guruhlari mazkur ijtimoiy tgoim ichida obro'ga ega bo'lgan odamlar kiradi. Masalan, ingliz jamiyatida vrachlar va ddktorlar katta obro'ga egalar. Salbiy imtiyozlangan mavqye guruhlari pari guruhlari kiradi. Aynan o'shalar, boshqa guruhlar uchun ochiq bo'lgan imkoniyatlarni cheklovchi diskriminasiya qurbonlarita aylanadilar. O'rta asrlarda Yevropada bunday pariylar guruhlari buri yahudiylar edi. Ularga ba'zi faoliyat turlari bilan shug'ullanish va jumladan davlat amallarini egallash man kilinar edi.

Boylikka ega bo'lish, odatda, obro'ga bog'liq, lekin bunda ko'plab istisnalar mavjud. Masalash «oliyjanob kambag'allarning» mavjudligi bunga isbot bo'la oladi. Buyuk Britaniyada aristokrat oilasidan chiqqan odamlar, bor mol-mulkini

yo'qotsalar ham, katta hurmat va obro'ga ega bo'lib qolaveradilar. Va, aksincha, «yangi boylarga» an'anaviy yuqori sinf mensimay qaraydi.

Sinfga mansublik obyektiv ko'rsatkich bo'lsa, mavqye, aksincha, subyektiv baholashga bog'liq. Sinflar, iqtisodiy omillar davlat va daromad bilan bog'liq, mavqye guruhlarning turli hayot tarzi bilan belgilanadi.

Hozirgi jamiyatlarda, deydi Veber, sinf va statusdan qat'iy nazar, stratifikasiyaga ta'sir o'tkazuvchi partiyalar hokimiyatlarning muhim vositasi bo'lib qolmoqda. «Partiya» — kelib chiqishi, maqsadlari va manfaatlari bir xil bo'lgani sababli birga faoliyat yuritadigan insonlar guruhidir. Maks turli status va partiyalar shakllanishini sinf tushunchasidan foydalanib izohlagan. Biroq, Veberning hisoblashicha, na statusning shakllanishiga, na partiyalar tashkil topishiga fakatgina sinflar nuqqai nazaridan izoh berib bo'lmaydi. O'z navbatida, status va partiyaga mansublik turli insonlar va guruhlarning, ya'ni sinflarning iqtisodiy ahvoriga ta'sir qiladi. Partiyalar sinfiy farqlarga zid bo'lgan his-tuyg'ularga, masalan, din yoki millatchilik g'oyalariga asoslangan bo'lishi mumkin. Maksistlar Shimoliy Irlandiyadagi katolik va protestantlar o'rtasidagi nizolarni sinfiy kurash nuqtai nazaridan izohlashga urinishlari mumkin, chunki ishchilar orasida katoliklar ko'proq. Lekin Veberning izdoshlari bu izohni qoniqarsiz deb topadilar, chunki ko'pchilik protestantlar ham ishchi sinfidan kelib chiqqan. Mazkur odamlar mansub bo'lgan partiya-lar ham sinfiy, ham diniy farqlarni ifodalaydi.

Veberning stratifikasiya hakidagi asarlari shuni ko'rsatadiki inson hayotiga, sinfiy mansublikdan tashqari, boshqa stratifikasiya turlari ham katta ta'sir o'tkazadi. Ko'pchilik sosiologlar bunday yondashuvga ko'sshladilar, chunki Veber sxemasi stratifikasiya tahlili uchun moslashuvchan va takomillashgan asos yaratadi.

Zamonaviy sinf nazariyasi

Veber g'oyalari zamonaviy sosiologiyada modifi-kasiyalashgan ko'rinishda keng ko'llaniladi. Bu nazariyalar ko'p jihatlardan o'xshash bo'lgani va bir-birini to'ldirib turishi sababli, ularni umumlashtiruvchi yangi nazariyalar paydo bo'lmoqsa. Ikki zamonaviy nazariy konstruksiyaga murojaat qilib bunga ishonch hosil qilish mumkin.

Erik Olin Rayt: sinflar nazariyasi

Amerikalik sosiolog Erik Olin Raytning nuqtai nazari ko'p jihatdan Maks ta'limotiga asoslanadi, biroq Veberning ham bir qator g'oyalarini o'z ichiga oladi. Rayt konsepsiyasiga ko'ra, zamonaviy kapitalistik ishlab chikarishda iqtisodiy resurslar ustidan nazoratning uch turi mavjud. Ularga asoslanib asosiy sinflarni aniqlash mumkin.

1. Investisiyalar va moliyaviy kapital ustidan nazorat.
2. Ishlab chiqarish vositalari (yer, korxonalar, binolar) ustidan nazorat.
3. Ishchi kuchi va hokimiyat ustidan nazorat.

Aholining kapitalistlar sinfiga mansub bo'lgan qismi Ulardan hyech bo'lmaganida birini nazorat qiladi. Ishchi sinfi vakillari biror narsani nazorat qilishdan mahrumlar. Lekin, bu asosiy sinflardan tashqari, shunday guruhlar borki, ularning holati noaniq. Bunday odamlarga, deydi Rayt, teskari sinfiy holat xosdir,

chunki ular ishlab chikariishing ba'zi jihatlariga ta'sir o'tkaza oladi, boshqalari ustidan esa nazoratdan mahrumlar. Masalan: aqliy mehnat bajaruvchilar, «oq yoqalilar» xuddi ishchilar singari o'z mehnatini tadbirkorga sotadi. Lekin ular o'z mehnat sharoitlarini ishchilarga qara-ganda ko'proq nazorat qilish imkoniyatiga egalar. Rayt bunday holatni «teskari» deydi, chunki bunday xizmatchilar na kapitalist, na ishchi sinfiga mansub emaslar, lekin har ikkala-siga o'xshash jihatlariga egalar.

Frenk Parkin: Veberga yondashuv

Britaniyalik muallif F.Parkin tomonidan taklif etilgan yondashuv Maksnikidan ko'ra ko'proq Veber ta'limotiga asoslangan. Parkin ham Veber singari, sinfiy struktura negizi ishlab chiqarish vositalariga egalikdan iborat, degan fikriga qo'shiladi, lekin uning fikricha, mulk ozchilik tomonidan monopollashtirib olinib, hokimiyatga erishishda foydalaniladigan ijtimoiy to'siqlardan faqatgina bittasidir. Ijtimoiy to'siqlar qo'yish guruhlarining ishlab chiqarish vositalarini nazorat qilishda yakkahokimlikka erishish uchun qilgan harakatlari, deya ta'riflanishi mumkin. Boylik va ishlab chiqarish vositalariga egalikdan tashqari, ijtimoiy to'siqlar o'rnatish uchun, Veber fikricha etnik mansublik, til yoki din kabi status farqlaridan foydalanish mumkin.

Ijtimoiy to'siqlar shakllanishi negizida ikki tur jarayon yetadi. Birinchisi — ajratish strategiyasi. Uning yordamida guruhlar moddiy resurslarga begonalar yetishishining oldini oladilar. Masalan: AQShdagi oq tanlilar kasaba uyushmalari, imtiyozlarini saqlab qolish maqsadida, o'z saflariga qora tanlilarni kiritmas edilar. Ikkinchi tur — uzurpasiyaga — kamroq imtiyozga ega bo'lgan tabaqalarning boshqalarga tegashli resurslarni egallab olishga intilishlari kiradi: qora tanlilarning kasaba uyushmalarida tenghuquqlik uchun kurashi shu tarzda o'tgan.

Ba'zi sharoitlarda har ikkala strategiyani birgalikda qo'llash mumkin. Kasaba uyushmalari, masalan, ish beruvchilarga nisbatan uzurpator strategiyasini qo'llay turib, firma daromadlaridan kattaroq ulush olish maqsadida namoyishlar uyushtiradilar. Ular o'z saflariga ztnik guruhlar vakillarini ki-ritmasligi mumkin. Parkin buni qo'sh to'siq deb ataydi. Bu borada Parkin va Raytning qarashlari o'xshashdir. Qo'sh to'siq ham Rayt teskari sinfiy holatni tahlil qilishda ko'rib chiqqan jarayonlarni aks ettiradi. Bu ikkala tushuncha ham shundan dalolat beradiki, stratifikasiya tizimining o'rtasida joylashganlar yuqoridan ko'z uzmaydilar quyidagilarni esa o'zlaridan uzoqlashtirishga intiladilar.

Ba'zi mualliflar bugungi kunda sinflar o'z ahamiyatini yo'qotgan deb hisoblaydilar. Ular bundan bir yarim asr avval, sanoat kapitalizmi shakllanishi davrida, sinfiy farklar katta ahamiyatga ega bo'lgan, degan fikrga qo'shiladilar. Hatto, Veber nazariyalarga o'ta tanqidiy yondashadiganlar ham ishchilar va ish beruvchilar o'rtasida o'taketgan tengsizlik mav-jud bo'lganini e'tirof etadilar. Biroq, u paytdan buyon sanoat davlatlarida bu tengsizlik ancha kamaygan deb hisoblanadi. Boylardan undiriladigan soliqlar va kambag'allarga to'lanadigan nafaqalar yuqori va quyi sinflar o'rtasidagi farqni ancha kamaytiradi, bundan tashkari, endi ta'lim barcha uchun ochiq bo'lgan paytda, qobiliyatga ega bo'lgan har qanday odam iqtisodiy va ijtimoiy zinaning eng yuqori pog'onasiga o'zi ko'tarilishi mumkin.

Aslida bu holat haqiqatdan yiroqdir. Sinfiy farqlar ta'siri, ehtimol, Maks hisoblaganidan ko'ra ko'proq sohalarga ta'sir qilmaydi. Hatto, tashqi ko'rinishdagi farqlar ham sinfiy mansublik bilan o'zaro bog'liq. Ishchi sinf vakillarining farzandlari yuqori sinf vakillarini­kidan ko'ra yengilroq tug'iladi, sekinroq o'sadi, ko'proq kasal bo'ladi va ertaroq hayotdan ko'z yumadi. Yurak-tomir kasalliklari, rak, diabet, pnevmoniya va bronxit kabi kasalliklar sinfiy strukturaning quyi poyunalarida kengroq tarqalgan.

Maks fikricha, yetuk sanoat kapitalizmida ozchilikning boyligi va keng ommaning qashshoqligi o'rtasidagi farq o'sib boradi. Uning hisoblashicha, ishchining maoshi hayot uchun zarur bo'lgan miqdordan hyech qachon oshmaydi, kapital egalari qo'lida esa tobora ko'p boyluk to'planib boradi. Jamiyatning quyi tabaqalarida, ayniqsa, ishsizlar orasida, qashshoqlik, og'ir mehnat, qullik, savodsizlik, shafqatsizlik, ruhiy degradasiya o'sib boraveradi. Biz ko'ramizki, Maksning sanoat davlatlarida qashshoqlik va moddiy resurslarning taqsimlanishida tsngsizlikning doimiyligi haqidagi fikri haqiqatga yaqin. Lekin uning asosiy aholining daromadlari past bo'lib qola-verishi, boylar va kambag'allar o'rtasidagi farqning kattayib sinf — 43%, yuqori o'rta — 8%, yuqori — 1%. Sinflarning kasbiy toifalarga chambarchas bog'liqligi aniqlandi. Masalan, yirik tadbirkorlar, vrachlar va yuristlar bir ovozdan yuqori o'rta yoki yuqori sinf deya javob berishar edi, oq va qora tanlilar javoblari o'rtasida sezilarli farq yo'q edi.

Sinfiy tuzilma haqida tushuncha

Sinfiy ongni o'rganishning uchinchi uslubi sinfiy struktura haqidagi tushunchani tahlil qilishga qaratilgan. Bunday tadqiqotlar natijasida ko'p ma'lumot olindi, chunki ular odamlarning sinfiy farqlar tabiati va kelib chiqishi haqidagi fikrlarini ko'rsatadi. Ba'zan, masalan, sinf tushunchasining o'zi emas, sinfiy ongning muhim tomonlarini ko'rsatuvchi holat yoki dunyoqarash qo'llaniladi. Masalan, yuqori o'rta va yuqori sinfga mansub bo'lganlar umuman sinflar mavjudligini inkor etadilar. Sosiologiya nuqtai nazaridan bu inkor ma'lum sinfiy ongning ifodasidir. Bunday odamlar, odatda ijtimoiy dunyodagi yuksalish imkoniyatini barcha uchun teng bo'lgan holatlar iyerarxiyasi deb baholaydilar. Ularning stratifikasiya haqidagi tushunchasi o'z tajribalarini ifoda etadi, lekin butun jamiyatta ekstrapolyasiya qilinadi.

Boshqa tomondan, sinfiy strukturaning quyi pog'onalari vakillari stratifikasiyaga «biz» va «ular» qarama-qarshiligi nuqtai nazaridan qaraydilar. «Ular» — bu hokimiyatga ega bo'lgan amaldorlar, bosslar, boshqaruvchilar. «Biz» — bu ishdagi tobelik va hayotdagi nisbatan huquqsizlik nuqtai nazaridan bir xil holatni egallagan hokimiyat obyektlari. Sinfiy struktura hakidagi tushunchalar tahlil qilingan klassik asar 60-yillarda Devid Lokvud tomonidan yozildi. Uning hisoblashicha, insonlarning sinfiy strukturasini tushunchasi ularning turmush sharoitidan kelib chiqadi. Ularning sinfiy tizimni tushunishlarini ish doirasi, mahalliy jamiyat, yashab turgan shahri belgilaydi. Lokvudning asari ishchi sinfga tegishli bo'lib, bu sinfning jamiyat sinfiy strukturasini borasidagi tushunchalarini uch turga bo'ldi.

An'anaviylik sanoatlashgan mamlakatlarda yashovchi guruhlariga xosdir. O'lar aholining qolgan qismidan ajratilgan bo'lib, o'xshash sharoitlarda va qalin xamkorlikda ishlaydilar. Janubiy Uelsdagi shaxtyor shaharchalari bunga misol bo'la oladi. Bunday jamiyatlarda odatda ishchi .s^{inf} ichida birdamlik tez hosil bo'ladi. Bunday fikrlar egalari ijtimoiy dunyoga «biz» va «ular» o'rtasidagi farq nuqtai nazaridan qaray-dilar. Ular odatda kasaba uyushmalarining ashaddiy a'zolaridir.

Ehtiromli an'anaviylik har xil sharoitda yashab ishlaydigan ishchi sinfga, masalan, kishloq xo'jaligi ishchilariga xosdir. Ular sinfiy strukturaga ijobiyroq qarashga egadirlar. Ularning fikricha, bu dunyoda har kim o'z o'rnini biladi, mavjud bo'lgan ijtimoiy farqlanish faqatgina qobiliyat va ma'suliyat darajasini aks etgiradi va demak, o'rinlidir. Bunday odamlar o'z boshliqlarini hurmat qiladilar va sinfiy iyerarxiyani legitim va zarur deb hisoblaydilar. Ko'pchilik bunday ishchilar kasaba uyushmalariga befarq yoki salbiy munosabatda bo'ladilar.

Ishchi — mulk egalarining qarashlari yuqoridagilardan tubdan farq qiladi. Ular boshliqlardan va an'anaviy ishchi shaharchalardan uzoqda shahar chetlarida o'z uylarida yashaydilar va «individualist» qarashlarga egalar. Ular uchun ish faqatgina o'zini va oilasini yaxshilab ta'minlash uchun vositadir va sinfiy ideallarga ular ortiqcha qiziqish ko'rsatmaydilar. Gold-torp, Lokvud va ularning hamkasabalari tomonidan avtomobil sanoati ishchilari orasida o'tkazilgan tadqiqot ularning ko'pchiligi aynan shunday qarashga ega ekanliklarini ko'rsatadi.

Lokvud tipologiyasi ko'plab bu turdagi tadqiqotlarga asos bo'ldi, ularning ba'zilarida taklif ztilgan toifalar shubxa ostiga qo'yidsi. Ko'pchilik tadqiqotchilar shuni aniqladilarki, sinfiy tizim haqidagi tushunchalarni uchga bo'lish Lokvud hisoblaganchalik aniq emas. Qarashlari proletarlarga xos bo'lgan ishchilar hyech ham boshqalardan agressivroq emas edilar. O'z navbatida «mulk egalari» turli norozilik namoyishlarida qatnashishga tayyor ekanliklarini bildirardilar. Bu ularning dunyoni «biz» va «ular»ga ajratishlaridan dalolat berardi.

An'anaviy ishchi jamoalar so'nggi o'n yilliklar davomida yuz bergan iqtisodiy o'zgarishlar natijasida asta-sekin yo'q bo'lib ketmoqdalar. Masalan, ko'mir kazib olish va po'lat quyish sanoati inqirozga yuz tutdi. Ko'plab ishchilar eski joyla-ridan ko'chib ketmoqsalar, bu jarayon ishga «mulkdorlarcha» yondoshishning rivojlanishi bilan ham bog'liq. Biroq, «biz» va «ular»ni ajratish saqlanib qoldi, bunday dunyoqarash ko'plab ishchi rayonlarda haligacha hukm surmoqsa. Etnik guruhlar to'plangan joylarda sinfiy ajratishdan tashqari etnik ziddiyatlar ham mavjud.

Sinfiy tuzilmadagi o'zgarishlar Yuqori sinf parchalanmokdami?

Avval ta'kidlangandek, yuqori sinf (barcha ijtimoiy sinflar kabi) o'z navbatida tabaqalarga bo'linadi. Biroq, ba'zi mualliflarning fikricha, hozirgi paytda yuqori sinf ichida shunchalik farqli tabaqalar mavjudki, uni yagona sinfiy toifa deb atash mumkin emas. "XIX asr — XX asrning boshida, — deydi ular, — yuqori sinfga mansublik mulkka, ya'ni korxonalar, moliyaviy tashkilotlar va yerga egalik bilan belgilanar

Umuman olganda, ishchi sinfi ichidagi stratifikasiya, sinflararo stratifikasiya kabi, nafaqat professional farqlar, balki iste'mol qilish va turmush tarzidagi farq

bilan ham belgilanadi. Hozirgi jamiyatlar moddiy ne'matlar sotib olish bilan chambarchas bog'liq bo'lgan iste'mol jamiyatlaridir. Ma'lum ma'noda, iste'mol jamiyati — bu sinfiy farq ma'lum darajada bartaraf etilgan, turli sinflar vakillari bir xil televizion ko'rsatuvlar tomosha qiladigan «ommaviy jamiyatdir». Biroq, boshqa tomondan, «did» va turmush tarzidagi farqlar sinfiy farqlanishni kuchaytirib yuborishi mumkin.

Gender va stratifikasion tasnif

Ko'p yillar mobaynida stratifikasiya tadqiqotlarida jinsiy farqlanish o'ynaydigan rolga yetarli e'tibor berilmas edi. Mualliflar o'z asarlarini xuddi ayollar umuman yo'qsek yozishar edi, yoki hokimiyat, boylik, obro'-e'tiborga ega bo'lish-dagi tengsizlikni tahlil qilishda ayollar hych qanday rol o'ynamaydi deb hisoblar edilar, biroq gender o'zi stratifikasiyaning yorqin misollaridan biridir. Ijtimoiy hayotning ma'lum sohalarida erkaklar ayollardan ustun turmagan jamiyatning o'zi yo'q.

Sinfiy bo'linish va gender

Gender va stratifikasiya tadqiqotchilari oldida turgan eng muhim muammolardan biri quyidagicha: Gender farqlari sinfiy farqlanishda qanchalik ahamiyatga ega? Gender farqlari sinfiy tizimlarga qaraganda chuqurroq tarixiy tomirlarga ega; erkaklar qadimgi ovchilar jamiyatlari, ya'ni sinfsiz jamiyatlarda ham ma'lum ustunliklarga ega edilar. Biroq, zamo-naviy jamiyatlarda sinfiy farqlanish shunchalik katta ahamiyat qozondiki, ular, shubhasiz, gender farqlaridan muhimroqdir. Ko'pchilik ayollarning moddiy ahvoli ularning erlari va otalarining ahvoli bilan belgilanadi va bu holat biz bugun gender farqlarini sinf tushunchasi orqali ta'riflashimiz kerak deyishga asos bo'la oladi.

Bunday yondoshuvni Frenk Parkin shunday ifoda etgan:

Shubhasiz, ayol statusi ishga joylashish imkoniyati, mulkka egalik, maosh mikdori kabi ijtimoiy hayotning turli sohalarida ko'plab muammolar keltirib chikaradi. Biroq jins bilan bog'liq bo'lgan bunday farqlarni stratifikasiyaning tarkibiy qismi deb hisoblash unchalik foydali emas. Ayollarning aksariyati uchun ijtimoiy va iqtisodiy ne'matlarning taqsimlanishi ularning oilalari, ayniqsa erlarinnig ahvoli bilan belgilanadi. albatta, bugun ayol statusiga ularning jinsiy mansubligi bilan belgilanadigan umumiy xususiyatlar ham xosdir, biroq ularning ijtimoiy-iqtisodiy resurslar munosabati, odatda ularning o'zlarining holati yoki faoliyati bilan emas, balki erlari va otalarining holati va kasbi bilan belgilanadi. Agar malakasiz ishchilarning xotin va kizlari boy yer egalarining xotin va qizlari bilan o'xshash xislatlarga ega bo'lsalarda, ular o'rtasidagi farqlar yaqqol ko'zga tashlanadi. Biz ayollar hayotining jinsiy mansubligi bilan bog'liq bo'lgan kamchiliklari sinfiy farqlardan kelib chiqqai kamchiliklardan ham o'tib ketgan taqdirdagina jinsni stratifikasiyaning muhim jihati deb ayta olamiz.

Ayollar «shaxsiy hayot» doirasi bilan ko'proq chegaralangan, ularning ishi — oila, farzandlar va uy hisoblanadi. Boshqa tomondan, erkaklar «ijtimoiy sohalariga» ko'proq berilgan, ularning dunyosini — pulli ish, ishlab chiqarish va siyosat tashkil qiladi.

Aynan sinfiy farqlar gender stratifikatsiyasini belgilaydi, degan fikr anchadan buyon mavjud, lekin bugun bu fikr munozaralar mavzusiga aylandi. Jon Goddorp sinfiy tahlilning an'anaviy usulini himoya qilib chiqdi, unga ko'ra, ayollar maoshi erkaklarnikiga qaraganda ancha past, shuning uchun ayollarni erlari mansub bo'lgan sinfga kiritish mumkin. Goddorp ta'kidlaydiki, bu fikr seksizm mafkurasining ko'rinishi emas. Aksincha, ko'plab ishlaydigan ayollarning tobeklik holati sezilib turadi. Ayollar erkaklarga qaraganda ko'proq yarim ish kuni bandlikka majbur bo'ladilar. Ular farzandni tarbiyalash uchun ishni to'xtatishga majbur bo'ladilar. Ko'pchilik ayellar iqtisodiy jihatdan erlariga qaramdir, shuning uchun ham ularning sinfiy mansubligi erlarining holati bilan belgilanadi.

Goddorpning dalillari bir necha yo'nalishda tanqid ostiga olinishi mumkin. Birinchidan, ko'plab oilalarda iqtisodiy barqarorlik va turmush tarzini saqlab qolishda ayollar ma'o-shining hissasi katta. Ikkinchidan, ayol mansabi erining holatiga ta'sir o'tkazishi ham mumkin. Ayollar kamdan-kam hollarda erlaridan ko'proq maosh olsalarda, uning mansabi erining sinfiy mansubligini belgilashda asosiy omil bo'lishi mumkin. Bunday holat, masalan, er malakasiz ishchi bo'lib, xotin biror do'konda boshqaruvchi bo'lib ishlaganda yuz berishi mumkin. Unda xotinning lavozimi butun oila holatini belgilaydi.

Uchinchidan, ko'plab oilalarda «sinflar kesishuvi» kuzatiladi, unda erning ishi yuqoriroq sinfiy kategoriyaga kiradi yoki aksincha. Bu turdagi munosabatlar deyarli o'rganilmagan. Shuning uchun erning ishi belgilovchi omil bo'lipshga aniq ishonish qiyin. Ba'zi hollarda bir oila a'zolarini realistik ravishda turli sinflarga kiritish maqsadga muvofiqdir. Go'rtinchidan, yagona boquvchisi ayol bo'lgan oilalar soni ortib bormoqsa. Alimentlar hisobiga ayol uni eri bilan bir xil iqtisodiy darajaga qo'yadigan daromadga ega bo'lishi mumkin, bu uning sinfiy mansubligini belgilovchi asosiy omil bo'ladi.

So'nggi tadqiqotlar "ayollarning iqtisodiy ahvoli erlarining daromadidan kelib chiqadi", degan fikrning noto'g'riligini isbotlamoqda. Shveysiyada o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, «sinflar kesishuvi» mavjud bo'lgan oilalar keng tarqalgan. Ko'pchilik hollarda er yuqoriroq mavqiyega ega bo'la-di, biroq buning aksi ham uchrab turadi. Tadqiqot shuni ko'rsa-tadiki, bunday oilalardagi ichki munosabatlarda turli sinflar elementlari mavjud bo'ladi. Masalan, uyda kasal farzand bilan kim qolishi borasidagi qaror oiladagi sinfiy — gender holatiga ko'ra qabul qilinar edi: agar ayol yuqoriroq mansabga ega bo'lsa, bu majburiyat er zimmasiga yuklanar edi.

Stratifikatsiya borasidagi asarlarda ayollar axvolini o'rganish, Ayollar kamdan-kam faoliyat turlari tahlili va kasb borasidagi tadqiqotlarning bevosita obyekti bo'ladilar. Ular haqida gapirilsa ham, erkaklar faoliyati va karashlari hakidagidan ancha kamroq gapirildi. Roslin Fildberg va Evilin Glenn sinf va gender farqlarini o'rganishda qo'llaniladigan ikki konseptual modelni ajratadilar. Birinchisi — ishlab chiqa-rish modeli, asosan erkaklarga nisbatan qo'llaniladi, ikkinchisi — gender modeli — ayollarga. Ishlab chiqarish modeli asosiy ijtimoiy alokalar ishi bilan belgilanadi, erkak kishi oila boshi bo'ladi va inson hayotiga ish va maosh asosiy ta'sirini o'tkazadi degan taxminlarga asoslanadi. Gender modeli ham oilada erkaklar yetakchi rol o'ynashini tan oladi, lekin unda ishlab chiqarish

asosiy omil emas. Oilaviy aloqa-lar asosiy omil hisoblanadi. Oilaviy vazifalarni bajarish inson hayotining asosiy jihati hisoblanadi.

Bandlik borasidagi ba'zi mashhur asarlarni tahlil kilib, Fildberg va Glenn ko'rsatadilarki, ular mualliflarning yuqorida qayd etilgan modellariga ortikcha berilib ketishi olingan xulosalarni o'zgartirib yuboradi. Masalan, ular shu nuqgai nazardan Robert Blaunerning «Begonalashish va erkinlik» asarini tahlil qilganlar. Bu asar to'kimachilik sanoati korxonalarida ishlovchi ayollar va erkaklar ishini taqqoslashga bag'ishlangan. So'rov qilinganlarning bajarayotgan ishlari asosan qoloq va zerikarli edi. Ayollarga qat'iyroq talablar qo'yilar edi, chunki ularning mehnati mashinalar bilan bog'liq edi va bu doimo yuqori ish suratini saqlab turishni talab qilar edi. Biroq, erkaklarga karaganda og'irroq ish sharoitiga ega bo'la turib, ayollar kamroq norozilik bildirar edilar. Blauner bu holatni ish ayol hayotida asosii rol o'ynamasligi bi-lan izohlaydi, ular uchun asosiysi — rafikd va ona rolidir. Boshqacha qilib aytganda, u bunday xulq-atvorni gender modeli ichida izohlaydi. Blauner, erkaklar haqida mufassal ma'lumot to'plagan bo'lsa-da, bu izohning hyech qanday isbotini keltirmaydi. Uquvchi Blauner kitobida so'rov qilinganlar ichida onalar va uy bekalari ulushi kanchaligi, ularning uydagi vazifalari nimalardan iboratligi haqida hyech qanday ma'lumot topa olmaydi. Ayollarga bajarayotgan ishi hyech qanday ta'sir o'tkazmaydi, deb hisoblanar edi. Erkaklarga kelganda esa, ularning o'z ishiga munosabatlari sinchiklab tahlil qilingan. fildberg va Glenn quyidagi xulosalarga keldilar.

Bir necha izoh haqiketga yaqin bo'lgan holatda, hyech qanday asossiz gender yoki ishlab chiqarish modeliga yaqin bo'lgani tanlab olinadi... Muqobillikni izlash shu bilan yakunlanadi. Modellar tayyor izoh taqsim etadi va tadqiqotchi eng oson yo'lni tanlaydi. Bunday yondashuvda natijalar jiddiy shaklda o'zgarib ketadi. Yana muhimrog'i shuki, bir qator tadqiqotlar noto'g'ri yo'lga solinadi. Ishlab chiqarish — gender paradigmasi asosiy, o'rganish predmetini belgilovchi omilga aylanib qoladi.

Gender va stratifikasiyani o'rganish murakkabligi

Hozirgi kunda gender va stratifikasiyani samarali tahlil qilish uchun mos konsepsiyalar mavjud emas. Ham nazariy, konseptual yangiliklar, hamda empirik tadqiqotlarning yangi yo'nalishlari zarur. Fildberg va Glenn modellari sinf va oila sohalari tahlilida avvaldan mavjud bo'lgan xatolarni ko'rsatib beradi. Stratifikasiya tadqiqotlarida butun e'tibor erkaklarga qaratilgan, ularning oilalari esa kdndaydir «ilo-va» hisoblanar edi. Sosiologlar ayollar hayotini o'rganganida esa, ularning ko'ziga faqatgina shaxsiy soha — uy va oila ko'rinadi, degan xulosaga keldilar. Ayollarning oilaviy hayoti va mehnat faoliyati bog'liqligi haqida haligacha hyech narsa ma'lum emas.

Biroq, bu yo'nalishda ham tadqiqotlar boshlanmokda. Ketlin Gerson ayollar ish, mansab va onalik burchi orasida nimani afzal ko'rishlarini o'rganib chikdi. So'shti chorak asr mobaynida odatda ayollar bilan bog'liq bo'lgan uy bekasvG'obrazi asta-sekin o'zgara boshlagan. An'anaviy «uy bekasi» obraziga Qarshi «ko'cha ayoli» timsoli paydo bo'ldi. Ayol uy bekasi va erkak — boquvchi bo'lgan an'anaviy oilalar Britaniyada tobora kamayib bormoqda.

Gerson hayotida tanlashi mumkin bo'lgan to'rtta yo'lni ko'rsatadi. Ba'zilar haligacha an'anaviy yo'lni afzal ko'radilar. Ular hayot mazmunini onalikda ko'radilar. Onalik ular uchun har qanday mansabning o'rnini bosadi. Ular kamdankam hollarda ishlaydilar. Ayollarning boshqa bir qismi an'anaviy yo'nalish va yaxshi maoshli ish o'rtasidagi yo'lni tanlaydilar. Ular ishga ortib borayotgan ishtiyoq va ayni paytda onalikka ikki xil kayfiyat his etadilar. Odatda bunday ayollar erta turmushga chiqadilar, keyinchalik esa nikohdan ko'ngli qoladi yoki ajralib ketadilar va ish istay boshlaydilar. Uchinchi guruh no'an'anaviy yo'ldan boradi. Bunday ayollar boshidayoq ishda yuqori mansabga ko'tarilishga intilishlarini biladilar, shu-ning uchun shunga mos oilaviy sharoit yaratib yashashga harakat qiladilar. Avvalgi zamonlarda ularning ko'pchiligi bu yo'ldan qaytib, oila va farzandlari uchun mansabdan voz kechar edilar. Bugunga kunda ayollarning o'z yo'llarida kat'iyroq turishlari normal holatdir. To'rtinchi tur ayollarda ishlashga ishtiyoq yo'qolgan bo'lib, uy ular uchun jannatdir. Mehnat faoliyatining boshida ularning umidlari katta bo'lgan, lekin xayollar ro'yobga chiqmagach, ular o'zlarini oila bilan ovutadilar. Shunday qilib, ayollarning qaysi yo'lni tanlashlariga turli yo'nalishlar, his-tuyg'ular va hayot tajribasining yig'indisi ta'sir o'tkazadi.

Ijtimoiy harakatchanlik

Stratifikasiyani o'rganar ekanmiz, biz nafaqat iqtisodiy va professional holatlar farqini, balki bu holatlarni egallab turgan shaxslar bilan nimalar sodir bo'lishini ham hisobga olishimiz kerak. Ijtimoiy harakatchanlik atamasi ma'lum shaxs yoki guruxlarning ijtimoiy-iqtisodiy holati o'zgarishini bildiradi. Vertikal harakatchanlik ijtimoiy-iqtisodiy shkala bo'ylab yuqoriga yoki pastga siljishni ifoda etadi. Biror shaxsning daromadi ko'payib, yangi mulk sotib olsa, statusi ko'tarilsa, unga ijtimoiy yuksalish, yuqoriga siljish holati, bunga teskari yo'nalishda o'zgarayotganlarga pastga siljish holati xos bo'ladi. Hozirgi jamiyatlarda shuningdek gorizontalar harakatchanlik keng tarqalgan. U shahar, rayon va hokazolar o'rtasida geografik siljishlar ma'nosinylanglatadi. Ba'zan vertikal va gorizontalar harakatchanlik qo'shilib keladi. Masalan, biror kompaniya xizmatchisini firmaniny boshqa shaharda joylashgan filialiga, yuqoriroq lavozimga o'tkazadi.

Ijtimoiy harakatchanlikni o'rganishning ikki asosiy yo'li mavjud. Biror shaxsning mehnat faoliyatini — hayot davomida u ijtimoiy shkala bo'yicha kanchalik yuqoriga yoki pastga siljiganligini kuzatish mumkin. Bu intrageneration harakatchanlik, ya'ni bir nasl doirasidagi harakatchanlik deb ataladi. Boshqa tomondan, bolalar kasb tanlashda ota-bobolari izidan borishini kuzatish mumkin. Turli nasllarni qamrab oladigai harakatchanlik intergeneration harakatchanlik deb ataladi.

Xarakatchanlikni takqoslash tadqiqotlari

Jamiyatning vertikal harakatchanligi darajasi — quyi tabaqalardagi iste'dodli odamlarning yuqori tabaqalarga ko'tarilish imkoniyatini ko'rsatuvchi «ochiqdik» ko'rsatkichidir. Zamonaviy industrial mamlakatlar ijtimoiy harakatchanlik nuqtai-nazaridan qanchalik «ochiq»? Buyuk Britaniya haqiqatdan xam ideal teng imkoniyatlar jamiyatimi? Ijtimoi harakatchanlik borasida tadqiqotlar ellik yildan ko'proq olib borilmoqda. Ularda odatda turli mamlakatlar

taqqoslab o'rganiladi. Bu borada ilk asarlardan biri 1927 yilda Pitirim Sorokin tomonidan chop etilgan. Sorokin ko'plab turli jamiyatlarni shu jumladan qadimgi Rim va qadimgi Xitoy jamiyatlarini, birinchi bo'lib AQShdagi ijtimoiy harakatchanlikni mufassal o'rganib chiqdi. U shunday xulosaga keldiki, AQShda tez ko'tarilish imkoniyati, amerika folklorida ko'rsatilganiga qaraganda, ancha cheklangan edi. Biroq, ma'lumot yig'ishda Sorokin ancha qoloq uslublardan foydalangan.

Bundan qirq yil keyin Piter Blau va Otis Dadli Dan-ken tomonidan o'tkazilgan tadqiqot ancha mukammalroq va mufassalroq edi. U hozirgacha bir davlat ichidagi harakatchanlikning eng puxta taxdili bo'lib qolmoqda (shuni ta'kidlash joizki, ushbu asarga ham biz avval aytib o'tgan kamchilik xosdir — unda faqatgina erkaklarga e'tibor qaratilgan). Vlau va Danken umumxalq so'rovidan 20000 erkakning ma'lumotlarini tanlab olgan. Ular shu xulosaga keldilarki, AQShda vertikal harakatchanlik ancha rivojlangan, biroq barcha siljishlar bir-biriga yaqin bo'lgan professionallar o'rtasida amalga oshadi. «Uzoq» ijtimoiy siljishlar kam uchraydi. Alohida mansabda ham, keyingi naslga o'tishda ham ijtimoiy tabaqaning pasayi-shi mumkin bo'lsada, ijtimoiy o'sish ko'proq kuzatiladi. Sababi shundaki, "oq yoqalilar" va malakali mutaxassislar uchun ish joylari soni "ko'k yoqalilar"nikidan tezroq oshgan va natijada ko'plab ishchilar "oq yoqalilar" toifasiga qo'shilgan.

Ijtimoiy harakatchanlik borasida eng mashhur xalqaro tadqiqot, ehtimol, Seymour Martin Likset va Reynxard Ben-Diksnint asaridir. Ular 9 sanoat mamlakati — Buyuk Britaniya, Fransiya, G'arbiy Germaniya, Shvesiya, Shveysariya, Yaponiya, Daniya, Italiya va AQD1 bo'yicha ma'lumotlarni taxdil qilganlar. Ularni asosan erkaklarning "ko'k yoqali"dan "oq yoqalilar" toifasiga siljishi qiziqtirgan. Ular AQShni bu o'rada boshqa davlatlarga qaraganda ochiqroq deb hisoblashar qon, gigiyena va tarbiya haqida zarracha tushunchaga ega emaslar» degan fikr hali ham keng tarqalgan.

6 mavzu: SOSIOLOGIYA DA ETNIK MANSUBLIK JARAYONLARINING O'RGANILISH DARAJASI.

Reja:

- 1. Plyuralistik jamiyatlarda etnik guruhlar, mayda millatlar va irq.**
- 2. Etnik ziddiyatlar xuroforlar va diskriminasiya.**
- 3. Fuqarolik huquqlari uchun harakatlar.**
- 4. Tarixdagi etnik munosabatlar: bir necha misolning talqin qilinishi.**

Barekaminlar misolida, guruhlar asosiy aholidan farq qilmasa ham, ularga qarshi munosabat qanchalik chuqur va turg'un bo'lishini ko'rishimiz mumkin. Afsuski, bunday ta'qiblar — insoniyat tarixi uchun o'ta oddiy holdir. Deyarli ikki ming yil mobaynida xristian G'arbida yahudiylar diskriminasiya va ta'qib etilar edi, Ikkinchi jahon urushi paytida konsentrasion lagerlarda millionlab yahudiylarning yo'q qilinishi esa eng shafqatsiz qatag'onlarning dahshatli misoli bo'ldi. Nasistlar mafkurasi yahudiylarni Germaniya va shimoliy Yevropaning «asl» millatlariga nisbatan past deb e'lon qildi. «Oriy» atamasi avvaliga turli irq mansublari so'zlashadigan tillar guruhiga tegishli edi, keyinchalik esa nasistlar va ularning «irqiy nazariyachilari» tomonidan haqiqat bilan umuman bog'liq bo'lmagan xususiyatlarni belgilash uchun o'zlashtirib olindi.

Germaniyadagi yahudiylar va Yaponiyadagi barekaminlar — etnik xususiyatli guruhlardir. Etnik mansublik ma'lum guruhni boshqalardan ajratib turadigan madaniy urf-odatlar va dunyoqarash bilan xarakterlanadi. Etnik guruhlar a'zolari, o'zlarini madaniyat va boshqa jihatlardan boshqa ijtimoiy hamjamiyatlardan farqli deb hisoblaydilar va jamiyatdagi boshqa guruhlar tomonidan ham shunday qabul qilinadilar. Etnik guruhlarni farqlash uchun ko'plab turli xarakteristikalar mavjud, lekin bunda asosan til, tarix yoki kelib chiqish, din, kiyinish tarzi va bezaklarga ko'proq e'tibor beriladi. Etnik farqlar to'raligicha orttirilgan bo'ladi; bunday fikr shubhasizdek tuyuladi, lekin bu guruhlarning ba'zilar «tug'ma hukmdorlar», yoki aksincha, «ahmoqlar», «tug'ma tanballar» deb hisoblanishini esga olsak, boshqacha fikrlarni ham inobatga olishimizga to'g'ri keladi.

Ko'pchilik zamonaviy jamiyatlar ko'plab etnik guruhlardan tashkil topadi. Buyuk Britaniyada yaqqol ko'zga tashlanadigan etnik guruhlar — bu irlandiyalik, osiyolik, vestindiyalik, italiyalik, Gresiyalik va boshqa mamlakatlardan kelgan immigrantlardir. AQSh va etnik jihatdan yanada rang-barang; AQShda dunyoning barcha burchaklaridan kelgan immigrantlar bor. Sovet Ittifoqida rus tili rasman til deb tan olingan bo'lsada, Rossiya mamlakatning fakatgina bir kismidir; boshqa mintaqalar o'z tili va urf-odatlariga ega.

Bugungi kunda ham sanoatlashgan, hamda sanoatlashmagan jamiyatlarning aksariyati plyuralistik jamiyatlardir. Plyuralistik jamiyat — iqqisodiy va siyosiy jihatdan birlashgan, lekin boshqa jihatlardan keskin farq qiladigan bir necha yirik etnik guruhlardan iborat bo'lgan jamiyatdir. Bu atamani J.S.Farnioll Yava va Birma haqidagi asarida ilk bor qo'llagan.

Birma va Yavaga kelgan odamning ko'ziga tashlanadigan birinchi narsa — bu xalqlarning aralashuvidir: yevropaliklar, xitoyliklar, hindlar va mahalliy xamzlar tom ma'noda aralashib ketganlar. Ammo ular bir-biriga qo'shilib ketmaydilar... bu plyuralistik jamiyat, uning turli guruhlar yonma-yon, yagona siyosiy birlik ichida yashaydilar.

Ko'pchilik postkolonial davlatlar plyuralistik jamiyatlardir, chunki siyosat avval mavjud bo'lgan ko'plab madaniyatlarni birlashtirgan. Etnik farqlanish kamdan-kam «xolis» bo'ladi. U ko'pincha boylik va hokimiyat taqsimlanishida katta tengsizlik bilan va etnik guruhlar o'rtasidagi ziddiyatlar bilan bog'liq. Nima uchun etnik farqlar ko'pincha ziddiyat va nizolar bilan bog'liq bo'ladi? Etnik xurofotlar va diskriminasiyaning sababi nima? Nima uchun ko'pincha (har doim emas) etnik ziddiyatlarning markazida irqiy farqlar turadi? Ushbu bobda bu savollarga javob topishga harakat qilamiz. Avval biz etnik guruhlarining tabiatini tahlil qilib, «irq» tushunchasini muhokama qilamiz. Keyingi bo'limlarda etnik farqlar va turli irqiy munosabatlar tahlil qilinadi. Mayda millatlar

Etnik ozchiliklar, yoki shunchaki «ozchiliklar» atamasi sosiologiyada keng qo'llaniladi va nafaqat miqdor, balki kengroq tushunchalarni o'z ichiga oladi. Statistik ma'noda ko'plab «ozchiliklar» mavjud. Masalan, malla sochlilar, yoki og'irligi 100 kgdan ortiq bo'lganlar, lekin ular sosiologiya nuqqai nazaridan ozchilikka kirmaydi. Sosiologik ma'noda «ozchilik» quyidagi xususiyatlarga ega:

1. Ularning a'zolari boshkalar tomonidan diskriminasiya qilinishi natijasida kamsitilgan bo'ladilar. Bir guruh ega bo'lgan huquq va imkoniyatlardan boshqa bir guruh mahrum bo'lsa, Diskriminasiya mavjud deyiladi. Masalan, uy sohibi mijozga U faqatgina vestindiyalik bo'lgani uchun ijaraga xona berishdan bosh tortishi mumkin.

2. «Ozchilik» a'zolarida qandaydir birdamlik, «bir butunga» mansublik hissi bo'ladi. Diskriminasiyaga duch kelish natijasida bunday hissiyotlar yanada kuchayadi. Bunday insonlarda o'zini «ajratib qo'yilgan» deb his qilishga moyillik sezilib turadi.

3. Etnik ozchiliklar ma'lum ma'noda jismonan va ruhan asosiy aholidan ajralib turadi. Odatda ular mamlakatning ma'lum mintaqalari, shaharlarida jamlanadi. Milliy ozchilik va boshqalar o'rtasida nikohlar kam uchraydi. O'z madaniyatini sakdab qolish uchun bunday guruh a'zolari endogamiyani (guruh doirasidagi nikohlar) qo'llab-quvvatlashlari mumkin.

Ba'zan ozchilikning sosiologik ma'nosi miqsor bilan bog'liq bo'lmagani uchun, ma'lum sharoitda asosiy aholi ham etnik ozchilikni tashkil etishi mumkin degan fikrlar yangramoqda. Masalan, Janubiy Afrikada nisbatan ozchilikni tashkil ettan oq tanli aholi son jihatidan ancha ko'p shlgan qora tanlilar ustidan hukmronlik qiladi. Biroq bunday hollarda «ozchilik» atamasini qo'llash tesgaridir. Qora tanli aholi Janubiy Afrikada aksariyatni tashkil qilishi bu jamiyatning sosiologik holatida ham hal kiluvchi rol o'ynaydi. Xuddi shu tarzda, G'arb dunyosidagi tengsizlik haqida so'z borganida, biz ba'zan «ayollar va boshqa ozchiliklar» degan iborani eshitamiz. Biroq ayollar aholining yarmidan ko'pini tashkil etadi. Adashmaslik uchun, «ozchilik» atamasini faqat aholining asosiy qismini tashkil etmagan guruhlar haqida gap borganidagina qo'llamoq ma'qul.

Ozchilik doimo asosiy aholidan etnik jihatdan ma'lum darajada farq qiladi, lekin farqlanish darajasi turlicha bo'lishi mumkin. Yaponiyadagi barekaminlar asosiy aholidan farqi juda kam bo'lishiga qaramay, ozchiliqdir. Ularning tashqi ko'rinishi ham, xulq-atvori ham boshqa yaponlariniki bilan bir xil. Biroq aksariyat etnik guruhlar asosiy aholidan ham jismoniy, ham etnik jihatdan farq qiladi. Britaniyada yashovchi osiyoliklar, AQShdagi hindular, xitoyliklar, qora tanlilar va boshqalar bunga misol bo'la oladi. Tana ranti va shunga o'xshash boshqa jismoniy farqlarni odatda «irqiy farqlar» deyiladi. Irq tushunchasi omma ongiga katta ta'sir o'tkazgan g'arazli ilmiy nazariyalar mavzusi bo'lganligi uchun, bu tushunchani batafsilroq ko'rib chiqish lozim.

Irq va biologiya

Ko'pchilik, butun insoniyatni biologik jihatdan bir-biridan farqli irq'larga osonlikcha bo'lib chiqish mumkin, deb o'ylaydi. Ko'plab olimlarning dunyo xalqlarini irqiga qarab turli kategoriyalarga bo'lib chiqishga urinishlarini hisobga olsak, bu ishonch unchalik ajablanarli ham emas. Ba'zi mualliflar to'rt yoki besh asosiy irqni, boshqalari esa qirqqa yaqin irqni ajratishadi. Lekin bu tasniflarning birortasini qabul qilishga istisnolarning ko'pligi to'sqinlik qiladi. Masalan, «negroid» turi deyilganda terisi qora, jingalak soch va boshqa bir qancha xususiyatlarni nazarda tutamiz. Lekin Avstraliyadagi mahalliy aboriginlarining ham tanasi qora, biroq sochlari to'lqinsimon, sariq bo'ladi. Genetika sohasidagi kashfiyotlar, antropoid ajdodlarimiz rivojlanishining bir necha yo'nalishi bo'lgan, degan taxminni butunlay inkor etadi.

Inson tashqi qiyofasidagi keskin farqlar ichki tuzilishda ham mavjud, degan yanglish fikrga olib kelishi mumkin. Haqiqatda esa jismoniy farq shu tashqi qiyofa farqi bilan cheklanadi. Qonni analiz qilayotgan olim, uning oq yoki qora tanlidani olingan ekanini aniqlay olmaydi. Insonlarning jismoniy tuzilishidagi farqlar aholi inbridingi bilan izohlanadi, uning darajasi turli ijtimoiy yoki madaniy hamjamiyatlar o'rtasidagi o'zaro aloqa darajasi bilan belgilanadi. Boshqacha so'z bilan aytganda, aholi guruhlari aniq farqlanmaydi, lekin kontinuum hosil qiladi. Ayni tashqi qiyofaga ega bo'lgan guruh ichidagi genetik farkdar guruhlar orasidagi farqdan kam emas. Bu faktlar ko'pchilik biologlar, antropologlar va sosiologlarni irq tushunchasidan voz kechish zarur, degan xulosaga olib keldi.

Insonlar o'rtasida yaqqol jismoniy farkdar mavjud, ularning ba'zilari avloddan avlodga o'tadi; lekin «nega bu farqlarning faqatgina ba'zilari ijtimoiy diskriminasiyaga asos bo'ladi?» degan savol biologiyaga umuman aloqador emas. Xulosa shuki, irqiy farqlarni ma'lum guruh yoki jamiyat a'zolari tomonidan muhim deb hisoblanadigan jismoniy farqlanish deb tushunish lozim. Masalan, tana rangi bu ma'noda ko'pincha muhim deb hisoblanadi, soch rangi esa bunday deb hisoblanmaydi. Irqchilik — ma'lum tashqi qiyofaga ega bo'lgan shaxslarga ma'lum tug'ma insoniy va axloqiy xususiyatlar xos deb hisoblashdir. Irqchi — bu ma'lum turdagi insonlarga xos bo'lgan ustunlik yoki kamchilikning biologik izohi mavjudligiga ishonuvchi kimsadir.

Etnik ziddiyatlar, xurofotlar va diskriminasiya

«Irq» konsepsiyasi nisbatan yangi tushuncha bo'lsa ham, xurofot va ziddiyatlar butun insoniyat tarixi mobaynida mavjud bo'lgan. Buni izohlash uchun

biz nafaqat sosiologiya, balki psixologiyaga ham murojaat qilishimiz kerak. Lekin avval biz xurofot va diskriminasiya o'rtasidagi chegarani aniq belgilab olishimiz lozim. Xurofot — bu bir guruh vakillarida boshqalarga nisbatan mavjud bo'lgan fikriy yoki psixologik ustanovka; diskriminasiya esa ularga yo'naltirilgan amaliy harakatlardir. Bid'at — bu bir inson yoki guruh hakida dalillarga u, «xotira jihatidan oqlarga teng, aql jihatidan ular anqov, didsiz va esi pastdirlar».

Oq va oq bo'lmaganlar orasidagi munosabat mustamlakachilikka bog'liq edi; ularga yevropaliklar o'rtasida mavjud bo'lgan madaniyat borasidagi farqlar ham ta'sir kilgan. Bu farqlarni ko'rsatish uchun Braziliya, AKSh va Janubiy Afrikadagi irqiy munosabatlarni ko'rib chiqaylik, keyin Buyuk Britaniyadagi irqiy va etnik munosabatlarni tahlil qilishga o'tamiz.

Tarixdagi etnik munosabatlar: bir necha misol

Etnik munosabatlarni taqqoslash bid'at va diskriminasiyaning tarixiy rivojlanish turlari bilan bog'likdigin ko'rsatadi. Braziliyani ba'zan oqlar va qoralar o'rtasidagi etnik xurofotlardan xalos bo'lgan mamlakat deb atashadi, lekin bu fikr unchali to'g'ri emas. Janubiy Afrika, aksincha, — xurofot va diskriminasiya o'ta oshkor tus olgan mamlakat bo'libya oq va qora tanlilarni ajratish qonunda belgilangan.

Braziliyada etnik munosabatlar

XIX asrning o'rtalariga kelib, qul savdosi davrining oxirida Braziliyaga 4 millionga yaqin qul keltirilgan edi. O'sha paytda AQShda millionga yaqin qora tanli aholi yashar edsh Odatda Afrikadan keltirilgan qullarni turli joylarga tarqatib yuborar edilar; Braziliyada esa bir joydan olib kelingan qullarni birga joylashtirar edilar. Shundan keyin ular o'z madaniyatlarini AQShdagi qullardan ko'ra ko'proq saqlab qolish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Braziliyada qullar sohibidan ruxsatsiz ham uylanishlari mumkin edi. Er-xotin qullar ajratib sotilmas edi. Oq tanli erkaklar va qul ayollar o'rtasida jinsiy aloqalar ham uchrab turgan. Odatda tug'ilgan farzandlarga erkinlik berilar edi, ba'zan esa ular oq tanli oilalarning to'laqlonli a'zosiga aylanar edi. Qullik to'laligicha 1888 yilda bekor kilindi, lekin bundan ancha avval ham oq tanli erkin negrlar mavjudligiga o'rganib qolgan edilar.

Qullik bekor qilinganidan so'ng ko'plab qora tanli braziliyaliklar shaharlarga ko'chib ketdi. Ularning aksariyati o'sha paytda ham nisbatan kambag'al yashagan, hozir ham; lekin hyech kim ulardan kasaba uyushmalariga a'zo bo'lish huquqini tortib olmagan, ba'zilar esa boylik va hokimiyatga ham erishdilar. Braziliyada shunday bir maqol bor: «Boy qora — okdir, kambag'al oq — qoradir». Bu yerda Braziliyadagi nisbiy irqiy liberalizm hamda oqlarning Chiroz ustun turishi aniq aks ettirilgan. Jamiyat hayotining barcha sohalarida ham oqlar hukmronlik qiladi.

Braziliyaliklar uzoq vaqg mobaynida o'zlarining irqlar o'rtasidagi munosabatlar tizimini AQShdagidan ustunroq deb hisoblaganlar, lekin 1960—70 yillarda amerikalik qora tanlilarning o'z huquqlarini himoyalash harakatlari kuchayganida, bu taqqos Braziliya foydasiga bo'lmay qoldi. 1960 yillarning boshlarida Braziliya kongressi jamoat joylarida diskriminasiyani man kiluvchi qonun qabul qildi. Bu amerikalik qora xanli turist ser Ketrin Donem San-Paulodagi bir mehmonxona ma'murini unga xona bermaganliqda ayblab, hukumatga

murojaat etgandan so'ng sodir bo'ldi. Lekin bu qonun ramziy ishoradan ortiq hyech narsa emas edi, chunki hukumat diskriminasiyaning asl chegarasini anikdash uchun hyech qanday chora-tadbir qo'rgani yo'q.

Ko'pchilik kuzatuvchilar fikricha, Braziliyada qora tanli aholining ijtimoiy va iqtisodiy yashash sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan davlat dasturlari kam bo'lganiga qaramay, bunday diskriminasiya kam uchraydi. Braziliyaliklarning «oqartirish»ga bo'lgan ishonchi qora tanlilarning asosan jamiyat-ning eng kambag'al tabakalarida jamlanganligiga biroz zid keladi. Shunga qaramay, Braziliya AQShning butun tarixi mobaynida sodir etib kelgan irqiy to'qnashuvlardan xalos va bu davlatda irqiy bid'atlar ochiqdan ochiq ko'rinishga ega emas deb aytilish mumkin.

Janubiy Afrikaning ijtimoiy taraqqiyoti

Janubiy Afrikaga yevropaliklardan birinchi bo'lib gollandiyaliklar ko'chib borgan. Mahalliy aholining yevropaliklar korxonalarida ishlashni xohlamasligiga duch kelib xar qitaning boshqa davlatlaridan va Gollandiyaga qarashli Ost-Indiyadan ko'plab qullar keltira boshladilar. Keyinchalik Janubiy Afrikada hukmronlikni britaniyaliklar o'z qo'liga oldi-lar va 1830 yilda qullikka chek qo'ydilar. Avvaliga aholini oq va qoralarga ajratish keyinchalik paydo bo'lganidek oshkor emas edi. Qullik bekor kilinganidan keyin qora tanlilar Uchun yangi soliqlar joriy qilindi. Natijada ular yevropaliklardan ish so'rashga va soliqlarni to'lash uchun boshqa ishlar qidirishga majbur bo'ldilar. Janubiy Afrika iqtisodiyoti-ning rivojlanishini belgilagan «ko'chma ish kuchi» tizimi shakllandi. Ko'plab afrikaliklar oltin va olmos konlariga tipga yollanib, yevropaliklarning yashash joylaridan uzoq bo'lgan lagerlarda yashadilar. Shunday qilib keyinchalik qonunan tasdiqlangan segregasiya tizimi asta-sekin paydo bo'ldi.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng amalga kiritilgan apartetizimiga ko'ra, Janubiy Afrika aholisi «qayd guruhiga» moyishchilarni tarqatish uchun polisiyaga branspoytlar, to'qmoqlar va itlardan foydalanishga buyruq berdi.

Birmingemdagi bu hodisadan so'ng 10 hafta ichida Amerikaning turli shaharlarida yuzlab norozilik namoyishlari bo'lib o'tdi, ularda 15 mingdan ortiq ishtirokchi hibsga olindi. 1961 yidda chorak million fuqarolik huquq tarafdorlari Vashingtonda Kingning «Biz adolat daryo kabi, haqiqat esa kuchli oqim kabi bo'lmagunicha tinchlanmaymiz» degan shioriga javoban norozilik namoyishi uyutirdilar. 1964 yilda Kongress tomonidan jamoat joylarida, ta'lim tizimida va davlat tomonidan moliyalashtiriladigan har qanday tashkilotga ishga qabul qilishda diskriminasiyani man etuvchi fuqarolik huquqlari haqidagi qonun qabul qilindi, keyinchalik qora tanlilarning ovoz berish huquqini ta'minlovchi va ko'chmas mulk, ijaraga olish va sotib olishda diskriminasiyani man etuvchi qarorlar qabul qilindi.

Fuqarolik huquklari uchun harakatlar

Fuqarolik huquqlari uchun harakatlar o'zining qora tanli ishtirokchilariga ular kurashib yurgan formal maqsadlardan ko'ra muhimroq bo'lgan erkinlik va o'z shaxsiyatining ahamiyati hissiyotini berdi. Talabalarning zo'ravonliksiz harakati tashkiliy qo'mitasi faoliyatida «erkinlik kuychilari» deb nomlagan harakat ishtirokchilarning umidlarini kuy va qo'shiqlar orqali ifoda etgan san'atchilar

qatnashgan Vinant Govard o'sha paytda qora tanlilarda paydo bo'lgan ilhom va g'ayratni shunday ta'riflaydi.

Namoyishchilar va hibsga olishlarning 1-oylarida hamma narsa bor edi: Umid, ishonch va jasorat... bular xudoga ishonganlar edi. Ular qamoqxonalarda mitinglarda va polisiyachilar oldida o'zlarining qo'shig'ini kuylab g'alabaga haqiqatdan ishonar edi... g'alaba bu erkinlik, huquq, qadr-qimmat va adolat degani edi. G'alaba bo'lsa oq va qora tanlilar birga edilar va g'alaba yana so'z bilan ifodalab bo'lmaydigan ko'plab ma'nolarga ega edi.

Fuqarolik huquqlari hisobga olingan yangi qonunchilikka! erishish harakatlari yana shiddatli qarshilikka duch keldi. Namoyishchilar haqoratlariga, ochiq-oydin hujumlarga duch keldilar, ba'zilar ozodlik yo'lida qurbon bo'ldilar. Bunga javoban «qora hukumat» umumiy nomi ostida qora tanlilarning agressiv guruhlari paydo bo'la boshladi. 1965—1968 yillar orasida butun Amerika bo'ylab qora tanlilar gettolarida yirik g'alayonlar sodir bo'ldi. Fuqarolik huquqlari haqidagi qonun amal qilishiga ming xil jiddiy to'siq mavjudligiga qaramasdan, fundamental ahamiyatga ega edi. Bu qonunning g'oyalari nafaqat qora tanlilarga, balki har qanday diskriminatsiya qurbonlariga, ular qatorida etnik guruhlariga ayollarga te-gishli edi. Bu qonun bir qator huquqlari chekligan guruhlarini himoya qilishga qaratilgan harakatlar paydo bo'lishiga asos bo'ldi.

1960 yillardagi kurashlar davomida qora tanlilarning fuqarolik uchun harakatlari biroz o'zgacha tus oldi. Avvaliga harakatning aksariyat rahbarlarining maqsadi qora tanlilarni Amerika madaniyatiga to'la integratsiya qilish edi. Lekin, radikal qora tanlilar guruhlari sonining ortishi ideallar o'zgarishiga olib keldi. Endi qora rang mag'rurlik timsoli, qora tanlilarning madaniyati esa mustaqil qadriyat, deb qarala boshladi. Qora tanli amerikaliklar oqlarga qo'shib ketishni emas, balki haqiqiy plyuralizmni nazarda tutib, jamiyatda mustaqil o'rin talab qila boshladilar. Dunyoqarashning o'zgarishicha, amalda diskriminatsiya saqlanib qolaversa, qonun oldidagi tenglik hech narsa bermaydi degan tushuncha ham saboq bo'ldi.

Fuqarolik maqsadlariga erishishda kuch qo'llashni qurol qilib olgan qora tanlilar radikal guruhlariga kelsak (masalan, «Qora qoplonlar») ular yo yo'q qilingan yo bir-biriga qarshi kichik guruhlariga bo'linib ketgan. Ko'plab qora tanli faollar saylov qutillarini qora tanlilar uchun siyosiy hoki-miyatga erishish vositasi deb baholay boshladilar. 1975 yilda bir guruh qora tanli musiqachilar qoralarning radiostansiyalarida juda mashhur bo'lib ketgan «Shokolad shahar» deb nomlangan qo'shiqni ijro qildilar. Qo'shiqchi Jorj Klinton saylovlar qora tanlilarga hokimiyatga erishishga yordam beradi degan umid bildirdi: «Agar saylov varaqangiz bo'lsa sizga o'qlar kerak emas». «Shokolad shahar» deganda Vashington tushunilar edi. Lekin, bu shuningdek qora tanlilar siyosiy quch sifatida o'z ta'sirini o'tkaza oladigan har qanday shaharga tegishli edi.

Atrofda qancha ko'p shokolad shaharlar bor.

Biz Nyuarkni oldik.

Biz Gerini oldik.

Kimdir biz Los-Anjelesni oldik dedi.

Biz yaqinda Atlantada bo'lamiz.

Integratsiya va antogonizm

Fuqarolik huquqlari haqidagi qonun qabul qilingandan buyon 30 yil ichida katga o'zgarishlar ro'y berdi. Saylanadigan hukumat vakillarining qora tanli a'zolari soni 1960 yillarning boshida yuz kishi bo'lgan bo'lsa, 90-yillar boshiga kelib 7 ming kishini tashkil ztdi, kollej va universitetlarda qora tanlilar soni 4 baravar oshdi. Qora tanlilar o'rta sinfi paido bo'ldi va o'sib bormoqsa. Nyu-Iork, Chikago, Atlanta va Baltimor kabi bir qator yirik shaharlarda qora tanlilar MER bo'ldilar. Adabiyot» teatr va san'atning boshqa sohalarida ijtimoiy toifa statistik guruh bo'lib, insonlarning aniq tavsifsiga, masalan, daromad darajasi, professional holatiga qarab ta'sirini belgilaydi. Bir ijtimoiy toifadagi insonlar bir joyda tuplanmaydilar, bir-birlari bilan aloqa qilmaydilar, o'zlarini birlashtiradigan umumiy tavsiflariga e'tibor bermaydilar. Biroq, ijtimoiy toifalardan, sosiologik tadqiqotlarda tez-tez foydalanib turiladi. Masalan, Britaniyadagi irqiy munosabatlarni o'rganadigan bo'lsak, ikki statistik toifa, ya'ni oq va qora tanlilar daromad darajasi o'rtasidagi farqni tahlil qilishimiz kerak bo'ladi.

7 mavzu: SOSIOLOGIYA DA IJTIMOIIY GURUHLAR VA TASHKILOTLARNING O'RGANILISHI

Reja:

- 1. Birlamchi va ikkilamchi guruxlar haqida tushuncha.**
- 2. Byurokratiyalar ichidagi rasmiy va norasmiy munosabatlar.**
- 3. Oligar va nooligarxik tashkilotlar.**
- 4. Hozirgi dunyoda tashkilotlarga ta'sir etuvchi omillar.**
- 5. Karser tashkilotlar haqida tushuncha.**

Biz mansub bo'lgan barcha guruhlar biz uchun bir xil ahamiyatga ega emas. Ba'zi guruhlar hayotimizning ko'plab jihatlarini qamrab oladi va boshqalar bilan shaxsiy aloqalar o'rnatilishiga sabab bo'ladi. Amerikalik sosiolog Charlz Xorton Kuli (1864—1929) emosional aloqalar bilan bog'langan kichik assosiasiyalarni belgilash uchun birlamchi guruh atamasini qo'llagan. Kuli birlamchi guruhlarini ideallashtirib yuborar edi, lekin bunday baholashga tanqidiy yondashish lozim. Masalan: oila hayoti har doim ham tinch va osoyishta o'tmaydi, oilalarda ko'plab noteksliliklar va dushmanlarcha munosabat ham uchraydi (12-bob, «Qariydoshlik, nikoh va oila»).

Ikkilamchi guruh — doimiy tarzda uchrashib turadigan, lekin shaxsiy aloqalarga ega bo'lmagan insonlar guruhidir. Albatta, hayotda birlamchi va ikkilamchi guruhlar o'rtasidagi farq unchalik yaqqol sezilmaydi. Masalan, qo'mita majlislarida doimo uchrashib turadigan insonlar do'stlashib, keyinchalik norasmiy uchrashuvlar ham o'tkazib turishlari mumkin.

Rasmiy tashkilotlar

An'anaviy jamiyatlarda insonlarning butun hayoti kichik guruh ichida o'tar edi. Masalan: an'anaviy Xitoy jamiyatida qishloq aholisi davlat amaldorini kamdan-kam ko'rishi mumkin edi. Davlat farmonlari ular hayotiga deyarli ta'sir

qilmas edi. Buni bugungi holat bilan taqqoslab ko'ring. Qilayotgan barcha ishlarimiz amaldorlar qaroriga bog'liq: bir hatgo, bu amaldorlarni hukumat deb ham ataymiz. Har qanday muhim hodisa — tug'ilish, nikoh yoki o'lim - qayd qilinishi kerak. Davlat tashkilotlari ta'lim, sanitariya, yo'llar tizimi, kommunal xizmatlar, atrof-muhitni nazorat qilish, milliy pul tizimi va hokazo turdagi faoliyatimiz uchun zarur bo'lgan resurslar bilan, qisman bo'lsada, ta'minlaydi.

Ko'pchiligimiz katta tug'ruksionalarda tug'ilganmiz va bir necha o'nlab boshqa, yangi tug'ilgan chaqaloqlardan ajratish uchun bizga belgi qo'yishgan. Barchamiz maktabga, kollejga borganmiz. Mehnat faoliyatimiz mobaynida biz firmalarda, moliyaviy kompaniyalarda, bankda yoki davlat tashkilotlarida ishlashimiz mumkin. Agar hayotimiz davomida telefon yoki xat orqali boshqalar bilan aloqa qilishni xohlasak, uyimiz yorug' va issiq bo'lishini istasak, gazeta va jurnallar o'qib, televizor ko'rib, radio eshitib ma'lumot olishni va hordiq chiqarishni xohlasak, biz doimo tashkilotlarga bog'liq bo'lib qolaveramiz.

Tashkilot — bu maxsus maqsadlar uchun ajratilgan noshax-siy aloqalar asosida faoliyat olib boruvchi insonlardan tashkil topgan yirik birikmadir. An'anaviy dunyoda ko'pchilik ijtimoiy tizimlar uzoq vaqt odatlar va an'analar ta'sirida rivojlanib kelgan. Boshqa tomondan, tashkilotlarning ko'pchiligi loyihalashgan, ya'ni ma'lum maqsadlarda ta'sis etilgan va shu maqsadlarga erishishga yordam beradigan maxsus binolar-da joylashgan. Kasalxonalar, kollej yoki firmalar joylashgan binolar, odatda aynan o'sha tashkilotlar uchun moslashtirilgan.

Bugun biz uchun tashkilotlar nega bunchalik muhimligini tushunish qiyin emas. Dunyoda sanoatlashish sodir bo'lgunicha insonning ovqat topish, bola tarbiyalash, ish va dam olish kabi asosiy ehtiyojlari yaqin qarindoshlar va qo'shnilar doirasida qondirilar edi. Zamonaviy jamiyatlarda insonlar har qachon bo'lganidan ko'proq bir-birlariga bog'liqsirlar. Ko'plab ehtiyojlarimiz biz hayotda hech qachon uchratmaydigan va ehtimol bizdan minglab mil uzoqsa yashaydigan kimsalar tomonidan qondiriladi. Bunday sharoitda tashkilotlar faoliyatini va resurslarni koordinasiya qilish bo'yicha katta ishlar bajarilishi kerak.

Byurokratiya

Barcha zamonaviy tashkilotlar byurokratik xususiyatga ega. Byurokratiya so'zi 1745 yilda de Gurne tomonidan iste'molga kiritilgan. U «idora» va «yozuv stoli» ma'nolarini anglatadigan «byuro» so'ziga yunoncha «boshqarmoq» fe'lini qo'shgan. Shunday qilib «byurokratiya» so'zi amadorsorlar hokimiyati degan ma'noni anglatadi. Avvaliga bu so'z faqat davlat idoralariga nisbatan qo'llanilgan, lekin uning ma'nosi asta-sekin kengayib, hozirda har qanday katta tashkilotga nisbatan qo'llaniladi. Boshida bu so'z kamsitish ma'nosida qo'llanilgan. De Gurne amaldorlarning ortib borayotgan kuchini «byuromaniya kasalligi» deb atagan. Fransuz yozuvchisi Balzak byurokrtiyani «olchoqdar tomonidan boshqariladigan ulkan hukumat» deb ataydi. Bunday qarash hozirgi kungacha saqlanib qolgan. Byurokratiya deganda, odatda, ortiqcha ovoragarchilik, samarasizlik va isrofgarchilik yo'lga ko'yiadi.

Satirik Siril Nortkot Parkinson amaldorlar bo'sh vaqtlarini to'ldirish uchun o'z faoliyati doirasini cheksiz kengaydiorlar o'z boshqaruvidagi aholiga ko'proq

soliq solish va mablag'ning katga qismini o'zlashtirib olish uchun o'z mansabidan foydalanar edilar.

4. Tekshiruvlar va boshqa ochiq usullar bilan faoliyatni baholash qarindoshurug'chilik, oshna-og'aynichilik va boshqa shaxsiy aloqalar yordamida mansab egallanishini to'la bartaraf etmasada, ancha cheklaydi.

Veber, tashkilot ideal turdagi byurokratiyaga qanchalik yaqin bo'lsa, u o'z vazifalarini shunchalik yaxshiroq bajaradi, deb hisoblaydi. U byurokратиyani murakkab mexanizm bilan takqoslar edi. Shunga qaramay, u byurokratiya ortikcha qogozbozlik keltirib chiqarishini va ijodiy qobiliyatni qo'llashga kam imkon berishini tan olar edi. Hayotimizdagi byurokratiya injiqliklari va amaldorlar hukmronligi biz byurokratik tash-kilotlarning texnik samaradorligi uchun to'layotgan badal bo'lib qolmoqda.

Byurokratiyalar ichidagi rasmiy va norasmiy munosabatlar

Byurokratiyani tahlil qilishda Veber asosiy e'tiborni tashkilot ichidagi rasmiy munosabatlarga karatgan. Tashkilot qanchalik byurokratlashgesh bo'lsa, uning vazifalari shunchalik aniq va mufassal bo'ladi. U barcha tashkilotlar tarkibida mavjud bo'lgan kichik guruhlar ichidagi norasmiy munosabatlar haqida hych narsa demagan. Byurokratiyalarda faoliyatning norasmiy ko'rinishlari, ko'p holda ma'lum moslashuvlikka eri-shish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Blau o'zining klassik asarida davlat tashkilotidagi norasmiy munosabatlarni o'rganib chiqqan. Bu tashkilot xodimlarining vazifasi soliq to'lashdagi turli qonunbuzarlik usullarini aniqlashdan iborat edi. Xodimlar qiyinchilik tug'dirgan muammolarni yechishda o'zlarining bevosita rahbarlari bilan maslahatlashishlari kerak edi. Qoidaga ko'ra, uyaar o'zlari bilan bir pogonada turgan hamkasblari bilan maslahatlashishlari mumkin emas edi. Lekin ularning ko'pchiligi layoqatsiz ko'rinib qolishdan va natijada, o'sish imkoniyatlari kamayib ketishidan qo'rqib, boshliqlarga murojaat etishni xoxlamas edi. Shuning uchun, odatda, ular rasmiy qoidani buzib bir-birlari bilan maslahatlashar edilar. Bu nafaqat aniq maslahat olishga yordam berar, balki yakka ishlash bilan bog'liq xavotirni ham kamaytirar edi. Bir tabaqada ishlovchilar orasida bir-biriga sodiq inoq xodimlar guruhi, boshqacha so'z bilan aytganda, birlamchi guruh shakllandi. Blau shunday xulosaga keldiki, buning natijasida xodimlar duch kelgan muammolar ancha samarali hal qilinar edi. Guruh ichida rasmiy qoidalarda belgilanganidan ancha ko'proq tashabbusga va javobgarlikka imkon beradigan norasmiy harakatlar paydo bo'ldi.

Norasmiy tarmoqlar tashkilotning barcha tabaqalarida shakllanishi mumkin. Uning eng yuqori cho'qisida qaror qabul qilinishida shaxsiy munosabatlar rasmiy aloqalardan qo'ra muhimroq rol o'ynashi mumkin. Masalan, korporasiyalar siyosatini direktorlar va hissadorlar kengashi belgilaydi, deb hisoblanadi. Aslida esa, qarorlarni kengashning bir necha a'zosi norasmiy ravishda qabul qiladi, kengash esa ularni faqatgina tasdiqlaydi. Bunday norasmiy aloqalar turi korporasiyalar o'rtasida ham mavjud. Firmalar rahbarlari, odatda, bir biri bilan ko'rishib turadilar, bir klubga a'zo bo'ladilar, bo'sh vaqtlarini birga o'kishdilar.

Norasmiy aloqalar tashkilotning samarali faoliyat ko'rsatishiga qanchalik yo'l beradi yoki to'sqinlik qiladi, degan savolga javob berish oson emas. Veber ta'riflagan ideal turga yaqin tizimlarda norasmiy harakatlarning juda ko'p usullari

yaratilmoqda. Buning sababi qisman shundaki, qayishqoqlik yetishmasligi rasmiy qoidalarni norasmiy talqin qilish orqali bartaraf etilish mumkin. Zerikarli ish bilan mashg'ul bo'lganlarga norasmiy munosabatlar qiziqarliroq ish sharoiti yaratishga yordam beradi. Yuqori mansabdor shaxslar o'rtasidagi norasmiy munosabatlar samarali bo'lib, tashkilot faoliyatida birdamlikka imkon yaratiladi. Boshqa tomondan, bunday aloqa qiladigan xodimlar o'z shaxsiy manfaatlarini tashkilot manfaatlaridan ustun qo'yish mumkin.

Byurokratiya va oligarxiya

Veber yaratgan byurokratiya modelidan shunday xulosa kelib chiqadiki, hokimiyat odatda eng cho'qqida jamlangan bo'ladi. Katta tashkilot piramidaga o'xshaydi va uning ustki qismida juda kam hokimiyatga ega bo'lgan ko'pchilik joylashadi. Veberning shogirdi va hamkasbi Robert Mixels bu xulosadan foydalalanib, oligarxiya gpmir qonunini ishlab chiqsi5. Oligarxiya — bir necha shaxsning hokimiyatga ega bo'lishidir. Mixels fikricha, tashkilot qanchalik katta bo'lsa, uning byurokratlashish darajasi shunchalik yuqori bo'ladi va hokimiyat yuqori mansabga ega bo'lgan bir necha shaxs qo'lida jamlanadi. Mixels o'z tezisini ommaning siyosiy qarorlar qabul qilinishida kengroq ipggirok ztishini maqsad qilib olgan (Germaniya sosial-demokratik partiyasi rivojlanishining taxdili bilan bog'laydi. XX asrning 1-chi yilligida bu partiya Germaniya siyosatida asosiy kuchlardan biriga aylandi. Partiya saflari kengaygani sari Uning muvaffaqiyatlari ichki byurokratiyaning o'sishiga olib keldi. Qo'l ostidagi rahbarlar ya'ni, bir necha yuqori lavozimdagi partiya amaldorlari tomonidan monopollashtirilganini ko'rsatishga harakat kildi. Taqsir taqozosi bilan sosial-demokratik partiyada hokimiyat, xuddi u kurashayotgan konservativ partiyalarda bo'lgani kabi bir necha shaxsning qo'lida edi. Mixels fikriga ko'ra, bu tendensiya har qanday yirik tashkilotda namoyon bo'ladi. Bir necha shaxsning boshqaruvi yirik tashkilotlar byurokratik tabiatining qochib qutulib bo'lmas jihatidir. Agar Mixels goyalari asosli bo'lsa, ulardan barcha demokratiyani qadrlaydigan insonlar uchun muhim oqibatlar kelib chiqadi. Mixelsning o'zi avvaliga socialistik ideallarga sodiq bo'lgan, keyinchalik esa ulardan voz kechgan.

Xuddi Veber singari, Mixels ham zamonaviy jamiyatdagi tig'izlik sabablarini bir tomondan byurokratiyaga intilish, ikkinchi tomondan, demokratiyanint rivojlantirilishi bilan bog'lagan. Ommaviy demokratiya fakdtgina doimiy saylovlar va yaxshi rivojlangan partiya tashkilotlari sharoitida mavjud bo'lishi mumkin. Ular esa, o'z navbatida, byurokratiyaning shakllanishiga olib keladi, chunki partiyalarni boshqarish uchun kun bo'yi band bo'ladigan amaldorlar zarur. Demokratiya omma-ning siyosiy faoliyatda qatnashishiga keng yo'l ochadi, deb hisoblanadi; lekin demokratik partiyalarning mavjudligi kichik rahbar guruhlar tomonidan boshqariladigan yirik byurokratik mexanizmlar paydo bo'lishiga olib keladi.

Mixels haqmi? Albatta, yirik tashkilotlarda hokimiyat kichik guruh qo'lida jamlanadi, lekin, shunga qaramay, oligarxiyaning temir qonuni Mixels aytganichalik qat'iy emas, deyishga asos bor. Oligarxiya va byurokratik markazlashish o'rtasidagi bog'liqlik unchalik aniq emas.

Avvalambor, shuni ta'kidlash kerakki, hokimiyatning har xilligi faqatgina tashkilotning katta-kichikligiga bog'liq emas. Kichik guruhlarda ham hokimiyat darajasida aniq farqlar bo'lishi mumkin. Masalan, kichik biznesda katta tashkilotga qaraganda nazorat ancha qatiroq bo'lishi mumkin, chunki rahbar xodim faoliyatini bevosita kuzatish imkoniyatiga ega. Tashkilot kattaygani sari, boshqaruv munosabatlari erkinroq tus oladi. Quyi va o'rta pogonalarda turganlar yuqorida ishlab chiqiladigan siyosatga unchalik ta'sir o'tkaza olmaydilar. Lekin boshqa tomondan, ma'lum masalaga layoqat bilan bog'liq byurokratiyaga xos ixtisoslashish tufayli, byurokratik iyerarxiyaning cho'qqisida turganlar quyi pogonalarda qabul qilinayotgan qarorlar ustidan nazoratni qo'ldan chiqarib yuboradilar. Xodimlar doimo u yoki bu darajada o'z rahbarligini boshqarib turishlari mumkin. Masalan, biror davlat xiemati xodimi o'z boshlig'iga masalani shunday taqdim etishi mumkinki, unga faqatgina bir yechim ma'quldek tuyuladi.

Tashkilot ichida hokimiyat vakolati, ko'pincha, rahbarlardan xodimlarga ochiqdan-ochiq topshirilishi mumkin. Rey Pal va Djek Unkler turli kattalikdagi korporasiyalarni bopqaruvchi direktorlar orasida tadqiqot o'tkazdilar. Ular aniqladilarki, vakolatni topshirish kichiklardan ko'ra yirik firmalarda ko'proq sodir bo'ladi. Yirik kompaniyalarda boshliqlar turli bo'limlarning faoliyatini muvofiqlashtirish bilan, krizislarni bartaraf etish bilan, byudjetni tahlil qilish bilan shunchalik band bo'ladilarki, ularda ijodiy fikr-lashga vaqt juda kam qoladi. Ular ishlab chiqarish bilan bog'liq masalalarni yechishni ishlab chiqarish jarayonini nazorat qilish va daromadni ko'paytirish vazifalari bilan shug'ullanadigan xodimga topshiradi. Ko'plab boshliqlar ularga bergan tavsiyalarni shundayligicha qabul qilib olganliklarini e'tirof etganlar.

Nooligarxik tashkilotlar

Mixelsning tadqiqotlaridan so'ng markazlashishga moyil tashkilot turlarini aniqlashga ko'p marta harakat kilindi. Isroildagi kibbuslar va Yugoslaviya sanoatidagi ishchilar o'z-o'zini boshqarish tizimi bunga misol bo'la oladi. Kibbuslar daromad va hokimiyat darajasida farkdanish deyarli bo'lmagan egalitar ishlab chiqarish tizimini tatbiq etish uchun maxsus tashkil qilingan. Yugoslaviya korxonalarida ishchilar firma rahbarlarini ovoz berish orqali saylanadigan yuzaki sanoat demokratiyasi tizimi tatbiq etilgan.

Tannenbaum va uning xodimlari besh mamlakatdagi firma-larning qiyosiy tahlilini o'tkazdilar, shu jumladan, kibbuslar va Yugoslaviyadagi sanoat korxonalarini, shuningdek Avstriya, Italiya va AQShdagi biznes tashkilotlari faoliyatini o'rganib chikdilar. Tadqiqotda ham katta va kichik firmalar ko'rib chikilgan; bu tadqiqot Mixelsning tashkilot va oli-garxiyaga qarashlari bilan bevosita bog'lanadi. Tadqiqot natijasida turli jamiyatlardagi tashkilotlar o'rtasida katta farq mavjudligi aniqlandi.

Tashkilot kattaligi undagi markazlashish va iyerarxiyaga kuchli ta'sir o'tkazishi isbotlanmadi. Ma'lum davlat ichida xmda turli davlatlarda ba'zi kichik firmalar ba'zi katta firmalarga qaraganda ko'proq (iyerarxik xususiyatga egadirlar. Kichik va katta kibbuslar va Yugoslaviya korxonalarida iyerar hokimiyatning klan shakllari byurokratik tizimlardan tubdan farq kiladi va hozirgi jamiyatning ko'pchilik strukturasi uchun samarali byurokratiyaga qaraganda ancha

yuqoriroqsir. Klanlar bir-birlari bilan qalin shaxsiy aloqalari bo'lgan insonlar guruhidir. Yapon firmalaridagi ishchi guruhlarida ham norasmiy ravishda klanlar shakllanadi.

Hozirgi dunyoda tashkilotlarga ta'sir etuvchi omillar

Malakali mutaxassislar

Hozirgi kunda barcha tashkilotlar bilim, tajriba va axborot uzatishga bog'liqdir. Malakali mutaxassislar texnikaviy bshshmlarni rivojlantirishga ixtisoslashadilar. Kasb tajribasini shunchaki byurokratik majburiyatlar bilan tenglashtirib bo'lmaydi, chunki uzoq o'rganish muddati talab qilinadi, buning ustiga mutaxassislar o'z vazifalari turiga ko'ra, milliy, va hatto xalqaro jamiyatlarga mansub bo'ladilar. Mutaxassislar yirik tashkilotda ishlaganlarida, boshqaruv iyerarxiyasiga unchalik mos kelmaydilar. Ular odatda iyerarxiyaning quyi va o'rta poyunadagilariga qaraganda ko'proq mustaqillikka egalar. Masalan, professor va o'qituvchilar universitet va kollejlarda ishlab, talabalarga dars berganlari uchun maosh oladilar, lekin ilmiy ishlarda ular o'z fani bilan bog'liq xalqaro parametrlarga asoslanadilar. Ular odatda leksiyalar kur-sini tanlashda katta erkinlikka egalar, va qanday leksiyalar to'plami diplom olish uchun yetarli malakani ta'minlashi borasida o'zlari mustaqil qaror chiqaradilar. Ular byurokratik iyerarxiyadan tashqarida turadilar, deb aytish mumkin. Administrativ-boshqaruv apparati o'quv dasturini amalga oshirish uchun zarur moliyaviy va moddiy resurslarni taqsimlaydi, v[^] ularning vazifalarini byurokratik majburiyatlar, deb atash aniqroq bo'ladi. Xuddi shu narsa kasalxonadagi vrachlar va boshkaruv apparatiga ham tegashshidir.

Mutaxassislarning tashkilotda o'z vazifalarini belgilashdagi mustakillik darajasi bir necha omillar bilan belgilanadi: tashkilotniag' kattaligi va byurokratlashganlik darajasi, kasbning tabiati, xodimlar a'zo bo'lgan profeyessional birlashmaning mustahkamliga. Qarama-qarshi misollar tariqasida kasallarga qarash va yurisprudensiyani ko'rib chiqamiz. Tibbiy hamshiralar mutaxassis hisoblanadi, lekin ularning ish sharoitidaga mustaqillik darajasi yuqori emas. Kasalxonalar — hamshiralar, katta hamshiralarga va boshqa tibbiy xodimlarga bo'ysunadigan qat'iy byurokratik tashkilotdir. Tibbiy hamshiralar assosiasiyalari ularning mehnat sharoitlary qoidalarini belgilaydi, lekin ular bu qoidalarga amal qilinishni ta'minlay olmaydi. Yuristlar, xususiy amaliyot bilan shug'ullanmay, katta tashkilotda ishlasalar ham, o'z vazifalarini belgilashda tibbiy hamshiralarga qaraganda ko'proq musxaqillikka egalar. Yuristlarning professional assosiasiyalari juda kuchli; ular yuristlar amal qiladigan xulq-atvor kodeksini ishlab chikadilar. Yuristlar ma'lum ma'muriy qoidalarga amal qiladilar, biroq ularning faoliyatini faqatgina yuridik assosiasiya a'zolarigana tekshira oladi. Aytaylik, ma'lum bir kompaniyada ishlovchi yurist g'azablangan xaridor tomonidan qo'zg'atilgan sud ishida kompaniya manfaatlarini ximoya qilishi kerak. Kompaniya unga bu ishni topshirishi mumkin, lekin unga bu ish borasida yo'l-yo'riq ko'rsata olmaydi. Deyarli har doim bu yuristning professional kompetensiyasi bilan bog'liq bo'lib, yollovchi unga aralashmasliga kerak, deb hisoblanadi.

Mutaxassislar tashkilotda ega bo'lgan obro'sining katga kismi, uning kompaniya xizmat ko'rsatadigan keng ommaga kuratorlik qilish roli bilan belgilanadi. Kurator — bu malum narsaga yetishish yo'lini beltilaydigan odam (bu vaziyatda — malakaga). Masalan, professional inspektor va muhandislar qurilish lisenziyalari berilishini nazorat qiladi; universitet professorlari va o'qituvchilari kim ilmiy daraja yoki diplom olishini belgilaydi; ijtimoiy ta'minot xodimlari kimga moddiy yordam ko'rsatish zarurligini belgilaydilar. Sanab o'gilgan hollarda mutaxassislarning mustakillik darajasi yuqorida qayd etilgan omillar bilan belgilanadi.

Hozirga jamiyatlarda professional faoliyat bilan shug'ullanuvchi odamlar soni kun sayin oshib bormoqsa. Tashkilotlar maxsus bilim va malakaga tobora ko'proq asoslanishga majbur bo'layotganlari tufayli, byurokratik iyerarxiya tizimlariga katta og'irlik tushmokda. Professionallar orasida yirik tashkilotlardan tashqarida ishlashga moyillik sezilmoqda; ular o'zlarining kichik firmalarini ochib, o'z xizmatlarini taklif etmoqsalar. Malakali mutaxassislar ulushi katta bo'lgan tashkilotlar an'anaviy tashkilotlarga qaraganda ko'proq boshqaruv epchilligiga egadir.

Axborot texnologiyalari

Tashkilot tuzilmalariga doimiy ta'sir o'tkazuvchi yana bir omil — bu axborot texnologiyalari, yani kompyuter va elektron aloqa vositalarining rivojlanishidir. Axborotni qayta ishlash avtomatik tizimlari bir qator jarayonlarda keng qo'llaniladi. Har doim biror kimsa banqsan pul olsa, yoki samolyotga bilek sotib olsa, u kompyuter aloqa tizimi bilan aloqa qiladi. Ma'lumot yer sharining kompyuter tizimiga ulangan qaysi nuqtasida qayta ishlanishi mumkin, va insonlarning bevosita aloqa qilishiga hojat yo'q.

Asosiy ishni inson emas, mapshna bajaradigan to'la «elektron ofis» yaratilishiga hali uzoq va bu yo'lda bir kator muammolarni hal etish lozim. Shunga qaramay, tashkilotlarda ko'plab vazifalarni elektronika zimmasiga yuklash tendensiyasi kuchaymoqda. Matn muharrirlari, kompyuter tizimlari, faksimil aloqa boshqaruv faoliyatini ancha o'zgartirib yubordi. Amerikaning bir necha ilg'or banklarida pul o'tkazishni amalga oshiradigan kredit bo'limlari to'la avtomayalashtirilgan. Banklar, shuningdek, bank hisoblarini yurigish bo'yicha ko'plab; operasiyalar avtomatlashtirilgan, Nyu Yorkdagi «Sitikorsh bo'limida o'tkazilgan tadqiqot shuni ko'rsatadiki, avtomatlashtirishdan avval bir kredit xatini to'rt kishi 3 kun davomida 1 ko'rib chiqar edi. Elektron uskunalar o'rnatilgandan so'ng xuddi shu ishni bir kishi bir necha daqiqa ichida qiladigan bo'ldi, 70-yillarda mazkur bank o'z xizmatchilari sonini 6 mingga qisqartirdi.

Banklar bu texnologiyadan ko'p foyda ko'rgan tashkilotlar bo'ldi, chunki bank faoliyatining katga qismi raqamlar bilan bog'liq. Kompyuterlashtirish juda qulay usul bo'lib, hozir milliy va xalqaro tarmoqlar bo'yicha ulkan ma'lumotlar yig'indisi uzatiladi. Elektron to'lov tizimi bank ishining texnologik rivojlanishining asosidir. Bu tizim yordamida chek har qayerda qabul kilinishi va nakd pulga aylantirilishi mumkin, bunda 1 chek bankning ma'lum bo'linmasida qoladi, u haqida ma'lumot esa elektron vositalar orqali kliring yig'imiga yuboriladi.

Elektron to'lovlar tizimi paydo bo'lishi bilan uyda o'tirib bank operatsiyalarini bajarish imkoni tug'ildi. Mijozlar 1 bank kompyuteriga ulangan uydagi terminal orqali ma'lumot 1 olishlari va operatsiyalarni bajarishlari mumkin. Ular hisobot bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish, bir hisobdan boshqasiga pul o'tkazish imkoniyatiga ega. Agar uyda bank operatsiyalarini bajarish keng tarqaladigan bo'lsa, bu bank xizmatchilarining soni qisqarishiga olib keladi.

1982 yilda «Renk Kseroks» firmasi ba'zi mahsulot turlarining sotish hajmi tushib ketganini aniqladi va xarajatlarni kamaytirishga majbur bo'ldi. Bunday hollarda qo'llaniladigan an'anaviy usul ishchilar sonini qisqartirishdir. Buning o'rniga firma xodimlarining bir qismini mustaqil; maslahatchilarga aylantirib, ular uylarida o'z vazifalarini ch bajarish uchun «Ksanadu» deb nomlangan kompyuter tarmog'i 1 tashkil etdilar. Keyin kompaniya ularning ish vaktining katta kismini bir necha yilga sotib oldi, bo'sh vaqtlarida esa ular o'z xohishlariga ko'ra turli mijozlar bilan ishlashlari mumkin edi. Buning boisi shu ediki, kompaniya o'z xodimlarining yuqori malakalaridan kerakligicha va arzonroq narxda foydalanishi mumkin edi. O'z navbatida sobiq xodimlar o'z 1 bizneslarini tashkil etishga imkon qozondilar. Shunday qilib har ikkala tomon ham yutib chikdi.

An'anaviy jarayonlarning ko'pi yo'q bo'lgani sari yirik kompaniyalar kuchayib, kichikroq, elastik tadbirkorlikka moyillik paydo bo'ladigandek tuyulishi mumkin, lekin bunday xulosalarga ehtiyotkorlik bilan yondashmoq kerak. Bu yo'nalishda ba'zi tendensiyalar yo'q emas, lekin ularning ta'siri juda cheklangan. Aslida, tashkilotlar hozirgidan ko'ra ancha nomarkazlashgan bo'lishiga hyech qanday to'siq yo'q. Boshqaruv ishlarining ko'p qismi uyda, telekommunikasiya tizimlari orqali bajarilishi mumkin. Buyuk Britaniya, AKDP va boshqa davlatlarda bir necha yirik firmalar uyda ishlovchi xodimlarini bog'lovchi kompyuter tarmog'ini o'rnatadilar. Lekin bu usul kutilganidek keng tarkalmadi. Kompyuter terminallari hamkasaba va do'stlar bilan shaxsan aloqa qilishning o'rnini bosa olmadi, boshkaruv esa o'zining «ko'rinmas» xodimlarini nazorat kila olmadi.

Tashkilotdarsing jismoniy muhiti

Avval ta'kidlanganidek, ko'gchilik zamonaviy tashkilotlar maxsus yaratilgan muhitda ishlaydilar. Ular joylashgan binolar ular faoliyati bilan bog'liq o'ziga xos xususiyatlarga ega; lekin umumiy me'moriy xususiyatlar ham mavjud. Masalan, kasalxona arxitekturasi ba'zi jihatlardan maktab yoki firma binolaridan farq qiladi. Kasalxonada alohida palatalar, maslahatxonalar, operatsiya va boshqaruv xonalari mavjud bo'lib, ular bugun binoga ma'lum tus beradi, maktablarda esa xonalar, laboratoriya, sport zali mavjud. Lekin baribir kasalxona va maktab binolari o'rtasida ma'lum o'xshashlik ham bor. Har ikkalasida ko'plab dahlizlar bor, shuningdek standart ichki bezak va mebellar mavjud. Hozirgi zamon tashkilotlari binolari, ma'lum «o'xshashlikka» egadir. Ko'pincha ular ichkaridan ham, tashqaridan ham bir-biriga o'xshaydilar. Bir bino oldidan o'tib ketayotib, «Bu maktabmi?» degan savolga «yo'q bu kasalxona» degan javobni eshitish mumkin. Shunday bo'lishi mumkinki, avval kasalxona joylashgan binoda endi, maktab joylashgan bo'ladi.

Uzoq yillar mobaynida sosiologlar tashkilotlarni muhokama qilishda, ularni «havoii bo'xshgishqa uchib yurgan narsaga o'xshatganlar. Tashkilotlar faoliyatiga

bag'ishlangan ko'plab jildlarda tashkilotlar ma'lum muhitda faoliyat ko'rsatishi haqida umuman hech narsa deyilmaganligini ko'rish mumkin. Biroq, Mishel Fuko va boshqalar ko'rsatganidek, bino arxitekturasini tashkilotning ijtimoiy holati va boshqaruv tizimiga bevosita bog'liq. Tashkilotlarning fizik xususiyatlarini tahlil Qilib, Veber ilgari surgan muammolarga oydinlik kiritishimiz mumkin. Veber abstrakt muhokama qilgan «ofislar» ham tashkilot ichidagi arxitektura muhiti, ya'ni xonalar va dahlizlardir. Yirik firmalar binolari ko'pincha fizik makondagi iyerarxiyani tashkil qiladi. «Yuqori qavatlar» iborasi ko'pincha «hokimiyat cho'qqisida turganlar» ma'nosini anglatadi.

Tashkilot «jug'rofiyasi» uning faoliyatiga boshqacha yo'llar bilan ta'sir etadi, ayniqsa tizimning amal qilishi norasmiy aloqalarga bog'liq bo'lganida bu holat aniq seziladi. Yonma-yon joylashish «birlamchi guruh» tashkil bo'lishiga, uzoqqajoyt lashish esa tarqoqlikka olib keladi — bo'limlar o'rtasida «biz» va «ular» turidagi munosabatlar bunga misol bo'la oladi.

Tashkilotda nazorat va tartib-intizom

Nazorat

Tashkilot binosidagi xonalar, dahlizlar ochiq joylashishi unda boshqaruv tizimi qanday amal qiladi, degan savolga javob berishi mumkin (Albatta ko'pchilik tashkilotlar ular holatiga moslashmagan binolarda joylashgan va bu xodimlar faoliyatiga katta ta'sir o'tkazishi mumkin). Ba'zi tashkilotlarda xodimlar birga ishlaydigan ochiq joylar mavjud bo'lishi ko'zda tutilgan. Ishlab chiqarishdagi ba'zi jarayonlarning I monoton va takrorlanuvchi xususiyati tufayli, masalan, yig'uv liniyasida, ish maromini ta'minlash uchun doimiy nazorat zarur. Ba'zi ishlab chikarish jarayonlarining monoton qaytariluvchi xususiyati tufayli ish sur'ati pasayib ketmasligi uchun xodimlarni doimo nazorat qilish zarur. Bu, masalan, mashinka kiluvchi ayollarning ishiga tegishli, ular mashina byurosida birga o'tiradilar. Boshliqlar ularni bevosita nazorat qilish imkoniyatiga ega. Fuko tashkilotda kuzatish imkoniyatining mavjudligi yoki yo'kligi, kdy darajada boshqaruv strukturasi aks ettirishiga katta e'tibor beradi. Xodimlar faoliyati boshqalıklar ko'ziga qanchalik ko'rinishi uzlarning Fuko nazorat deb atagan narsaga obyekt bo'lishlari mumkinligini belgilaydi.

Nazorat tashkilotdagi faoliyatni kuzatishni nazarda tutadi. Zamonaviy tashkilotlarda hatto nisbatan yuqori lavozimni egallab turgan xodimlar ham nazorat ostida bo'ladilar, lekin xodim iyerarxiyada qanchalik past pog'onani egallasa, uni shunchalik qat'iy nazorat qilishadi. Nazorat ikki ko'rinishda bo'ladi. Boshliqlar xodimlar faoliyatini bevosita kuzatishini hozirgina ko'rib chiqdik.

Maktabda sinf xonasi misolini ko'rib chiqaylik. O'quvchilar odatda partalarda qator bo'lib, o'qituvchi qarshisida o'tiradilar. O'qituvchi balandroqda o'tiradi yoki turadi. Bolalar har doim ish bilan bandliklarini ko'rsatishga harakat qiladi. Albatga, buning amalga oshishi o'qituvchining qobiliyatiga va o'qituvchining undan kutilgan ishni bajarishga bo'lgan ishtiyoqiga bog'liq.

Nazoratning ikkinchi turi nozikroq, lekin bu bilan uning ahamiyati kamaymaydi. U xodimlarga shaxsiy ishlar, dosyalar va xizmat ro'yxati yurgizishdan iborat. Veber tashkilotlarda yozma dalillarning ahamiyatiga e'tibor qaratgan, lekin ularning xulq-atvorini boshqarishdagi imkoniyatlarini to'la baholay

olmagan. Xodimlarning shaxsiy ishlaridagi yozuvlarda, odatda u egallagan lavozimlar,-shaxsiy ma'lumotlar va xulqi xaqida batafsil ma'lumotlar to'planadi. Bunday yezuvlar xodimlar xulq-atvorini nazorat qilishda yordam beradi, xizmatda ko'tarilishiga, tavsiyanomalar tuzishga asos bo'ladi. Ko'plab firmalarda iyerarxiyaning har bir pog'onasida boshliqlar o'z qo'l ostidagi xodimlarning faoliyati haqida yillik xisobot tuzadilar. Bunday yozuvlarga boshqa misol — maktab attestasiya-si va kollej bitiruvchilarining bilim darajasiga qarab ajratilishi. Akademik kasb egalari uchun ham bunday yozuvlar olib boriladi.

Albatta, iyerarxiyaning quyi pog'onasidagi hodimlar, ular ustidan olib borilgan nazoratni shunchaki passiv qabul qilib olmaydilar. Ular o'zlariga boshliq nazaridan chetda «bo'sh joy» va «bo'sh vaqt» qoldirishga turli yo'l topadilar. Xodimlar mumkin bo'lmasa ham, o'z shaxsiy varaqalariga qarab olishlari mumkin, boshliklarini ijobiy fikrlar yozishga undashning turli yo'llarini topadilar. Nazoratchilar nazaridan chetda «soya-bon»lar qurib olish ortiqcha qat'iy nazorat bilan kurashishning asosiy vositasidir.

O'rta darajadagi nazoratchilar bunga odatda barmoq orasidan qaraydilar, chunki o'z xodimlari ichida obro'sini saklab qolishni va yuqoridagilar nazorat qilganida yaxshi ko'rinishni xohlaydilar. Mana kemasozlik korxonasida o'tkazilgan sosiologik so'rovdan bir parcha:

Sexga bosh usta yoki sex boshlig'i keladi, degan mish-mish tarqalganida sodir bo'lgan o'zgarishlarni kuzatish juda qiziq edi. Smena boshliqlari va brigadirlar ishchilar oldiga shoshib, ularni ish bilan banddek ko'rinishga undashar edi. «Sening ishsiz o'giraningni u ko'rmasligi kerak» — Umumiy g'oya shunday edi. Ish haqiqatan bo'lmagan joylarda esa, jiddiylilik bilan trubani egishar, yoki usiz ham mahkam qotirilgan boltni qotirishar edi.

Tartib-intizom

Zamonaviy tashkilotlarda nazorat muhim rol o'ynaydi, chunki u tartib-intizom, ya'ni xulq-atvorni tartibga solish bilan bevosita bog'liq. Tashkilotlar, agar undagi jarayonlar tasodifan sodir bo'lsa, samarali faoliyat ko'rsata olmaydi. Aytaylik, Veberga ko'ra, firma xodimlari har kuni belgilangan soat davomida ishlashlari kerak. Biz hozir buni oddiy holdek qabul qilamiz, lekin sanoatlashishning boshlang'ich davr-elementlari zamonaviy jamoat qurilmalarida ham uchrab turadi, xususan, ko'pchilik tashkilotlar borki, ularda to'g'ri demokratiya amal qiladi. Masalan, qaror ko'ggchilikning u yoki bu masala haqida bildirgan fikriga bog'liq bo'luvchi referendumlar o'tkazish uning shakllaridan biridir.

Yevropaning ayrim mamlakatlarida referendumlardan milliy bosqichdagi masalalarni yechish uchun muntazam foydalani-ladi. AKShda undan shtat doirasidagi bahsli masalalarni hal qilish uchun tez-tez foydalaniladi. Yangi Angliyaning ayrim shaharlarida ham to'g'ri demokratiya elementlarini uchratish mumkin, xususan, jamoa a'zolari yig'ini bo'lib turadi.

8 mavzu: UMUMIY SOSIOLOGIYA DA SIYOSAT, HUKUMAT VA DAVLATNING O'RGANILISHI.

Reja:

- 1. Demokratik elitizm va plyuralizm, nazariyalari**
- 2. Siyosiy partiyalar G'arb va Sharq mamlakatlaridagi ovoz berishlar**

Ba'zi zamonaviy davlatlar (Buyuk Britaniya yoki Belgiya kabilar) monarxiya ko'rinishida bo'lsa-da, bunday davlatlar soni tobora ozaymokda. An'anaviy monarxning real hokimiyati zamonaviy jamiyatda odatda chegaralangan yoki amalda mavjud emas. To'g'ri, ayrim davlatlar (Saudiya Arabistoni, Iordaniya)-da monarxlar hukumat ustidan muayyan nazorat olib boradilar, ammo monarxiya mavjud bo'lgan ko'p davlatlarda u siyosiy hokimiyatdan ko'ra milliy timsolga yaqinroq. Angliya kirolichasi, Shvesiya qirol va hatto Yaponiya imperatori konstitusion monarxlar bo'lib, ularning real hokimligi saylab qo'yiluvchi vakillarga konstitusiya tomonidan beriladigan huquqlar bilan keskin chegaralangan. Zamonaviy davlatlarning ko'pchiligi o'z qurilishiga ko'ra respublika bo'lib, konstitusion monarxiyalarni ham qo'shganda, har bir davlatda demokratiyaga ixlosmandlik seziladi.

Saylovlar hatto harbiy diktaturali davlatlarda ham, demokratik yo'nalish ta'savvurini uyg'otish uchun o'tkazilishi mumkin. Ko'pchilik harbiy diktatorlar

o'zlarining demokratik tamoyillarga tarafdor ekanliklarini e'lon qiladilar va ularning hokimiyati barqarorlikni ta'minlash vositasi ekanligini, vakillik demokratiyasiga qaytish imkonini tug'ilguncha davom etishini ta'kidlab keladilar.

Nega demokratiyaga intilish zamonaviy davlatlarning umumiyligi xususiyati bo'lib qoldi? Kisman javobni despotizm hokimligidan qutulishni nazarda tutuvchi demokratik g'oyalarga azaliy xos bo'lgan jozibadorlikdan topish mumkin. Ammo asosiy omil milliy davlatning an'anaviy madaniyatlarga nisbatan integratsiyalanganligidir. Zamonaviy davlatlar unifikatsiya qilingan tizim bo'lib, bu xil davlatlar boshqaruv vazifasini bajaruvchi shaxslar aholining ko'pchilik qismi faol qo'llab-quvvatlashi bilangina faoliyat ko'rsata oladilar. Demokratik ideallar shunday qo'llab-quvvatlashni ifodalash va ta'minlash usulidir.

Demokratik elitizm va plyuralizm, nazariyalari

E'lon kilingan demokratik g'oyalar doim ham reallikka mos kelavermaydi. Hozirgi kunda hukmron guruhlar tomonidan demokratik goyalarga ixlosmandlikning keng namoyish qilinish fakti boshqaruvning real rejimlari haqiqiy qurilishi haqida kam ma'lumot beradi. Demokratiya nazariyotchilari hozirgi jamiyatda demokratik ta'sirning salohiyati va chegaralari haqidagi qarashlarida hamfikr emaslar.

Demokratik elitizm

Zamonaviy demokratiyaning tabiati va cheklanishlari haqidagi keng tarqalgan sistema Maks Veber, uning yangicha varianti iqtisodchi Yozef Shumpeter tomonidan shakllantirilgan. Ular ishlab chiqqan goyalar demokratik elitizm g'oyasiga birlashadi.

Maks Veber nazariyasi

Veber to'g'ri demokratiya yirik davlatni kundalik boshqarishda nafaqat millionlab odamlar siyosiy qaror qabul qilishi uchun muntazam yig'ilmasligi, balki murakkab ijtimoiy qurilmani boshqarish maxsus bilimni talab qilishidan kelib chiqqan. Veber fikricha, to'g'ri demokratiya bajaruvchi va-zifalar sodda va aniq shakllantirilgan kichik strukturalarda amal qilishi mumkin. Murakkabroq qarorlar qabul qilish, murakkab siyosatni ishlab chiqish zarur bo'lganda, kichik, tijorat firmalariga o'xshash tashkilotlarda ham maxsus bilim va ko'nikmalar talab qiladi. Ekspertlar o'z ishlarini doimiy asosda olib borishlari lozim; muayyan bilim va ko'nikmalarni talab qiluvchi mansablarga saylovga talab zitiqgan ko'nikma haqida sust tasavvurda bo'lgan va zarur axborotga ega bo'lmagan odamlar qo'yilmasligi kerak. Yanada yuqori bosqichlar rasmiy vakillari mansabi saylab qo'yiladigan bo'lishi mumkin, biroq shu bilan birga mamlakatni boshqarishning asosiy og'irligini tashuvchi amaliyotchilarning yirik qatlami ham bo'lishi lozim. Veber fikricha, umumdemokratik jarayonlarda qatnashish g'oyasi bilan zich bog'langan ommaviy fuqarolik goyasini amalga oshirish byurokratik apparat mavjudligi zaruratini ancha ko'taradi. Masalan, farovonlik, sog'liqni saqlash va ta'limni ta'minlash doimiy asosda amal qiluvchi yirik zamonaviy ma'muriy tizimlar bo'lishini talab qiladi. Veber ta'kidlashicha, zamonaviy davlatlar to'lig'icha byurokratik qaramdir. Davlat nazariyalarni tanqid qilish va baholash

Demokratik elitizm haqidagi va plyuralistik nazariyalar jiddiy tanqidga uchradi. Keng demokratik saralash nazariyasi tanqididan boshlaymiz. Birinchidan,

tankidchilarning tasdiq-lashicha, elektoratlarning asosiy mikdorini hyech qanday isbotlarsiz bu nazariyaning sust va ma'rifatsiz tarafdorlari tashkil etadi. Ikkinchidan, Veber va Shumpeter ko'rayotgan yagona tanlash yo'li, saralashni ijobiy boshkarish va beaql byu-rokratik boshqarish o'rtasidagi tanlov olib beradi. Biroq byurokratiya har xil bo'ladi; byurokratiyaning ayrim turlari jamoatchilik extiyojlari va manfaatlariga nisbatan boshqala-riga qaraganda ancha ochiq va talabchan bo'ladi, lekin maxsus bilim va mahorat talab qilinadigan joylarda odatda, byurokratik amaldorlar emas, mutaxassislar ish olib boradilar. Uchinchidan, kooperativ korxona va "ochiq" shakldagi assosiasiyalarni tashkil qilish uchun qator shart-sharoitlar mavjudligi extimoli borki, bular siyosiy jarayondagi kabi, iqtisodiy yo'nalishda ham byurokratik an'analarni zaiflashtirishga qodirdir.

Tanqidchilar yana shuni ta'kidlaydilarki, plyuralistik nazariya tarafdorlari ko'rsatgan manfaatdor guruxdar, turli hokimiyat va nufuzga ega bo'ldilar. Jumladan, biznesdan manfaatdorlar guruhlar odatda, hukumat siyosatiga boshqa guruhlarga nisbatan quchli ta'sir ko'rsatadi. Ayrim hollarda mavjud manfaatdor guruhlar tegishli ishbilarmon doiralar nuktai nazarini to'g'ridan-to'g'ri ifodalaydi, deb o'ylash xato bo'lardi. Odatda, tadbirkorlar siyosiy jarayonlar kechadigan va qaror kabul kilinadigan umumiy sxemani yaratadilar. Bularning barchasi va boshqa tanqidiy muloxazalar plyuralistik nazariya tarafdorlaridan biri bo'lgan Robert A. D Delni o'z qarashlarini o'zgartirishga majbur qildi. Yaqinda u iqtisodiy demokratiya dasturlari joriy qilish zaruriyati haqida o'zining qat'iy fik-rini bildirdi. Bular yirik birlashmalar manfaatining haddan ziyod ta'sir ko'rsatishiga qarshi xizmat qilishi kerak bo'ladi.

Barcha keltirilgan tankidda muloxazalar, shubxdsiz, o'z asosiga ega. Lekin demokratik elitizm va plyuralizm nazariyasida qabul qilingan ayrim doiralar quchini inkor qilish mumkin emas. To'g'ridan-to'g'ri demokratiya kichikroq doiralarda samarali kelishi mumkin, lekin yirik miqyosli uyushmalarni bosh-qarishni samarali tizimda amalga oshirish mumkin emas. Bunday jamiyatda ba'zan referendumlar o'tkazish mumkin, lekin bunga minglab, hatto millionlab odamlar jalb qilinar ekan, har bir savolni uzoq muddat atroflicha o'rganmay turib, ovoz berishni amalga oshirish kerak emas. Hozirgi davrda jamiyatdagi aholining turli guruxdari extiyoj va talablarni o'rta qo'yar ekan, qachonki ular o'z nuqtai nazarlarini omma oldida oshkora bayon qilsalargina jamiyatga ma'lum bo'ladi. Bunday guruhlar o'rtasidagi raqobat amalda muayyan bir "muvozanat" shakllantirishga yordam beradi: kuchli guruxdar o'z karashlarini boshqalarga zo'rlab o'tkazmaydilar, kuchsizlar esa o'z manfaatlarini bildirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Bundan tashqari, Veber va Shumpeter vakolatlar xususidagi savolni o'rta qo'ygan tashlaganlarda ham to'la hakdi edilar. Saylovchilarning katta kismi hukumat muntazam ravishda qabul qilib boradigan qarorlarning butun murakkabligini tushunib yetish darajasida emas, shuning uchun rasmiy shaxslar va saylov organlari tomonidan saylangan a'zolar mavjud, savollarga javob bera oladigan maxsus bilimlarni egallash imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak. Umumiy siyosiy jarayonni yaratuvchi shaxslar tomonidan tazyiq ostiga olingan taqdirda ham, ekspertlar aniq savollar yuzasidan muayyan ma'lumotga ega bo'lganlari sababli,

ular qaror qabul qila olish huquqiga egadirlar. Agar ekspertlar guruxining faoliyati saylangan vakillar tomoni-dan kuzatib borilsa, ular tomonidan ishlab chiqilgan qaror-lar aholining juda keng doiradagi ijtimoiy katamlarining manfaat va ehtiyojlarini qamrab oladi.

O'z-o'zidan ravshanki, bunday masalalarni faqat mavhum tarzda qo'rib chiqish mumkin emas. Real mavjud siyosiy tizimlar xarakatini to'g'ri taxlil qilish zarur. Biz bundan buyon siyosiy partiyalar xususiyatiga, xotin-qizlar rolini aniqlash-ga qadar xuddi shu yo'sinda qarab chiqishni boshlaymiz. Bundan tashqari biz, mavjud oyyosiy tizimlar hokimiyatni boshkarayotgani, shuningdek "Totalitarizm" sharoitida siyosiy hukumat boshkaruvi qanday holga kelishi hakida tushuncha hosil qilishga harakat qilamiz.

Siyosiy partiyalar G'arb va Sharq mamlakatlaridagi ovoz berishlar

Siyosiy partiyalarni saylov vositasi orqali huqumat ustidan qonuniy nazorat o'rnatish huquqini olishga imkoniyati bor tashkilot sifatida belgilash mumkin. Ayrim hollarda hokimiyatni egallashga intilayotgan, lekin bun!Y|;onuniy1vositalar orqali amalga oshirish imkoni bo'lmagan siyosiy tashkilotlar Ham mavjud. Bunday tashkilotlarni ular tan olingunga qadar adyosiy sekta yoki harakat sifatida baholash mumkin. Masalan, XIX asr oxirida Germaniyada sosial-demokratlar Bismark tomonidan g'ayriqonuniy, deb e'lon qilingan edi. Bu davrda Ular uyushgan siyosiy xarakat sifatida shakllangan, hammaga ma'qul bo'ladigan yo'llarni qidirayotgan, keyinroq partiya sifatida tan olinib, XX asrda esa bir necha bor hokimiyat Tepa-siga ham keldilar.

Ko'ppartiyaviy davlatlarning umumiy turkumi orasida tur-li partiyalar tizimlari mavjud. Ikkipartiyali yoki ko'ppartiya-li tizimning tashkil topishi muayyan bir mamlakatdagi say-lov jarayonining xarakteriga ko'p jihatdan bog'liq. "G'olib hamma narsaga ega bo'ladi" tamoyiliga asoslangan saylovda ikki partiya siyosiy tizimda ustunlik huquqiga intiladi. Ko'proq ovoz so-niga ega bo'lgan nomzod, yig'ilgan ovozlarning umumiy soniga nisbatan qancha foiz ovoz olganiga qaramay, saylovda yutib chiqadi10. Boshka tamoyillarga, masalan, proporsional vakil-likka asoslangan saylovlarda esa (vakillik organlaridagi o'rinlar soni olingan ovozlarga nisbatan proporsional tarz-da ajratilganda) ikkipartiyali tizim kamroq uchraydi.

G'arbiy Yevropa mamlakatlarida partiya tashkilotlarining ko'plab turlari bor bo'lib, Buyuk Britaniyada ularning hammasi ham mavjud emas. Ayrim partiyalar diniy asoslarga tayanadi (Belgiyadagi Sosial-xristianlar partiyasi yoki Katolik xalq partiyasi kabi). Ayrimlari esa o'ziga xos milliy va til xusu-siyatlarini namoyon etuvchi etnik partiyalar hisoblanadi (Buyuk Britaniyadagi Shotlandiya milliy partiyasi yoki Finlandiya-dagi Shved xalq partiyasi kabi). Shuningdek, qishloq aholisi manfaatlarini ifodalovchi qishloq partiyalari ham keng tar-qalغان (masalan, Shvesiyadagi Markaziy partiya yoki Shveysa-riyadagi Xalq partiyasi), turli-tuman ekologik masalalar bi-lan shug'ullanuvchi atrof-muhit partiyalari ham mavjud (bunga misol qilib Germaniyadagi Yashillar partiyasini keltirish mum-kin). Turli siyosiy qarashlarni ifodalovchi yana ko'plab par-tiyalarni sanab o'tish mumkin.

Ikkinchi jahon urushidan keyin ko'pgina G'arbiy Yevropa mamlakatlarida hukumat socialistik va mehnat partiyalari toI monidan shakllantirildi. Bu

mamlakatlarning deyarli barcha-n sida kommunistik partiyalar rasmiy tan olingan bo'lib, ular-ning ayrimlari o'ta yirik hisoblanadi (masalan, Italiya, Fransiya va Ispaniyada). Ko'plab mutaassib (eskilikka yopishib olgan) partiyalar (Fransiyadagi Respublika partiyasi yoki Buyuk Britaniyadagi konservativ va yunionistik partiya) bo'lib, ular so'llar va o'nglar o'rtasidagi "oraliq" h[^]detni egallaganlar (masalan, Buyuk Britaniyadagi Sosial-demokratlar va liberal demokratlar). ("So'llar" atamasi radikal va progressiv siyosiy guruhlarini ifodalashda foydalaniladi; "o'nglar" atamasi esa nisbatan mutaassib guruhlarini ifodalaydi.)

Partiyaviy tizimlar

Ayrim mamlakatlarda ko'pchilik tomonidan tuzilgan itti-foqqa kirgan partiyalar yoki biror partiyaning yetakchisi, o'z-o'zidan mamlakatda yuqori rasmiy lavozimni egallab, premyer-ministr (bosh vazir) bo'ladi. Boshqa mamlakatlarda esa (masalan, AQShda) prezident asosiy hukumat organlariga partiya saylovchilariga bog'liq bo'lmagan holda alohida saylanadi. G'arbiy Yevropa mamlakatlarida saylov tizimi bir-biriga o'xsha-maydi va ko'pchiligi Buyuk Britaniyadagiga nisbatan murakkab ko'rinishga ega. Germaniyani misol keltirish mumkin. Bu mamlakatda bundestag (parlament) a'zolari proporsional vakillik hamda "golib hamma narsaga ega bo'ladi" o'yaamoyillariga tayangan tizim asosida saylanadi. Bundestag a'zolarining yarmi saylov organlarida saylanadi, qolgan 50 foiz a'zosi esa muayyan regionlarda ular uchun berilgan ovozlar foiziga asosan aniqlanadi. Xuddi shu tizim Yashillar partiyasining parlamentda o'rin egallashiga imkon beradi. Mayda partiyalar ko'payib ketishining oldini olish maqsadida 50 foizlik baryer — partiyaning parlamentda o'rin olishi uchun kerak bo'ladigan ovoz-larning minimal miqdori — yo'lga qo'yilgan. Mahalliy saylovlarda ham xuddi shu tizimdan foydalaniladi.

Buyuk Britaniyadagi singari ikki partiyali tizimda parlamentariylar odatda, ko'proq ovoz olish imkonini beradigan «o'rtacha» pozitsiyalarda turadilar va radikal qarashlardan uzoqlashishga harakat qiladilar. Bunday mamlakatlarda partiyalar mo'tadil imidj hosil qilishga intiladilar va ba'zan bir-birlariga shunchalik o'xshab ketadilarki, ulardan birini tanlash qiyinlashib qoladi. Umuman olganda, turli-tuman manfaatlar har bir partiya tomonidan taqsim qilinishi mumkin, biroq siyosiy dasturlar shunchalik yumshatib shakllantiriladi-ki, ular orasidagi tafovut deyarli yo'q bo'lib ketadi. Ko'p partiyali tizimlar turli manfaatlarni bevosita va ochiq ifodalash, turli qarashlarni bayon qilish imkonini beradi, shuningdek, radikal muqobillar mavjudligini ta'minlaydilar. Boshqa tomondan bunday tizimlarda birorta ham partiya parlamentda ko'pchilikni tashkil qila olmaydi, bu esa ko'pincha mavjud ziddiyat va nizolar tufayli qaror qabul qilishga imkon bermaydigan koalitsiyalar tuzish zaruratini vujudga keltiradi. Bunday vaziyatda hukumatlar hokimiyat tepasida uzoq vaqt qola olmaydilar, shuning uchun ular faoliyatining samaradorligi ancha cheklangan.

Ovoz berish va sinflar

Ko'pgina G'arbiy Yevropa mamlakatlarida asosiy siyosiy qarashlarni ifodalovchi socialistik kommunistik, liberal va konservativ partiyalar asosiy yirik partiyalar hisoblanadi. Ovoz berish yakunlari va sinfiy bo'linish o'rtasidagi munosib ovoz huquqini qo'lga kiritishda kutilgan natijalarni berdi-mi?

Agar qisqacha javob bersak, yo'q. Ayollar ovoz berish hukuqini ancha ilgari qo'lga kiritgan G'arbning ko'pgina mamlakatlarida ovoz berayotgan ayollar soni erkaklarnikidan ancha oz. 1929 yil Buyuk Britaniyada o'gkazilgan birinchi umumilliy saylovda ayol-lar ilk bor ovoz berishga qo'yilgan edi, shunda ovoz bergan erkaklar uchdan ikki kismni tashkil ettani holda faqatgina uchdan bir qism ayollar o'z imkoniyatlaridan foydalandilar. Shunga o'xshash holatlar AQShda ham ro'y berdi. Hozir ham ayollar erkaklarga qaraganda saylovlarda kamroq ishtirok eta-di, ba'zi davlatlarda esa bunday farq umuman yo'qolib ketgan. AQShdagi prezident saylovlarida ishtirok etgan ayollar soni erkaklarga qaraganda 3-6% oz bo'ladi. 1970 yildan boshlab Buyuk Britaniyadagi parlament saylovlarida ayollar va erkaklar o'rtasidagi farq 4% dan oshmadi. Bunday farq Shvesiya, G'arbiy Germaniya, Kanadada umuman yo'q, Italiya, Finlyandiya va Yaponiyada esa ovoz berishda ishtirok etayotgan ayollar soni erkaklarnikidan ancha yuqori.

Ushbu ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, ovoz berish huquqi jinslar o'rtasidagi tenglikka monelik qilmaydi, balki bu notenglikni chuqur ijtimoiy farqdardan, ya'ni ayollar fao-liyatini faqat uy va oila ishlari bilan chegaralab qo'yilgan-ligidan izlamoq lozim. Jinslar o'rtasidagi ijtimoiy farq-larning kamayib borishi, ularning siyosiy faolligi oshishi-da kuchli sezilmokda. Ijtimoiy hayotda va hokimiyat tuzilmala-rida turli lavozimlarni egallayotgan, saylovlarda ishtirok etayotgan ayollar soni kun sayin o'sib bormoqda.

Siyosiy hayotdagi ayollar va erkaklar o'rtasidagi munosabat qanday? Ko'pgina sufragistkalar (ayollarning saylov huquki uchun ilk kurashchilar) ayollarning siyosatdagi ishtiroki siyesiy hayotga radikal o'zgarishlar olib kiradi deb hisoblaydilar. Ayollarga ovoz berish huquqining berilishiga qarshilarning fikri esa aksincha, ya'ni ayollar siyosiy faolligining ortishi tez orada halokatli oqibatlariga olib kelishini uktiradilar. Buyuk Britaniyadagi ayollarning saylov huquqiga qarshi bo'lgan! taniqdi siyosatchilardan biri shunday ogohlantirgan edi: «Ayollarning bunday keng ko'lamdagi inkilobi, Angliyani muqarrar halokatta olib keladi». Umumiy fikrlar quyidagicha, ayollarning siyosatdagi ishtiroki siyosiy hayotni odatiy holga aylan-tirsa-da, bari bir oilaning turg'unligiga putur yetadi. Bunday xavfsirashlarning hyech biri o'zini oqlamadi. Ayellarning ovoz berish huquqini olganligi siyosatga hyech qandaya muhim o'zgarishlar olib kirgani yo'q. Ayollar va erkaklar ovoz berishida yaqqol farkdar ko'zga tashlansa-da, yaxlit olganda, ovoz berishda ayollar erkaklarga nisbatan konservativdirlar»

Ayniqsa, o'ng qanot partiyalariga berilgan ayol saylovchilari-ning ovozlari bo'yicha fikr yuritsak, bu yanada oydinlashadi. Bu etiroflar Fransiya, G'arbiy Germaniya, Italiya uchun to'g'ri, Buyuk Britaniya, AQShda esa vaziyat birmuncha biryokdama. Buyuk Britaniyadagi Leyboristlar partiyasi uchun yosh erkaklarga qara-ganda aksariyat yosh ayollar, katga yoshdagi ayollar esa konserva-torlarga ko'proq ovoz beradilar. Qo'shma Shtatlardagi konserva-tiv yo'nalish harakatdagi ikki asosiy partiya haqidagi qarash-larni ifodalamaydi, chunki respublikachilar va demokratlar o'rtasidagi farqlarni to'g'ridan to'g'ri siyosiy qarashlardagi mu-xolif «o'nglar» va «so'llar» sifatida baholash xato bo'lur edi. So'shti saylovlarda demo^fatlar uchun ayollar erkaklarga qara-ganda ko'proq ovoz berdilar, ularning aksariyat qismi yosh ayollar edi.

Ayollarning siyosatga ta'sirini faqatgina saylov huquqi nuqgai nazari bilan baholash noto'g'ri. So'nggi yillar va o'nyil-liklar davomida ayollar harakati siyosiy xayotga o'z ta'sirini o'tkazmoqsa. 1960 yillar boshidan ayollarning Milliy tashki-loti va boshqa ayollar harakatlari bevosita ishtirok etishlari borasida anchagina ishlarni amalga oshirdi. Ular quyidagi yo'na-lishlar bo'yicha ish olib bordilar: erkaklar bilan teng mehnat qilish hupquqini qo'lga kiritish, abortni qonuniylashtirish, oila va ajralish haqidagi qonunlarga o'zgarishlar kiritish. Yevropa mamlakatlarining ko'pchiligida bunday milliy ayollar tashkiloti yo'q edi, lekin feminizmning «ikkinchi to'lqini» 1960 yillardan boshlanib, to shu kunlargacha davom etayotgan xudsi mana shu muammolarni Yevropa siyosiy hayotining marka-ziga olib chiqsi. Juda ko'p masalalar, xususan abort haqidagi fikrlar ayollar va erkaklar orasida qattiq bahslarga sabab bo'ldi.

1967 yilgi abort to'g'risidagi qonunning, shuningdek fYag larni ishga yollashda seksual ta'magirlikka yo'l qo'ymaslik to'g'risidagi qonunlarning kdbul qilinishida Buyuk Britaniya-dagi ayollar tashkilotining roli katta bo'ldi. Ular qonunlarga turli o'zgarishlar kiritilishiga ham muvaffaq bo'ldilar. Ma-salan, «Nikoh marosimi va maishiy zo'ravonlik haqidagi qo-nun"ga 1976 yili maishiy zo'ravonlik qurbonlarini himoya VDlish haqida nizom kiritildi. 1992 yili o'tkazilgan milliy so'rovlar erkaklar tomonidan ahamiyatsiz hisoblangan, ayollar Uchun esa muhim ahamiyatga ega bo'lgan bosh^ muammolarni ham H9l qilib berdi. Ular qatoriga maktabgacha bolalar muassasala-rv tizimini yaratish siyosati va bolalar nafaqasi²³ haqidagi siyosatlar kiradi. Kelajakda vaziyat qanday rivojlanishidan ^i>iy nazar, hozir shu narsa aniqki, ayollarga taalluqli juda ^Up muammolar asta-sekin o'z yechimini topmoqsa.

Siyosiy tashkilotlardagi ayollar

Ayollar hyech kachon siyosiy hokimiyatdan to'la chetlatilmagan-lar. O'tmishda ham (Kleopotrada boshlab) hokimiyat tepasida turgan va qo'l ostiga katta hokimiyatni birlashtirgan ayellar ko'p bo'lgan. Ular qonuniy hukmdor sanalmasalar ham, podshoh-lar, prezidentlar, Bosh Vazirlarning rafiqalari yoki ma'shu-qalari sifatida ulkan qonuniy hokimiyatga ega bo'lganlar. Mi-sol tariqasid^ Fransiya qiroli Lyudovik X¹Uning mahbuba-si, davlat ahamiyatiga molik muhim masalalarni hal qila ol-gan Pompadur xonimni aytish mumkin. XX asrda ham ko'p ayol-lar hokimiyat tepasiga kedsilar. Masalan, Isroilda Golda Meyn yer, Hindistonda Indira Gandi, Buyuk Britaniyada Myegaret

Tetcher.

Shunga qaramay, umuman olganda ayollar ijtimoiy hayotning barcha sohalari kabi siyosiy arbob sifatida ham ozchilikni tashkil etadilar. 1983 yilgi saylovlardan so'ng Buyuk Brigtaniya parlamentlarida ayollar soni 19 ta edi, bu barcha palata a'zolarining 3%iga to'g'ri keladi. Avvalgi parlamentda ularning soni 27 ta bo'lib, umumiy hisobning 4,5%iiga to'g'ri kelgan, 1980 yili Qo'shma Shtatlarda o'tkazilgan milliy saylovlardan keyin kongresslar palatasida 19 ayol bo'lib, bu kongressmenlar umumiy sonining 4%iga to'g'ri keladi. Mana shu ko'rsatkich 1970 yillarning boshlarigacha o'zgarishsiz qoldi. 1981 yil AQSh senatida faqatgana ikki nafar ayol bo'lgan va bu senatorlar umumiy sonining 2%iiga teng edi. Oldingi chaqiriqlardagi senat tarkibida ayollar umuman

bo'lmagan. Butun tarix davomida Amerika kongressida faqat 13 ayol bo'lgan. Boshqa mamlakatlarning qonun chiqaruvchi organlarida ayollar bundan ko'proq ishtirok etgan. 1981 yilda g'arbiy Germaniya bundestagi a'zolarining 8,5%ini ayollar tashkil etgan, Shvesiyada parlament a'zolarining 28%ini, Finlyandiyada — 26% va Norvegiyada — 24% a'zolar ayollardan tashkil topgan edi.

Ayollarning mahalliy hokimiyat organlaridagi ishtiroki umummilliy darajadagidan yuqoriroq. 1981 yilda Buyuk Britaniya¹ niyadagi mahalliy hokimiyat organlari a'zolarining 1b%i ayollar edi. Boshqa ko'pchilik mamlakatlarda ayollar mahalliy organlarda milliy organlarga qaraganda ko'proq ishtirok etadi, Skandinaviya mamlakatlari bundan istisno. 1983 yilda AKD1 davlat organlari a'zolarining 9,8%ini ayollar tashkil qilar edi. Ayollarning hukumat tuzilmalaridagi ishtiroki ularning boshqa ko'p ijtimoiy sohalaridagi ahvolini ham aks ettiradi: hokimiyatning o'rta eshalonlarida ayollarni u yerdagi erkaklar² ga mutlaqo mutanosib bo'lmagan nisbatlarda bo'lsa ham uchratish mumkin, lekin yuqori eshalonlarda ayollar barmoq bilan sanarli.

Partiya tashkilotlarida ham xuddi shunday manzarani ku-zatish mumkin. Buyuk Britaniyada leyboristlar partiyasining 1980 yildagi yillik konferensiyasida delegatlarnig 11%ini ayollar tashkil etdi, konservatorlar partiyasida esa bu raqam 38%ga teng edi. Qo'shma shtatlarda demokratik va respublikachi-lar partiyalari delegatlarining taxminan 1/3 qismini ayollar tashkil qilar edi. Biroq partiya iyerarxiyasining yuqorisiga ko'tarilgan sari ayollar borgan sari kamroq uchraydi. Karter ma'muriyatidagi 11 kabinet a'zolaridan 2 tasi ayollar edi. 1980 yiddagi saylovlardan keyin Prezident Reygan tuzgan kabinetda ta ham ayol yo'q edi. Shvesiya, Finlyandiya, Norvegiya hukumati tarkibiga anchadan beri ayollar kirgan bo'lsa ham, ular ozchilikdir. Masalan, 1980 yildagi Shvesiya yangi hukuma-tining 20 a'zosidan 5 nafari ayollardan iborat edi.

Ajablanarlisi, ayollarning yuqori organlarga saylovda kam ishtirok etishi emas, balki mana shu holatning juda sekinlik bilan o'zgarayotganligidadir. Savdo sohasida hali ham erkaklar hokimlikni qo'ldan bermayotgan bo'lsalar-da, ayollar har qachongidan ham ko'proq bu sohani zabt etmoqsalar. Lekin siyosat borasida bunday deyolmaymiz, bo'lmasa hamma siyosiy partiyalar ayol va erkak vakillariga teng imkoniyat yaratib bermoqda. Ayol-larning iqtisod sohasida ilgarilashiga to'sqinlik qilayotgan faktorlar, siyosatda ham ta'sirini ko'rsatmoqda. Siyosiy tashkilotlarda yuqori cho'qqini egashsho uchun ayollar ko'proq mehnat qilishlari, vaqt sarflashlari lozim, uy yumushlari bilan doimiy band bo'lgan ayollar esa bunga imkon topolmaydi. Ammo buning sababi boshqacha bo'lishi ham mumkin. Ya'ni, aynan siyo-siy maydondagina mutlaq hokimiyatga erishish mumkin. Xuddi mana shuning uchun ham erkaklar bu sohadagi o'zlarining egal-lab turgan mansablari, hukmronligidan ajralishni istamay-dilar.

i Institutlashtirilmagan siyosiy harakatlar

Siyosiy hayot siyosiy partiyaning ovoz berish, davlat organ-lariga vakillar yuborishda faqattina qonun doirasidagi fao-liyatlaridan iborat emas. Ba'zi odamlar agar siyosiy partiyalar muayyan sistema, qonun-qoidalaridan chetga chiqmagan holda harakat qilsalar, o'z maqsadlariga erisholmaydilar deb hisoblaydilar. Noortadoksial siyosiy harakatning fojiali misoli si-fatida mavjud tuzumni ommaviy

zo'ravonlik harakatlari bi-lan qo'porib tashlovchi inqilobni keltirish mumkin. Inqilob Muammosi maxsus bobda (qarang: 19-bob, «Inqilob va ijtimoi harakatlar») batafsil fikr yuritiladigan tufayli biz FyQat noqonuniy siyosiy harakatlarning tabiati va ko'lamiga to'xtalamiz.

Bunday harakatlarning eng ko'p tarqalgan turi norozilik HZRakati hisoblanadi, u ko'pincha jamiyatning kambag'allashgan tadqiqotlariga borib taqaladi. Bularga reaktiv aviasozlik, telekommunikasiya va axborot texnologiyalari kiradi.

Qurbonlar soni haqida gapiradigan bo'lsak, shu narsa ma'lum bo'ladiki, XX asrda insoniyat tarixda misli ko'rilmagan darajada urushta ishtiyoqmand bo'lgan. Bugunga kelib asrimiz mobaynida urushlarda o'ldirilganlar soni 100 milliondan oshib ketdi. Demak har kuni o'rtacha 3500 askar hayotdan ko'z yumgan. •) Lekin butun XX asr davomida yer yuzining turli mintaqalarida tinimsiz urushlar hamon davom etayotir...

Urush va agressiya

Nega urushlar to'xtamaydi? Insonlarning urushlarda qat-nashishga tayyorligi tug'ilishning ularga xos shiddatga moyil-ligidan kelib chiqadi, degan tassurot paydo bo'lishi mumkin. Ehtimol, shiddat inson tabiatiga xosdir va vayron etuvchi urushlarda o'z aksini topayotgandir? Aslida bunday mulohaza gapirib o'tirishga ham arzimaydi. Jang maydoni ba'zi inson-larga qotillikka bo'lgan yashirin intilishlarini amalga oshi-rishda yordam berishi mumkin, lekin urushning bunday shiddatli tuyg'ularni qondirish bilan bog'liqligi juda kam. Shiddat — inson dalolatining turli tomonlariga xos bo'lgan xarakterli xususiyatidir, lekin u juda kam insonni qotillikka undaydi. Boshka insonni o'ldirishga majbur bo'lgan insonlarning aksariyati urush paytida shunday qilgan. Ko'pchiligimiz insonlarni taniymiz, uchratganmiz. Lekin odatda biz ulardan qo'rqmaymiz, chunki ularning urush paytdagi harakatlari indi-vid oddiy hayetda namoyish etishi mumkin bo'lgan shiddatkorlikdan farq qiladi.

Barcha armiyalarda albatta safga tayyorgarlik ilmi o'tiladi. Bu mashg'ulot tufayli askarlar harbiy intizomga o'rgatiladi. Bunday mashg'ulotlar jantda g'alabaga erishish uchun zarur bo'lgan yaxshi jismoniy tayyorgarlikni va guruhda inoqlikni mustah-kamlab turadi. Shu bilan birga, bunday mashg'ulotlar inson-ning odatiy sezuvchanligini o'zgartirib, uni qon to'kilishiga sovuqqonlik bilan qaraydigan qilib qo'yadi. Uzoq vaqt urush va shiddatni o'rganish bilan shug'ullangan Grin Dayer bu borada shunday deydi:

"Armiyaning asosiy maqsadi — bu qotillik, shuning uchun askarning tayyorligida asosiy narsa — bu ma'lum sharoitda dushman bilan yuzma-yuz kelganda shiddatni amalda qo'llash, yo'ldagi to'siqlarni yorib o'tib, dushmanni o'ldiripya o'rganishdir. Insonlarning aksariyatini o'ldirish ilmiga maxsus o'qitish kerak, lekin bu yerda ba'zi istisnalar ham bo'ladi. Ba'zan "tug'ma askarlar" — ya'ni erkakcha oshna-og'aynichilikdan, modsiy va ruhiy to'siqlar-ni yengib o'tishdan zavq oladigan insonlar ham uchraydi. Bunday inson albatta birovni o'ldirishga intilishi shart emas, lekin bunday harakatni talab qiladigan holatda, masalan, urushda u uzoq qiynalib, ikkilanib o'tirmaydi. Lekin armiyalarda bunday insonlar ko'p emas. Aksincha, ular shu qadar ozki, hatto kichik professional

otryadlarda ham juda ozchilikni tashkil etishadi. Asosan ular kommandos turidaga maxsus katta maosh to'lanadigan qismlarda jamlangan bo'ladi. Muntazam chaqiriq orqali shakllanadigan katta armiyalarda bunday odamlar oddiy insonlar ichida izsiz g'oyib bo'lib ketadilar. Xudsi shu kabi urushishni istaydigan odsiy insonlarni armiya o'ldirishga majburlashi kerak.

Ikkinchi jahon urushida AKSh armiyasi polkovnigi S. L. A. Marshall 400 ga yaqin rota askarlari bilan ko'plab suhbatlar o'tkazgan. Natijalar uni hayratga solgan. Shu narsa ma'lum bo'ldiki, hatto hayoti xavf ostida bo'lgan jangovar holatlarda ham, askarlarning atigi 15% i hyech bo'lmaganda 1 marta o'q uzgan. Bu ko'rsatkich nafaqat askarlarni, balki zobitlarni ham hayron qoldirgan, chunki ularning har biri faqat o'z majbu-riyatidan chetga chiqishni xayolita keltirar edi. Askarlar faqat atrofida boshqalar, ayniqsa, zobitlar borligida o't ochishar edi. Ularning o'q uzishni xohlamasligi qo'rqqoqlikni emas, balki zaruriyatsiz qotillikka bo'lgan nafratni ko'rsatadi.

Shunday qilib, urushlar — inson agressivligining bevo-sita mahsuli emas. Urushlarning sababi ham, sodir bo'lish ket-ma-ketligi ham umuman boshqa omillar bilan belgilanishi lozim. Ularning eng muhimlari qatoriga davrlarning ijtimoiy-struktura sifatida an'anaviylikdan zamonaviylik yo'nalishida rivojlanishi kiradi. Avval ta'kidlanganidek, ibtidoiy jamiyatlarda to'la ma'noda urush tushunchasi yo'q edi. U paytda sodir bo'lgan qurolli to'qnashuvlar ko'proq urushni emas, balki sportni eslatuvchi va xavfsiz marosim edi; ularning ishtirokchilari qon to'kilishiga emas, balki qon to'kilishini kamaytirishga intilar edilar. Yirikroq ijtimoiy tashkilotlar va markazlashgan davlatlar paydo bo'lishi bilan ahvol tubdan o'zgara boshladi. Jang maydonlarida harbiy saflarga jamlangan yuzlab va minglab askarlar to'qnashar edilar.

Sodda kilib aytganda, harbiy kuchni qo'llash vositalariga ega bo'lgan davlatlar mavjud ekan, har doim urush kelib chiki-shi ehtimoli ham mavjud bo'laveradi. Urushni boshlashga undov-chi sabablar turlicha bo'lsa-da, odatda davlatlarning manfaat-lari to'qnash kelib, o'rtadagi ziddiyatni siyosiy va savdo bitimlari, diplomatik muzokaralar orqali hal etish imkoni bo'lmaganida harbiy harakatlar boshlanadi. Davlatlar urushni boshqa bir davlat territoriyasi yoki qandaydir resurslari (ma-salan, muhim dengiz yo'li) ustidan nazorat o'rnatishni xohlaganida yoki mafkuraviy va diniy kelishmovchiliklar natija-ida boshlashi mumkin. Qandaydir yagona sabab hyech qachon urush keltirib chiqara olmaydi. Urush — bu davlatning quvvatini va ta'sir kuchini halqaro maydonda sinash jarayonidir. Buyuk har-biy nazariyotchi, xbs asr nemis mutafakkiri Karl fon Klau-

'Ouyeg vyuuppk. Sht. 'opyop, 1985.

395

qilar edi.12 Parlament hanuzgacha armiyaga qochib qutilib bo'lmayya digan balodek qararedi va uni butunlay mayda dvoryanlardan (zobitlar korpusining asosiy manbai) va dehqonlardan(oddiy askar va serjant tarkibi zaxirasi) iborat qilib qo'Ygan edi. XIX asrning 70-yillarigacha zobitlar o'z unvonlarini sotib olar edilar

va harbiy amalga asosan xizmat davrining 3 dan 2 qismi o'tadigan xorijdagi mustamlakalarda erishar edilar.

Natijada, Buyuk Britaniya jahon sanoat rivojlanishida yetakchi rol o'ynashiga qaramasdan, uning harbiy rahbariyati armiyaning mexanizasiyalashishiga to'sqinlik qildi. Urushning sanoatlashishi sohasidagi yangiliklar borasida inglizlar eng oxirgi o'rinlarga tushib ketdilar. XIX asr oxiridan ancha avval qit'a davlatlarida shakllanib ulgurgan zaxira harbiylari ta-baqasi Buyuk Britaniyada hali ham yo'q edi. "Moviy suv" deb nomlangan Britaniya harbiy doktrinasiga ko'ra, kuchli dengiz floti mavjud ekan, Britaniya armiyasining Yevropa qitasida urush olib borish xavfi yo'q edi. XX asrning boshiga kelib faqat Buyuk Britaniya va AQShdagina harbiy xizmatga omma-viy chakiriq tizimi mavjud bo'lmagan.

Buyuk Britaniyaning birinchi Jahon urushida qataashishU bunday siyosatni qayta ko'rib chiqishga jiddiy turtki bo'ldi, "Harbiy iqtisodiyot" yaratish borasidagi katta urinishlari natijasida 1914—1918 yillarda Britaniya dengiz floti va armiyasi zamonaviy qurolga ega bo'ldi. Shunga qaramay, Brita-niyaning harbiy ustunligi asta-sekin tarixga anlana boshladi. Butun asr mobaynida barcha dengizlarda javlon urgan Brita-niya harbiy floti hukmronligini AQSh flotiga bo'shatib ber-di. 1930 yillarda sodir bo'lgan nemis armiyasining islohoti, AQSh qurolli kuchlarining taraqqiy etishi natijasida Buyuk Britaniya juda ham ortda qolib ketdi.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng

Ikkinchi jahon urushidan so'ng, ayniqsa AQSh va Sovet Itgifoqi kabi yirik davlatlarning ta'siri kuchayishi nati-jasida Buyuk Britaniyaning harbiy jihatdan ikkinchi daraja-li davlatga aylanib qolganligi yaqqol ko'zga tashlana boshladi. Endi Buyuk Britaniya yirik imperiya markazi emas, o'rta o'lcham-dagi oddiy davlat edi. 1945 yildan keyin ham Buyuk Britaniya qurolli kuchlari Malayziya, Keniya va Kipr kabi musatamlaka-larda harbiy to'qnashuvlarda ishtirok etdi (hozir ularning barchasi mustaqil davlatlardir). 1950 yillarda Suvayt kanali-da va yaqindagina Folklend orollarida bir yecha bor mayda harbiy to'qnashuvlar yuz berdi. Lekin, umuman olganda, urush~ dan keyingi davr — bu mustamlakalarning ozodlikka erishish davriga to'g'ri keldi. Bu — Britaniya harbiy quvvatining pasa-yishi davridir.

12Korr T. \Uag sh 1ye Modet MUogSh. \Uyezgro1,1959.

400

Buyuk Britaniyaning urushdan keyingi harbiy siyosati yad-roviy qurol bilan qurollangan kichik professional armiya yaratish yo'lida umumiy harbiy majburiyatdan voz kechishdan iborat edi. 1957 yyldagi davlat hisobotida "tinchlik paytida o'tkazilgan eng yirik harbiy islohot" hakida so'z yuritilgan. Qurolli kuchlar 2 barobar qiskdrtirildi, ayni vaqtda umumiy harbiy majburiyat bekor qilindi; armiya, aviasiya va harbiy flotni yadroviy qurol bilan jihozlash rejasi tasdiqlandi.

Aslida Buyuk Britaniya — yadroviy qurol yaratishga harakat kdlgan birinchi davlatdir. Urush paytida to'liq tadqiqrt ido-ralari AQShga ko'chirildi, chunki Amerikada ular raqibdan yaxshiroq himoya qilinar edi va amerikaliklar loyihani amal-ga oshirish uchun ko'proq zaxiraga ega edilar. 1945 yildayoq ser Genri

Tayzerd rahbarligidagi Qo'mita Buyuk Britaniyaning ke-lajakdagi mudofaa siyosati yadroviy qurolga ega bo'lishga asoslanishi zarur deb xulosa qildi¹³. 1947 yilda Britaniya yadroviy qurolini yaratish dasturi ishlab chiqildi, 1952 yilda vodorod bombasi ishlab chiqarish ishlari boshlab yuborildi. 1950 yil-larning o'rtalarida "Moviy chaqmoq" deb nomlangan bomba el-tuvchi raketa yaratilishi rejalashtirilgan edi, lekin u amalga oshmadi. Bombardimonchi samolyotlar yagona eltish vositasi bo'lib qolgan edi. Nihoyat 1967—1969 yillarda ularning o'rniga AQShdan sotib olingan "Polyaris" raketa tizimi qo'llanila boshladi (hozir uni yana AQShdan sotib olingan "Traydent" tizimiga almashtirish ko'zda tutilgan). Oxirgi o'n yilliklar davomida AQShga mamlakat o'z yadroviy qurolini joylashti-rishga ruxsat etuvchi bir qator bitimlar imzolanishi Buyuk Britaniyadagi harbiy holatga ta'sir etgan eng muhim omillar-dan biri bo'ldi. Bunday siyosat 1958 yilda o'sha paytdagi bosh vazir Garold Makmillan Buyuk Britaniyada 60 dona «TOR» rusumdagi amerika raketalarini joylashtirishga o'z roziligi-ni bildirganida boshlandi. Bundan 2 yil o'tgach, Xoli Lox deb nomlangan joyda «Polyaris» rusumidagi raketalar bilan ji-hozlangan Amerika harbiy bazasi barpo etildi. Bugungi kunda Buyuk Britaniyada Amerika harbiy obyektlari mavjud. Dankan Kempbellning ma'lumotiga ko'ra, hozir mamlakatda yuzdan ortiq amerika harbiy bazalari bor.¹⁴)

Jamoatchilik fikri so'roqlari natijalariga ko'ra, aholi-ning katta qismi Buyuk Britaniyaning yadroviy qurolga ega bo'lishini qo'llab-quvvatlashlariga qaramay, mamlakatda bun-day qurol mavjudligiga jamoatchiliqsa katta norozilik uyg'ot-Di. 1950 yillardan boshlab «yadroviy qurolsizlanish kompa-niyasi» tashkiloti yadroviy qurolga qarshi chiqqan asosiy hara-katga aylandi. Bu tashkilot omma tomonidan keng dastakka ega

13 Kshps11ye Sgeplye. Tye Ro1Shsz oG piskag deGepse: a sotrgenez1Uye t1godisyop. Sot-p(1yoye. 1985.

14 Shop T. Tye Mupas! G'asez oG\Uag. Satyps1§ye Ro1u Rgezz, 1986.
26-2912 401

riga hamfikir bo'lgan erkaklarning hamkorlik takliflarini ham rad etdilar. Ayni shu yilda tashkil topgan «Ayollar Tinchlik partiyasi» ham keng qo'llab-quvvatlandi (ammo shu payt-ning o'zida, urushda maqsadlari bunga qarama-qarshi bo'lgan, Amerika harbiy quvvatini oshirish tarafdori bo'lgan «Den-giz-harbiy ligasi ayollar bo'limi» ham mavjud edi). Birinchi jahon urushi paytida urushga qarshi harakatlarning ayollar ishtirokisiz kuchsiz bo'lishi turgan gap edi.

1915 yilda Gollandiyaning Gaaga shahrida ikki feminist va pasifist ayol — Rozika Shvimmer va Emmelin Petik Lou-reus «Ayollar Tinchlik partiyasi» bilan hamkorlikda Xalqaro Ayollar Tinchlik konferensiyasini tashkil etdilar. Ko'pchilik davlatlarning turli to'siqlar qo'yishiga qaramay, unga mamla-katlardan delegatlar yetib keldi. Bu konferensiya - tinchlik uchun kurash olib borayotgan Davlatlar o'rtasida tinchlik keli-shuvlari tamoyillarini ishlab chikishga qaratilgan ilk xalqa-ro uchrashuv edi. Konferensiya ishtirokchilari matbuotning tah-qirli va dushmanlarcha munosabatiga duch keldilar. Mana, Lou-on gazetalaridan biri

«Ivnong standarting»ning tipik shar-hi: «Bu tinchlik fanatlari, deb yozadi gazeta, allaqachonlar hammaning joniga tekkan». Lekin bu konferensiyaning kela-jakdagi hodisalarga ta'siri juda chuqur va muhim bo'ldi. Kon-ferensiya maqsadlarini qo'llagan yagona rahbar AQSh Prezi-denti Vilson o'zining 1919 yilda Tinchlik Kelishuviga asos sifatida taqdim etgan «O'n to'rt punkt»ida ilgari surgan bir qator g'oyalardan foydalangan edi.

Ikkinchi jahon urushi paytida ayollar pasifistik tashki-lotlarining roli kamaydi, chunki u paytda "Nasizm urushsiy bartaraf etib bo'lmaydigan tahdid" degan tushuncha hukm surar edi. Lekin urushdan keyingi yillarda, ayniqsa, yadroviy qurol keng tarkdligandan buyon ayollar guruh-lari urushga qarshi hara-katlarda yana faol ishtirok etmokdalar. Ko'pchilik g'arb davlat-larida AQShdagi «Yadroviy kurotsizlanms; ayollar harakati», g'arbiy Germaniya va Gollandiyadagi "Tinchlik uchun ayollar pa-sifistik tashkilotlari" paydo bo'lmoqda. Bunga o'xshash guruh-lar markaziy Yevropada ham mavjud, lekin ular hukumat qar-shiligiga duch kelmoqdalar.

Ayollarning tinchlik harakatlarida qatnashishning eng mashhur misoli Buyuk Britaniyadagi Grinxem Kommonda lager tashkil etilishidir. Grinxem Kommon yadroviy raketa sinay-digan baza joylashgan mintaqadir.

1981 yildan boshlab o'sha baza atroflarida ayollar bir necha yil mobaynida namoyishlar o'tkazib turdilar, Tinchlik lage-ri uyushtirdilar. Erkaklarning bu harakatga qo'shilishlariga davlat tomonidan ruxsat etilmagan. Lagerning asosiy maqsa-di — yadroviy qurollanishga qarshi norozilik bildirish edi. Bundan tashqari, ayollar bazaga yadroviy qurollar yuklangan avtokolonnalar kirib kelishiga to'skinchilik qilish maqsadi-

406

da yo'lni to'sib qo'yar edilar. Ishtirokchilardan biri ta'kidla-ganidek: «Tinchlik lageri bu faqatgina norozilik namoyishi emas. Bu tinchlik yo'li bilan qarshilik ko'rsatish, bizning nomimizdan qilinayotgan ishning va bir-birimizga bo'lgan mu-nosabatimiz uchun mas'uliyatni o'z zimmamizga olishimizdir. Avval erkaklar urushga ketar edi, endi ayollar tinchlik yo'lida o'z uylarini tark etmoqdalar.»²²

*<Harbiylar, siyosatchilar va jamiyat

Xarbiy boshkaruv va harbiy ta'sir

Ko'p davlatlarda huqumat qurolli kuchlarni boshqaruvchi har-biylar qo'lidadir (yoki yaqin o'tmishgacha ular qo'lida bo'lgan). XX asrda Janubiy Amerika davlatlarining aksariyatida, Af-rika, Osiyo va yaqin Sharqdagi ko'plab uchinchi dunyo davlatlari-da harbiy to'ntarish sodir bo'ldi. Dunyoning ko'plab mintaqala-rida harbiy hukumatlar u yoki bu bahona ostida me'yoriy hodisa deb tan olinmokda va oxirgi ellik yil ichida harbiy hukumat-lar soni kamayish o'rniga ko'payib bordi. Faqatgina ikki tur-dagi ijtimoiy tuzumlar harbiylar hukumat tuzishga qodir ekan-liklarini ma'lum darajada isbotladilar. Bular — g'arbning sanoatlashgan liberal-demokratik davlatlari va Sharqiy Yev-ropa davlatlari, jumladan, sobiq Sovet Ittifoqidir. Buning sababi nimada? Agar harbiylar har qanday noharbiy guruhlar-ga qaraganda yaxshiroq tashkilotta ega bo'lsalar va eng

kuchli qurolni faqat o'zlari nazorat qilsalar, nima uchun boshqa dav-latlarda ham harbiy hukumat o'rnatish mumkin emas?

Buning bir necha sababi bor. Birinchidan, jamiyatning sa-noatlashishi darajasi oshgan sari, unga murakkabroq boshqa-ruv tizimi zarur bo'ladi. Ichki intizom, qoidalar va burchga sodiq bo'lgan qurolli kuchlar murakkab ijtimoiy tartibni boshkarishga moslashgan emaslar. Buning uchun noharbiylar lo-zim — Ikkinchi jahon urushidan keyingi Italiya va Germaniyada ittifoqchilarning okkupasion harbiy boshqaruvi bunga yaqqol dalil bo'la oladi. Aholi har jihatdan itoatkor va bo'ysungan bo'lishiga karamay, okkupasion qo'shinlar boshqaruvni maxsus nohdbiy xizmatchilar bilan kuchaytirishni zarur deb topdilar.

Ikkinchidan, harbiylar legitimlik, ya'ni qonuniy boshkaruv huquqiga ega emas. Kuchga asoslangan boshqaruv faqat vaqninchalik bo'lishi mumkin. Uzoq vaqt boshqaruvni o'z qo'lida saqlab qolishni istagan har qanday guruh jamiyat tomonidan bunga huquqi bor, deb tan olinishi kerak. Noharbiy boshqaruv ^n'analariga ega bo'lgan jamiyatlarda harbiylarning bunday va noharbiy hukumatlar almashib turishini davlatlar tarixi-da ko'p kuzatish mumkin. Ko'nychilik harbiy hukumatlarga konser-vativ qarashlar xos va, odatda, ularning manfaatlari yirik sanoatchilar hamda yer sohiblari manfaatlari bilan bog'liq; Boshqa tomondan, sosializm yoki radikalizm yuyalarini qo'llay-digan harbiy hukumatlar ham mavjud. Liviyadagi polkovnik Kdodafi hukumati bunga misol bo'la olady, Terrorchilik va partizanlar qarakatlari

An'anaviy ijtimoiy tuzum bilan taqqoslanganda, hozirgi jamiyatlar tinchliksevar va osoyishtadir. Albatta, ularda ham oilaviy, jinoiy va hokazo mazmundagi zo'ravonlik ko'ri-nishlari uchrab turadi, ammo bugungi davlatlarda, inqilobiy harakatlar mavjud bo'lgan jamiyatlar bundan mustasno, armiya-ga qarshi chiqadigan ichki kuchlar yo'q. An'anaviy jamiyat-larda ahvol o'zgacha edi, ya'ni — hukumatning lashkarboshilar, dohiylar, qaroqchilar va hokazolardan iborat ko'plab dushman-lari mavjud bo'lgan.

Terrorchilik

Terrorchilik nimaligini zamonaviy davlatlarda yashayot-gan tinch aholi hayotiga taqqoslaganimizdagina tushunish mum-kin. Terrorchilik deganda rasmiy siyosiy hokimiyatga ega bo'lma-gan guruh yoki shaxs tomonidan siyesiy maqsadlarda kuch ishla-tish tushuniladi. Shu ma'noda, tinchlik hozirgi davlatlarda alohida ahamiyat kasb etadi, chunki ularning hukumati siyesiy maqsadlarda kuch ishlatish uchun monopol huquqqa ertshshgga intiladi. Shunday qilib, tinchlik o'zining asosiy raqibi — hukumat tomonidan ko'llaniladigan qonuniylik timsollari-dan foydalanishga harakat qiladi. Odatda, terrorchilar o'z hara-katlarini qonuniy deb hisoblaydilar, o'zlarini askar deb e'lon kiladilar, o'z tashkilotlari nomlarida harbiy atamalar ishlatadilar — masalan, Irlandiya Respublikachilar Armiyasi (IRA) Italiyadagi Qizil Brigada va hokazolar. Ular «siyo-siy huquqlar» haqida gapirishni yoqtiradilar, «sudlar» uyush-tiradilar, «hukmlar» chiqaradilar va «o'lim jazosi» qo'llaydilar

Ko'pincha, aholining aksariyat qismi bunday harakatlarni qonuniy deb tan olmaydi va ularni ma'nisiz kuch ishlatish-ning xavfli manbasi, deb baholaydi.

«O'qchi soyasi» kinofil-mida Shon O'Keysi o'ynagan qahramon Irlandiyadagi Britaniya armiyasiga qarashli qurolli harakatlarni shunday ta'riflaydi:

Axir jabr ko'rayotganlar — noharbiy fuqarolar; kimdir pistirma ko'yga-nida ular qayoqqa qochishni bilmay qoladilar. Shunday qilib, Irlandiyani qutqarish yo'lida belingdan yaralanishing hyech gap emas. Nima ham derdim, men o'zim xam millatchiman. Men Irlandiya ozodligiga va Angliyaning bu yerlarda hukmdor bo'lishiga huquqi yo'qligiga ishonaman, lekin qandaydir jinoyatchi, o'zi xalkning o'limiga sababchi bo'la turib, xalqqa o'lim hakida gapirsa, ichimda qandaydir qarshilik sezaman³⁰.

Tinchlik so'zining yangi ma'nosi 1789 yilda fransuz in-qilobi paytida paydo bo'lgan. O'shanda minglab odamlar, bi-rinchi navbatda aristokratlar, keyinchalik esa oddiy fuqaro-lar siyosiy ta'qib qurbonlari bo'lganlar va gilotinada qatl kilinganlar. O'sha paytdan buyon ko'plab hukumatlar terror, ya'ni ko'rqitish maqsadida kuch ishlatish usulidan foydalanganlar. Germaniyadagi nasistlar va Stalin davrida Rossiyada xavfsiz-lik organlari harakatlari, ayniqsa, vahshiyona edi.

So'ngga ikki yuz yil mobaynida davlatlar inson hayoti va sha'niga qarshi isyonchi guruhlardan ko'ra ancha ko'proq jinoyat-lar sodir etdilar. Shunday bo'lsa-da, terrorchilik atamasini davlatga qarshi bosh ko'targanlarga nisbatan ishlatish maqsadga muvofiqdir. Lekin bu atama ham unchalik aniq emas. Terrorchi-lar ma'lum bosqichda o'zlari hukumatta keladigan yirik tash-kilotlarning tarkibiy qismi bo'lishi yoki ulardan yordam olish-lari mumkin. Isroil hukumatida yuqori lavozimlarni egalla-gan ba'zi siyosiy arboblari 1940 yillarda o'sha paytdagi Falastin territoriyasida yangi davlat tuzishga yo'naltirilgan ter-rorchilik harakatlarida faol ishtirok etganlar. O'z navbatida, ko'plab falastinliklar Falastin Ozodlik Tashkilotini ko'llab, boshqa davlatlar uni terroristik tashkilot deb baholashlariga qaramay, qonuniy hukumat deb hisobladilar.

Partizan harakatlari

XX asrdagi terrorchilik partizan harakatlari bilan cham-barchas bog'liqdir. Aslida, ularni ajratib o'rganish ham mum-kin emas. Ular o'rtasidagi yagona farq — bu partishanlarning harbiy obyektlarga qarshi, terrorchilarning esa tinch aholiga qarshi harakat deb hisoblanishidir, lekin amalda bunday farkdar juda mavhumdir. Partizanlar muntazam qo'shin emas, ular muntazam harbiy birikmalar hisobida ham turmaydi. Ular sodir etadigan zo'ravonlik harakatlari faqat o'z talablariga omma e'tiborini jalb etish uchungina xizmat kiladi, chunki ular ochiq jangda g'alaba qozonishga umid ham qila olmaydilar. XX asr tarixida turli siyosiy maqsadlarga yo'naltirilgan ko'plab partizan harakatlari amalga oshirildi. O'larning bazilari e'tiborsiz qolaverdilar, ba'zilari esa armiyalar tomonidan yo'q qilindi, lekin ular ichida radikal siyosiy o'zgarishlarga erishganlari ham bo'ldi.

Qarindoshlik, nikoh va oila

Oila va nikohni o'rganish sosiologiya fani oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Odatda istalgan tipdagi jamiyatning har bir a'zosi oilada tarbiyalanadi va balog'atga yetganlarning ko'pchiligi esa nikohsa yoki nikohda bo'lganlar hisoblanadi. Nikoh keng ommalashgan ijtimoiy institutlar katoriga kiradi. Nikoh va oilaning shakli turli madaniyatda (ij-timoiy hayotning boshqa sohalarida bo'lgani singari) bir-biridan jiddiy farqlanadi. Oila o'zi nima, uning

boshqa qarindoshlarga munosabati, er-xotinlarning bir-birlarini qanday tanlashlari, nikoh va seksual aloqadorlik kabilar bir-birlaridan keng farkdanaditan munosabatlardir. Mazkur bobda biz yuqorida keltirilgan tafovutlarni ko'rib chiqamiz va hozirgi zamon g'arb jamiyati oilasi hayotining o'ziga xos jihatlari, nikoh va ajralishni o'rganishda ular qanday rol o'ynayotganlig'ini ko'rib chiqamiz. Vaholanki, o'tgan yuz yillikda oilaning g'arbona tipi jiddiy o'zgarishlarni boshdan kechirdi. Shundan kelib chiqqan holda, bugun va bundan oldingi bosqichdagi oilaviy hayot va nikoh munosabatlarining qiyosiy tahlilini beramiz. Hozirgi kunda oila va nikoh fundamental o'zgarishlarni boshidan kechirmoqsa. Shuning uchun ham bobning yakunida ular yanada chuqurroq tahlil qilinadi.

Biz yuqorida qo'yilgan masalalarga javob berishdan oldin oila, qarindoshlik va nikoh kabi asosiy tushunchalarning maz-1 munini aniqlab olmog'imiz kerak. Oila kishilarning shunday guruhiki, uning a'zolari bir-biri bilan to'g'ridan-to'g'ri qon-qarindoshlik munosabatida bo'lib, guruhning yoshi katta a'zolari bolalarga qarashish va yordam berish majburiyatlarini o'z zimmalariga oladi. Qarindoshlik (qon-karindoshlik aloqala^{ri}) — nikohdan o'tish natijasida yoki yaqin alokalar jarayonidagi (ota, ona, bola, bobo, momo va hokazolar o'rtasidagi) munosabatlarning natijasidir. Nikoh ikki balog'atga yetganlar o'rtasidagi jamiyat tomonidan tan olingan va ma'qullangaYa seksual ittifoqsir, deb ta'riflash mumkin. Nikohga kirgay individlar bir-birlari bilan qarindosh ham hisoblanadi. Ayni vaqtda nikoh majburiyati ularni juda keng doiradagi ishlar* ning qon-qarindoshlik munosabatlari bilan bog'laydi. Nikohdan keyin kuyov tomonning otasi, onasi, akalari, singillari va ularning boshqa qarindosh-urug'lari kelin tomonning qarindosh-urug'lari bilan qarindoshchilik munosabatlariga kiradi.

Qarindoshlik

Ko'pchilik g'arb mamlakatlarida hayotiy maqsadlarga ko'ra qarindoshlik munosabatlari eng yaqin qarindoshlar bilangina cheklanadi. Masalan, ko'pchilik odamlar o'zlarining amakilari, amakivachchalari, xola va xolavachchalaridan tashqari uzoq qarindoshlari haqida mavhum tasavvurga egalar. Ammo, ko'pg'chilik ma-daniyatlarda, xususan kichik, tor doiradagi madaniyatlarda ij-timoiy hayotning barcha sohalarida qarindoshlik munosabatla-ri muhim ahamiyatta egadir. Shunday madaniyatlarning ayrim-larida jamoaning har bir a'zosi uning barcha a'zolariga qarindosh hisoblanadi, ko'pchilik hollarda bu munosabatlar mukad-daslashtiriladi.¹ G'arbdagi qarindoshlik munosabatlarini ifodalovchi terminlarni boshqa madaniyatlardagi qarindoshlik mu-nosabatlarini ifodalovchi terminlarga ko'chirish qiyin. Masa-lan, biz ota va ona yo'li bilan qarindoshlarni amma, xola, bo'la termini bilan ataymiz. Ammo boshqa madaniyatda otaning yoki onaning akalari maxsus terminlar bilan ataladi.

Uklanlar

An'anaviy tipdagi ko'pchilik jamiyatlarda yirik qarindoshlar

Udoshlar guruhlari mavjud. Uning a'zolari o'rtasidagi aloqalar odatdagi oilaviy qarindoshlik munosabatlari doirasiga sig'-maydi. Bunday guruhlar orasida muhim o'rinni klanlar egallaydi. Klan bu shunday guruxki, uning barcha a'zolari fikriga ko'ra, ular bir bobo va momodan ko'payganlar. Ma'lum bir bobo va momo bir necha avloddan oldin mazkur klanga asos solgan hisoblanadi. Ular o'zlarini

o'zlari hamda boshqalar tomonidan ham o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan jamoa sifatida bahola-shadi va baholanadi. Masalan shotland klanlari shunday guruhlariga kiradi. Bunga o'xshash urug'chilik tashkilotlari Afrika, Tinch okeandagi ayrim jamiyatlarda o'zining ahamiyatini bu-gungi kunda ham saqlab qolganlar.

Odatda, bir klanning a'zolari umumiy diniy e'tiqodga ega bo'ladilar va bir-birlariga yordam ko'rsatish uchun ijtiso-diy javobgardirlar va ayni vaqtda ular bir joyda yashaydilar xam. Ular ko'pchilik hollarda oz sonli bo'ladilar. Ammo goho ular yuz, mingdan ham ortiq odamlarni o'zida birlashtirishla-ri mumkin. Klanga a'zolik inson hayotining barcha tomonlari-ga o'z ta'sirini o'tkazadi. Bunday guruhlarda kishilar uzoq qarindoshlariga ham juda yaqin qarindoshlik munosabatida bo'ladi-lar. Shunga mos ravishda ular o'rtasidagi munosabat xarakteri H^m muntazam o'zgarib boraveradi. Bunda kishi otaga ko'ra to'rtin-chi avlodning farzandini o'g'lim deb atashi mumkin va uni o'zining bir qorindan talashib chiqqan aka-ukalari bilan teng.

O'zgarish sabablari

Biz yuqorida qo'rib chiqqanimiz singari o'rta asrlar dav-rida oila xo'jaligi va mahalliy jamoa tovar va xizmatlarni-ishlab chiquvchi asosiy markaz hisoblangan. Oila a'zolarining kundalik zaruriyatlarini qondirishga mo'ljallangan zaruriy narsalarning ko'ggchiligi oilada ishlab chiqarilgan. Ayrim hol-larda esa ishlab chiqarilgan tovarlar qishloq yoki shahar bo-zorlarida sotilgan yoki sotib olingan. Odatda oila integra-siyalashgan ishlab chiqarish yacheykasi rolini o'ynagan. Bunda uning barcha a'zolari — er-xotin va bolalar birga ishlashgan. Bunda ayollar asosan bolalar tarbiyasi bilan shug'ullanganlar hamda ro'zg'or iktisodiyotida muhim o'rinni egallab iktiso-diy sheriklik vazifasini bajargan (bunday holat ko'pchilik rivojlangan mamlakatlarning qishloq joylarida hozirgi kun-ga qadar hukmrondir). Yevropada taxminan XVII asrdan boshlab (Amerikada sal keyinroq) yirik qishloq xo'jalik ishlab chiq-rishining tarqalishi darajasiga ko'ra kichik fermer oilala-ri o'z yer uchastkalaridan siqib chiqarila boshlandi. Sanoatla-shuvning boshlanishi bilan mazkur jarayon ancha-muncha tez-lashdi. Tovlar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish ustaxona va fabrikalarga ko'chdi. Kishilar (xususan erkaklar, dastlabki davrda bolalar ham) ishga yollanish uchun o'z uylarini tashlab keta boshladi. Endi oila ishlab chiqarish yacheykasi bo'lmay qoldi. Endi «ish joyi» va «yashash joyi» alohida-alohida ma-kon bo'lib qoldi.

Bu o'zgarishlar natijasida ochiq qarindoshlik oilasi tipy^ yoppasiga barbod bo'ldi. Mazkur o'zgarishlar dastlab yuqori ij-timoiy mavqyega ega bo'lgan guruhlarini qamrab oldi. Savdogar-lar, sanoatchilar va yirik fermerlar dastlabki davrlarga xos bo'lgan qarindoshlar oldidagi an'anaviy majburiyatlardan va ichki ishlariga jamoaning aralashishidan kugaldilar. Bu kishilar birinchi bo'lib keyinchilik unchalik o'ziga to'q bo'lmagan aholi qatlamiga ham xos bo'lgan ihotalangan patriarxal oilalarni shakllantira boshadilar. Oxir oqibatda ularning sa'yi-harakatlariga ko'ra jamoadan ajralgan holda uyga bog'langan nuklear oila ma'lum darajada ommaviy bo'lib qodsi.

Oiladagi erkaklarning, ayollarning va bolalarning baja-rishi kerak bo'lgan funksiyalari mazkur o'zgarishlar ta'sirida jiddiy o'zgarishlarni boshidan kechirdi.

Sanoatlashuvning bi-rinchi yillaridan boshlab, ko'pchilik ayollar har doimgidek, bolalar tarbiyasi bilan shug'ullanib, ham ishga yollana boshladilar. O'ziga to'q aholi qatlamida esa ko'pchilik tomonidan tan olingan fikr hukmronlik qilar edi. Unga ko'ra, drkaklar — «boquvchi», ayollar esa «uy bekasi» bo'lishi kerak edi. Ko'pchilik erli ayollar u^u rrkalari bo'lishib, haq olmaydigan uy xizmat-korlariga aylandilar va ularning asosiy vazifasi eriga va bolalarga xizmat ko'rsatish bo'lib qoldi. Bolalarning maktabga borishi va bolalar mehnatini chegaralovchi qonunning qabul qilinishi bilan bolalarning ham shart-sharoiti o'zgardi.

Muhabbatning tabiati va uning jinsiy lazzat bilan alo-qadorligidagi o'zgarishlar ham yuqorida keltirilgan an'ana-larga uzviy bog'liq edi. Romantik muhabbat ideallari oilaning iktisodiy asoslariga ko'ra qurilishi barham topgan vaqtda vujudga keldi. Patriarxal oilalarda oilaviy munosabatning yangi ideallari o'z tarafdorlarini topdi, ammo romantik alo-qadorlikka ko'ra oilaviy burch baribir ko'proq qadrlanar edi. Hatto yashash joyining ish joyidan bo'lak-bo'lak bo'lishi oila-dagi «shaxsiy» munosabatlarning mehnat jarayonidagi munosa-batlardan jiddii farkdanishini ham ta'minladi. Nikoh uchun yangi zaminni shakllantiruvchi va erkak-ayol o'rtasidagi munosabatni o'zgartiruvchi emosional individualizm keng tarqaldi. XX asrning oxiriga kelib, oilaning begona dunyo uchun yopiq-ligi, bunda er-xotin o'rtasidagi emosional va jinsiy yaqin-lik birinchi darajali ahamiyatga ega ekanligi ko'pchilik tomo-nidan e'tirof etildi.

Jahon miqyosida oila shakllarining o'zgarishi

Jahonda oilaning xilma-xil shakllari saqlanib kelmokda. Ayrim hududlarda, xususan, Oshyo, Afrikaning ayrim joylarida va Tinch okeani orollarida an'anaviy oilaviy ti-zimlar, klanlar va poligamiyalar kariyb o'zgarishsiz sakdan-gan. Shunday bo'lishiga karamasdan uchinchi dunyoning ko'pchilik mamlakatlarida jidsiy o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Buning sabablari murakkab va xilma-xildir. Ular orasida ayrimlari o'ta muhim ahamiyatga ega. Mayda-chuydalarni hisobga olmaganda, masalan, dastlabki davrlarda g'arbda oilaga hozirgi zamon in-dustriyasi va shahar turmush tarzining ta'siri katta bo'ldi. Umuman, ushbu va shunga o'xshash o'zgarishlar kengaytirilgan oila va qarindoshchilik munosabatlarining boshqa tiplarini yemirib, uning o'rniga nuklear oilaning shakllanishini ta'minladi. Bu o'zgarishlarni birinchi marta Uilyam J. Gud o'zining «Oila shakllarida jahonshumul inqilob» kitobida ko'rsatgan edi. Albatta, Gud bu jarayenni soddaroq tarzda ifo-dalagan, lekin uning nuklear oilaning hamma joylarda shakl-lanib bora boishayotganligi to'g'risidagi fikri keyingi tadqi-qotlarda ham o'z aksini topdi.

Uzgarish yo'nalishlari

Quyida oila shakllarining nisbatan muhim va eng umumiy O'zgarishlari umumlashtirilgan.

Tashabbuskori endi munosabatlarni davom ettirishdan manfaatdor bo'lishi ham mumkin.

Ajralish: o'tish shakllari

Ajralmoqchi bo'lganlar o'z turmush tarzi va dunyoqarashlari-da jiddiy o'zgarishlarni boshidan kechiradilar. Pol Boennen ajralishni amalga oshiruvchi o'zaro 6 ta bosqichni belgilaydi.¹⁵ Bularning hammasi qiyinchiliklar va

tortishuvlar tug'diradi, ajralishganlarga, ularning bolalariga, qarindoshlari va tanishlariga ta'sir qiladi:

1. Janjalli ajralish — nikohning buzilishi mohiyatini ifodalaydi. Bunda sheriklar o'rtasidagi sovuq munosabatlar keskin oshib, odatda nikohning buzilishiga olib keladi.

2. Ochiq ajralish — bunda nikohni bekor qilish uchun zarur asoslar mavjud bo'ladi.

3. Iqtisod sababli ajralish — mol-mulkning bo'linishi bilan bog'liq ajralishdir.

4. Ota-onalar ajralishi — bolalarga vasiylik qilish va ulardan xabar olib turish huquqi bilan bog'liq ajralish.

5. Kommunikativ ajralish — ajralganlarning do'stona va boshqa ijtimoiy aloqalarining o'zgarishi.

6. Ruhiy ajralish — individ hissiy bog'langanlik iplarini uzil-kesil uzadi va mustakil hayot zaruratini sezadi.

Qo'shma Shtatlarda Robert Veyss tomonidan ajralgan er-kaklar va ayollar bilan o'tkazilgan suhbatlar turkumi sherik-larning ko'nikishi «trayektoriya»sini aniqlash imkoniyatini berdi¹⁶. Xotinlar ajralishdan erkaklarga qaraganda ko'proq iqqisodiy zarar ko'radilar, ammo ruhiy va ijtimoiy ko'nikish jarayoni har ikki jinsda o'xshash holatda kechadi. Veyss karab chiqqan ko'pchilik hollarda sheriklarning bir-biriga bo'lgan hurmati va muhabbati juftlarning ajralishiga qadamoq yo'qoladi. Ular o'rniga dushmanlik va ishonchsizlik paydo bo'ladi. Ayni vaqtda bir-biriga bog'langanlik sakdanadi. Shunday qilib, ajralish oldidan juftlar doimo janjal qilib turganlarida ham, Veyssning ko'rsatishicha, ikki tomon ajralish distressi holatida bo'ladilar. Erning yo'kdigi to'satdan vahi-ma, notinchlik tuyg'usini uyg'otadi. Ayni paytda, ajralganlar-ning kamroq qismi qarama-qarshi holatda bo'ladilar, o'z xo-hishlariga ko'ra hayotlarini yo'lga qo'yish huquqi va erkinligini qo'lga kiritishning eforiyasini his qiladilar. Depressiya va eforiya ba'zan bir-biri bilan almashinadi, vaqg o'tishi bilan eforiya va depressiya yolg'izlik tuyg'usiga o'z o'rnini bo'shatadi. Barcha muammolarga qaramay, ular qulay oilaviy halo-vatlaridan ajraganligini, endi uning uyida boshqalar yashayotganligini his qiladilar. Do'stona munosabatlar ham qariyb muntazam o'zgarib boradi. Tanishlar har ikki sobiq sheriklar bilan munosabatlarni sakdashlariga qaramay, asta-sekin ular uzoqlasha boshlaydilar

Ajralish va bolalar

Ota-onalar ajralishining bolalarga o'tkazadigan salbiy ta'sirini baholash juda qiyin. Ajralish oldidan ota-onalar o'rtasidagi tortishuvning qanchalik kuchli ekanligiga, bola-larning yoshiga, ularning akalari va opalari, buvilari yoki boshqa qarindoshlarining borligiga, ularning har birining ajralgan ota-onaga bo'lgan munosabatlariga, har ikki ota-onani tez-tez ko'rib turish imkoniyatining bor yoki yo'qdigiga ko'p narsa bog'liq. Bular va boshqa ko'pgina omillar ko'nikish jarayoniga ta'sir ko'rsatadilar. Hatto nikohda baxtsiz bo'lgan ota-onalar birga yashayotgan holatlarda ham, bolalar tanglikni darrov sezadilar; ajralish holatlarining salbiy oqibatlari bolalar uchun nihoyatda og'ir kechadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ota-onalari ajralganidan so'ng, ko'p hollarda bolalar ancha ma'yus bo'lib qoladilar. Judet Vallerstayn va Jon Kellilar Kaliforniya va Merin grafli-gida yaqinda ajralgan olt/mishta oilaning bolalari hayotini o'rgandilar¹⁷. Ular bolalar bilan sudsa ishning ko'rilishi vaq-tida, yarim yildan so'ng va besh yildan so'ng gaplashdilar. So'rov o'tkazilgan 131 ta bolaning qariyb hammasi ajralish vaqtida o'tkir emosional holatda bo'lganlar. Maktabgacha yoshdagi bola-lar ba'zan yuz bergan hol uchun aybni o'zlariga olib, xijolat va vahimada bo'lganlar. Katta yoshdagi bolalar ota-onalarining niyatlarini yaxshiroq tushunsalar-da, ajralish oqibatlari va o'zlarining kelajaklari uchun chuqur xavotirda bo'lganlar; ular-da ko'pincha o'tkir g'azablanish tuyg'usi paydo bo'lgan. Biroq 5 yillik davr oxirida bolalarning 2/3 qismi uydagi hayotidan va tashqi dunyo bilan aloqasidan har holda qoniqqanlar. Ayni vaqtda 1/3 qism bolalar, ota-onalari qaytadan nikohga kirgan bo'lsalar-da, yolg'izlik va yo'qotish qayg'usida o'z hayotlaridan Qoniqmaganlar, Ajralgan ota-onalari birga bo'lsalar, bu bola-lar uchun qulay yoki noqulay bo'ladimi, buni aytish qiyin. Barcha so'ralganlar mulkdor oq tanlilar yashaydigan nohiyalar-Dan bo'lgani uchun, aholining keng qatlamlariga bu ma'lumot-larni tadbiiq etish qanchalik to'g'ri bo'lishi noma'lum. Nazarda tutish zarurki, maslahatchilarga yordam so'rab murojaat qilgan

Jan Pol — o'ylab togshlgan qahramon. Ammo uning portre-ti hozirgi zamon Yevropa jamiyati shakllanishi mobaynida o'sib-ulg'aygan o'spirinning tipik namunasini eslatadi. Mazkur holat- 1 ni bugungi kun odamlari bilan taqqoslang. Sanoati rivojlan-gan mamlakatlarda har bir kishi o'qishni-yozishni biladi. Har birimiz ma'lum bir jamiyatning a'zosi ekanimizni bilamiz, mamlakatimizning geografik o'rni, uning tarixi haqida od-diy ma'lumotlarga egamiz. Go'dakliqdan tashqari, butun umri-miz kitob, gazeta, jurnal, teleko'rsatuvlar ta'siri ostida o'tadi. Hammamiz maktabda o'kish davrini boshdan kechirganmiz. Bosilgan so'z, kommunikasiyaning elektron vositalari, mak-tab va kollejlarda olingan ta'lim — bularning barchasi yax-lit bir shaklda uyg'unlashib tumush tarzimizning asosiga aylanib qoldi.

Mazkur bobda biz hozirgi zamon ta'lim tizimining qanday vujudga kelganligini ko'rib chiqamiz, ta'limning jamiyatga ko'rsatayotgan ta'sirini tahlil qilamiz, keyin esa hozirgi zamon ommaviy kommunikasiya tizimining mohiyatini tahlil qilamiz. Savodxonlik va maktab ta'limining paydo bo'lishi

"Shkola" so'zi grek tilidan kirib kelgan bo'lib, «bo'sh vaqt» degan ma'noni bildiradi. Gap shundaki, sanoatlashgan jamiyat vujudga kelguncha maktabga faqat kimning puli va vaq-ti bo'lsa, bora olgan, xolos. Din arboblari\$fuhoniylar savod-xon ijtimoiy guruh sanalgan. Bularga bilim muqaddas yozuvlar-ni o'qish, mutolaa qilish uchun kerak bo'lgan. Ko'pchilik uchun esa yoshi ortgani sari kattalardan ijtimoiy tajribani, kasb ma-horatini o'rganish muhim ahamiyatga ega bo'lgan edi. Biz yuqori-da ko'rganimizdek, bolalarning yoshlikdan uy ishlari bilan shutullanishi, dehqonchilik qilishi, boshqa xo'jaliq ishlary bilan shug'ullanishi kundalik yumush hisoblangan. O'qish esa o'sha vaqtlarda kundalik hayot uchun mutloq zarur bo'lmagan, hatto foydali ham hisoblanmagan.

Umumiy savodsizlikning yana bir sababi — barcha matn-larning qo'lda yozilganligi, uning juda qimmat turishi va keng ommalashmagani edi. Bu holatni

Yevropaga Xitoydan kirib kelgan kitob chop etish hunari o'zgartirib yubordi. G'arbda bi-rinchi kitob bosuvchi dastgoh 1454 yili Yogan Gutenberg tomo-nidan ixtiro qilindi. Kitob nashr qilina boshlagach, matn va hujjatlarni hamma o'qiydigan bo'ldi. Bu nafaqat kitob va ri- ' solalarga, balki har qanday murakkab jamiyat uchun zarur bo'lgan ko'plab kundalik ashyolarga ham aloqador edi. »Masalan, juda ko'plab qonunlar to'plamlari bosmadan chiqarildi. Bosilgaya hisobotlar, ma'ruzalar, statistik to'plamlar davlat va xusu-siy idoralar, ishxona va tashkilotlar uchun zarur bo'lib qoldy-Nashr etilgan ashyolardan ijtimoiy hayotning barcha jabhalarya-da foydalanish aholining savodxonlik darajasining oddingi yillarga nisbatan tez o'sishiga olib keldi. Asta-sekin ta'lim maxsus qurilgan binolarda, bugungi shaklda o'qitila boshlandi. Ammo, bundan bir yuz ellik, balki undan ko'proq yillar ilgari badavlat kishilarning bolalari uyda xususiy o'qituv-chilar yordamida ta'lim olar edilar. XIX asrning birinchi o'ttiz yilligiga qadar Yevropa mamlakatlari, Qo'shma Shtatlarda bosh-lang'ich ta'lim tizimi vujudta kelayotgan bir davrda, aholi-ning ko'pchilik qismi maktab ta'limini olish imkoniyatiga ega emas edi.

Sanoatlashish va shaharlarning kengayishi maxsus maktablarga bo'lgan talabni orttirib yubordi. Bugun kishilar juda ko'plab sohalarda xizmat qilmoqdalar, bunday sharoitda kasb mahoratining otadan bolaga bevosita o'tishining hyech iloji yo'q. Ilm olish — o'quv va mahoratning amaliyot orqali berilishiga emas, balki, abstrakt fanlar (matematika, tabiatshunos-lik, tarix, adabiyot va hokazolar) o'zlashtirilishiga asoslana-di. Hozirgi zamon kishilari o'qish, yozish, hisobni bilishlari hamda o'zlarini o'rab turgan tabiat olami, ijtimoiy hayot, xo'jalik faoliyati haqida ham umumiy tasavvurga ega bo'lishla-ri kerak. Bundan tashqari, odamlarning o'zlari o'qipgga o'rga-nishlari, buni tashkil qilishning o'ziga xos shakl va vositalarini kashf qilishlari ham muhim ahamiyatga ega.

Buyuk Britaniyada maktab ta'limi taraqqiyoti

Britaniyada birinchi marta majburiy ta'lim joriy qilin-gan 1880 yildan to Ikkinchi jahon urushigacha bo'lgan davrda hukumatlar qanchalik tez almashgan bo'lsa-da, ta'limga ajra-tilgan mablag' muttasil ortib bordi. Bolalarning maktabni tamom qilish yoshi o'ndan o'n to'rtga ortdi, yangi-yangi maktablar qurildi, lekin, baribir ta'lim davlat ahamiyatiga molik da-rajaga ko'tarilmadi. Ko'pchilik maktablar mahalliy hokimiyat organlari nazoratida bo'lib, jismoniy shaxslar yoki cherkov hisobiga ishlar edi. Ikkinchi jahon urushi mazkur holatni o'zgartirib yubordi. Qurolli kuchlarga yangi chaqirilganlarning qobiliyati testlar orqali sinab qo'rilganda, yigitlarning be-nihoya sayudsizligi aniqdandi. Bu hol rahbariyatni larzaga soldi. Urushdan keyingi tiklanishning istiqbollari haqida qayg'u-Rayetgan hukumat mavjud ta'lim tizimini yangidan ko'rib chiqa boshladi.

1944 yilga qadar angliyalik ko'pchilik bolalar maktabning UQish majburiy bo'lgan boshlang'ich bosqichiga qatnar edilar. Bun-Da ular 14 yoshgacha o'qir edilar. Boshlang'ich ta'lim tizimi bi-lan birga o'rta maktab ham mavjud bo'lib, unda o'qish pullik edi. Ta'limning bu tizimi bolalarni aniq ijtimoiy guruh-^arga ajratdi, kambag'allar qatlamidagi qariyb barcha bolalar faqat boshlang'ich ta'lim bilan cheklanib qoldilar. Aholining bidan kamrog'i universitetlarga kirdi. 1944

yilgi ta'lim to'g'risidagi qonun hamma uchun o'rta ma'lumot olish, maktabni 15 yoshgacha bitirish, ta'lim olishda tenglik kabi bir qator yangiliklarni joriy qildi.

Qonun qabul qilinganidan so'ng maorifga javobgar mahapn liy hokimiyat o'quv natijalariga qarab o'rta maktablarga o'quv-chilarni tanlab qabul qilish tamoyilini joriy qiddi. Tanlov o'quvchining 11 yoshida, ya'ni boshlang'ichdan o'rta maktabga o'tvds davrida o'tkazilar edi. Bunda o'quvchining ijtimoiy kelib chi-* qishi emas, balki qobiliyati hal qiluvchi omil hisoblanar edi. Imtihon yakunlari («11+») o'quvchining chuqurlashtirilgan ta'lim beruvchi o'rta klassik maktab (gimnaziya)da yoki ma'lumot kamroq talab qilinadigan zamonaviy o'rta maktabda (bu asosan kasb-hunar o'rgatishga mo'ljallangan maktablar) o'qshpni davom etdirishini anikdab berardi. Kim o'qishni davom etdirishni xohlarsa, u 17 yoshgacha maktabga qatnash imkoniga ega bo'ldi.

60-yillarga kelib, o'tkazilgan sosiologik tadqiqotlar qisman shuni ko'rsatdiki, «11+» kutilgan natijalarni bermadi. Krauderning 1959 yilgi ma'ruzasida shu narsa ko'rsatilgan ediki, o'quvchilarning faqat 12%i 17 yoshgacha o'qishni davom etgiranlar, qolganlari esa maktabga, yomon o'qiganlari uchun emas, balki ijtimoiy-sinfiy sabablarga ko'ra kelmay qolganganlar. 1964 yili hokimiyatga qaytgan leyboristlar yagona o'rta maktab tizimini yaratishga kirishdilar. Yagona o'rta maktabda yuqorida keltirilgan ikkala maktab tipi o'rtasidagi farq yo'qolishi va ijtimoiy kelib chiqishi xilma-xil bo'lgan bolalar birga o'qishlari kerak edi. Umumta'lim maktablari -- "gimnaziya — hammaga"mi yoki u mutloq yangi tipdaga ta'lim edimi?— Bu savol ochiq qoldi. Turli xildagi maktablar o'ziga xos yondashuvlarni takomillashtirdilar. Ayrim mahalliy hokimiyatlar bu o'zgarishlarga qarshilik ham ko'rsatdilar, lekin ba'zi hududlarda klassik gimnaziyalar hanuzgacha ishlab turibdi.

70-yillarning boshlariga kelib davlat ta'limi ishchi ku-chining defisitligi, goh uning ko'payib ketishi va natijada esa ishsizlikning ortishi hamda davlat byudjeti kirimining kamayishi bilan bog'liq qatgiq qiyinchiliklarni boshdan ke-chirdi. Umuman, urushdan keyingi davr uchun xarakterli bo'lgan ta'lim tizimining kengaytirilishi, kutilmaganda uning qis-qartirilishi va davlat xarajatlarini kamayshirishga bo'lgan urinishlar bilan almashti. Bu xarajatlar 70-yillarning o'rtalaridan to 80-yilning o'rtalarigacha 6,3 dan 5 foizgacha kamaydi.

Mazkur davrdagi davlat ta'lim tizimi bilan bir qatorda mavjud bo'lgan xususii maktablarni eslamasak, yuqoridagi izoh-larimiz to'liq bo'lmaydi. Xususiy maktablar o'quvchilarning ota-onalari to'laydigan haqqa to'la bog'liq edi, shuning uchun X^m unda jamiyatning kam ta'minlangan qatlamidagi oilalarning bolalari o'qishi qiyin edi.

Sanoati rivojlangan mamlakatlardagi maktab ta'limi tizimi

Bugun jahondagi davljglarning barchasida, jumladan, ri-vojlana yottan davlatlarda ham ta'lim tizimi — kagshtal qo'yi-ladigan muhim jabha bo'lib qoldi1. Ammo ta'lim tizimini tashkil qilish bilan aholining ma'lum bir tip darajada ta'lim olishi o'rtasidagi proporsiya bilan bog'liq muhim tafo-vutlar ham mavjud.

Ta'lim tizimining ayrim tiplari benihoya markazlashgan. Masalan, Fransiyada barcha talabalar yakkayu yagona milliy das-tur bo'yicha o'qiydilar va bir xil milliy imtihon topshiradi-lar. Amerika tizimi esa boshqa sanoatlashgan

mamlakatlarni-kiga qaraganda ko'proq nomarkazlashgan. Mahalliy hokimiyat maktablarning yillik moliyaviy xarajatlarining 40%ini o'z zimmasiga olgan bir sharoitda, federal hokimiyat uning atigi 10%ga yaqinini qoplaydi, xolos. Qolgan xarajatlar mahalliy soliqlardan kelgan kirimlar hisobiga qoplanadi. Maktablar-ni umumiy ovoz berishga ko'ra saylangan mahalliy kengash bosh-qaradi, ular o'qituvchilarni, ma'muriyat vakillarini ishga qabul qiladi, dasturlarning bajarilishini nazorat qiladi.

Mahalliy jamoatchilikning maktab ishlarini boshqarish-ga aralashuvi turli xil oqibatlarga olib kedsi. Ammo bunda bir narsa aniq bo'ldiki, kim maktablarga xizmat qilsa, mak-tab ham ularning talab va manfaatlarini to'liq qoniqtiradi-gan bo'lib qoldi. Ikkinchi tomondan esa, bu tizim maktablar-ning moliyalanishiga ko'ra jiddiy farqlarni keltirib chiqar-di. Sabab — mazkur maktabning aholi turmush darajasi bilan bevosita bog'likligida edi. Shuning uchun hali ham bir hudud maktablari ikkinchisidan sinflarning to'lishi, moddiy-texnik ta'minoti, yuqori malakali o'qituvchilarni jalb qili-shiga ko'ra jiddiy farqlanadi.

Ko'pchilik rivojlangan mamlakatlarda xususiy maktab va kollejar davlat moliyalashtiradigan ta'lim tizimi bilan bahamjihatlikda faoliyat ko'rsatadi. Gohida markaziy hukumat yoki mahalliy hokimiyat diniy sektarlarga qarashli bo'lgan maktablarga ham subsidiya ajratadi. Masalan, Irlandiyada ko'pchilik maktablar moddiy yordamni jamiyatdan olishiga karamas-dan cherkovlar qo'lidadir. Ammo Britaniyada diniy tashkilot maktablari davlat tomonidan kam ta'minlanadi, ular asosan Davlat ta'lim tizimidan mustaqil holda faoliyat olib bora-Dilar. Oldingi davrlarda ko'pchilik mamlakatlarda davlat mak-tab ustidan o'z nazoratini o'tkazishga, ta'limni cherkovdan aj-Ratishga urinib keddi. Hatto bugungi kunda ham ko'pchilik ta'lim institutlari davlat tomonidan tashkil qilinayotgan va univeraygetlarda 5600 o'qituvchi, 18 ming studentning stav-kasi (o'rni) yo'qoldi. «Ilmiy ishlab chiqarish» xarajatlarini qisqartirishga, jamiyat hdyotida xilma-xil muammolarning ra-sional, adolatli yechimini topishda faol ishtirok etib kelayotgan universitetlar faoliyatini xavf ostida qoldirishga qara-tilgan qonunlarga qarshi mamlakatda oppozisiya vujudga kel-di.

Hukumatning oliy ta'limga ajratgan xarajatlarni qis-qartirishga intilishlari universitet tizimidagi ba'zi bir bo'g'inlarning parokandalanishiga olib keldi, talabalarda hayot-da kerak bo'ladigan bilim va malakani universitetlar berish-ga qodir ekanligiga ishonchsizlik tug'dirdi.

Ta'lim va tengsizlik

Ta'limning keng tarqalishi hamisha demokratiya masalala-ri bilan uzviy bog'liq bo'lgan. Reformatorlar ta'limga shaxs-ning qobiliyati va qiziqishini rivojlantiruvchi vosita si-fatida qaraydilar. Bundan tashqari, universal ta'limga ijtimoiy tenglikni qaror topdiruvchi, yoshlarni bilim bilan qurollantiruv^chi, jamiyatda e'tiborli o'rinlarini egallashga yordam beruvchi, ijtimoiy o'rinlarini nufuzlashtiruvchi, tur-mush darajasini ko'taruvchi vosita deb qaraladi. Bu nechog'lik to'g'ri? Buni o'rganish maqsadida ko'pgina sosiologik tadqiqot-lar o'tkazilgan. Mazkur tadqiqot yakunlari ta'limning ko'pchilik hollarda mavjud tengsizlikni bartaraf qilishidan ko'ra uning mavjudligini ko'rsatishi va tasdiqlashini ko'rsatdi.

Amerika ta'lim tizimidagi tengsizlikning Koulman tomonidan tadqiq qilinishi

Bir qator mamlakatlarda maktab ta'limi natijalariga ij-timoiy va oilaviy holatning ta'sirini ko'rsatishga bag'ishlangan tadqiqotlar o'tkazilgan edi. Chunki bu oxir oqibatda shaxsning daromad darajasi bilan ham uzviy bog'liq masaladir. Shunday mumtoz tadqiqotlardan biri AQShda 60-yillarda o'tka-zildi. 1964 yilgi Fuqaro huquqlari to'g'risida Qonun ta'lim to'g'risidagi milliy komissiyadan etnik, diniy va milliy xarakterga ega bo'lgan ta'lim sohasidagi mavjud turli tengsizlik to'g'risida ma'ruza tayyorlashni talab qiddi. Djeym Koulman mazkur tadqiqot dasturining rahbari etib tayinlandi. Tadqiqot natijalari 1966 yili, benihoya keng miqyosga ega bo'lgan tadqiqotlarning biri yakunlangach e'lon qilindi.

Yarim milliondan ortiq o'quvchi to'g'risida ma'lumot yi-g'ildi. O'zlarining verbal va noverbal qobiliyatlarini, bi-limdonligi va matematika bo'yicha qobiliyatini baholash uchun ularga bir qator testlar taklif qilindi. 60 ming o'qituvchi anketa to'ldirib 4 ming maktab haqida ma'lumotnoma berdi. Tadqiqot natijalariga ko'ra mamlakat maktablari-dagi — Diniy holat to'g'risida umumiy xulosa tayyorlandi. Xulosaning ayrim natijalari kutilmagan bo'lib chiqdi va ta'lim sohasi-dagi siyosatni shakllantirishda amaliy ahamiyat kasb etdi.

Ma'ruzada ko'rsatilganidek, ko'pchilik bolalar amalda oq va qora tanlilar uchun ochilgan maktablarga boradilar. Oq tan-li bolalar boradigan maktablarning 80%ida 10 va undan ortiqroq foiz qora tanli bolalar o'qigan. Tadqiqotda oq tanli amerikaliklar va Osiyo mamlakatlaridan kelib chiqqanlar o'zlarining qora tanli va boshqa etnik ozchilikka mansub tengqurlaridan yuqori baholarga ega bo'ldilar. Koulman tadqiqotda qora tanlilar o'qiydigan maktablarning oq tanlilarnikiga nisbatan moddiy-texnik holati past, sinflarda bolalar ko'p, binolar yemon ahvolda bo'lishligi isbotlansa kerak deb taxmin qilgan edi. Ammo natija ular o'rtasidagi farq taxmin qilingandan ko'ra ancha kam ekanligini ko'rsatdi.

Koulmanning xulosasiga ko'ra, maktabning moddiy resurs-lar bilan ta'minlanganlik darajasi o'quv jarayoni samaradorligiga jiddiy ta'sir ko'rsatmaydi. Ammo o'quvchilarning ijti-moiy kelib chiqishi bunda muhim ahamiyatga egaligi ko'rindi. Koulman ko'rsatganidek, «bolalar uchun uydagi, ko'chadagi, uni o'rab turgan muhitdagi yaratilgan tengsizlik, ular maktabni tamom qilganidan keyin navqironlik yillarida ham davom etadi»³. Bundan tashqari, nufuzli ijtimoiy qatlamdan chiqqan o'quvchi tengdoshlari bilan yaqin munosabatda bo'lgan aholining kambag'al qatlamidan chiqqan o'quvchilar o'zlarining boshqa teng-doshlariga nisbatan o'qishda yaxshi ko'rsatkichlarga erishganligi qayd etilgan.

Koulman ma'ruzasidagi Buyuk Britaniya maktablarini AKDEdagi singari integrasiyalash to'g'risidagi fikr jiddiy tortishuvga sabab bo'ddi, Koulman "Ozchilikni tashkil qiluvchi ijtimoiy guruh bolalari o'ziga to'q qatlam bolalari bilan birga o'qishsa, ularning davomati ham yuqori bo'lar edi", degan g'oyani ilgari surdi.

Keyingi tadqiqotlar

Koulmanning ayrim xulosalarini keyingi tadqiqotlar tas-diqlagan bo'lsada, u bajargan ishning ayrim jihatlari tanqid obyektiga aylandi. Chunki uning tadqiqoti

faqat ma'lum bir Davrgagina aloqador bo'lganligi uchun bugungi kunda sodir bo'la-yetgan o'zgarishlarning tahliliga to'g'ri kela olmas edi. Maykl Ratter tomonidan Londonda o'tkazilgan tadqiqotda bir necha yillar davomida bir guruh o'g'il bolalarning rivojlanishi Ko'rib chiqildi. Bolalar boshlang'ich maktabni! tugatgach, 1970 yili birinchi marta tekshirildi. Ularning ijtimoiy kelib **iqishi va davomati to'g'risida ma'lumotlar yig'ildi. Tadqiqot bolalar o'rta maktabning to'rtinchi sinfiga o'ttanlarida, 1974 biridan ajratilgan va turly! sharoitlarda ulg'aygan egizaklardan bir qanchasi nazoratdan o'tkazilib, ilmiy asosda tekshirib ko'rilgan (shu jumladan, Siril Bartning qisman tanqidga uchragan tadqiqoti ham tekshirilgan). Biroq, olimlar nazorati, ostida katta bo'lgan va bir-birida®,/ajratib o'stiriltan egizaklarning bir-biriga o'xshash jihatlari oz qolgan, hatto ba'zan ular egizak ekanliklariga ishonmay ham qolasan, kishi. 1 (Ikki tuxumli egizaklar — bular ikkita alohida-alohida tu-xum hujayralaridan o'sib chikib rivojlanadi va shuning uchun] ularning tug'ma sifatlarida farqlar mavjud bo'ladi; hatto shunday hollarda ham egizaklar jismoniy jihatdan bir-birlariga o'xshash bo'ladilar.)

L.J.Kemin bir-biriga o'xshash bo'lgan egizaklar bir necha juftini tadqiq etganidan keyin to'g'shangan ilmiy tekshirish materiallarini o'rganib chiqqach, shunday xulosaga keldiki, bunday tekshirishlar natijasiga karab xaqiqatda hyech narsani aniq-lab bo'lmas ekan. Olingan ma'lumotlar haddan tashqari zaif bo'lib, bunday tanlov usuli esa irsiyatning 1() darajasiga qanday ta'sir etishi to'g'risida ishonarli xulosalar chiqarish uchun asos bo'la olmaydi. Keminning yozishicha, "turli hayotiy tajri-N balar orqali aniqlangani shubhasiz bo'lgan gipotezani faqat test o'tkazayotgan kishilar bergan savollarga odamlarning ber-gan javoblaridagina farq bo'lgan gipotezani rad etish uchun yetarli ma'lumotlar yo'q."16

Gender va maktab ta'limi

Modomiki, turli^irqdagi guruhlariga mansub bo'lgan kishi-larning o'rtacha intellektual darajasida haqiqatan ham farqlar mavjud bo'ladi, deb hisoblaydigan bo'lsak, unda endi ehtimol, ular uchun ta'limning ham har xil dasturlarni ishlab chiqishimiz lozim bo'larmikan? Xuddi shunday tajriba 60-yillarda Kaliforniyaning janubidagi Farrington boshlang'ich mak-tabida o'tkazib ko'rilgan. Maktabda ta'lim ehtiyoji uchun hamda o'qishdan keyin ishga joylashish uchun mo'ljallangan programma — dastur ishlab chiqilgan bo'lib u Farrington maktabini bitirib ketgan o'quvchilarning avvalgi bir necha avlodining qobiliyatlari va qiziqishlarini tadqiq etish orqali olingan materiallarga asoslangan. Dasturda ikki etnik guruh — °Q tanli amerikaliklar bilan kelib chiqishi meksikalik bo'lgan amerikaliklar ishtirok etishgan. Tajriba natijalari ko'rsa-tishicha, oq tanli o'quvchilarning qobiliyati va kiziqishlari ko'proq professional va ma'muriy-boshqaruv faoliyatiga qara-tilgan bo'lsa, kelib chiqishi meksikalik bo'lgan amerikalik-lar qishloq xo'jalik mexnatiga — dehqonchilikka ko'proq moyil bo'lganlar. Shuning uchun oq tanli o'quvchilarga ko'proq il-miy fanlardan bilim berilgan, Meksikadan kelganlar uchun esa ularga dala ishlarida zarur bo'lgan kuch-quvvatni va chaq-qonlikni oshiradigan jismoniy tayyorgarlik darslariga katta e'tibor berilgan. "Meksikaliklar" ko'pincha ularga o'rgatilgan o'yinlar vaqgida liderlik pozisiyasiga intilishmas, ulardan eng avvalo bo'ysunish, tobe bo'lish mahorati talab kilinar edi. Pedagogik kollektiv har ikkala etnik guruhning talab va ehti-yojlarini hisobga olib, ideal tarzda loyihalashtirilgan

dastur, deb o'ylagan ushbu dasturni bajarishga zo'r g'ayrat bilan kirishib ketishgan.

Bu gagshi eshitgan kishi hayratga tushmaydimi? Ha, bu ki-shini shubhasiz hayratda qoldiradi. Yeki bir be'mani ishga o'xshab tuyuladimi? Ehtimol shunday tuyular. Balki siz, bu al-batta kimdir o'ylab topgan bir ertak bo'lsa kerak deb o'ylarsiz. Siz haqsiz. Bunday o'quv tizimini hatto odamlar o'zlaridan aqliy qobiliyatni ota-onalaridan o'zlariga o'tkazadilar, bun-day qobiliyatlar o'rtasidagi aqshy farqlar ham kelib chiqishi jihatidan irsiy bo'ladi, deb o'ylaydigan kishilar ham taklif qilmagan bo'lur edilar. Lekin shunga o'xshash dastur haqiqatan ham mavjud bo'lgan. Uning farqi faqat shunda bo'lganki, dastur etnik guruhlar uchun emas, balki turli jinsdagi o'quvchilar uchun mo'ljallangan dastur bo'lgan.

Ko'p nusxada chop etilib tarqatiladigan "Neshnl elementari prinsipl" jurnalida 1966 yidda paydo bo'lgan maqolada bolalarning jinsi bo'yicha guruhlashtirilgan maktab uchun yangi o'quv dasturining obzori berilgan. Tajriba uchun Virjiniyaning Feyrfaks grafligidagi Ueykfild boshlang'ich maktabi tanlangan. Ushbu maqola yozilgan vaqtda o'g'il va qiz bolalar amalda alohida-alohida o'qitilayotgan bo'lgan. O'g'il bolalar uchun ko'proq fanlarni o'qitishga, qurilish-binokorlik ishlariga va amaliy faoliyatga katta e'tibor berilgan; qizlar uchun mo'ljallangan sinflarda bichish-tikish va uy-ro'zg'or ishlarini yurgizishga katta e'tibor berilgan. O'qib chiqish uchun o'g'il bola va qiz bolalarga boshqa-boshqa matnlar taklif etilgan. Ueykfild dasturi faqat shakllantirildi, xolos. Chunki bunday o'qitish tizimi boshqa joylarda allaqachon joriy etilgan. bo'lib, hatto bugungi kunlargacha maktab ta'limining asoslaridan biri sifatida ko'p joylarda sakdanib qolmoqda. Maktab ta'limiga jinsiy farkdar qanday ta'sir ko'rsatishi kam o'rganilgan soha, lekin uning oqibatlarini bolalarni etnik belgilaridagi farqlarga qarab o'qitish oqibatlaridan kam bo'lmay-di.

Maktab ta'limida jinslarning notengligini ko'rsatuvchi misollar sinfiy yoki etnik xarakterdagi notenglik namunalaridan farq qiladi. Masalan, fanlarni o'zlashtirish bo'yicha boshlang'ich maktabda va o'rta ta'limning ilk bosqichlarida qiz bolalar o'g'il bolalardan ancha o'zib ketadilar. So'ngra qizlar etnik ozchilikni tashkil etgan millatlarning qizlari ba'zi bir jihatdan ikki barobar baxtsiz bo'ladilar. Beverli. Brayan va uning hamkasbi Uillis bir guruh oq tanli o'g'il bolalar hayotini o'rganib chiqqan Britaniya maktabida qora tanli o'quvchiga naqadar og'ir ekanligini bayon etganlar. Yigitlar-dan farqli o'laroq, negr qizlar maktabga borganlarida avvali-ga juda sevinib zo'r g'ayrat bilan o'qiy boshlashgan. Keyin esa, bu yerda o'zlari duch kelgan qiyinchiliklar tufayli o'z munosa-batlarini o'zgartirganlar. Ular hatto juda kichik bo'lgan vaqg-laridayoq (endigina 7—8 yoshga kirgan kezlarida) o'qituvchilar ularni o'yin maydonchasida! ko'rgan zahoti kichikligini ham hisobga olmay maydonchadan haydab yuborishar ekan. "Tartib; buzuvchi" degan nom olgan bu o'quvchilar oradan sal vaqt o'tmay chindan ham tartibsiz o'quvchilarga aylanib ketishar edi.

Ayollar va oliy ta'lim

Britaniyadagi va boshqa mamlakatlardagi xotin-qizlar tash-kilotlari oliy va o'rta ta'lim tizimida ayollarning kamsitilishini tez-tez tanqid qilib chiqmoqdalar. Universitet va kol-lej professor-o'qituvchilari orasida xotin-qizlar hanuzgacha

ozchilikni tashkil qiladi. 1970 yili e'lon qilingan AQSh-ning 454 kollej va universitetlari ma'lumotnomasi shuni ko'rsatdiki, mazkur o'quv yurtlari rahbarlari orasida ayollari qariyb 8%ni, professorlar orasida 10%ni, o'qituvchilar orasida 25%ni tashkil etgan. 1981 yili Buyuk Britaniyada 2% ayol! professor, 6% katta o'qituvchi, 14% o'qituvchi kollej va universitetlarda dars berganlar¹⁸.

Buyuk Britaniya va AQShda olimlari ayollarni qiyosiy o'rpy nish shuni ko'rsatadiki, har ikkala mamlakatda ham ayollar! erkaklarga nisbatan ko'p ishlarni bajaradilar va ularga nisbatan aspiranturada kam dars beradilar. Yuklangan ishning! ko'pligi ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, ilmiy ish-larni chop etishga xalaqit beradi, vaholanki chop etilgan ilmiy ishlar soni, aspirantlarni o'qitish xizmat pillapoyala-ridan ko'tarilishning muhim jihatlari xisoblanadi.

"Uchinchi dunyo" mamlakatlarida ta'lim va savodxonlik

Endi rivojlanayotgan mamlakatlardagi ta'lim muammolarini ko'rib chiqaylik. G'arbda yashab, aholining ko'pchilik qis-| mining o'qishi, yozishiga va maktabda bir necha yil o'qishiga ko'nikib qolganmiz. Asrimizning keyingi chorak qismida ko'pchilik rivojlanayotgan mamlakatlarda ta'lim tizimi tez kengaydi, shunday bo'lishiga qaramasdan, ba'zi mamlakatlar borki. (masalan, Afrikadagi Senegal), bolalarning qariyb yarmi hanch qanday ta'lim olmaydilar. Ma'lum darajada til asoslari il-Mini o'qishni, yozishni bilish — savodxonlik — ta'limning zaminidir. Busiz maktab ta'limini tasvvur ham qilib bo'lmaydi. Biz shuni tan olamizki, g'arbda hamma qariyb savodxondir, oldingi qismlarda aytilganidek, bu yerda bir necha asrlar oldin buning aksini ko'rish mumkin edi.

1986 yili rivojlangan mamlakatlar aholisining 30%i savodsiz ekanligi aniqlangan edi. Hindiston hukumati bergan ma'lumotga ko'ra, bu yerda 250 mln.dan ortiq kishi o'qish-yozish-ni bilmaydi. Agar boshlang'ich ta'limning kengayishi aholi sonining o'sishiga mos kelganda ham, savodsizlik yana uzoq yillar saqlanib qoladi. Ya'ni savodsizlarning ko'pchilik qis-mi katta yoshdagilar hissasiga to'g'ri keladi. Yozishni va o'qishni bilmaydiganlarning umumiy soni haqiqatan ham o'sib bormoqda.

Ko'pchilik mamlakatlarda savodsizlikka qarshi kurash das-turi ishlab chiqilgan, ammo bu katta muammoni hal qilish bobidagi juda kichik ishdir. Mumkin bo'lgan joylarda savodsiz odamlarga ta'limni to'g'ridan-to'g'ri yetkazish uchun ommaviy axborotning televideniye, radio va boshqa elektron vositala-ridan keng foydalanish mumkin. Bularsiz ular ko'p mehnat sarf qilinadigan o'qish malakasiga kiynalib erishadilar. Shunday bo'lishiga qaramasdan, hordiq chiqarishga yo'naltirilgan ko'rsatuvlar ta'lim dasturlariga qaraganda ko'proq ommaviy-dir.

Kolonial boshqaruv davrida hokimiyat ta'limga hadiksi-rash bilan qaragan. 20-asrga qadar mahalliy aholini maorif mevalaridan foydalanishda benihoya sodda hisoblashgan, vaho-lanki, yevropaliklar manfaatlari va turmush tarzini sezgir-lik bilan qabul qilgan mahalliy elitani shakllantirishning birdan bir vositasi — ta'lim deb qarayotgan bo'lsalar ham, ayni vaqtda kolonial qaramliqdagi xalqlarning savodliligi tartabsizliklarnyng ortishi, noroziliklarning kelib chiqi-shiga ko'mak berishi mumkinligi tan olingan edi. Ma'lum ma'-noda shunday bo'lib ham chiqdi, ko'pchilik hollarda antikolo-nial va milliy-ozodlik harakatlariga o'qimishli elitadan

chiq-qanlar rahbarlik qildilar. Ularning ko'pchiligi Yevropa kol-lejlari va maktablarida o'qidilar, ular Yevropa mamlakatlaridagi demokratik institutlar bilan o'zlaridagi (mustamlaka mamlakatdagi) yo'q demokratiyani bevosita qiyoslay olardilar.

Odatga ko'ra, kolonizatorlar tomonidan kiritilgan ta'lim tizimi yevropalashgan bo'lib, koloniyalar hayotiga uncha mos kelavermas edi. Masalan, Afrikaliklar Yevropadagi metropoliyalilar tilini, Yevropa tarixi va madaniyatini o'rganishga edilar. Britaniya koloniyasidagi savodlilar Angliya perari va qirolicha-larini bilishar, Shekspiri, Miltonni va boshqa ingliz shoirlarini o'qishar, ammo o'zlarining tarixi miyatidagi tuggan o'rnini tahlil qilamiz va bugungi kunda jamiyatda u tufayli iqtisodiy tartibotlarda yuzaga kelgan o'zgarishlar haqida muhokama yuritamiz. Biz sanoat sohasida, mulkchilik tizimi sohalaridagi nizolarni hamda yirik korporasiyalarning rolini aniqlashga harakat qilamiz. Keyin esa eng muhim mavzularni: haq to'lanmaydigan ish, norasmiy iqtisodiyot, keng ko'lamli ishsizlik va ish borgan sari ijtimoiy hayotning markazida kam darajada qolishi masalalari taxlil qilinadi. Sharq Mehnat taqsimoti Hozirgi zamon jamiyatlari iqtisodiy tizimining eng muhim xarakterli jihatlaridan biri — ulardagi haddan tashkari murakkab va xilma-xil mehnat taqsimotining rivojlanishi-dir. Boshqacha aytganda, ish ulkan miqdorda/1^{urli} xildagi mashg'ulotlarga bo'linishi mavjud bo'lib, kishilar ularning har bir sohasiga ixtisoslashmoqsa. An'anaviy jamiyatlarda qish-loq xo'jaligi bilan bog'liq bo'lmagan ish, ma'lum hunarlarni egallash bilan bog'liq bo'lib, shunga oid tajriba uzoq davr shogirdlik natijasida hosil qilinadi. Ishchi odatda ishlab chiqarish jarayonining boshidan oxirigacha, hamma bosqichlari-da qatnashadi. Masalan, temirchi yer haydaydigan plugni tayyor- k lar ekan, u tog'da temirni ishlab tayyorlashi, unga ma'lum shakl berishi va undan keyin plug yasashi lozim bo'ladi. Hozir-gi zamon sanoat ishlab chiqarishning paydo bo'lishi bilan juda ko'p an'anaviy hunarlar amaliy jihatdan bugunlay yo'qodsi, qolganlari bo'lsa keng ko'lamli ishlab chiqarishning tarkibiy qismlariga aylandilar. Sanoat korxonalarida bugungi kunda elektrik, masalan, ma'lum turdagi mashinalarning ba'zi bir detallarini tuzatish va ular bilan ishlay olishi mumkin, qolgan ishlar va mashinalar bilan esa boshka ishchilar shug'ul-
lanadilar.

An'anaviy va zamonaviy jamiyatlar o'rtasidagi mehnat taqsimotida qarama-qarshilik haqiqatda juda katta. Hatto eng yirik an'anaviy jamiyatlarda ham odatda, 300—400 ga yaqin to'laqonli hunarlar mavjud bo'lib, ular boshqa bir qancha ixtisoslashgan faoliyat turlari, masalan, savdo faoliyati, askar-lik yoki ruhoniylilik kabi mashg'ulotlar bilan birga mavjud bo'lishgan. Hozirgi sanoatlashgan tizimda minglab turli-tuman mutaxassisliklar mavjud. Birlashgan Qirollik ro'yxatida Britaniya iqtisodini tashkil qiluvchi 30000 turli ko'rinishlar-dagi kasblar mavjud. An'anaviy hamjamiyatlarda aholining ko'pchilik qismi (qishloq xo'jaligi sohasidagi mashg'ulotlar-da) iqtisodiy jihatdan o'zlarini yetarli darajada oziq-ov~qat, kiyim-bosh va boshqa zarur mahsulotlar bilan to'liq ta'-minlaydilar. Aksincha, hozirgi jamiyatlarning bosh xususiyat-laridan biri — iqtisodiy jihatdan bir-birlariga bog'likliining o'sib borayotganidir. Biz hammamiz har xil mahsulot-larga va xizmatlarga extiyojmand bo'lib, bu jihatdan boshqa ko'p kishilarga tobemiz.

hozirgi zamon jamiyatlarida ko'plab kishilar, ba'zi arzimas sabablarga chko'ra, o'zlari yeyish uchun oziq-ovqat ishlab chiqarmaydilar, lekin yeydilar, o'zlari uchun uylar qurishmaydi, lekin shunday uylarda yashaydilar, moddiy boyliklar yaratmaydilar, lekin ularni iste'mol qiladilar.

Birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi sektorlar

Sanoatlashgan iqtisodiyotda ishni uch sektorga bo'lish mum-kin, bular: birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi sektorlardir. Bu uch sektorda band bo'lgan ishchi kuchining proporsional tarkibi, sanoatlashshning turli bosqichlarida turlicha bo'ladi. Birlamchi sohada tabiiy resurslarni yig'ish va hosil qilish bi-lan shug'ullanadilar. Iqtisodiyotda birlamchi sektor qishloq xo'jaligini, qazilma boyliklar va o'rmon sanoatini, baliq-chilik va boshqalarni o'z ichiga oladi. Jamiyatning sanoatla-shish davrining birinchi bosqichida ishchilarning ko'pchiligi birlamchi sektorda band bo'lishadi. Ishlab chiqarishda mashina-larning ko'payishi, zavodlar va fabrikalar sonining ortib borishi bilan ishchi kuchining ko'p qismi ikkilamchi sektorga o'ta boshlaydi. Ikkilamchi soha xomashyoni sanoat tovarlariga aylantiradi. Uchlamchi sektor esa sanoatdagi xar xil xizmat turlari hisoblanib, ular o'zlari moddiy boyliklar ishlab chi-karmasdan, qolganlarga to'ppa-to'g'ri o'zlarining u yoki bu xiz-matlarini taklif qilishadi. Masalan, shifokorlar, o'qituv-chilar, boshqaruvchilar va idora xodimlarining faoliyat turla-ri odatda aynan xizmat ko'rsatish sohasiga tepshshidir.

Sohalarni birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi sektorlarga bo'lish, garchi bu ancha qo'pol ko'rsatkich bo'lsa ham, jamiyatlar * turlari o'rtasidagi farqlarni ajratishga yordam beradi. Ko'pchilik uchinchi dunyo mamlakatlarida ishchi kuchlarining 3/4 qismi qishloq xo'jaligida band bo'lib, qolgan bir qismi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida taxminan teng taqsim-langan. Boshqa tomondan, sanoat jihatidan taraqqiy etgan mam-lakatlarda aholining juda oz qismi qishloq xo'jalik sanoati sohasida band. Misol uchun, Britaniya mehnatkashlarining 2%dan Ham kam qismi bugun qishloq xo'jaligi sohasida ishlaydi. 1851 yilda bu ko'rsatkich 33% ni tashkil qilgan. Sanoat jihatidan rivojlangan jamiyatlarning muhim xususiyati — bu xizmat ko'rsatish sektorining kengayib borayotganligidir. 1911 yilda Britaniyada ishchi kuchining faqatgina 11 %i uchlamchi sektorda band bo'lgan. Bugun uning miqsori 50%dan ham ortib ketdi.

Sanoatda mehnat taqsimoti. Teylor va Ford yendashuvlari

Hozirgi iqtisodiyot ilmining asoschilaridan biri bo'lgan Adam Smit, o'z asarlarida XVIII asrning oxirlaridayoq, mehnat taqsimotini ishlab chikdrishning o'sishi nuqqai nazaridan turli ustivorliklarga ega bo'lishini aniqlab bergan. Uning eng mashhur asari, «Xalqlarning boyliklari», to'g'nag'ich fab-rikasidagi mehnat taqsimotini tasvirlashdan boshlanadi. Kishi bir o'zi ishlab, bir kunda 20 taga yaqin to'g'nag'ich ishlab chiqarishi mumkin. Biroq vazifani bir necha sodda opera-siyalarga bo'lib, 10 kishi, maxsus topshiriqlarni bajarishi I asosida, bir-birlari bilan o'zaro hamkorlikda bir kunda 48000 to'g'nag'ich tayyorlay olishlari mumkin. Shunday qilib, har bir ishtirokchi, ilgari bir o'zi ishlaganiga nisbatan, endi mutaxassislashgan jarayonda 240 marta ko'p mahsulot ishlab chiqaradi.

Charlz Bebbij (dastlabki sodda kompyuterni ixtiro qilgan kishi) o'z ijodining so'nggi davrlarida Smit g'oyalarini rivojlantirdi. «Bebbij prinsipi» bo'yicha, ishlab

chiqarish-dagi texnologik jarayon, har bir ishchining vazifasi kdnchalik soddalashtirilganligi va u boshqa kishilar vazifalari bilan kay darajada bog'liq bo'lishi bilan baholanishi mumkin. Bu ish beruvchilarga yollangan ishchilarga to'lanadigan haqni kamayti-rish va har bir operatsiyani bajarishni o'rganishga sarflana-digan ish vaqgini qisqartirish, shu bilan birga, ishchilar-ning o'z huquklrini himoya qilishga intilishlarini bo'shash-tirish va shu tufayli ish haqining past darajasini ushlab turish imkonini beradi.

Oltmish yildan keyin bu goyalar boshqarish bo'yicha amerikalik mutaxassis Fredrik Uinslou Teylor ishlarida o'zining, to'liq ifodasini topdi. Teylorning o'zi «ilmiy boshqaruv» deb atagan yondashuvi, ishlab chiqarish jarayonlarini sodda operatsiyalarga bo'lib, aniq ketma-ketliqda rasishal tashkil etish uchun ularni batafsil o'rganishni nazarda tutgan. Teylorizm, ko'pchilik mamlakatlarda sanoat ishlab chiqarishi va texnologik jarayonlarni tashkil qilishda juda katta ta'sir ko'rsatdi, garchi bu ta'sir ularning har birida turlish bo'lsa ham, Yaponiya bu sohada ancha sezgir chikdi, shu sababli Yaponiyaning sanoatlashishi ko'pchilik g'arb jamiyatlari qo'llaridan tubdan farq qiluvchi yo'nalishda bordi. Yaponiya sanoatlashishining muhim elementi shu bo'ldiki, unda bunday aniq mehnat taqsimoti bo'lmagan, lekin ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarishda ancha mohir deb hisoblangan ishchi komandalari va ishchi guruhlaridan foydalanildi.

Teylorni, avvalo, sanoat ishlab chiqarish samaradorligi-ni oshirish qiziqtirdi, biroq u ishlab chiqarilgan mahsulot-ni qanday sotish masalasiga kam e'tibor qaratdi. Yirik ish-lab chiqarish yirik bozorni talab qiladi va sanoatchi Genri Ford, bu farqni birinchilardan bo'lib tushungan va foydalangan kishi bo'ldi. Fordizm ommaviy ishlab chiqarish tizimini madaniylashgan ommaviy bozor tizimi bilan qo'shib ifoda-laydi. Ford o'zining birinchi zavodini 1913 yilda Michigan shtatidagi Xaylend Parqda qurdi. Zavod faqat bir mahsulot — «Fori» modelidagi avtomobilni ishlab chiqarardi, bu ixti-soslashgan qurilmalar va jihozlarni joriy etishga, ulardagi operatsiya jarayonlarini tezlashtirish, ularni aniqlashtirish va soddalashtirishga imkon berardi. Fordning kiritgan eng muhim yangiliklaridan biri — bu yig'ma harakatlanuvchi liniya — konveyerni ixtiro qilishi bo'lib, u, aytishlaricha, Chikago kushxonalaridagi (ollarni bo'lib yuboruvchi harakat liniyalarini eslatardi.

Ford konveyerida har bir ishchi alohida o'z vazifasiga ega edi. Masalan, bir ishchining vazifasi lenta bo'yicha harakatla-nayotgan avtomobil korpusining chap tomonvdagi eshiklariga dasta o'rnatish edi. 1939 yilga kelib, bu modelini ishlab chikarish to'xtatilganda, 13 million avtomobil ishlab chika-rilgan edi. Ayni shu vaktida jahondagi avtomobillarning 80%i Amerika Qo'shma Shtatlarida ekanligi ro'yxatga olingan edi.

Yig'uv liniyasidagi mehnat

Ford ishlab chiqarish unumdorligini oshirib, konveyerli ishlab chiqarish bilan bog'liq muammolarga duch keladi. Ishga kelmaslik va ishchi kuchlarining qo'nimsizligi tez orada juda o'sib ketadi. Kadrlar bo'limi boshlig'ining ma'lumotiga qo'ra, ishchi oldiga shunchalik sodda va zerikarli vazifalar qo'ilar-diki, 1913 yilda zavodda 1 ishchini o'qitish xarajayyari atigi 38 dollarni tashkil qilardi. Biroq, har yili zavodda 50.000 ishchi almashib, ularni tayyorlash, o'kitishning bahosi bir yilda 2.000.000 dollarga yaqinlashib qolardi. Ford, ishchilar

o'rtasi-dagi tartib-intizomni yaxshilashga urinib, o'z ta'sirini za-voddan tashqarida ham kuchaytiradi. U «besh dollarlik kun» tadbirini joriy etib, unga ko'ra, ishchilar o'z professional va shaxsiy odatlarini o'zgartirsalar, ko'proq ish haqi olish imkoniyatiga ega bo'lishardi. Kompaniyada ishchilarning mukofot va zaymlar olish imkoniyatlari ularning rasional turmush tarzi yuritishlari va alkogolli ichimliklar, tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishlarini cheklashlari bilan bog'liq Qilib qo'yilardi. Kompaniya hatto ishchilarning shaxsiy hayotlarini kuzatib borish uchun o'zining «sosiologik bo'lim»ini Ham joriy qiladi.

Katta zavodlarda qo'llaniladigan Ford usuli ommaviy bo-zor va konveyerdan foydalanishga mo'ljallangan. U butun dunyo avtomobil sanoatiga asos soldi va boshqa sohalarga ham qo'l urdi. Ford va uning bosh raqibi bo'lmish «Djeneral Motors» kompaniyasi Britaniyada, Germaniyada, Yaponiyada va boshqa mam-lakatlarda o'zlarining sho'ba korxonalarini tashkil qilishadi- 1919 yilda Fransiyaning «Sitroyen» kompaniyasi, masla faqat boshqa ehtiyojlarni qondiruvchi vositaga aylanadi. Ishning begonalashuv xarakteri unga jismoniy yoki boshqa majbur etishning yo'qolishi bilan birdan namoyon bo'la boshlaydi, undan vabodan qochganday qocha boshlaydilar. Biz shu xulosaga kelamizki, inson ovqatlanish, ichish, ko'payish kabi hayvo-niy ehtiyojlarini qondirganida, shuningdek o'z uyida pardo-andoz qilgani-dagina o'zini erkin his etadi, insoniy vazifalarga kelganda esa, hayvon darajasiga tushib ketadi. Hayvon odamga aylanadi, odam esa hayvonga aylana-di3.

Maks uchun begonalashuv nafaqat befarqlik va dushman-lik hissiyoti, balki butun kapitalistik ishlab chiqarish struk-turasi bilan bog'liqsir. Begonalashuv ishchilarda o'z ish sharoiti ustidan amaliy nazoratning yo'qdigida ifodalanadi. Biroq begonalashuv borasidagi keyingi tadqiqotlar sosiologiyada meh-natning obyektiv tomonlaridan kelib chiqib emas, balki ish-chilarning hissiyotlari va oriyentasiyalariga asoslangan holda o'gkazilgan. Misol tariqasida AQShning sog'liqni saqdash, ta'-lim va ijtimoiy ta'minot vazirliklarining «Amerikada ish» deb nomlangan hisobotini keltirish mumkin. Bu tadqiqot, boshqa ko'pchilik rasmiy bayonnomalardan farkdi ravishda, o'ziga keng jamoatchilikning e'tiborini tortdi va qo'lma-qo'l o'qil-di. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, ish shart-sharoiti ko'pincha «bir xil, monoton, mazmunsiz, mustaqillikka izn bermaydigan va o'zini namoyon qilishga yo'l qo'ymaydigan» va shu bilan birga, «barcha mansab darajalaridagi xizmatchilarda qoniqmaslik hissini tug'dirdi».

«Ko'k yoqalilar,— deb qayd qilinadi dokladda, — shuni his qilmoqdalarki, amaliy jihatdan ular o'zlarining mehnat sharoitlarini nazorat qilolmayotirlar va o'z ishlariga oid qarorlarga ta'sir o'tkazish imkoniyatidan mahrumdirlar. Qoidaga ko'ra, ularning mehnat tartibi oldindan belgilanib qo'yilgan, ularning o'zi esa hamma vaqt doimiy qattiq nazorat ostida bo'ladilar. So'rov qilinganlardan faqat 24% «ko'k yoqalilar»gina bordiyu o'z hayotlarini yangidan boshlaganlarida ham, shu ishni tanlagan bo'lishlarini aytishdi. Deyarli ikki hissa ko'p sonli «ko'k yoqalilar» esa, «pgunday qilishimiz mumkin edi», deyishdi. Shunga qaramasdan, ularning o'z ishlaridan qoniqmasliklarining darajasi ham ancha baland. Quyi bosqichda nazorat vazifasini bajaradiganlar o'z ishlarini mashaqqatli va toliqtiruvchi ekanini, hyech qanday erkin faoliyatta joy qoldirmasligini aytishdi.

Va ko'pchilik o'rta pog'ona boshqaruvchilari ham shunga o'xshash qoniqmaslik hislarini ifodalashdi. Ular shuni his qilishardiki, o'zlari hyech qanday ta'sir o'tkaza olmaydigan siyosatni amalga oshirishga majbur edilar. Aksincha, yuqori mansablarni egallaganlar ko'proq o'z ishlaridan qoniqish hosil qilishlari, shu bilan birga, ma'lum mustaqillikka, tavakkal qilish va tanlash imkoniyatiga ega ekanliklarini bildirishdi.

Britaniyada bunga o'xshash yirik tadqiqotlar o'tkazilmagan. Mavjud uzuq-yuluq ishlar esa o'xshash xulosalar berdi. Ko'pchilik kishilar, ularga bajarilishi shart bo'lgan vazifalar yuk-latilishiga karamay, ishlaridan qoniqish hosil qilishadi. Shunday kishilar, masalan, boshqa kishilar bilan aloqada bo'lishni o'z ishlariga ko'ra ko'proq qadrlaydilar.

Ishonch darajasi past va yuqori bo'lgan tizimlar

Fordizm va Teylorizm — ishchilar begonlashuvi eng yuqori bo'lgan ishlab chiqarish tizimlari ba'zi sosiologlar tomonidan quyi darajadagi ishonch tizimi, deb ataladi. Vazifalar boshqaruvchilar tomonidan qo'yilib, mashinalar tomonidan bajariladi. Topshiriqni bajaruvchilar qattiq kuzatish ostida bo'lib, erkin faoliyatdan deyarli mahrum bo'ladi. Ishonch darajasi yuqori bo'lgan lavozimlarda insonga o'z ishining jadal-ligini va hatto ma'lum darajada uning mazmunini umumiy ko'rsatmalarga mos ravishda nazorat qilib borishga ijozat beriladi. Bunday holat odatda ishlab chiqarish tashkilotlarining yuqori tabaqalariga xos bo'ladi. Ishonch darajasi past mansablar qo'p bo'lgan tashkilotlarda ishchilarning begonala-shuv darajasi yuqori bo'lib, mehnat nizolari odatiy, ishga kelmaslik hollari ko'p bo'ladi.

Yetmishinchi yillarning boshlarida va keyinchalik ham G'ar-biy Yevropadagi, Qo'shma Shtatlar va Yaponiyadagi sanoatning turli soxalaridagi firmalar ishonch darajasi past bo'lgan tash-kilotlarni o'zgartirish borasida tajribalar o'tkazishadi. Bunda boshqa bir qancha sxemalar qatori konveyerni avtomatlash-tirish, kishilar tomonidan bajariladigan og'ir qoloq meh-natni minimal darajaga tushirish va vazifalarni belgilash-da ishchi guruhi muhim rol o'inaydigan guruhli ishlab chiqa-rishni joriy etish masalalari o'rganildi. Garchi bu tadbirlar ish beruvchilar tomonidan unchalik qo'llab-quvvatlanmagan bo'lsa-da, sanoat demokratiyasi tizimini o'rnatish yo'lida bir qancha sezilarli urinishlar bo'ldi. Keling endi, o'sha muqobil model-larni ko'rib chiqaylik.

Avtomatlashtirish

Hozircha nisbatan kam sohalarda avtomatlashtirish alohi-da samaraga ega, ammo sanoat robotlarining yaratilishi bilan Uning ta'siri ma'lum darajada o'smoqda. Robot — bu avtomatik Qurilma bo'lib, odatda kishilar tomonidan bajarilib kelin-^n Funksiyalarni bajarishi mumkin.

«Robot» termini chex tilidagi so'zidan kelib chiqqan bo'lib, uning lug'aviy ma'nosi o'zbekchada «xizmatkor» degani ovqat mahsulotlari baholarini chegaralash xususiyatiga ega edi.

Kasaba uyushmalarining rivojlanishi

Ishchilar bilan korxonalar egalari o'rtasidagi ishlab chi-qarish nizolari XIX asrning birinchi yarmida chala tashkil qilingan holda edi. Konfrontasiya davrida ishchilar o'z ish* joylarini tashlab, ko'chalarda yig'ilardilar, ular o'zlarining1 noroziliklarini qonunga zid xatti-harakatlar va hukumatta qarshi zo'ravonlik

harakatlari orqali bildirar edilar. XIX asr oxirida Fransiyaning ba'zi rayonlarida ishchilar hatto boshliklarni osish bilan qo'rqitish amaliyotini qayta tikladilar⁸. Bugungi kunda ishchilar va rahbariyat o'rtasida muzokaralar orkali hal etiladigan ish tashlash harakati sekin, tashqari holda rivojlandi- 1799 va 1800 yillarda Britaniyada qabul qilingan yig'ilishlar haqidagi aktlarda ishchilar yig'ilishlari noqonuniy deb e'lon qilindi va namoyishlar o'tkazish taqiqlandi. Yigirma yildan keyin mazkur aktlar bekor qilindi. Bu davrda shu narsa ravshan bo'ldiki, taqiqlashlar ijtimoiy tartibsizliklarni susaytirish o'rniga ularni kuyaytirar ekan. Ko'p o'tmay tred-yunionizm ommaviy harakati paydo bo'ldi va kasaba uyushmalar faoliyati XIX asrning to'rtinchi choragida qonuniy tus oldi. 1920 yilda ular a'zolarining soni (erkak) ishchilarning 60%iga yetdi. Britaniya tred-yunionlar harakati markaziy organi tred-yunionlar kongressi bo'lib, u leyboristlar partiyasi bilan yaqin hamkorlikda faoliyat ko'rsatadi. Hozirgi sanoatning boshlang'ich shakllanish davrida kasaba uyushmalarining mavjudligi bilan qo'zg'olon ko'tarishga intilish o'rtasida bevosita aloqa mavjud bo'lmagan, Ko'tgailik birinchi ish tashlashlar ongsiz xarakterga ega bo'lib, ular harch bir maxsus ishchi tashkilotlari tomonidan uyushti-; rilmas edi. AKDPning mehnat masalalari bo'yicha oliy vakilining 1907 yildagi dokladi shundan darak beradiki, shu davr-dagi ish tashlashlarning yarmidan ko'prog'i kasaba uyushmalari tomonidan uyushtirilgan emas. Xuddi shuning o'zi Britaniyaga ham taalluklidir. Birinchi jahon urushining oxiriga kelib vaziyat o'zgardi, shu vaqtdan boshlab ish tashlashlarda kasaba uyushmasiga a'zo bo'lmagan ishchilarning hissasi ozaya boshladi. Kasaba uyushmalari harakatining rivojlanishi turli mamlakatlarda turlicha kechdi. Britaniya va Qo'shma Shtatlarda kasaba uyushmalari ko'pchilik Yevropa mamlakatlariga nisbatan ancha ilgari paydo bo'ldi. Germaniya kasaba uyushmalari 30-yillarda nasistlar tomonidan asosan io'q qilindi. Ikkinchi jahon urushidan keyin esa yana qaytadan tashkil topdi, o'shanda ham fransuz kasaba uyushmalari harakati 30-yillargacha boshlanmagan edi (bu vaqtda tashkilotlar tuzish va kollektiv mehnat shartnomalarini imzolash huquqi tan olingan).

Bugun Britaniyada ishchilarning 50%ga yaqini kasaba uyushmalarining a'zolaridir. Bu Qo'shma Shtatlardagi 20%ga nisbatan ancha ko'p. Ko'pchilik Yevropa mamlakatlarida kasaba uyushmalariga a'zo ishchilar sonining ko'rsatkichlari Britaniyadan or-kada, biroq Belgiya va Daniyada bu ko'rsatkichlar 65%ni, Shveysiyada bo'lsa 90%ni tashkil kiladi. Shveysiyada ishchilar harakati faoliyati davlatning siyosatiga ancha muhim ta'sir o'tkaza oladi. Bu mamlakatda kasaba uyushmalari vakillari, korxona egalari va davlat o'rtasida doimiy ravishda umumxalq miqyosida konsultasiyalar o'tkazib turiladi.

Kasaba uyushmalari nima uchun kerak?

Kasaba uyushmalari butun G'arb mamlakatlarida, garchi ular a'zolik darajasi va ta'sir kuchiga ko'ra farq qilsalar ham, mavjuddir. Hamma mamlakatlar qonunlarida ishchilarning iqqi-sodiy ish tashlash huquqlari ko'zda tutilgan. Nega kasaba uyushmalari g'arb mamlakatlarining ajratib bo'lmay xususiyatiga aylangan? Nega korxona egasi — kasaba uyushmasi o'rtasidagi nizolar sanoat tizimi tartibining zarur qismi hisoblanadi?

Shunday taxmin mavjud: kasaba uyushmalari o'rta asrlarda-gi gildiyalarning turli shakllaridir, ya'ni zamonaviy sano-at sharoitida bir sohada ishlaydigan kishilarning assosia-siyalaridir. Masalan, Frenk Tennenbaum isbot qilishiga, kasaba uyushmalari hamkasabalarning dunyoqarashi la tajriba-sining o'xshashligiga asoslangan assosiasiyalardir⁹. Bunday izoh bizga "Nega kasaba uyushmalari, birinchi navbatda, sex ishchi-lari orasida paydo bo'lgan?" degan savolni tushunishimizga yordam beradi. Biroq u nega ular jamoa shartnomalari va ishlab chikarish nizolari bilan shu qadar mustahkam bog'likligini izohlamaydi. Ko'proq qonikarli izoh — kasaba uyushmalari sa-noat korxonalarida, ishchilar amaliy jihatdan formal hoki-miyatga ega bo'lmaganligi tufayli, ularning moddiy manfaat-larini himoya qilish uchun paydo bo'lishini e'tiborga olish shart.

Hozirgi sanoat qaror topa boshlagan davrda ishchilar ko'pchilik mamlakatlarda hyech bir siyosiy huquqlarga ega emas va o'zla-rining mehnat sharoitlarini yaxshilashga ta'sir qilolmas edi-lar. Kasaba uyushmalari ishchilar bilan korxona egalari o'rta-sida mavjud bo'lgan hokimiyat disbalansini bartaraf etish vositasi sifatida paydo bo'ladi. Agar alohida bir ishchi o'z-o'zicha deyarli ta'sir kilolmasa, kollektiv tashkilot yordamida ta'sir kilishi mumkin. Korxona egasi alohida bir ishchisiz o'z ishini olib borishi mumkin, ammo ko'pchilik ishchilar mehna-tisiz u o'z korxona ishlarini yurita olmaydi. Boshida kasabamiga aylandi. 70-yillargacha bu siyosat muvaffaqiyat bilan o'tayotganday tuyuldi va iqtisodiy o'sish muayyan darajada barqarorlashdi

Biroq keyingi 15 yil davomida ishsizlik darajasi tez o'sib ketdi va iqtisodiy faoliyatni boshqarishga Keyns yonda-shuvi deyarli barcha tomonidan rad etildi. Ikkinchi jahon uru-shidan keyingi chorak asr davomida Britaniyadagi ishsizlik darajasi 2%dan ozroqni tashkil qilardi. 1990 yillarning boshlariga kelib ishsizlar sonini hisob-kitob qilishda ish-sizlik bo'yicha nafaqa olishga haqli bo'lgan odamlar soni bilangina cheklanib qolmay, ularning miqsoni 12%gacha yetdi.

Ishsizlik tahlili

Katta miqyosdagi ishsizlik 80-yillar uchun xarakterli hodi^; sadir. Biroq ishsizlik rasmiy statistikasining talqini tur-licha. Ishsizlikni ta'riflash oson ish emas. U «ishdan tashqari borliq» degan ma'noni anglatadi. Biroq bu yerda «ish» tu-shunchasi «haq to'lanadigan mehnat», va «mansabdagi ish» ma'nolarini anglatadi. Hamma qoidalarga mos ravishda ishsiz deb ro'yxatga olingan kishilar boshqa juda ko'p ishlab chikarishga oid mehnat turlari bilan shug'ullanishlari mumkin, masalan, uylarni oqlash yoki bog'dorchilik bilan. Ko'pchilik vaqtinchalik ishlarga yoki tuliq bo'lmagan ish kuniga ega (pensiyaga chiqqanlar hisoblanmaydi). Statistika, ya'ni har xil hukumatlar tomonidan to'plangan ma'lumotlar hamma vaqg ham to'liq taqqos-lash imkonini bermaydi va odatda haq to'lanadigan ish qiday rib, topa olmagan ko'plab kishilar hisobga olinmaydi.

Britaniyada rasmiy ishsiz sifatida e'tirof etilgan kishilarning taqsimlanishdagi tebranishlar yetarli darajada yaxshi qayd qilingan. Ishsizlik ayollar o'rtasidagiga nisbatan, erkaklar o'rtasida, etnik guruhlarda esa oq tanlilarga nisbatan qora tanlilarda ancha baland. Etnik guruhlarda ham butun aholiga karaganda uzoqroq muddatli ishsizlik mavjud. Ishsizlikning o'sishi eng avvalo yoshlarga va etnik guruhlarga ta'sir qildi. Ishsizlik darajasi 16 yoshdan to 19

yoshgacha bo'lganlar o'rtasida deyarli 20%ni tashkil qiladi. Ma'lum ma'noda, bu ko'rsatkich sun'iy ravishda bo'rttirilgan, chunki bu yerda yarim, kun ishlaydigan talabalar ham hisobga olingan. Shunga qara-masdan, yoshlar uzoq vaqt ishga ega bo'lmagan kishilarning an-chagina qismini tashkil qilishadi, alohida olinganda bu mil-liy ozchilikni tashkil etuvchi yoshlar o'rtasida yanada yaqqol ko'zga tashlanadi. 30 yoshgacha bo'lgan ishsiz yoshlarning yarmidan ko'pi 6 oylab va undan ham ko'proq vaqt ish topa olmaydilar.

Ishonchli, yaxshi ishda ishlab yurganlar uchun ishsizlik no-xush tuyulishi mumkin. Ravshanki, bunday holda ular daromad-larini juda tez no'qotadi. Buning turli mamlakatlarda ta'si-ri turlicha, va u ko'pincha beriladigan nafaqaning hajmi bya-lan bog'liq bo'ladi. Britaniyada, masalan, ishsiz odam uzoq muddatli ijtimoiy nafaqa bilan ta'minlanadi. Ishsizlik o'tkir moliyaviy muammolarni tug'dirishi mumkin, ammo sog'liqni saqlash va boshqa ijtimoiy imkoniyatlardan foydalanishga monelik qilmaydi, chunki ular davlat tomonidan ta'minlana-di. Qo'shma Shtatlarda, Ispaniyada va boshqa ba'zi G'arb mamla-katlarida ishsizlarga beriladigan (yordam) imtiyozlar qisqa vaqtga belgilangan, shuning uchun ularning iqtisodiy qiyin-ilik darajasi yuqoridir.

Ishva ishsizlik

Hozirgi jamiyatlarda ishga ega bo'lish o'ziga nisbatan hur-matni qo'llab-quvvatlashdir. Hatto mehnat sharoiti og'ir va va-zifalari zerikarli bo'lgan ish ham inson ruhiy holatini va kundalik faoliyat doirasini tashkil etuvchi asosiy omidsir. Demak, ishsizlik tajribasini faqat ish nima berishi mum-kinligi to'g'risidagi kontekstdagina to'g'ri tushunish mumkin. Haq to'lanadigan ishning 6 ta xarakteristikasini keltiramiz:

1. Pul. Mehnat haki yoki maosh ko'pchilik kishilarning ehti-yojlarini qondiruvchi asosiy manbadir. Odamlar bunday daro-madga ega bo'lmasa, turmush haqidagi bezovtaliklari ko'p maro-taba ortadi.

2. Faoliyat darajasi. Kasb faoliyati ko'pincha bilim va imkoniyatlarni egallashning asosi hisoblanadi. Hatto ish ma-shaqqatli bo'lsa HfK, u kishining g'ayratini ro'yobga chiqaradi. Ishsiz holatda esa bilim va qobiliyatlarni joriy qilish im-koniyati pasayishi mumkin.

3. Xilma-xillik. Mehnat bilan bandlik turmush qurshovi-dan tashqari vaziyatlarga chiqish imkonini beradi. Ish sharo-i-tida vazifalar nisbatan bir tarzda, bir xidda bo'lsa xam, individ uydagidan farq qiluvchi vazifalarni bajarishdan qoniqish hosil qilishi mumkin.

4. Vaqt. Doimiy ish bilan band bo'lgan kishilarda, kun, odatda, ish maromiga asoslab tashkil etilgan bo'ladi. Garchi ba'zida bu kishiga ezuvchi ta'sir o'tkazsa ham, biroq kundalik ishlarda yo'naltiruvchi his-tuyg'u beradi. Ishdan mahrum bo'lgan kishi uchun zerikish katta muammo bo'lib, bunday kishilarda vaqtga nisbatan apatiya rivojlanadi. Bir ishsiz odam aytgani-dek: "Vaqt endi avvalgidek muhim emas. U shunchalik ko'pki..."

5. Ijtimoiy aloqalar. Ish muhiti ko'pincha do'stlik, bosh-Qalar bilan birgalikda qatnashish imkoniyatini tug'diradi. Ishda o'zaro aloqadorlikning yo'qligi kishining do'stlar dav-Rasini va tanishlarini kamaytiradi.

6. Shaxsiy identlik. Ish bilan bandlik, odatda, shaxsiy YJtimoiy barqarorlikLuyg'usini berganligi uchun qadrlanadi. Uz~o'zini hurmat esa, ayniqsa, erkaklarda, odatda, ularning

Agar siz shu yaqin oradaga magazin yoki univermagga kirib qolsangaz, u yerda sizga taklif etiladigan juda ko'p miqdor-dagi mahsulotlarni qunt bilan qarab chikishga harakat qilib ko'ring. G'arbda o'z-o'zidan shunday bo'lishi kerak deb tovarlar-ning bunday xilma-xilligiga o'rganib qolingan, kimning gguli bo'lsa, o'sha odam sotib oladigan ushbu tovarlar xilma-xilligi bugungi kunda butun dunyoni qamrab olgan favqulodda murakkab iqqisodiy aloqalarga bog'liqsir. Bu yerga qo'yilgan tovarlar (yoki ularni butlovchi detallar) yuzlab turli mamlakatlarda ishlab chiqarilgan. Bularning hammasini muntazam ravishda yer yuzi bo'ylab tashib turish kerak. Shu bilan bog'liq bo'lgan mil- & lion-million kundalik operasiyalarni muvofiqdashtirib tu-rish uchun axborot-informasiyalar oqimini doimo almashib 1 turish talab qilinadi.

"Bizning» kunlarimizga kadar, — yozadi antropolog Piter Uoreli,— insoniyat jamiyati yaxlit bir yagona jamiyat sifati-da mavjud emas edi"1. Bunda u butun planetani qoplab olgan ijtimoiy aloqalarning shakllantirilishi to'g'risida real ga-pirish yaqinginada mumkin bo'lganligini nazarda tutgan edi. Amalda har bir kishining turmushiga taalluqli bo'lgan bir-biriga bog'liq o'zaro munosabatlarning kuchayib ketishi nati-jasida bugungi dunyo chindan ham yagona bir ijtimoiy sistema bo'lib qoladi. Global sistema — bu shunchaki bir oddiy muhit emas, uning sharoitida turli jamiyatlar, masalan, Buyuk Bri-taniya yuksalib va o'zgarib turadigan oddiy bir muhitgina emas. Ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy aloqalar davlatlar chegarala-rini kesib o'tmoqda hamda u yerda yashovchi odamlar taqsiriga ta'sir ko'rsatib, o'z hukmini o'tkazmokda. Butun dunyo hamjamiyat tidagi tobora kuchayib borayotgan o'zaro bir-biriga bog'liq bo'lgan aloqalarni bitta universal atama — gyaoballashtirish termini bilan ifodalash mumkin.

Jahondagi bunday yagonalik o'sib borish jarayonitng o'zi-gina globallashtirish ekan, deb o'ylash xato bo'lur edi. Ijtimoiy aloqalar globallashtirishini eng avvalo hozirgi mavjud hayot makonini va zamonini qaytadan vujudga keltirilishi sifa-tida tushunmoq lozim. Boshqacha qilib aytganda, bizning hayoti-miz tobora ko'proq bizdan ancha uzoq joylarda sodir bo'layotgan ijtimoiy reallikka bog'liq bo'lib qolayotganligini xar biri-miz sezib turibmiz. Bu jarayon bugungi kunda aloxida jadallik bilan kechayottanligiga karamasdan, globallashtirishga hyech qachon mutlaqo yangi bir hodisa, deb qaralmasligi kerak. Chunki ushbu jarayon bundan ikki-uch asr avval, G'arbChbutun dunyoga o'z ta'sirini o'tkaza boshlagan zamonlarda boshlangan edi (ushbu ta'sirning ba'zi bir aspektlari 2-bobda muhokama qilingan edi, "Madaniyat va jamiyat" ga qarang).

Ushbu bobda bizning asosiy vazifamiz yagona shu jarayon-larning notekis, fragmentar tabiatini tahlil qilishdan ibo-rat bo'ladi. Bu jarayonlar yer sharining turli qismlarini bir-biriga birlashtirib, ularni bir-biri Iylan o'zaro aloqa o'rnatib yashashiga olib keladi. Ijtimoiy munosabatlarning glo-ballashtirishini aslo osonlik bilan, bir tekis kechdi, deb bo'lmay-di. Avval boshdanoq dunyoning turli mintaqalari o'rtasida mavjud bo'lgan tengsizlik o'zini ko'rsatdi. Ayniqsa, uchinchi dunyo jamiyatlari vujudga kelishiga olib kelgan jarayonlar muhimdir.

Turmush farovonligi va hayot kechirish darajasi jihatidan birinchi va ikkinchi dunyodagi sanoatlashgan mamlakatlar bilan planeta aholisining ko'pchiligi yashaydigan uchinchi dunyo mamlakatlari o'rtasida g'oyat katta farq mavjud edi. Biz ishni uchinchi dunyo jamiyatlari qanday paydo bo'lganligi hamda sanoati rivojlangan millatlar bilan ularning munosabatlari xarakteri qanday ekanligini qarab chiqishdan boshlaymiz. So'ngra jahon taraqqiyotining ba'zi bir eng muhim nazariyalari muhokama qilamiz, shundan keyin xalqaro munosabatlarni hamda ommaviy kommunikatsiya vositalarini taxdil qilishga o'tamiz.

Uchinchi dunyo jamiyatlari Millatlarning vujudga kelishi

Uchinchi dunyo jamiyatlarining ko'pchiligi mustamlakachilik zulmini boshdan kechirgan mintaqalarda — Osiyoda, Afrikada va Janubiy Amerikada joylashgan. Arimlari hamon mustamlakaligicha qolmoqda. (Masalan, Gonkong to 1997 yilga qadar Britaniya koloniyasi bo'lib kelgan edi, keyin esa uni boshqarish Xitoy qo'lga o'tdi). Bir qancha koloniyalar mustaqillikni barvaqt qo'lga kiritganlar. Masalan, xalqi qora tanli bo'lgan mamlakatlar ichida Gaiti birinchi bo'lib, 1804 yil yanvarida avtonom respublika maqomiga erishdi. Janubiy Amerikadagi Ispaniya koloniyalari 1810 yilda ozodlikni qo'lga kiritdilar, Braziliya 1822 yilda Portugaliya xukmronligidan qutildi. Mustakillik barvaqt qo'lga kiritilgan ko'pchilik hollarda Yevropadan ko'chib kelgan kishilar, odatda, metropoliyalardan ajralib chiqishda yetakchi rol o'ynaganlar (Gaiti bundan mustasno edi): Qo'shma Shtatlar vujudga kelishida ham vaziyat xuddi ana shunday edi.

Yevropada turib hancha kachon boshqarilmagan ba'zi bir mamlakatlar, shunga qaramay kolonial munosabatlar ta'sirini iborat), u holda ikkinchi guruh birinchi guruhsagi YAMMnin.: faqat besh foizga yaqin qismini ishlab chiqarishi ma'lum bo'lib qoladi. Boshqacha qilib aytganda, boy mamlakatlarning aholisi kambag'al millatlar aholisi o'rtasida taqsimlanishi mumkin bo'lgan "pirog"ga qaraganda 20 marta kattaroq bo'lgan "pirog"ga ega bo'lar ekan. Hozirgi vaqtda ushbu tafovut qisqarmasdan, balki yana ham ortib ketmoqsa. Boy mamlakatlar bilan kambag'al mamlakatlar o'rtasidagi tafovutlar 2000 yilga kelib yana 300 foiz oshishi hisoblab chiqilgan⁶. Jahon iqtisodiyoti-da uchinchi dunyo mamlakatlarining o'rni beqaror bo'lib, bunga asosan ularning tovar mahsulotlari ishlab chiqarishga bog'liq bo'lib qolganliklaridir. Shunday mamlakatlar ham borki, ular-dagi iqtisodiy tizimning asosini bir yoki ikki xil qishloq xo'jalik ekinini yetishtirish tashkil etadi. Ularning ko'pchilik turlarini (masalan, kofe va kakao) yetishtirish ko'p jihatdan har yilga iqtisodiy sharoitlarining o'zgarishiga bog'liq bo'ladi. Jahon bozorida bunday mahsulotlarning narxi sanoat tovarlarining narxiga qaraganda ancha kuchli darajada o'zgarib turadi. Ushbu muammo yana shuning uchun ham keskinlashib ketmoqsaki, bu xildagi mamlakatlar iqtisodiyoti boy mamlakatlarning iqtisodiyotiga qaraganda ko'proq darajada tashqi savdogaga bog'liq bo'ladi⁷.

Birinchi dunyo bilan uchinchi dunyo o'rtasidagi 4 o'zaro aloqalar

"Uchinchi dunyo" tushunchasi (fransuz demografi Alfred Syun tomonidan taklif etilgan atama) rivojlanayotgan mamlakatlarni ifodalash uchun hamma qabul qilgan tushuncha bo'lib qoldi. Lekin ayrim jihatlar bo'yicha bu unchalik

qanoatlanar-li atama emas. Muayyan jamiyatlarni sanoatlashgan mamlakat-lardan mutlaqo ajratib qo'ydi. Undan o'zicha yashaydigan alohida bir dunyo degan ma'no chiqib qolayotganday tuyuladi. Biroq, aslida mutlaqo unday emas: uchinchi dunyo mamlakatlari allaka-chonlardan buyon sanoati rivojlangan va boshqa o'z atroflaridagi mamlakatlar bilan mustahkam aloqa o'rnatgan. Yuqorida aytib o'tilganidek, ushbu mamlakatlar mustamlakachilik va savdo munosabatlarishng kuchli ta'siri ostida shakllangan. Bu xil-1 dagi savdo munosabatlari dastlab, G'arb davlatlarining o'zida joriy etilgan munosabatlar edi. O'z navbatida G'arb davlatlari | yer yuzidagi boshqa mintaqalar bilan o'rnatgan aloqalar u dav-latlarning o'z taraqqiyotiga ham kuchli darajada ta'sir ko'rsa-tadi. Buning misoli sifatida shunday bir faktni ko'rsatshp mumkinki, Qo'shma Shtatlarda va Braziliyada qora tanli aholi | ko'pchilikni tashkil etadigan bo'lib qolganligi mustamlakachi-lar shug'ullangan "odam savdosi"ning natijasi hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda globalashtirish jarayoni tezlashib ket-ganligi natijasida birinchi dunyo bilan uchinchi dunyo mamla-katlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tobora murakkablashib ketmoqsa. G'arb sanoatida foydalaniladigan ko'pgina xomashyo resurslari uchinchi dunyodan import qilinadi. Xuddi ana shu mamlakatdan sanoatlashgan mamlakatlarga muntazam ravishda katta hajmda oziq-ovqat mahsulotlari (tovarga aylantirilgan qishloq xo'jalik ekinlari olib kelinadi). Nihoyat, G'arb kom-paniyalarida uchinchi dunyo sanoat mollari ishlab chiqarish shiddat bilan o'sib ko'payib bormoqsa. Mana shu tamoyillarning barchasi quyida ko'rib chiqiladi.

Oziq-ovqat ishlab chiqarish va dunyodagi ochlik muammosi

Yer yuzida oziq-ovqat mahsulotlarining kanday taqsimlanganligi boy va kambag'al mamlakatlar o'rtasidagi umumiy notenglshshi aks etgaradi. Jahon sog'liqni saqpash tashkilotining hisob-kitoblari bo'yicha uchinchi dunyo mamlakatlarida etadigan hali besh yoshga yetmagan o'n million bola amalda och qolayotgan ekan. Har yili o'n milliondan ortiq bolalar chaqaloqligida yoki ilk bolalik yopshda turli kasalliklar sababli ulib ketmoqda. Buning bosh sababi yo o'zlari och qolayottanligi, ularning onalari och qolayotganligidir. Shuningdek, 700 millionga yaqin katta yoshli kishilar hayotida to'yib ovqat yemaydilar.

Ayni bir vaqtda yer yuzidagi oziq-ovqat zaxiralari muttasil ravishda ko'payib bormoqda. Bu aholining o'sishi yuqori bo'lib, oziq-ovqat zaxiralari ularni qoplash uchun yetarli bo'lmaydi, deb bundan bir necha yil oldin aytilgan tashvishli fshflar noto'g'ri bo'lib chiqqanligini ko'rsatmoqda. So'ngti yillarda bugun dunyodagi g'alla-boshhoqli don ekinlaridan olingan o'rtacha hosil 1300 million tonnaga yaqin bo'ldi. Bu esa besh milliard kishini boqish uchun yetarlidir.

Lekin oziq-ovqat mahsulotlarining yangi o'sishi amalda sanoatlashgan mamlakatlarga to'g'ri keladi. Shimoliy Amerika oziq-ovqat mahsulotlarini eng ko'p eksport qiladigan min-taqa hisoblanadi. Ikkinchi jahon urushidan oldin bu ishni u Janubiy Amerika bilan qilar edi. O'shanda donli ekinlar va chorva mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha Argentina ainiq-sa, ajralib turar edi. O'shandan buyon, Janubiy Amerika aholisi ko'payib ketdi, qishloq xo'jaligi sohasida hyech qanday islohot va modernizasiya tadbirlari o'tkazshshaganligi sababli minta-qadagi ortikcha oziq-ovkat yeb bitirildi va bugungi kunga kelib

Janubiy Amerika oziq-ovqatga bo'lgan o'z ehtiyojlarini ham qondirishga qodir bo'lmay qoldi. Aksincha, Shimoliy Amerika va Yevropa anchagina qishloq xo'jalik mahsulotlarining ortiqcha zaxirasiga ega. Har ikkala kitada ham hukumatlar fermerlarga ular o'z ekin maydonlarining bir qismiga ekin ekmasliklarini so'rab, fermerlarga muntazam ravishda ekin ekilmagan maydonlar uchun haq to'lab kelmokda; omborlarda shunchalik ko'p oziq-ovqat mahsulotlari to'tshanib qolganki, ularni sotib olish uchun jahon bozorida xaridor topilmayotir. 1954 yilda qabul qilingan qonunda Qo'shma Shtatlar siyo-sati «ortiqcha oziq-ovqatlarni ochlikka va to'yib ovkat yemas-likka qarshi kurashish uchun foydalaniladi hamda rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy taraqqiyotini rag'batlanti-rishga qaratilgan bo'lishi" rasman bayon etilgan edi. Buning uchun bevosita oziq-ovqat bilan yordam berish hamda oziq-ovqatlarni arzon narhda sotish yo'li bilan yordamlashish nazarda tutilgan edi. Ushbu dastur bo'yicha ko'rsatiladigan yordam miqyos-lari o'zgarib ketdi, lekin ko'rsatilgan yordam har doim to'pla-nib qolgan ortiqcha oziq-ovqat mahsulotlarining juda oz qis-mini tashkich etdi. Buning ustiga, oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berish va taqsimlash ishiga siyosiy sabablar ham kuchli ta'sir ko'rsatdi. 1970 yillarning o'rtalarida Amerika ko'rsata-digan oziq-ovqat yordamining yarmiga yaqin qismi faqat ikki mamlakatga: Janubiy Vyetnamga va Kambodjaga yuborildi. Ayny bir vaqtda, Ko'shma Shtatlar Chiliyning iltimosini rad etdi, chunki bu yerda hokimiyat tepasida Salvador Alyende boshliq socialistlar hukumati turar edi. Shu sababli ularning kre-ditga oziq-ovqat sotib olish to'g'risidagi iltimosiga rad ja* vobi berildi. Extimol, mana shu rad javobi Alyende hukuma-tining inqirozga uchrab, tor-mor bo'lishiga yordam bergan bo'lishi mumkin. O'sha kezlarda Qo'shma Shtatlar xuddi shunga erish-mokchi bo'lgan edi.

Sovet Ittifoqi jahon bozoriga {eziq-ovqat yetkazib berish ishiga hissa qo'shadigan ahvolda emas edi. Uning qishloq xo'ja-ligi G'arb mamlakatlarining qishloq xo'jaligi taraqqiyotidan ancha orqada, samarasiz ahvodda edi. Amalda SSSRning o'zi qisman Qo'shma Shtatlardan eksport kilinadigan g'allaga muh-toj edi. 1960 yillarning boshida Sovet Ittifoqi yashirin ravishda Amerikadan bug'doy sotib ola boshladi va uchinchi dunyo mamlakatlaridagi turli agentliklar orqali 28 million tonnaga yaqin don sotib oldi. Ushbu usul Sovet Ittifoqiga g'alla-ni bozor bahosidan ancha arzon narxlarda sotib olish imkonini berdi. Buning uchun u Qo'shma Shtatlar hukumatining unga atalmagan subsidiyalaridan foydalandi. Shunday yo'l bilan So-vet Ittifoqi arzonlashtirilgan narxlarda don sotib olish okibatida boshqa qolgan mintaqalarga eksport qilinadigan oziq-ovqat hajmi ancha miqdorda qisqarib ketdi.

Ochlik

Uchinchi dunyo mamlakatlarida oziq-ovqatlar halokatli da-rajada yetishmaydigan vaziyat boy davlatlar tomonidan nazar-pisand qilinmasligi, asosan, ochlik tabiatining o'zgarganli-gi bilan ham qisman bog'liqsir. Odatda ochlik — bu vaktinchalik, o'tib ketadigan holat, u muayyan hududlarga taallukdi bo'lib, o'ziga xos vaziyatlar natijasida vujudga keladi, deb qaralgan. Masalan, XIX asrda Irlandiyada boshlangan ochlik shunday va-ziyatda, ya'ni kartoshka hosili bo'lmaganligi sababli yuz ber-gan edi. Bu xildagi ochlik hozir ham uchrab turadi

(masalan, 1985 va 1986 yillarda Ugandada yuz bergan ochlik), lekin hozirgi dahshatli ochlik boshqacha <*- hozir oziq-ovqat mahsulotlarining muttasil ravishda yetshgshayottanligi dunyoning butun kambag'allashib ketgan qismidagi eng o'tkir umumiy muammoga aylanib qoldi va buni endi faqat ayrim viloyatlar va davrlar bilangina cheklangan ochlik, deb bo'lmaydi.

Bugungi kunda to'yib ovqat yemaslik va ochlik azobi keng miqyosda yuz berayottan joy — Afrikadir. Afrikadagi ko'pchilik mamlakatlar oziq-ovqatni import qilib tashqaridan olib keladilar. Lekin ular ana shu maqsadlar uchun ishlatishi mumkin bo'lgan milliy daromad hissasi doimo qisqarib bormoqda. Hayot sharoitining yomonlashuvi tobora zo'rayib ketmoqsa. Chunki ushbu mamlakatlarda aholi soni o'sib bormoqsa va buning ustiga oziq-ovqat ishlab chiqarishi darajasini yuksaltirish uchun za-RUR bo'lgan mineral o'g'itlar, pestisidlar va qishloq xo'jalik texnikasi sotib olish uchun ularda pul yo'q. Yuz bergan vaziyat urushlar, siyosiy to'ntarishlar va odatdan tashqari cho'zilib ketayotgan qurg'oqchiliklar tufayli yana ham og'irlashib ketmoqsa. ^olining uchdan ikki qismi qizploq xo'jaligi bilan mashg'ul Ulgan mamlakatlar hozir o'zlariga zarur bo'lgan oziq-ovqat- voqyealar faqat iqtisodiy o'zgarishlargagina bog'liq bo'lib qolmasdan, shu bilan birga siyosiy va harbiy sohalarda yuz berayotgan jarayonlarga ham bog'liq bo'ladi. AQSh va Rossiyaning harbiy qudrati va siyosiy ta'siri, aftidan, dunyo kuch-qudratini «Sharq tomonga» qarab «siljish» miqyoslarini ancha cheklab-chegaralab qolishi ham mumkin.

Nodavlat tuzilmalar

Dunyo faqat xalqaro mehnat taqsimoti va iktisodii munosabatlar jihatidangina tobora o'zaro bir-biriga bog'liq hodisalarga to'lib borayotgani yo'q. O'tgan asrning boshlari va ayniqsa, Ikkinchi jahon urushidan keyin xalqaro vazifalarni bajaradigan notijorat tashkilotlar soni ko'payib ketgani kuzatiladi. Xuddi transmilliy korporasiyalar singari ularga ham nodavlat tuzilmalari degan nom qo'yilib, ko'pincha shu nom bilan atala boshlaganlar. Bunga sabab ularning muayyan davlatlar yoki ularning hukumatlari siyosati bilan bog'liq bo'lmagan faoliyat ko'rsatishidadir.

Transmilliy korporasiyalardan tashqari, nodavlat strukturalarning yana bir nechta tiplari mavjud. Birinchidan, bular jahon hamjamiyatiga tegishli tashkilotlardir: bular jumlasiga birinchi navbatda Birlashgan Millatlar Tashkiloti va unga turdosh bo'lgan tashkilotlar kiradi (YuNESKO ta'lim-tarbiya, fan-texnika va madaniyat-maorif masalalari bilan shug'ullanadigan tashkilotlarga o'xshash turdosh tashkilotlar shular jumlasiga kiradi). Ikkinchidan, pochta xizmati, telekommunikasiyalar, dengiz navigasiyasi xizmatlari singari xalqaro hamkorlik yoki axborot zarurati bilan bog'liq bo'lgan goyat ko'p tashkilotlar ham mavjudsir. Uchinchidan, davlatlar yoki iqtisodiy tizimlarni ularning manfaatlari birligi sababli bir butun holda birlashtirib turadigan tashkilotlar bor. Shularning eng yirigi YeIH (Yevropa Iktisodiy hamjamiyati)dir.

Mana shu nodavlat strukturalarning har bir tipini alohida-alohida ko'rib chiqamiz.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti

Birinchi jahon urushidagi yo'qotishlar miqyosi shu qadar katta ediki, u yer yuzining ko'p mamlakatlarida o'z ta'sirini ko'rsatdi. Barcha siyosiy liderlar bunday keng miqyosdagi urush boshqa hyech qachon takrorlanmasligi kerak, degan yagona bir fikrga keldilar (taassufki, ularning ishonchlari okdanmay, umidlari puchga chikdi).

Ular urush tugagag'rsan keyin bunday xalqaro har xil bahs-munozarali masalalarni muvofiqlashtirib turadigan bir tash-kilot — millatlar Ligasi buning uddasidan chiqadi, deb xayol qilishgan edi. Uning tepasida dunyoga mashhur yirik arbob, Qo'shma Shtatlar Prezidenti Vudro Vilsoy turar edi. Uning nazarida Millatlar Ligasi kelgusida tinch-totuv yashashni ta'-minlaydigan tashkilot bo'lib, xalqaro hamkorlik qilishga yor-dam ko'rsatishi kerak edi. O'shanda Vilsonning o'zi aytganidek, «Biz xohlaymizmi yeki yo'qmi, bari bir mana shu dunyoda birga yashashga hammamiz bab-barobar majburmiz. Barcha millatlarning manfaatlari bizning ham manfaatimizdir. Biz — ushbu dunyoning qolgan barcha fuqarolari bilan sherikmiz».

Vilsonning orzulari amalga oshmadi. Siyosiy yetakchilar-ning bir qismi Ligani ko'proq o'z manfaatlaridan va maqsadidan yuqori turuvchi kuch sifatida emas, balki o'z milliy maqsadlarini amalga oshirish uchun bir vosita deb qaradilar. Bun-dan tashqari Ligada dunyodagi a'zolar barcha dunyo mamlakatlari vakillaridan iborat bo'lmay, balki birinchi navbatda uning tarkibiga urushda qatnashgan mamlakatlar kiritildi. Sovet Ittifoki uning tarkibiga atayin kiritilmadi. Uzoq tortishuvlardan keyin, nihoyat, AQShning o'zi ham Ligaga a'zo bo'lib kirmadi, chunki u Vilson o'ylaganidek emas, balki mutlaqo boshqacha tashkilot bo'lib chiqdi. Liga ishida barcha davlatlar ishtirok etolmagan bo'lishlariga hamda navbatdagi jahon uru-shini to'xtatib qolishga qodir bo'lolmaganligiga qaramasdan, baribir u shunday bir markaz bo'ldiki, uning atrofida xalqa-ro hamkorlikning juda ko'p yangi-yangi shakllari yaratildi, ularning ayrimlari bugungi kunda ham mavjuddir. Masalan, Liga o'z xususiy sog'liqni saklash xizmatini ta'sis etdi. Ushbu xizmat yer yuzida yuqumli kasalliklar qanday tarqalayotganli-gini kuzatish va unga qarshi kurashish bilan mashg'ul bo'ldi. Keyinroq Ikkinchi jahon urushidan so'ng, Millatlar Ligasining o'rniga Birlashgan Millatlar Tashkilotiga asos solingan vaqgda ushbu xizmatning nomi o'zgartirilib, Sog'liqni Saqlash Jahon Tashkiloti (SSJT) deb atala boshladi.

Bugungi kunda Birlashgan Millatlar Tashkilotiga amalda yer yuzida barcha davlatlar a'zo bo'lib kirgan. Lekin bunga eri-shish oson bo'lmadi. Dastlab Amerika hukumati BMTdan o'zining siyosiy maqsadlariga erishish uchun foydalanishga urinib ko'rdi. Mana shu va boshqa sabablarga ko'ra, 1950 yilda Sovet Ittifoqi unshgg tarkibidan chikdi va o'zi unga muqobil bo'lgan yangi tashkilotga asos soldi. Bu — Tinchlik Tarafdorlari Hara-kati deb ataldi. Oradan biroz vaqg o'tgach, amerikaliklar rus-larning yo'qligidan foydalanib, kommunistik Shimo^tomo-nidan ekspansiyaga duch kelgan Janubiy Koreyadagi o'z harbiy intervensiyalarining ma'qullanishiga erishdilar. BMT dan G'arb davlatlari manfaati uchun foydalanish kelgusida ham davom etishi mumkinligidan tashvishga tushgan ruslar bu tash-kilotga qaytadan a'zo bo'ldilar.

Xuddi Millatlar Ligasi kabi, BMT ham amalda tinchlik- salomatlik va keksalik muammolari

O'zining Hindistonga birinchi safarini xotirlar ekan; taniqli biolog Pol Erlix shunday yozadi:

Demografik portlash nima ekanini men aqlan allaqachon tushungan edim, biroq bundan bir necha yil avval Dehliga qilgan safarim chog'ida issiq! kunlarning birida hissiy jihatdan sezdim. Men xotinim va qizim bilan mehmonxonaga juda eski taksida qaytayotgan edik. Urindiqlarda kanalar qay-nab yotardi. Mashinaning faqat uchinchi tezligi ishlardi. Bizning uzoq va juda sekin bosib o'tilayotgan yo'limizda birdaniga vayrona kulbalar paydo bo'ldi. Issikdik 40 darajaga yaqin bo'lib havoda chang-to'zon ko'p edi. Ko'chalar yuvinayotgan, chayinayotgan, uxlayotgan, mehmonga shoshilayotgan, bahslashayotgan, qichqirayotgan odamlar bilan to'la edi. Qo'llarini mashina oynalariga sadaqa so'rab uzatayotgan odamlar, avtobusni xuddi asalari singari o'rab olgan odamlar, hayvonlarni boqayotgan odamlar... hamma yoqda odamlar, odamlar, odamlar. Biz to'xtamay signal chalib to'dalar orasidan juda sekin o'tib borardik. Chang-to'zon, shovqin-suron, issiqlik va ovqat pishirilayotgan o'choqlardagi olov, bularning bari jahannamni eslatardi. Biz mehmonxonaga yeta olarmikanmiz? Ochiq aytganda, biz hammamiz qo'rqib ketgandik. Hyech kutilmagan narsalar ham yuz berishi mumkinday tuyulardi, biroq hyech narsa yuz bermadi. Keksalar bizning reaksiyalarimizga kulishsa kerak. Biz Hindistonning hidlari va shovqinlariga ko'nikmagan imtiyozli sayyohlar edik xolos. O'sha tunda men aholining ko'pligi nima ekanini tushundim shekilli. Men buni his qildim.

Yadro qurollarining tarkalishi va ekologik dazimga global xavfni xisobga olmasak (shularning o'zi ham yetib ortadi), aholining o'sishi bugungi kunda insoniyat oldida turgan eng dolzarb muammodir. Boy mamlakatlar keragidan ortiq oziq-ovqat zaxiralariga ega, va ularning ko'pchiligida aholining o'sish sur'atlari past yoki bo'lmasa manfiy xususiyatga ega. Bi-roq ko'pchilik mamlakatlarda aholining o'sishi juda shiddatli bo'lib bu mavjud zaxiralarga katga yuk ortadi.

Sanoatlashgan mamlakatlarda yashaydigan ko'pchilik aholi bizga o'xshab, uchinchi dunyo mamlakatlaridagi demografik portlash «bizning» muammoimiz emas va bu muammoga duch kelgan jamiyatlar uni mustaqil hal qilishlari va buning uchun bor imkoniyatlarini sarflashlari lozim, deb fikr yuritadilar. Bunday qarashni dunyo aholisining to'rtidan uch kismi taqdiriga befarqlik nuqqai nazaridangina qoralab bo'lmaydi. Agar dune aholisi hozirgi sur'atlar bilan o'sishda davom etsa, biz barchamiz global halokat xavfiga uchraymiz. Zaxiralar bilan bog'liq tarangliklar jiddiy nizolarni keltirib chiqarishi, ular esa o'z navbatida urushlar boshlanishiga olib kelishi mumkin.

Insoniyat yaqin o'n yilliklar davomida uch muammoni: yadro urushi xavfi, ekologik tanglik va aholi o'sishini hal qilishi kerak. Nima uchun dunyo aholisi bunchalik tez o'smokda? Bunday o'sishning oqibatlari qanday bo'ladi? Mazkur bobda shunga o'xshash savollarga javob berishga harakat qilamiz va bizning tahlilimiz bir-biriga bog'liq ikki muammoga taalluqli bo'la-di: bir tomondan salomatlik va xastalik, ikkinchi tomondan industrial mamlakatlarda aholini keksayishi.

Dunyo aholisi sonining o'sishi

Bugun dunyoda 5 milliarddan ortiq aholi yashaydi. Ma'lu-motlarga ko'ra «5 milliardinchi» chaqaloq 1987 yil 11 iyulda tug'ildi, biroq bu hodisa qachon va qayerda yuz berganini hych kim bilmaydi. 1960 yillarda Erlix bajargan hisob-kitoblarga ko'ra agar aholi hozirgi sur'atlari saqlanib tursa, 900 yildan keyin (jahon tarixi uchun bu unchalik katta vaqt emas) yer shari aholisi 60 000 000 000 000 000 kishiga yetadi. Dengiz va quruqlikni qo'shib hisoblaganda har bir kv.m. maydonga 100 dan ortiqroq odam to'g'ri keladi. Fizyk J.Frem-lin hisob-kitobiga ko'ra bunchalik aholini joylashtirish uchun butun sayyora maydonini qoplaydigan 2 ming qavatlik uy qurish kerak. Hatto mana shunday ulkan inshootda ham har bir kishiga 3—4 kv.m. maydon to'g'ri keladi xolos.

Bunday manzara dahshatli xayolga o'xshaydi va u bizga aholining to'xtamay o'yeishi qanday kataklizmlarga olib kelishini tasavvur qilish uchun imkoniyat yaratadi. Real masala shundaki, aholining o'sish tamoyillari o'zgarmasa 30—40 yildan keyin dunyo aholisi haddan tashqari miqdorga yetishi mumkin. Erlixning ogohlantirishlariga quloq solingani uchun bo'lsa kerak hukumatlar aholi o'sishini nazorat qilish bo'yicha das-turlar qabul qildilar va hozir dunyo aholisi o'sishining sur'atlari pasaymoqda, deyish uchun asoslar vujudga kela boshladi. 1960 yillarda 2000 yildagi aholi miqsori haqidagi hisob-kitoblarni pasayish tomonga qayta ko'rib chiqildi. Bugungi kunda jahon banki 2000 yilda dunyo aholisi avval o'ylangani-day 8,4 milliard emas, 6,5 milliard kishini tashkil qilishi mumkinligini bildirmoqsa. Biroq 100 yil oldin dunyo aholisi 1,5 milliard kishini tashkil etganligini hisobga olsak, aholi-ning o'sish sur'atlari bari bir hayratlanarli darajada yuqori-Dir. Bundan tashqari aholi o'sishiga ta'sir ko'rsatadigan omil-larning hammasini ham oldindan bilib bo'lmaydi, shuning uchun barcha bashoratlarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish kerak. Rivojlangan mamlakatlarda salomatlik va kasalliklar

Kasalliklarning tuzilmasi va asosiy tiplari

Sanoatlashgan mamlakatlarda asosiy kasalliklarning tar-qalishida qiziq tafovutlar kuzatiladi. G'arb dunyosidagi o'limlarning 70%i to'rtta kasallik bilan bog'liq. Bular: rak, yurak-qon tomir kasalliklari, insultlar va o'pka kasalliklari. Bu kasalliklarning sabablarini tushunishda muayyan yutukdar bor, ba'zi hollarda bu kasalliklarga ta'sir o'tkazish imkoniyati ham tug'iladi. Biroq hozirgacha ulardan birortasini ham sama-rali tarzda davolab bo'lmaydi. Bu kasalliklar mamlakatlar, mintaqalar va sinflar bo'yicha turlicha tarqalgani uchun ular turmush tarzi va ovqatlanishdagi o'ziga xosliklarga bog'liq bo'lsa kerak. Yuqori ijtimoiy-iqtisodiy mavqyega ega bo'lgan odamlar, o'rta hisob bilan olganda, sog'lomroq, bo'ylari balandroq va ijtimoiy jihatdan quyirog' pog'onada turuvchilarga nisbatan uzoqroq umr qo'rishadi. Bu tafovut bolalar va chaqaloqlar I o'limi ko'rsatkichlarida ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi, biroq quyi tabaqa vakillari badavlat odamlarga nisbatan hamma yoshda ham o'lim xavfiga ko'proq duch kelishadi (rasmga qarang).

Nega shunday hol yuz beradi? Jamiyatning badavlat qat-lamlariga mansub odamlar, odatda yaxshiroq ovqatlanishadi, eng yaxshi tibbiy xizmatdan foydalanishadi va foydalanish muntazamroq xususiyatga ega. Mehnat sharoitlari ham kasallik-larga moyillik va o'lim ehtimolligiga bevosita ta'sir o'tkazadi. Ofis

yoki uyda ishlovchilar turli xavfli ta'sirlarni cheklab o'tish imkoniyatiga ko'proq ega. Kasb kasalliklarining tarqalishi masalasida esa ularning miqyosini aniq baholash ancha qiyin, chunki kasallik mehnat sharoitlari natijasida yoki boshqa sabablar tufayli kelib chiqqanini aniqlash imkoniyati hamma vaqt ham bo'lavermaydi. Lekin shunday ishlab chikarish kasalliklari borki ular to'la tavsif kilingan: masalan shax-tyorlar orasida tarqalgan va yuqori darajadagi chang-to'zon bi-lan bog'liq o'pka kasalliklari. Asbest bilan bog'liq ishlar ba'zi turdagi rak kasalligini keltirib chiqarish extimolini, oshiradi.

Yurak kasalliklariga moyillik ovqatda hayvon yog'lari ko'p bo'lganda, jismoniy mashklar kam va tamaki chekilganda ortib ketishi hamma tomonidan e'tirof etiladi. Bu holatlarning dalillari asosan bavo-sita bo'lib, ular yurak kasalliklari darajasi va har xil gastronomik mayllar, shuningdek jismoniy tarbiya mashqlari bilan shug'ullanish o'rtasida korrelyasiya mavjudligi bilan bog'liq. 20 yil muqaddam Qo'shma Shtatlarda yurak-qon tomir kasalliklarining eng yuqori darajasi mavjud edi, biroq keyingi ikki 10 yillikda bu daraja pasaydi. Bunday natija ovqatlanish tarkibidagi o'zgarishlar, jismo-niy tarbiya ommaviylikligining o'sishi, shuningdek yurak kasali xurujlaridan azoblanayotgan odamlarga tez tibbiy yordam ko'rsatishning takomillashuvi natijasida qo'lga kiritiddi.

Buyuk Britaniyada yurak kasalliklaridan o'lish ko'rsatkich-lari avvalgiday baland va uning pasayishi hych kuzatilmayapti. Chekishga qarshi kompaniyalar 1960 yillarda rakning chekish bilan bog'liqligi haqidagi dastlabki axborotlar paydo bo'lgan-dan keyin ba'zi muvaffaqiyatlarga erisha boshlandi. Erkaklar orasida chekuvchilar ulushi 50 dan 30% ga tushdi. Afsuski, yosh chekuvchilarning ulushi amadda o'zgarishsiz qoldi, muntazam che-kuvchi ayollar soni esa hatto o'sdi. G'arbdagi boshqa mamlakatlar bilan solishtirganda Britaniya eng ko'p chekuvchi mamlakat hisoblanadi. Taxmin qilinishicha, dunyo bo'ylab chekish tashlansa rakdan o'lish hollari 20%ga kamaygan bo'lardi.

«Qarilik» nima?

• Faqat yillarni nazarda tutilsa, qarilik — xuddi bolalik ^^ («Yjtimoiylapguv va hayotii sikl» nomli 3-bobga qarang) sin-gari davrimizning tushunchasi. Hamma davrlarda ham qarilik xronologik yosh, ya'ni hamma vakt ham aniq bo'lmagan hodisa bilan emas, balki individning tashqi ko'rinishi va jismo-niy kuchi bilan bog'langan. Bugungi kunda qarilik qonun bilan belgilangan tushuncha. U ko'pchilik odamlar iste'foga chiqadigan va ijtimoiy ko'makning turli ko'rinishlari, jumladan nafa-qaga hisob-kitob qilishlari mumkin bo'lgan davr.

Iste'fo

Iste'foga chiqish yoshi, ya'ni nafaqa va boshqa imtiyozlarga ega bo'lish yoshi turli mamlakatlar va hatto bir jamiyatning ichi-da ham favqulodda xilma-xildir. Bundan 50 yil muqaddam Bri-taniyada iste'foga chiqish uchun yosh emas sog'liqning yomonlashuvi va kuchdan qolish asos bo'lishi mumkin edi. 1920 yillarning oxirida 65 yoshdan o'tgan erkaklarning yarmidan ortiqrog'i ish-lashda davom etar edi. Bugun esa bunday ahvol alohida ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan ba'zi faoliyat turlaridagina sakdanib qol-gan: qartayib qolgunga qadar yetakchi siyosatdonlar, yuristlar, san'at namoyondalari va boshqa ba'zi kasblarning vakillari ishlaydi xolos. Hozirgi Britaniyada iste'foga majburiy chiqish yoshi qilib erkaklar

uchun 65, ayollar uchun 60 (ayollar odatda erkaklardan bir necha yil uzoqroq umr ko'rishiga qaramasdan) belgilangan. Qo'shma Shtatlarda iste'foga chiqish uchun qat'iy belgilangan yosh yaqinda bekor qilindi. Yevropa mamlakatlari-ning ko'pchiligi esa bunga teskari yo'nalishda muvaffaqiyatli harakat qilmokda va odam dam olishga chiqishi mumkin bo'lgan yoshni doimo pasaytirishga harakat qilinmoqsa. Ba'zi mamlakat-larda davlat boshqaruvi va sanoat sohasi xodimlari 60 yoshda iste'foga chiqishlari kerak, lekin bu qoida ham erkaklarga emas ko'proq ayollarga tegishli. Biroq teng huquqlik to'g'risida qonun-chilikning qabul qilinishi munosabati bilan ko'p mamlakatlar bunday amaliyotni g'ayriqonuniy, deb topishdi.

Iste'fo individ uchun, ko'pincha oila uchun ham ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik muammolarni keltirib chiqaradi; u hatto bo'sh vaqtni topilma, deb baholaydigan odamlar uchun ham mutlaqo yangi sifatga o'tishni bildiradi. Amalda iste'fo har doim daromadning pasayishi bilan bog'liq. Individlardan biri 65 yoki undan yuqori yoshda bo'lgan Britaniya oilalarining o'rta-cha daromadi o'rtacha ish haqining yarmidan ko'prog'ini tashkil qiladi. Albatta, keksa odamlarning daromadlari bir xil emas, chunki bu toifaga aholining anchagina qismi to'g'ri keladi. Bi-R°Q ulardan ko'pchiligi (65 dan yuqori yoshdagilar)ning eng kamida 15%i qashshoklikka yaqin sharoitlarda kun kechirmokda, chunki keksalik bo'yicha davlat nafaqalari katta zeb-ziynatlar Uchun imkon bermaydi. yolg'iz ayollar esa boshqalarga nisbatan kambag'alroq yashaydi.

Sosiologiya nazariyalarining taraqqiyoti

Sosiologiyani endi o'rgana boshlayotganlarning ko'pchiligi-ni undagi istiqbollarni belgilovchi xilma-xilliklar lol qol-diradi. Sosiologiya hamma tomonidan qabul qilingan tayanch nazariy asoslarga ega emas; ko'pchilik sosiologlar orasida in-son xulq-atvorini o'rganishni nimadan boshlash va tadqiqot natijalarini qanday qilib sifatli izohdash mumkinligi bo-rasida hanzuga qadar tortishuvlar davom etmoqda. Nima uchun sosiologlar tabiatshunos olimlar kabi mustahkam kelishuvga erisha olmayaptilar?

Bu savollarning javoblari sosiologiya fanining tabiati bilan chambarchas bog'liqdir. Chunki bu fan bizning o'z hayoti-miz va xulq-atvorimiz to'g'risida bo'lib, o'z-o'zish o'rganish esa eng murakkab va eng qiyin shilardan biridir. Barcha akademik fanlarda, jumladan, tabiiy fanlarda ham empirik tadqiqot-larga qaraganda, nazariy yondoshuvlarda ko'proq kelishmovchi-liklar mavjuddir, agar empirik tadqiqotlarda dalillarga nis-batan xilma-xil fikrlar yuzaga keladigan bo'lsa, ularni oson-gina tekshirib ko'rish yoki takrorlash mumkin. Nazariy bahsla-shuvlar esa har doim kandaydir darajada izohlashga bog'liq bo'ladi va kamdan-kam hollardagina yuqoridagi yo'llar bilan bartaraf etilishi mumkin. Sosiologiyada esa bu qiyinchilik-lar yanada ko'proq bo'lib, muammo yana shu bilan murakkablasha-diki, bunda o'rganish predmeti sifatida o'zimizning xulq-atvorimiz yuzaga chiqadi; shuning uchun nazariy munozaralar va ziddiyatlar ushbu fanda markaziy o'rin egallaydi.

Ushbu bobda sosiologiyadagi asosiy nazariy yondashuvlarni taxlil etamiz va ularni taxdil qilishda uchraydigan dilemma-larni aniqlashga harakat qilamiz. Buni, dastavval, zamonaviy sosiologiya fanidagi ba'zi asoschilarning qarashlarini o'rga-

nishdan boshlaymiz. Chunki, bu olimlar tomonidan birinchi marta e'tirof etilgan g'oyalarning ko'plari hanuzgacha ta'sir kuchiga ega. Keyin bugungi kunda fanning ahvolini belgilab beruvchi asosiy nazariy yondoshuvlarga murojaat qilamiz. So'ng esa ularda ko'tarilgan ba'zi muammolarni ko'rib chiqamiz.

Sosiologiyaning manbalari

Kishilar o'z xulq-atvorlarining birlamchi sabablari bi-*lan* har doim qiziqib kelishgan, lekin ming yillar davomida o'zimizni tushunishga urinishlarimiz an'anaviy tafakkur usu-liga asoslangan bo'lib, u avloddan avlodga o'tib kelardi va diniy tushunchalardan foydalanish bilan bog'liq edi. Inson xulq-atvori va kishilik jamiyatini tizimli holda o'rganish unchalik eskirmagan yutuq bo'lib, uning manbalari XVIII asr oxiriga borib taqaladi. Yangicha yondashuv paydo bo'lishining asosida sanoatlashuv va urbanizasiyalashuv bilan bog'langan tub o'zgarishlar yotadi. An'anaviy turmush tarzining buzilishi ij-timoiy, shuningdek, tabiat olamini yangicha tushunishni ang-latadi.

Ogyust Kont

Albatta, bir kishi butun bir fanga asos sola olmaydi, dastlabki sosiologiyaning paydo bo'lishiga ko'pgina kishilar o'z hissasini qo'shishdi. Biroq, tenglar orasida birinchi sifa-tida, odatda, fransuz yozuvchisi Ogyust Kontni (1789—1857) tan olishadi, bu avvalo pguning uchunki, aynan mana shu yozuvchi "sosiologiya" atamasini muomalaga kiritgan edi. Dastlab Kont fanning yangi sohasini ifodalash uchun "sosial fizika" ata-masidan foydalandi, keyin boshqa mualliflar ham ushbu ata-mani qo'llay boshladilar, natijada ular va o'z qarashlari o'rta-sidagi farqni, hamda o'zi tomonidan asos solingan fanni ifodalash maqsadida yangi so'zni kashf etdi. Kont sosiologiya fanini yosh, lekin ahamiyatiga ko'ra eng murakkab va eng muxim fan xisoblardi. Kont fikricha, yangi fan insoniyat baxt-sao-datga erishuviga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi; hayotining oxirida u fransuz jamiyatini va umuman butun insoniyatni qayta tuzishning buyuk rejalarini ishlab chiqdi.

Emil Dyurkgeym

Kontning ishlari boshqa fransuz mutafakkiri Emil Dyurkgeymga (1858—1917) bevosita ta'sir ko'rsatdi. Aslida Dyurkgeym Kont ijodining ba'zi jihatlariga tayanishita qara-

masdan, unint ishlarini o'ta spekulyativ va noaniq deb hisob-lardi va uning fikricha, Kont sosiologiyani fan sifatida yaratish borasidagi o'z dasturini bajarishga muvaffaq bo'la olmadi. Dyurkgeymning fikricha, sosiologiya fanga aylanish uchun, "sosial faktlarni" o'rganishi lozim. Dyurkgeym ayti-shicha, sosiologiyaning birinchi mashhur tamoyili quyidagicha-dir: "sosial faktlarni buyumlar kabi o'rganish lozim". U bu iborani iste'molga kiritganda, sosial hayot ham tabiatdagi obyektlar yoki voqyealar kabi qat'iy taxlil etilishini nazar-da tutgan edi.

" Sosiologiyaning barcha asoschilari kabi, Dyurkgeym ham ko'z o'ngida jamiyatda ruy berayotgan o'zgarishlardan ruhlanadi. U bu o'zgarishlarni sanoatlashuvning bir qismi sifatidagi meh-nat taqsimoti bilan (turli kasb sohalari o'rtasida farkdar murakkablashib boradi) tushuntirishga harakat kiladi. Dyurkgeym ta'kidlashicha, mehnat taqsimoti ijtimoiy jihatdan o'zaro aloqadorlik asosi bo'lgan dinni borgan sayin siqib chiqara nazar, ushbu dastur butun yigirmanchi

asrga o'ga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Dunyo aholisining uchdan bir qismidan ko'prog'idagi jamiyatlar hukumatlari Maks g'oyalariidan ma'naviy bahra ol-gan edi. Maks asarlarini o'rganishga avvaldan bichilgan ando-zasiz munosabatda bo'lish muhimdir. Bu oddiy ish emas, chunki mazkur olim asarlarining keng ta'siri ularning qadr-qiyma-tiga nisbatan fikrlarda sezilarli farqlarni yuzaga keltira-di. Hattoki, uning g'oyalari kuchli ta'sir ko'rsatgan kishilar ham, uning ishlaridan turli shakllarda foydalandilar, o'zini "Maksist" deb ataydiganlarning qarashlarida esa jiddiy farqlar mavjuddir. Ko'pgina g'arblik Makschilar, masalan, Maksning g'oyalari ijtimoiy tizimining asosi hisoblangan Sovet Ittifoqi va boshqa kommunistik mamlakatlarga nisba-tan o'ta tanqidiy ko'z bilan kdrashadi.

Maks Veber

Maks kabi, Maks Veber (1867—1920)ni ham oddiygina "sosiolog" deb atash qiyin, chunki uning qiziqishlari va g'oyalari ko'pgina fanlarni qamrab oladi. U Germaniyada tug'il-gan, u bu yerda butun akademik karyerasini o'gagan. Veber dep-ressiyalar ta'siriga uchraydi va natijada u universitet o'qituv-chisi erisha oladigan an'anaviy martabalarga erisha olmaydi, lekin u anchagina shaxsiy mablag'larga ega edi, bu esa unga ilmiy ish bilan shug'ullanish imkonini beradi. U juda keng ma'lumotga ega bo'lgan kishi edi. Veber ishlari faqat sosiolo-giyani emas, balki iqtisodiyot, huquq, falsafa va siyosiy ta-rixning turli sohalarini qamrab oladi. Uning ishlaridan sal-moqli qismi zamonaviy kapitalizmning rivojlanishiga ba-g'ishlangan. Maks asarlarining ta'sirini his etgan holda, uning ba'zi bir asosiy g'oyalariiga juda ham tankidiy munosa-batda bo'ladi. Veber tarixni materialistik tushunishni rad etadi va Maks fikriga qarama-qarshi holda sinfiy mojaro-lar kamroq ahamiyatga ega, deb hisoblaydi. Veber nuqtai-naza-riga ko'ra, ijtimoiy o'zgarishlar jarayonida iqtisodiy sharo-itlarga qaraganda g'oyalar va qadriyatlar ham ulardan kam bo'lma-gan ahamiyatta egadir.

Veberning bir qator muhim asarlari g'arb madaniyatidan farq qiladigan boshqa madaniyatlar va jamiyatlarni tahlil etishga qaratilgan. Uning qalamiga din sosiologiyasiga muhim hissa bo'lib qo'shilgan, an'anaviy Xitoy imperiyasi, Hindis-ton va Yaqin Sharqqa oid keng kamrovli tadqiqotlar mansub-dir.³ Xitoy va Hindistonning yetakchi diniy tizimlarini g'arb dinlari bilan takkrslash natijasida, Veber kapitalizmning rivojlanishiga, xristianlikning ba'zi bir jihatlari kuchli ta'sir ko'rsatgan, degan xulosaga keladi.

Veber asarlaridagi doimiy mavzulardan biri byurokratiya-ni tadqiq etishdir. Byurokratiya — keng miqyosli tuzilma bo'lib, turli idoralar va xizmatlarga bo'linadi va turlicha mavqyedagi amaldorlardan iborat bo'ladi. Yirik sanoat firmalari, huku-mat tashkilotlari, kasalxonalar va maktablarni byurokratiyaga misol qilib ko'rsatish mumkin. Veber fikricha, byurokratiya-ning gullab-yashnashi — davrimizning yorqin xususiyatidir. Vli rokratiya yirik miqyosdagi tashkilotlarning samarali ishla-shini ta'minlaydi, lekin zamonaviy jamiyatlar hayotida om-maning demokratik holda iiggirok etishi samaradorligida mu-ammolarni yuzaga keltiradi. Byurokratiya ekspertlar hukmron-ligini nazarda tutgan holda, qabul qiladigan qarorlari ta'-sir ko'rsatuvchilar bilan hyech bir maslahat qilib o'tirmasdan qabul qilinadi.

Veber boshkd sohalarga ham, masalan, shaharlar, huquqiy tizimlar, iqtisodiyot turlari rivojlanishi va sinflar tabi-atini tadqiq etishga sezilarli hissa qo'shdi. Sosiologiyaning o'ga umumiylik xususiyati to'g'risida juda ko'p tadqiqotlar o'tkaz-di. Uning fikricha, tabiiy olamni tadqiq etishda qo'llanila-ditan targiblardan foydalangan holda, insonlar hayotini ham o'rgana olishimiz mumkin, deb o'ylash unchalik ham to'g'ri emas-dir. Inson — fikrlovchi va mulohaza yurituvchi mavjudotdir; biz qilayotgan ishlarimizga ko'proq ma'no va ahamiyat beramiz va inson xulq-atvori bilan shug'ullanadigan har qanday fan, bu omilni albatta hisobga olishi lozim.

Sosiologiyaning kelgusidagi rivojlanishi

Sosiologiyaning kelib chiqish manbalari Yevropada bo'lsa ham, bizning asrimizga kelib bu fan amalda butun dunyoda qaror topdi. Xususan, sosiologik nazariya rivojlanishiga Chi-kago universiteti professori, faylasuf Jorj Gerbert Mid (1863—1931) asarlari jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Mid ta'kidla-shicha, insoniyatning ijtimoiy hayetida til va yanada umumiy-roq qilib aytganda ramzlar markaziy o'rin egallaydi. U tomo-nidan ilgari surilgan yondoshuv keyinchalik timsoliy interaksionizm deb atala boshlandi. Lekin, Mid butun jamiyatni yaxlit emas, balki, ijtimoiy jarayonlar kabi rang-barang deb bilar edi.

Urushdan keyingi davrdagi eng mashhur amerikalik naza-riyotchi-sosiolog Talkott Parsons (1902— 1979)dir. Bu ser-mahsul ijodkor nazariy muammolar to'g'risida ham, shuning-dek, sosiologiyaning ko'pgina empirik jihatlarini to'g'risida ham yozgan. U oila, byurokratiya, kasbiy faoliyat, siyosat va ko'plab boshka sohalarni o'rganishda muhim hissa qo'shgan. U shuningdek, birinchi marta Kont va Dyurkgeym tomonidan tad-Qiq qilingan funksionalizm nazariy yondoshuvini rivoj-lantirishda ham muhim rol o'ynadi. Funksionalchilar nuqtai - nazaricha, har qanday jamiyatni o'rganishda uning vaqt davomi-da to'xtovsiz rivojlanishiga ta'sir qiluvchi turli qismlari yoki institutlari o'zaro munosabatlarini aniqlash zarur.

Ushbu davrda yevropalik mutafakkirlar ham sosiologik na-zariya rivojlanishida muhim rol o'ynadilar. Tilni sosiolo-gik tahdil qilish va o'rganishni o'zaro bog'lovchi, struktura-lizm alohida muvaffakiyatga sazovor bo'ldi. Strukturalizm yon-doshuvi lingvistikadagi alohida yo'nalish sifatida birinchi marta paydo bo'ldi va keyinchalik ijtimoiy fanlar katoriga antropolog Klod Levi Stros (1908 y.) tomonidan olib kiril-di. Lekin strukturalizm manbalari asosan Dyurkgeym va Maks-ga borib taqaladi.

Zamonaviy yondoshuvlar

Bugungi kundagi sosiologiyaning asosiy nazariy pozisiya-lari birmuncha oldingi davrlarda shakllangan yondoshuvlarning davomi hisoblanadi. Ularning orasidagi muhimlari funksio-nalizm, strukturalizm, timsoliy interaksionizm va mark-sizmdir.

Funksionalizm

Funksionalizmning asosiy g'oyalari dastlab Kont tomoni-dan ifodalangan bo'lib buni u sosiologiyaga yaxlit holda qarash bilan chambarchas bog'laydi. Dyurkgeym ham shuningdek funksio-nal tahlilga sosiologik nazariya va sosiologik tadqiqotlar vazifalarini ifodalashning muhim qismi sifatida qaraydi. Lekin, zamonaviy ko'rinishdagi funksionalizm rivojlani-shiga antropologlarning

mehnatlari sezilarli ta'sir ko'rsat-di. To nigirmanchi asr boshlarigacha antropologiya mustamlaka-chi amaldorlar, missionerlar va sayohatchilarning ma'ruzala-ridagi materiallarga asoslangan edi. Buning natijasida XIX asr antropologiyasi muayyan darajada spekulativ bo'lib, huj-jatli manbalarga yetarlicha tayanmagan edi. Mualliflar butun jahondan misol keltirgan holda kitoblar yaratganlar, lekin bunda misollarning ishonchliligi, shuningdek muayyan mada-niy kontekstlar mavjudligi amalda ularni qiziqtirmas edi. Masalan, dinni tahlil etish odatda butunlay turlicha madani-yatlardagi ko'plab e'tiqodlar va diniy amaliyotlarni taqqos-lash yo'li bilan amalga oshiriladi.

Bunday yondoshuv tadqiqotchilarni qoniqtirmay qolgan vaqt-da zamonaviy antropologiya boshlanadi va antropologlar ja-honning turli madaniyatlari borasida uzoq muddatli tadqiqot-lar o'tkaza boshladilar. Antropologiyadagi tadqiqiy yondoshuv asoschilari — Dyurkgeymning kuchli ta'sirini boshdan kechir-gan angliyalik muallif A.R. Redklif-Braun (1881—1955) va ilmiy faoliyati asosan Britaniyada o'tgan polyak olimi, Bro-nislov Malinovkiy (1884—1942)lardir. Malinovskiy eng mashhur antropologik tadqiqotlardan birining muallifi bo'lib, u Tinch okeanidagi Trobriand orollarida uzoq muddat yashashi natijasida yuzaga keldi. Redklif-Braun esa Birma so-hillarida joylashgan arxipelag va Andaman orollarining aholisi orasida tadqiqotlar olib borish *

Har ikkala tadqiqotchining fikricha, agarda jamiyatning muhim institutlarini tushunishni va ularning a'zolari o'zla-rini nima uchun bunday tutayotganliklarini izohlashni istasak, bizlar jamiyat yoki madaniyatni bir butunlikda o'rganishimiz lozim. Masalan, biz muayyan jamiyat diniy e'tiqodlari va urf-odatlarini faqatgina ushbu jamiyat doirasidagi boshqa institutlar bilan aloqadorlikdagina tahlil qilishimiz mum-kin, chunki jamiyatning turli kism-lari bir-biri bilan cham-barchas aloqadorlikda rivojlanadi.

Qandaydir bir turdagi ijtimoiy faoliyat yoki institut funksiyasini o'rganish — demak, bu yaxlit holda jamiyat hayoti faoliyatini ta'minlashdagilarning hissasini taxlil qilish-dir. Bu fikrni tushuntirishning eng yaxshi usuli sifatida inson tanasi bilan bog'liq analogiya xizmat qiladi — shunga o'xshash analogiyadan Kont, Dyurkgeym va keyingi ko'pgina funk-sionalist mualliflar foydalanishdi. Biror bir tanadagi a'zoni o'rganishda, masalan, yurakni olsak, biz avvalo u tana-ning qolgan a'zolari bilan qanday bog'langanligi tushunishi-miz lozim. Butun tanaga qon haydash natijasida, yurak orga-nizm hayotini qo'llab-quvvatlashda muxim rol o'ynaydi. Shunga o'xshash holda berilgan ijtimoiy obyektning funksiyasini tah-lil etish, uning muayyan hamjamiyat mavjudligida qanday rol o'ynashini ko'rsata olish demakdir. Masalan, Dyurkgeym fikri-cha, din — kishilarning asosiy ijtimoiy qadriyatlariga mo-yilligini ta'minlaydi va shu bilan ijtimoiy aloqalarni qo'llab-quvvatlashga yordam beradi. (Dyurkgeymning din nazariya-sining batafsil tahlili "Din" deb ataladigan 14-bobda be-rilgan).

Merton talqinidagi funksionalizm

Talkott Parsons va Robert K. Merton asarlari tufayli funksionalizm sosiologiyaga yana qaytarildi. Ularning fik-richa, funksional tahlil sosiologik nazariyalar va sosiologik tadqiqotlar rivojlanishida hal etuvchi rol o'ynashi lozim. Ayniqsa, Merton talqinidagi funksionalizm ayniqsa aloxida ta'sir kuchiga ega edi;

ushbu yondoshuv amerikalik so-siologlarning butun bir avlodi tadqiqotlaridagi yo'nalish-larni belgilab berdi. Shuningdek, mazkur ta'limot Amerika-Dan tashqarida ham keng tarqaldi. Redkliff-Braun va Mali-novskiylar taklif etgan variantlarga qaraganda, Merton funksional taqdilda birmuncha murakkabroq variantlarni ishlab chiqdi. Shu bilan bir vaqtda, u ushbu yondoshuvni industrial jamiyatlarni o'rganish uchun moslashtirdi. Zamonaviy texnologiyani shakllantiradi va ehtimolki uni kelgusidagi socialistik jamiyatda belgilab beradi. Uz navba-tida byurokratiya kishilar katta guruhlarini samarali tashkil etishning yagona usuli hisoblanadi va shuning uchun ham u iqqi-sodiy va siyosiy o'sish natijasida albatta yiriklashib boradi. Fan, zamonaviy texnologiya va byurokратиyaning paydo bo'lishini Veber rasionallashuv sifatida yig'ma holda tavsiflay-di. Rasionallashuv texnik bilimlar asosida samaradorlik ta-moyillariga mos holda ijtimoiy va iqqisodiy hayotni tash-kil etishni anglatadi.

A. Makscha g'oyalar

V. Vebercha g'oyalar

1. Zamonaviy taraqqiyot-ning asosiy tendensiyasi ka-pitalizm iqtisodiy mexa-nizmlarining ekspansiyasi-dir.

2. Zamonaviy jamiyatlar sinfiy tengsizliklar bilan parchalab tashlangan bo'lib, bu esa ushbu jamiyatning tabia-tiga xosdir.

3. Asosiy tafovutlar hoki-miyatga egalik qilishdadir, masalan, erkaklar va ayollar ahvolidagi tafovut, iqtiso-diy tengsizlikdan kelib chi-qadi.

4. Zamonaviy kapitalistik jamiyatlar, bugungi kunda ularni qanday biladigan bo'lsak, o'tish turidagi jami-yatlar bo'lib, kelgusida ular-ning tubdan qayta qurilishini kutishimiz mumkin. Kapi-talizm o'rniga u yoki bu tur-dagi sosializm keladi.

5. Butun jahonda G'arb ta'sirining tarqalishi, asosan kapitalistik iqtisodiy tizim uchun xos bo'lgan, bosqinchilik intilishlarining natijasi hisoblanadi.

1. Zamonaviy taraqqiyotning asosiy tendensiyasi ishlab chiqarishning rasionallashuvi-dir.

2. Sinfiy tengsizliklar zamonaviy jamiyatda mavjud bo'lgan tengsizlik turlaridan biri bo'lib, masalan, bunga erkak va ayol o'rtasidagi teng-sizlikni ko'rsatish mumkin.

3. Iqtisodiy tizimdagi hokimiyat boshqa manbalardan ajraluvchandir. Masalan, er-kaklar va ayollar o'rtasidagi tengsizlikni faqatgina iqti-sodiy atamalar nuqtai naza-ridan tushuntirib bo'lmaydi.

4. Rasionallashuv ijtimoi-y hayotning barcha sohalarida muqarrar ravishda davom eta-di. Barcha zamonaviy jamiyat-lar ijtimoiy va iqtisodiy tashkil etilishning yagona va fundamental bo'lgan usullari-ga asoslanadi.

5. G'arbning olamshumul roli, uning sanoat resurslari sohasidagi yetakchi holati, shu-ningdek harbiy kuchlar sohasi-dagi ustunligi bilan bog'liqdir.

Baholash

Zamonaviy jamiyatlarni tavsiflash usullaridan qaysi biri nisbatan to'g'ri: Maksnga yoki Veberga tegishli-mi? Bu masala bo'yicha olimlar fikrida karama-qarshiliklar mavjud bo'lib, bir qator tafovutlar jadvalda keltirilgan (esda tutish lozimki, har tomonda ko'plab oqimlar mavjud, shuning uchun

hamma(nazariyotchilar ham, jadvalda keltirilgan barcha punktlarga qo'shilavermaydi).

Maksistsk qarash va Veber nuqtai nazari o'rtasidagi rang-barangliklar sosiologiyaning ko'pgina sohalariga tegishlidir. Ular nafaqat industrial jamiyatlar tabiatanilahlil qilish xarakterini, balki uchinchi dunyo mamlakatlari bo'yicha bizning taasurotlarimizni ham aniqlashtiradi. Bundan tashqari, bu ikkita taklif qilingan istiqbollar turlicha siyosiy marra-lar bilan bog'langan: so'l mualliflar umuman olganda A tomon qarashlariga amal qiladilar, liberallar va konservatorlar esa V tomonga amal qilishadi. Shunga qaramasdan, ko'rsatilgan dilemmalar asosidagi omillar, boshqa dilemmalarga qaragan-da, nisbatan empirik tabiatga ega. Zamonaviy jamiyatlar va uchinchi dunyo mamlakatlari rivojlanish yo'llarini faktologik tadqiq etish, dunyoda ro'y berayotgan o'zgarishlar xarakterining ikkinchi tomon qarashlariga qanchalik mos kelishini baho-lashga yordam beradi.

Gender muammosi

Gender muammosi zamonaviy sosiologiya asoschilarining ishlarida unchalik ham markaziy o'rin egallamaydi. Biroq bu mavzuda ularga tepshshi bo'lgan, unchalik ko'p bo'lmagan ushbu parchalar, uni yecholmagan takdirda ham kamida ushbu nazariy dilemmalarga chizgilar chizish imkoniyatini beradi. Ushbu dilemmani tavsiflash uchun eng yaxshisi Dyurkgeym ishlarida uning aks etishini (afsuski, bu juda kam uchraydi) Maks ishlari-da topish mumkin bo'lganlari bilan solishtirishdir. O'z-o'zini o'ldirishga bag'ishlangan ishlarining barida, Dyurkgeym ta'-kidlashicha, erkaklar, amalda butunlay jamiyat mahsuli hisob-lanadi, ayollar esa ko'proq tabiat mahsulidir. Ushbu kuzatish-larni davom ettirgan holda, u erkaklar to'g'risida: ular didi, intilishi va kulgi(yumor)ga moyilligi ko'proq zamonaviy ke-lib chiqishga egadir. Erkakning ehtiyojlari ayol ehtiyojlaridan o'ta farq qiladi. Boshqacha aytganda, ayollar va erkaklar bir-biriga aynan mos emas, ular turlicha didlar va moyilliklarga ega, chunki erkaklarga karaganda ayollar nisbatan kamroq ij-timoiy lashgan va nisbatan ko'proq tabiatga yaqindir.

Bugungi kunda hyech kim bunday shaklda ifodalangan qarashni qabul qilmagan bo'lar edi. Ayollarning o'ziga xos individualligi ijtimoiylashuvi ta'sirida erkaklarning individual-ligi tarkib topa boradi. Bari bir, bir qator tuzatishlar-dan so'ng, Dyurkgeym ta'kidlari gendercha tabiat shakllanishi ko'rinishining ehtimol bo'lgan usullaridan biri ekanligi ayon bo'ladi. Bu yerda shu nazarda tutiladiki, gender tafovut-lari asosan ayollar va erkaklar o'rtasidagi biologik tafovut-larga asoslanadi. Bunday karash gender tafovutlarining avvalo tug'ma ekanligini bildirmaydi. Aksincha, ayollarning ijti-moiy mavqyei ularning bola tug'ish va tarbiyalash jarayoniga jalb etilganligi bilan belgilanishini nazarda tutadi. Agar-da, ushbu nuqqai nazar haqiqat bo'ladigan bo'lsa, unda Gender farqlari har qanday jamiyatning atributi hisoblanadi. Hoki-miyatga egalik qilishda erkaklar va ayollarning tengsizligi ushbu dalilni aks ettiradiki, unga ko'ra, ayollar bolalarni ulg'aytirishda asosiy tarbiyachi hisoblanadi, bu vakt da esa er-kaklar ommaviy sohalar da (siyosatda, ishda va urushda) harakat qiladilar.

Maks qarashlari keltirilgan nuqqai nazarlardan tubdan farq qiladi. Hokimiyat va mavqyedagi Makscha tafovutlar boshqa farqlarni, avvalo sinfiy tafovutlarni aks ettiradi. Uning fikricha, ibtidoiy jamiyatda Gender tafovutlari ham, sinfiy bo'linish

ham yo'q. Ayollar ustidan erkaklar hukmronligi faqatgina sinflar paydo bo'lishi bilan yuzaga kelgan. Nikoh instituti yuzaga kelganda ayol erkakning xususiy mulki shakllaridan biriga aylanadi. Ayollar qulligi jamiyatning sinfiy bo'linishi bartaraf etilganda yo'qoladi. Bugungi kunda juda oz kishilar bunday ta'kidlarga qo'shiladilar. Lekin ushbu tezisni rivojlantirsak, unga yanada ko'proq odamlar qo'shilishi mumkin. Sinfiy omil ijtimoiy tafovutlarni aniklashda erkaklar va ayollar xulq-atvoriga ta'sir etadigan yagona omil bo'lmaydi.

Boshqacha omillar qatoriga etnik va madaniy mansublik kiradi. Masalan, shuni taxmin qilib aytish mumkinki, etnik ozchilikka mansub ayollar (AKDSsagi qora tanli aholi) aynan ushbu guruh erkaklariga nisbatan birmuncha tengroq holatda va ko'pchilik irqqa (ya'ni oq ayollar) mansub ayollarga nisbatan ham birmuncha tengroq ahvoldadir. Yoki shunday bo'lishi mumkinki, muayyan madaniyat ayollari (ovchilar, termachilar) industrial jamiyat ayollariga qaraganda, ushbu madaniyat erkaklariga nisbatan ko'proq umumiy xususiyatlarga ega.

Baholash

To'rtinchi dilemmaga kiritilgan savollar o'ta muhim va sosiologlarga ayol mualliflar bildirgan chaqiriq bilan to'g'ri-dan-to'g'ri bog'langandir. Sosiologiyaning o'tgan davrda yoki ayol-larni tan olmaganligini, yoki ayollar tabiati va xulq-atvoriga mutlaqo mos bo'lmagan izohlashlar ishlatganligini hech kim rad eta olmaydi. So'nggi yigirma yil davomida sosiologiyada Ayellarga bag'ishlangan tadqiqotlar paydo bo'lganligiga qaramasdan, hanuzgacha shunday sohalar hal saqlanib qolmoqdaki, bu sohalarida ayollarning o'ziga xos faoliyati va manfaatlari hali yetarlicha o'rganilmagan. Sosiologiyadan "ayollar muammosiga kirish" hali o'z-o'zicha gender muammosining yechimi emas. Chunki gender erkaklar va ayollar aynanligi va xulq-atvoridagi tafovutni nazarda tutadi. Bugungi kunda gender tafovutlari qay darajada boshqa sosiologik konsepsiyalar va tushunchalar (sinflar, etnik tegishlilik, madaniy muhit va hokazo) atamalarida tushunilishi mumkin, va aksincha, "boshqa ijtimoiy tafovutlar gender atamalarida tushuntirilishga qanday darajada muhtoj?" degan masala ochiq qolmoqda. Shubhasizki, tushuntiruvchi fan sifatida sosiologiyaning ba'zi muhim vazifalari kelgusida ushbu dilemmani samarali yechish bilan bog'liq bo'ladi.

Nazariyalar

Nazariy yondoshuv va nazariyalar o'rtasida tafovut mavjud. Ushbu bobda hanuzgacha bizlar nazariy yondoshuv bilan, ya'ni sosiologiya faniga nisbatan umumiy ixtisarlashlarda ish ko'rdik. Nazariyalar bir muncha yo'naltirilgan fokusga ega bo'lib, muayyan to'plamdagi ijtimoiy holatlar va hodisalarni izohlashga urinishdan iboratdir. Odatda, ular tadqiqot jarayonining bir qismi sifatida yuzaga keladi va o'z navbatida tadqiqot faoliyatiga bag'ishlangan muammolarni o'rta tashlaydi. Misol sifatida Dyurkgeym tomonidan ishlab chiqilgan o'z-o'zini o'ldirish nazariyasini keltirish mumkin.

Sosiologlar ishlayotgan tadqiqot faoliyatining ko'plab va xilma-xil sohalarida anchagina nazariyalar yaratilgaya. Ularning ba'zilari juda batafsil ishlab chiqilgan, ba'zan hattoki matematik shaklda ham ifodalangan, bu hol esa ayniqsa boshqa sosial fanlarda (ayniqsa iqtisodiyotda) keng tarqalgan.

Sosiologlarning keng miqyosli nazariy tadqiqotlar bi-lan shug'ullanishlari qanchalik foydali va zarurligi to'g'risi-dagi fikrlar xilma-xil. Masalan, Robert Merton fikricha, sosiologlar o'z diqqatini o'rtacha miqyosdagi nazariyalarga jamuljam etishi lozim. Bizlar birmuncha kamsuqum bo'lishimiz va juda keng nazariy sxemalar yaratishga (misol uchun Parsons kabi) urinmasligimiz lozim.

O'rtacha miqyosdagi nazariyalar yetarlicha ixtisoslashgan bo'lib, ularni emtshrik jihatdan to'g'ridan-to'g'ri tekshirish mumkin, shu bilan birga, ular yetarlicha keng doiradagi hodi-salarni qamrab olish imkoniyatiga ega. Bu yerda nisbiy depri-vasiya nazariyasini keltirish o'rinlidir. Ushbu nazariyaga ko'ra, kishilarning o'z yashash sharoitlarini baholashi, ular kim bi-lan o'zlarini taqqoslashiga bog'liq bo'ladi.